



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI

"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI



# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2022/4 (5)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630**

**TOSHKENT**

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinbosari.*  
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*  
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*  
**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*  
**Саидова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Шоумаров Гайрат Бакрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*  
**Абдураманов Хамид Худайbergenovich** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Бекмуратов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *первый заместитель министра по поддержке Махалли и семьи.*  
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*  
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Сандов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*  
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*  
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*  
**Умирзаков Баходир Хамидович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Зияев Азамад Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*

**THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

**MEMBERS OF THE EDITING BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*  
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *First Deputy Minister of the Minister of Mahalla and family support.*  
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*  
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*  
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*  
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*  
**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*

**XALQARO TAHRIR HAY'ATI:**

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti*  
*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*  
*Javoharlal Neru universiteti,*  
*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,*  
*Pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**  
*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*  
*London biznes va moliya maktabi,*  
*Singapur*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,*  
*Школа международных исследований,*  
*Университет Джавахарлала Неру,*  
*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**  
*Челябинский государственный институт культуры,*  
*доктор педагогических наук,*  
*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**  
*Руководитель Технологического факультета*  
*Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Dr. Rashmini Koparkar**  
*Assistant Professor*  
*Centre for Russian and Central Asian Studies*  
*School of International Studies*  
*Jawaharlal Nehru University*  
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
*Chelyabinsk State Institute of Culture*  
*Doctor of Pedagogical Sciences,*  
*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**  
*Head, School of Technology*  
*London School of Business and Finance, Singapore*

## OILA VA JAMIYAT

<b>Abduramanov X.X., Kadirova Z.A.</b> Ayollar mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari va zamonaviy yo‘nalishlari .....	4
<b>Saipova M.</b> Otasi yoki onasi mehnat migratsiyasida bo‘lgan farzandlarning oilaviy hayotdan qanoatlanish masalalari .....	12
<b>Mambetjanov Q.K., Annakulov K.X.</b> O‘zbekiston Respublikasida erta nikoh holatini bartaraf etishning samarali mexanizmlari .....	16
<b>Ibragimov L.Z., Raxmonov A.X.</b> O‘zbekiston Respublikasida erta tug‘uruq holatlari: muammo va yechimlar .....	22
<b>Alimov S.K.</b> Migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish masalalari .....	28
<b>Muxammedova N.J., Ibragimova Z.S.</b> Nikohdan ajralish jarayonining ijtimoiy-geografik masalalari .....	38
<b>Anarkulov F.A.</b> Mehnat bozorida ishchi kuchining tashkillashtirilgan eksportini rivojlantirish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash .....	43

## PSIXOLOGIYA

<b>Umarova N.Sh.</b> Iqtisodiy munosabatlar doirasida “zumer” avlod vakillarining gender farqlanishlari .....	52
<b>Xodjayev S.Dj.</b> Xotin-qizlar hayotiy maqsad va qadriyatlarining psixologik omillari .....	56
<b>Rahimova I.I., Ikromova S.X.</b> Farzandlarda shaxsiy xususiyatlar shakllanishida ota munosabatining ta‘siri .....	64
<b>Абдумаджидова Д.Р.</b> Психологические факторы формирования готовности спортсменов к профессиональным достижениям .....	68
<b>Xodjayeva D.Dj.</b> Iqtidorli talabalarning individual-tipologik xususiyatlari masalasining o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilganligi .....	74
<b>Yuldasheva N.Sh.</b> Talabalarda irodaviy regulyatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari .....	80
<b>Nuraliyeva D.M.</b> Yoshlarning nikohga ma‘naviy tayyorgarlik darajasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	85
<b>Bilolova Z.B.</b> Noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan yigit-qizlarning ota-onalik roliga nisbatan tasavvurlari va psixologik ustanovkalari .....	89

## PEDAGOGIKA

<b>Qarshiyeva D.S.</b> Pedagogda kasbiy faoliyat va adaptatsiya jarayoni .....	93
<b>Shamsiyeva M.B.</b> Bilingval bolalar til qobiliyatlarining eksperimental tadqiqi .....	97
<b>Musurmonqulov O.U.</b> Воспитание идеальной молодежи – самая актуальная проблема нашего общества .....	102

## SOTSILOGIYA


<b>To‘rayev O.</b> Sotsiologik tadqiqotlar – ijtimoiy xavfsizlik masalalarini o‘rganishning muhim instrumenti sifatida .....	106
<b>Farxodova Z.</b> Gender munosabatlarga sotsiologik yondashuv .....	113

## ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

<b>Nurmatova N.U.</b> Ijtimoiylashuv, faollik va ijtimoiy faollik tushunchasi pedagogik-psixologik tadqiqotlar kontekstida .....	116
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----



**Abduramanov Xamid Xudaybergenovich,**  
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti direktori  
o'rinbosari, i.f.d., prof



**Kadirova Zulayxo Abduxalimovna,**  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm kafedrasini mudiri,  
i.f.f.d., dots.

## AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayollar mehnat migratsiyasining sabablari va omillari yoritilgan, dunyo mamlakatlarida ayol mehnat migrantlari soni va ulushi tahlil qilingan, ayollar mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari hamda zamonaviy yo'nalishlari keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** ayollar mehnat migratsiyasi, mehnat bozori, mehnat migratsiyasi oqimlari, odam savdosi, uy xizmatchilari, zo'raonlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются причины и факторы женской трудовой миграции, анализируется количество и доля женщин-трудовых мигрантов в странах мира, представлены основные потоки и современные направления женской трудовой миграции.

**Ключевые слова:** женская трудовая миграция, рынок труда, потоки трудовой миграции, торговля людьми, домашняя прислуга, насилие.

**Annotation.** This article examines the causes and factors of female labor migration, analyzes the number and proportion of female labor migrants in the countries of the world, presents the main flows and modern directions of female labor migration.

**Keywords:** female labor migration, labor market, labor migration flows, human trafficking, domestic workers, violence.

**Kirish.** Xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu uning feminizatsiyalashuvidir. Og'ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va bandlik tarkibining transformatsiyalashuvi kabi jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, xizmat ko'rsatish sohalarning rivojlanishi global mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan ayollar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va rivojlanishiga turtki berdi. Bandlik tarkibidagi bunday transformatsiyalashuv bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishning kamayishi hamda kishilarning o'rtacha umr

ko'rish davomiyligining ortishi qariyalar sonining ko'payishiga va ularni parvarishlovchilarga, mazkur mamlakat aholisining moddiy farovonligi yaxshilanishi va ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokining faollashuvi esa uy xizmatchilariga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi.

**Asosiy qism.** Ayollar migratsiyasi masalalari bir qator olimlar va ilmiy tadqiqotchilar M.Morokvasik, L.N.Dey, A.Ichduygu, S.Kastdes, M.Miler, X.Zlotnik, O.P.Koshulkolar bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tadqiqotlarning muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Ayollar migratsiyasini tadqiq etgan olimlar ichida Anderson,

Fizatsekliya va Lutzlar mazkur jarayonni “Women in development”, ya’ni “Ayollar taraqqiyotda” yondashuviga asoslanib, ayollar mehnat migratsiyasi ko‘lamining kengayishiga globallashuv, iqtisodiy taraqqiyot va ayollarni band qiluvchi tarmoqlarning kengayishi bilan bog‘liq deb hisoblaydilar [1].

Ishsizlik, qashshoqlik, qarzdorlik, uy-joyga ega bo‘lmalik, muhtojlik kabi iqtisodiy sabablar bilan bir qatorda oilalardagi kelishmovchiliklar, ajrimlar va ayollarning o‘zi va farzandlarini bilim olishga hamda rivojlanishga bo‘lgan intilishlari kabi ijtimoiy omillar ham migratsiyaning mazkur yo‘nalishining rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayollar mehnat migratsiyasi uning ishtirokchilari uchun daromad topish va iqtisodiy muammolarni hal qilish hamda professional jihatdan o‘shish kabi ijobiy imkoniyatlarni yaratishi bilan bir qatorda odam savdosi, jinsiy zo‘ravonlik, diskriminatsiya va tahqirlash qurboniga aylanishlariga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, erkaklardan farqli ravishda ayollar retsiyent jamiyatga va keyinchalik migratsiyadan qaytgach, o‘z vataniga moslashishda, oilada o‘z o‘rni va mavqeyini tiklashda, farzandlar tarbiyasini nazorat qilishda, avvalgi professional ko‘nikmalarining eskirishi tufayli talabgirlikning susayishida, ishlash qobiliyatini yo‘qotganda pensiya bilan ta‘minlanish kabilarda muammolarga uchrashi natijasida ularning ruhiy va jismoniy holatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy hol. Ayollarning jismoniy va ruhiy jihatdan nosog‘lomligi esa bu butun bir oilaning yoki jamiyatning ma‘naviy nosog‘lomligini keltirib chiqarishi muqarrar.

Ayollar mehnat migratsiyasining rivojlanishi sharoitida donor mamlakatlarda faqatgina otasi yoki onasi bor yoki umuman ota-onasiz o‘sayotgan oilalar va ajrimlar, farzandlari parvarishga muhtoj qariyalar soni ortib bormoqda, tug‘ilish ko‘rsatkichlari hamda oila qurish soni qisqarmoqda, ba‘zan esa ayol migrantlarning or-nomusiga bo‘lgan ishonch va ularga bo‘lgan hurmat susaymoqda. Bu esa mazkur mamlakatlardagi iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida salbiy oqibati katta bo‘lgan ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishiga va mamlakatda ijtimoiy bosimning ortishiga olib kelmoqda.

Bu borada tadqiqotchi O.P.Koshulko ayollar mehnat migratsiyasi bu bir tarafdan qisqa muddatda ayollarning farzandlariga sifatli ta‘lim berish va ularning moddiy farovonligini yaxshilash kabi imkoniyatlarni yaratsa-da, boshqa tomondan bu uzoq

muddatli istiqbolda ularning shaxsiy va professional jihatdan o‘shish imkoniyatlarining yo‘qolishiga olib keladi [2]. Professional ko‘nikmalarining vaqt o‘tishi bilan ma‘naviy eskirishi hamda uni rivojlantirish uchun investitsiya sarflanmasligi inson kapitalining yo‘qolishiga olib keladi.

Ayollar migratsiyasi qonuniy, yarim qonuniy va noqonuniy shakllarga ega. Ayollarning qonuniy migratsiya shakli kichik hajmga ega bo‘lib, bu ularga retsiyent mamlakatga qonuniy kirib borish, u yerda qolish va rasmiy shartnoma asosida, xavfsizliklari ta‘minlangan holda ishlash imkonini beradi. Nisbatan katta hajmga ega bo‘lgan va yuqori darajada xavfli hisoblangan ayollarning noqonuniy migratsiya shakli esa retsiyent mamlakatga qisqa muddatli turistik vizalar va yoki noqonuniy ravishda kirib kelgan ayol migrantlar hisobiga shakllanib, ular qonuniy yoki yarim qonuniy sektorlarda ish beruvchining qaroriga qaram shaklda ishlashga majbur bo‘ladilar. Shu sababli ham ular ko‘p hollarda diskriminatsiya, tahqirlash va zo‘ravonlik qurboniga aylanib qoladilar.

Ayollarning yarim qonuniy mehnat migratsiyasi ham katta hajmga va yuqori xavfga ega bo‘lgan yo‘nalish bo‘lib, ularga aksariyat hollarda o‘z vatanlarini tark etishlaridan oldin retsiyent mamlakatda rasmiy ishga joylashtirish va‘da qilinsa-da, mamlakat chegarasini kesib o‘tishlari bilan ularning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarining olib qo‘yilishi, ularning odam savdosi qurboniga aylanishlariga olib keladi.

Ayollar mehnat migratsiyasining rivojlanishiga bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatmoqda. Tahlillarning ko‘rsatishicha, Rossiyadan Qirg‘izistonga yo‘naltirilgan mehnat migrantlarining 40% ini, Tojikiston va O‘zbekistonda esa 20% ga yaqinini ayollar mehnat migratsiyasi tashkil etadi [3]. Shu o‘rinda tadqiqotchilar ular orasida nisbatan nisbatan yuqori mavqega ega bo‘lganlar soni ham ortib borayotganini ta‘kidlashadi [4]. N.Richixinaning fikricha, zarur ta‘lim darajasiga ega bo‘lish, karyera zinapoyalarida ko‘tarilish, teng huquqli va mustaqil bo‘lish istagi xalqaro kompaniyalarda faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar sonining ortishiga xizmat qilmoqda [5]. M.Sekach va S.Mostikov kabi olimlar esa bu borada ayollarning o‘z kuchiga ishonish va hayotini mustaqil tashkil etish istagi bilan bog‘liq psixologik omillar muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaganlar [6].



Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayollar mehnat migratsiyasining sabablari mamlakatlar kesimida farqlanadi. Masalan, tojikistonlik va qirg'izistonlik ayol mehnat migrantlari uchun daromad topish, oila qurish va shaxsiy hayotini yo'lga qo'yish kabi omillar, boshqirdistonlik ayol migrantlar uchun esa farzandlariga ta'lim va tarbiya berish, uy-joy qilish, qarzlardan "qutulish", yaqin kishilarini davolatish uchun daromad topish kabi holatlar ularning boshqa mamlakatga borib ishlashi uchun turtki bermoqda [7]. Empirik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, respondentlarning 84% i ayollar mehnat migratsiyasi ularning hayoti va karyerasi uchun ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlasa, respondentlarning 62,4% i mazkur jarayon retsipyent mamlakat va hududlarga ijobiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar [8].

2021-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab migrantlar soni 281 million kishini tashkil etdi, ularning 48% ini, ya'ni 135 millionini ayol migrantlar tashkil qiladi.

Dunyo bo'ylab aynan mehnat migrantlari esa 169 million kishini tashkil qilgan bo'lib, ularning 41,5% ini, ya'ni 70,1 millionini ayollar tashkil qilgan [9].

Jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushini mintaqalar kesimida tahlil qilar ekanmiz, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidan tashqari barcha mintaqalarda mazkur ko'rsatkich o'sganining guvohi bo'lamiz. Xususan, 1990–2020-yillar orasida Shimoliy Amerika mintaqasida 51,1% dan 51,8% gacha, Afrika mintaqasida 46,7% dan 47,1% gacha, Janubiy Osiyo mintaqasida 47,8% dan 49% gacha, Lotin Amerikasi mintaqasida 48,8% dan 49,5% gacha, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida 44,1% dan 46,8% gacha o'sish, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida esa 48,6% dan 41,8% ga qisqarish kuzatilgan.

1-jadval

**Jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushi**

	1990	1995	2000	2005	2010	2015	2019	2020
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	48,6	48,6	49,2	44,9	42,7	41,7	40,5	41,8
Yevropa va Markaziy Osiyo	52,0	52,2	52,3	52,4	52,5	52,5	51,4	51,6

Shimoliy Amerika	51,1	50,8	50,4	50,2	51,0	51,5	51,7	51,8
O'rta Sharq va Shimoliy Afrika	44,1	44,4	44,1	43,3	42,9	45,7	46,7	46,8
Afrika	46,7	46,9	47,2	46,3	47,2	48,4	47,0	47,1
Janubiy Osiyo	47,8	48,0	48,2	48,3	48,6	49,0	48,9	49,0
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	48,8	48,9	48,9	48,8	48,5	48,4	48,6	49,5

Ayol mehnat migrantlarning bevosita mintaqalar bo'yicha joylashuviga e'tibor berar ekanmiz, 31% i Shimoliy Amerikada, 38% i esa Yevropa mintaqasida joylashganini ko'ramiz.

2-jadval

**Eng ko'p ayol mehnat migrantlariga ega top 5 ta mamlakat**

AQSH	26,2 million
Germaniya	7,9 million
Rossiya	5,9 million
Buyuk Britaniya	4,9 million
Fransiya	4,4 million

**Manba:** Migration data portal// [Dashboard sub-pages](#) | [Migration data portal](#)

Mamlakatlarning rivojlanganlik darajasi ayol migrantlar ulushiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ayol migrantlarning ulushi quyi daromadli mamlakatlarda 49,6% dan 49,8% gacha ortgan bo'lsa, o'rta daromadli mamlakatlarda 48,3% dan 45,6% ga hamda o'rta daromadli yuqori bo'lgan mamlakatlarda 48,7% dan 42,8% gacha qisqargan.

3-jadval

**1990–2019-yillar davomida mintaqalarda ayol migrantlarning ulushi, %**

	1990	1995	2000	2005	2010	2015	2019
Quyi daromadli daromadli mamlakatlar	49,6	49,4	49,2	48,5	49,6	49,6	49,8
O'rta daromadli daromadli mamlakatlar	48,0	48,0	47,9	47,0	47,3	47,6	50,5

O'rta daromadli mamlakatlar	48,3	48,5	48,5	46,5	45,7	45,5	45,6
O'rta daromadli yuqori mamlakatlar	48,7	49,2	49,1	46,0	44,0	43,2	42,8
Yuqori daromadli mamlakatlar	50,0	50,5	50,7	50,7	51,0	51,3	

**Manba:** *Migration data portal// Dashboard sub-pages | Migration data portal*

Ayol mehnat migrantlarining 69,7% i yuqori daromadli, 19,2% i o'rtachadan yuqori daromadli, 8,3% i o'rtachadan quyi daromadli hamda 2,8 % i quyi daromadli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadi.

1990–2019-yillar davomida jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushi 75 ta mamlakatda kamida 1% ga, 22 ta mamlakatda esa kamida 5% ga o'sgan. O'z o'rnida ularning ulushi 67 ta mamlakatda kamida 1% ga, 8 ta mamlakatda esa kamida 10% ga qisqargan [10].

Ayol migrantlarning 8,3 % ini 15–24 yoshdagilar, 86,3% ini 25–54 yoshdagilar hamda 5,4% ini 65 yoshdan kattalar tashkil qiladi.

Xususan, Shimoliy, Janubiy va G'arbiy Osiyoda ularning eng katta qismi, ya'ni 15–24 yoshdagilarning 25% i, 25–64 yoshdagilarning 30% i va 65 yoshdan kattalarning 23% i faoliyat

ko'rsatadi. Ularning eng kam qismi esa, tabiiyki, Shimoliy Afrika (0,4%), Janubiy Osiyo (2%) va Lotin Amerikasi (2,5%) mintaqalarida joylashgan.

Ayol migrantlar jami ishchilarning 5% ini tashkil qilib, ularning 18% i yuqori daromadli, 2,3% i o'rtachadan yuqori daromadli, 1,5% i o'rtachadan quyi daromadli hamda 1,4 % i quyi daromadli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadi [11].

Dunyo bo'ylab 15 yoshdan katta bo'lgan jami aholining 3,8% ini mana shu yoshdagi ayol migrantlar hamda jami ishchilarning 5% ini ayol migrantlar tashkil qiladi. Ayol migrantlar jami ayol mehnat resurslarining 63,5% ini tashkil qiladi. Xususan, mazkur ko'rsatkich yuqori daromadli mamlakatlarda 67,8% ni, o'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlarda 64,8% ni, o'rtachadan quyi daromadli mamlakatlarda 43,1% ni hamda quyi daromadli mamlakatlarda 48,7% ni tashkil qiladi.

Ayol migrantlar, asosan, uy xizmatlari, qishloq xo'jaligi sohasi, mehmonxona biznesi, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, ular Yevropada, asosan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Xususan, Ispaniya va Gretsiyada mexmonxona biznesida, Buyuk Britaniyada tibbiyot sohasida, Italiyada ta'lim sohasidagi ayol migrantlarning ulushi yuqori.

4-jadval

### Ba'zi mamlakatlardagi jami bandlarga nisbatan ayol migrantlarning ulushi

Yuqori daromadli mamlakatlar							
<i>Afrika va Arab mintaqasi</i>		<i>Amerika</i>		<i>Osiyo va Tinch okeani mintaqasi</i>		<i>Yevropa va Markaziy Osiyo</i>	
Saudiya Arabistoni	15%	Kanada	52%	Parau	98%	Latviya	33%
BAA	58%	Urugvay	88%	Bruney	98%	Belgiya	41%
Seyshel orol.	96%	AQSH	95%			Malta	72%
O'rta daromadli yuqori mamlakatlar							
Iordaniya	77%	Guatemala	38%	Tailand	80%	Turkiya	22%
Botsvana	79%	Kolumbiya	52%	Eron	82%	Gretsiya	88%
Livan	81%	Meksika	92%	Tuvala	87%	Rossiya	95%
O'rta daromadli quyi mamlakatlar							
Misr	50%	Nikaragus	49%	Indoneziya	90%		
Sudan	69%	Xonduras	92%	Bangladesh	97%		
Mavritaniya	88%	Boliviya	95%	Solmon orollari	98%		
Quyi daromadli mamlakatlar							
Burkina Faso	64%			Afg'oniston	93%	Tojikiston	99%
Gambia	80%			Nepal	97%		

**Manba:** *Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers//Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers - ILOSTAT*

Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropadagi 25–54 yoshdagi oliy ma'lumotli migrant ayollarning 30% dan ortig'i yuqori malakaga ega bo'lib, ular fan, texnologiya, matematika va tibbiyot kabi STEMM sohalar bo'yicha mutaxassis hisoblanadilar [12]. Bunday ayol migrantlar orasida bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan tajriba va ko'nikmalarning mavjudligi ularning zamonaviy hamda yirik kompaniyalardagi bo'sh ish o'rinlariga bo'lgan intilishlarini oshiradi.

Oliy ta'limga ega bo'lgan mehnat qilish yoshidagi ayol migrantlarning mintaqalarda taqsimlanishiga e'tibor qaratsak, yuqori daromadli mamlakatlarda ularning ta'lim darajasi yuqoriroq ekanligiga guvoh bo'lamiz [13].

5-jadval

#### Ba'zi mamlakatlarda oliy ma'lumotli ayol migrantlarning ulushi

Yuqori daromadli mamlakatlar		O'rta daromadli mamlakatlar		Quyida daromadli mamlakatlar	
Italiya	15%	Tailand	1%	Gambia	6%
Gretsiya, Bruney	18%	Kiribati	7%	Gvineya	8%
Latviya, Germaniya	21-22%	Namibiya	16%	Nepal	8%
Ispaniya, Fransiya	28%	Montenegro	27%		
Avstriya, Belgiya, Gollandiya	30-33%	Maldiv	30%		
Shvetsiya, AQSH	39-40%				
Buyuk Britaniya	46%				
Irlandiya	49%				

**Manba:** *Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers // Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers - ILOSTAT*

Ammo ayol mehnat migrantlari orasida xorij mamlakatlarida o'rta va yuqori malakani talab qiluvchi sohalarida faoliyat ko'rsatayotganlar bilan bir qatorda norasmiy ravishdagi uy xizmatchisi, enaga, qariyalar parvarishlovchi, past malaka talab qiluvchi ishlarda ish beruvchiga butunlay qaram bo'lib qolib ishlayotganlari ham ko'pchilikni tashkil etadi.

6-jadval

#### Eng oddiy kasblarda mehnat qiluvchi ayol migrantlar ulushining mintaqalar kesimidagi ulushi

Mamlakatlar	Eng quyi ko'rsatkich		Eng yuqori ko'rsatkich	
	Yuqori daromadli mamlakatlar	Yaponiya	8,1%	Saudiya
O'rta daromadli mamlakatlar	Monqoliya	2,4%	Livan	88%
Quyida daromadli mamlakatlar	Gvineya	2%	Kosta Rika	45%

**Manba:** *Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers // Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers - ILOSTAT*

Dunyodagi 196 million mehnat migrantlarining 8-9% ini migrant uy xizmatchilari tashkil etgan. Bu ko'rsatkichni ayol migrantlar orasida ko'rsak, dunyodagi jami 70 million ayol migrantlarning 12,% ga yaqini, ya'ni 8,45 million ayol migrant uy xizmatchilariga to'g'ri keladi. Dunyo bo'ylab 67,2 million uy xizmatchilarining 17,2% ini, ya'ni 11,5 millionini migrant uy xizmatchilari tashkil qiladi. Bu esa dunyo bo'ylab shaxsiy va uy xizmatlari uchun migrantlarga bo'lgan talabning yuqori ekanini ko'rsatadi.

Dunyo bo'ylab uy xizmatchilarining 80% i yuqori daromadli mamlakatlarda joylashgan bo'lib, ular mazkur mamlakatlardagi jami migrantlarning 66% ini tashkil qiladi. Arab mamlakatlari, Shimoliy Amerika va Yevropa mintaqalarida jami migrant uy xizmatchilarining 52% i joylashgan. Mazkur mintaqalarda demografik jihatdan qarish jarayonlarining yuqori sur'atlarda o'sishi, parvarishga muhtoj kishilarning shaxsiy va uy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojining ortishiga olib kelmoqda. Xususan, dunyo bo'ylab uy xizmatchilarining 81% ini ayollar tashkil qilsa, migrant uy xizmatchilarining 73% ini ayollar tashkil qiladi.

Dunyo mintaqalari bo'ylab jami migrantlar tarkibida ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Arab mintaqasi (60,8%) hamda eng quyi ko'rsatkich Sharqiy Yevropa mintaqasi (0,8%)ga to'g'ri keladi [14].



7-jadval

**Dunyo mintaqalarida jami migrantlar  
tarkibida ayol migrant uy xizmatchilarining  
ulushi**

Mintaqa	Jami migrantlar tarkibidagi ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi, %
Shimoliy Afrika	23,0
Sub-sahro Afrika	9,4
Lotin Amerikasi	35,3
Shimoliy Amerika	3,3
Janubiy, Shimoliy Yevropa	10,6
Sharqiy Yevropa	0,8
Markaziy va G'arbiy Osiyo	4,5
Arab mintaqasi	60,8
Sharqiy Osiyo	33,4
Janubi-Sharqiy Osiyo	39,2
Janubiy Osiyo	2,8

**Manba:** Gallotti, M. *Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates*; International Labour Organization: Geneva, Switzerland, 2015; pp. 2-3.

Arab mamlakatlari mintaqasida jami uy xizmatchilarining 82% ini ayol migrantlar tashkil qiladi. Bu holat esa uy xizmatchilari va ayollar migratsiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi, natijada ishga yollanayotgan 10 ta ayoldan 6 tasini uy xizmatchilari tashkil qiladi. Janubi Sharqiy Osiyo va Sharqiy Osiyo mintaqasi bilan birga bir paytning o'zida ayol migrant uy xizmatchilarini eng ko'p yuboruvchi mintaqalar hisoblanadi. Xususan, mintaqadan ayol migrant uy xizmatchisi sifatida Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalariga hamda yangi industrial mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab 11,5 million migrant uy xizmatchilari bo'lib, ularning aksariyatini ayollar tashkil etadi [15]. O'rta Sharq mintaqasi Afrika va Osiyo mintaqasi kabi quyi daromadli mamlakatlardan kelgan ayol migrantlarni eng ko'p jalb qiluvchi mintaqalar hisoblanadi [16]. Mazkur ayol migrantlarning aksariyati past malaka va quyi ta'lim darajasiga ega bo'lishlari hamda ishlash uchun boradigan joylaridan bexabar ekanliklari ish beruvchilar uchun ularga kam ish haqi to'lash, belgilangan ish soatidan ortiqcha ishlatish, jismoniy kuch ishlatish va tahqirlash kabi ekspluatatsiyaning turli shakllaridan foydalanish

imkoniyatini yaratadi [17]. Mahalliy ishchilar bilan solishtirilganda ayol migrant uy xizmatchisi uchun xavfsiz ishlash sharoitlarining yetarli darajada yaratilmasligi, ularga nisbatan jismoniy va jinsiy zo'rvonlik o'tkazilishi, huquqlarining poymol qilinishi mazkur ayol migrantlarning jismoniy hamda ruhiy jihatdan jarohatlanishlariga yoki bir umr kasallanib qolishlariga olib kelmoqda [18].

Xususan, Yaqin Sharqqa katta miqdordagi ayol uy xizmatchilarini yetkazib beruvchi mamlakatlardan biri bu Efiopiya hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, birgina Saudiya Arabistonida ishlab qaytgan efopiyaliklik ayol migrantlarning aksariyati mazkur safarlarining xatarli bo'lganini, oziq-ovqat va ichimlik suvi tanqisligi va tahqirlanish muammolaridan aziyat chekkanliklarini bildirganlar [19].

Livandagi jami migrantlarning 76% ini va uy xizmatchisi migrantlarining 99% ini ayol migrantlar tashkil etadi. Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan 2021-yilda 344 nafar og'ir sharoitlarda mehnat qilayotgan ayollarga yordam berilgan, ularning 85 nafari Liviyaga ketayotganini ham bilmaganligini, ularni Turkiya, Fors Ko'rfazi, Yevropa, AQSH yoki Kanada kabi mamlakatlarda ishga joylashtirishga va'da berilganini ma'lum qilganlar [20].

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, majburiy mehnatdan aziyat chekayotganlarning 16,5 millionini ayollar tashkil etadi. Livandagi uy xizmatchilariga nisbatan nafaqat majburiy mehnat, balki qullik, odam savdosi, shaxsiy hujjatlarni yashirib qo'yish, irqiy kamsitish va qiynoqlar kabi tazyiqlar o'tkazilishi ko'p uchraydi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida mamlakatdagi ayol migrant uy xizmatchilarining norasmiy migrant statusini tanlashga majbur bo'lishlari ularga nisbatan belgilangan minimal ishhaqi miqdoridan kam bo'lgan ishhaqi to'lash yoki umuman, ishhaqi to'lamaslik hamda ish soatidan ortiqcha ishlatish kabi holatlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1,2 ming ishchilar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ayol xizmatchilarining 22,5% i ish beruvchilar kunduz kunlari ularni ustilaridan qulflab ketishlari haqida ma'lum qilgan. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, Livanda migrant uy xizmatchilari tomonidan dunyoga keltirilgan 15 ming nafar ta'lim olish va boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan bolalar mavjud [21].

Ayol migrantlarning o'z vatanlariga pul o'tkazmalari katta hajmni tashkil qilmasa-da, ularning o'tkazmalarining asosiy qismi sog'liq, ta'lim, oila va jamiyat taraqqiyoti uchun sarflanadi. Masalan, nepallik, asosan, uy xizmatchisi bo'lgan ayol migrantlarning pul o'tkazmalari mamlakatga yuborilgan jami migrantlar o'tkazmalarining 50% ini yoki YaIMning 23% ini tashkil qiladi [22].

Shu o'rinda ayol mehnat migrantlarining tajriba, bilim, ijtimoiy, siyosiy va madaniy normalar kabi ijtimoiy o'tkazmalari pul o'tkazmalaridan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etishiga ham e'tibor berish lozim. Chunki ayollarning xorijda ega bo'lgan bilimlari, g'oyalari, tajriba va texnologiyalar bo'yicha ko'nikmalari ularning oilalari va jamiyatdagi mavqelarining ortishiga va mazkur muhit ishtirokchilarining dunyoqarashlarida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishini ham unutmash kerak.

Ayollar erkak migrantlarga nisbatan kamroq ishhaqi olsalar-da, ammo erkaklarga nisbatan daromadlarining katta qismini yuboradilar, shuningdek, ularning transfer to'lovlari ham yuqoriroq. Migrantlarning pul o'tkazmalarining 25,8% i ayollar ulushiga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aksariyat o'rtadan quyi bo'lgan hamda quyi daromadli mamlakatlarda ayol migrantlar mehnat bozoridagi diskriminatsiya, ishdagi ekspluatatsiya va zo'ravonlik, sog'liqni saqlash hamda ta'limdan foydalanishdagi to'siqlar, sudlovdagi adolatsizliklar kabi muammolarga duch kech kelishda davom etmoqdalar.

Odam savdosi qurbonlari ichida hali ham ayollarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, odam savdosi qurbonlarining 65% ini ayollar, ya'ni 46% ini kattalar va 19% ini qizlar tashkil qiladi. Katta yoshdagi qurbon ayollarning asosiy qismi Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mintaqalarida foliyat ko'rsatsa, qiz bolalarning qurbon bo'lishi ko'proq Osiyo mintaqasida uchraydi.

Yuqoridagi holatlar ayollar mehnat migratsiyasi muammosini kun tartibining dolzarb masalasi sifatida qolishini va mazkur jarayon bilan bog'liq muammolarning oldini olishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bora namoyon etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anderson, 1997; Phizacklea, 1998; Lutz, 2010.
2. Кошулко О.П. Миграция женщин как одно из современных направлений социальных исследований. – С.122.
3. Варшавер, Рочева, 2015; Рочева 2020.
4. Осадчая Г.И., Киселова Е.Е., Киреев Е.Ю., Черникова А.А. Основные векторы женской миграции на евразийском пространстве // Women in Russian society. 2021. – №2. p.130.
5. Рычихина, 2020: 48: Бу хақида қаранг: Г.И.Осадчая, Е.Е.Киселова, Е.Ю.Киреев, А.А.Черникова. Основные векторы женской миграции на евразийском пространстве // Women in Russian society.2021.№2. P.135.
6. Секач, Мостиков, 2017: Бу хақида қаранг: Г.И.Осадчая, Е.Е.Киселова, Е.Ю.Киреев, А.А.Черникова. Основные векторы женской миграции на евразийском пространстве // Women in Russian society.2021. – №2. p.135.
7. Пескова, Абреу Бастос, 2014
8. Пескова, Абреу Бастос, 2014
9. Key global migration figures, 2019-2022.IOM UN migration 2022, October 13.
10. Eliana Rubiano, Matulrvichkatethlee Beegle, December 19, 2018 // [Women and migration: Exploring the data \(worldbank.org\)](#)
11. ILO Global Estimates on International Migrant Workers Labour Migration Branch Conditions of Work and Equality Department Department of Statistics Results and Methodology.ILO.2018.P.12,13.
12. Daniela Bolzani,Francesca Crivellaro,Rosa Grimaldi. Highly skilled, yet invisible. The potential of migrant women with a STEMM background in Italy between intersectional barriers and resources // <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/gwao.12719>

13. Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers // [Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers - ILOSTAT](#)
14. Gallotti, M. Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates; International Labour Organization: Geneva, Switzerland, 2015; pp. 2,3.
15. Gallotti, M. Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates; International Labour Organization: Geneva, Switzerland, 2015; pp. 1–8. [[Google Scholar](#)]
16. Kodoth, P. In the Shadow of the State: The Recruitment and Migration of South Indian Women as Domestic Workers to the Middle East; International Labour Organisation: Geneva, Switzerland, 2020.; Bisong, A. Regulating Recruitment and Protection of African Migrant Workers in the Gulf and the Middle East. The European Centre for Development Policy Management (ECDPM). 2021. Available online: <https://ecdpm.org/wp-content/uploads/Regional-Solutions-Regulating-Recruitment-Protection-African-Migrant-Workers-Gulf-Middle-East-ECDPM-Discussion-Paper-292-2020.pdf> (accessed on 12 January 2022).
17. Hargreaves, S.; Rustage, K.; Nellums, L.B.; McAlpine, A.; Pocock, N.; Devakumar, D.; Aldridge, R.W.; Abubakar, I.; Kristensen, K.L.; Himmels, J.W.; et al. Occupational health outcomes among international migrant workers: A systematic review and meta-analysis. *Lancet Glob. Health* 2019, 7.
18. Genderen patterns of women and girls' migration along the Eastern corridor. IOM. December 2020. p.20.
19. Zeina Mehzer, Gabriella Nassif, Claire Wilson. Women Migrant Domestic Workers in Lebanon: A Gender Perspective. ILO. 2021. p. 3
20. Rola Yasminea, Batoul Sukkarb. Restrained motherhood: the Lebanese state in times of changing demographics and moral values // <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7888101/>
21. UN Women. (2013). "Contributions of migrant domestic workers to sustainable development."
22. World migration report 2022. p.264



**Saipova Malohat,**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## OTASI YOKI ONASI MEHNAT MIGRATSIYASIDA BO'LGAN FARZANDLARNING OILAVIY HAYOTDAN QANOATLANISH MASALALARI

**Annotatsiya.** Maqolada muallif oilaning inson hayotidagi o'rniga to'xtalib, mehnat migratsiyasi jarayoni haqida fikr yuritadi. Tadqiqot natijalarini keltirib, o'zining xulosa va tavsiyalarini beradi.

**Tayanch so'zlar:** oila, kichik guruh, psixologik yondashuv, mehnat migratsiyasi, voyaga yetmaganlar, aybdorlik hissi, xavotir hissi, asabiy-tajanglik.

**Аннотация.** В статье автор акцентирует внимание на роль семьи в жизни человека и размышляет о процессе трудовой миграции, также представляет результаты исследования и дает свои выводы и рекомендации.

**Ключевые слова:** семья, малая группа, психологический подход, трудовая миграция, несовершеннолетние, чувство вины, чувство тревоги, нервозность.

**Annotation.** The author focuses on the role of the family in a person's life and reflects on the process of labor migration in the article. She also presents the results of the study and gives her conclusions and recommendations.

**Keywords:** family, small group, psychological approach, labor migration, minors, sense of guilt, sense of anxiety, nervousness.

**Kirish.** Insonni butun hayoti davomida kuzatib boruvchi asosiy fenomenlardan biri bo'lmish oila bir qancha fan sohalarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Oila atalmish muqaddas dargohning inson hayotiga ta'sirining muhimligi, uning serqirraliligi, xilma-xilligi va muammoliligi oilani tadqiq etishga turli yondashuvlarning, shuningdek, ilmiy adabiyotlarda uchraydigan ta'riflarning nihoyatda katta miqdorini tashkil etadi. Tadqiqotchilar oilani sotsiologik va psixologik jihatdan tadqiq etadilar.

Psixologiya yo'nalishidagi mahalliy va xorijiy adabiyotlarda 2 ta asosiy yondashuv ko'zga tashlanadi:

*Birinchi yondashuv* – oilani umumiy bo'lganiday turli-tuman qiziqishlari mavjud bo'lgan shaxslar guruhi sifatida tahlil qiladi. Umumoilaviy aloqa esa inson ijtimoiylashadigan va shakllanadigan soha hisoblanadi. Bu yondashuv oilaviy psixologiya rivojlanishining dastlabki bosqichida shakllandi hamda bixeyvioral va psixoanalitik konsepsiyalarda batafsil aks etadi.

*Ikkinchi psixologik yondashuv* – oila va uning a'zolarini umumiy lashtirmasdan yaxlit tashkilot sifatida tahlil qiladi.

Oilaning kichik guruh sifatidagi o'ziga xos quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) qarindoshlik yoki uning a'zolari o'rtasidagi nikohga oid aloqalar;
- 2) maishiy turmushning umumiyliigi;
- 3) alohida emotsional, etik, huquqiy munosabatlar;
- 4) butun umr oilaviy guruhga mansublik (axir, oilani tanlamaydilar);
- 5) guruhlarning yuqori darajadagi geterojen tarkibi: yoshga oid, shaxsiy, jinsiy, kasbiy, ijtimoiy-maqomli va boshqa farqlar;
- 6) oilaviy hodisalarning yuqori emotsional ahamiyati.

Oilani uning a'zolarini alohida olgan holda bilishdan kelib chiqib tushunish mumkin emas. Oila doimiy ravishda rivojlanuvchi, ahamiyatli moslashuvchan imkoniyatlarga ega bo'lgan tizim hisoblanadi. Tizimning elementlaridan biridagi, masalan, er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'zgarishi butun oilaga ta'sir ko'rsatadi. Oilaning alohida a'zolarining individual disfunktsiyasi tizimli buzilishlarning aks-tasviri ham bo'ladi<sup>1</sup>.

Shu nuqtayi nazardan hozirda muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan mehnat migratsiyasi jarayoni ma'lum bir hudud, mamlakat, mintqa ijtimoiy hayotiga o'zining ijobiy, salbiy, kerak bo'lsa, siyosiy ta'sirini o'tkazadi. Mehnat migratsiyasi ta'sirida:

- insonning mehnat bandligi ta'minlanishi;
- kasbiy salohiyatning o'sishi, oila iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishi, moddiy qadriyatlarining ortishi;
- mamlakatlararo hamkorlik o'rnatilishi;
- ijtimoiy tajribaning yuksalishi,
- jamiyat madaniyatiga turli yangiliklarning kirib kelishi kabi ijobiy siljish sodir bo'ladi.

Biroq mehnat migratsiyasi sababli iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan farqli ravishda jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy hayotida turli inqirozlar yuzaga kelishiga sabab bo'layotgani ham sir emas, albatta. Ya'ni:

- oila hayotidagi disfunktsional holatlarning keskin ifodalanishi, jumladan, er va xotin munosabatlari, ota-ona va farzand munosabatlari tizimidagi disfunktsiyalar;
- buning oqibati o'laroq oilalar orasida ajrimlar sonining ortishi, er va xotin orasida ishonchning yo'qolishi;

<sup>1</sup> Андреева Т.В. Психология современной семьи. // Монография. – Санкт-Петербург: Речь, 2018. – 434 с.

– voyaga yetmaganlarning ota-ona qaramog'isiz yoki nazoratisiz qolishi kabi ijtimoiy-psixologik muammolarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

“Oxirgi yillarda Rossiya, shu jumladan, Sankt-Peterburg hududida bo'luvchi mehnat migrantlarining katta oqimi bilan bog'liq mehnat migratsiyasiga aloqador masalalar, ayniqsa, jiddiy bo'lib qolmoqda. Mehnat migrantlarining asosiy oqimi O'rta Osiyo mamlakatlaridan keladi, O'zbekiston esa bu mamlakatlar orasida yetakchi o'rinlarda turadi. O'rta Osiyo mamlakatlaridan keluvchi mehnat migrantlari oxirgi yillarda jamiyatning butun ijtimoiy-iqtisodiy turmushining salmoqli qismiga aylanib ulgurdi”<sup>2</sup>.

**Asosiy qism.** Yangi sotsiomadaniy muhitga moslashuv migrantlar uchun katta psixologik diskomfort – ijtimoiy mavqeyining yo'qolishi, ijtimoiy ustanovkalari tizimida sezilarli darajadagi o'zgarishlar, shaxs va guruhga oid mansubligi sohasidagi yo'qotishlar bilan kechadi. Dastlab telefon, video aloqalar orqali muloqotga chiqqan mehnat migrantlari oilalarini moddiy tomondan ta'minlab turganliklaridan quvonadilar, o'zlarini “ota-onalik” burchlarini bajargan, deb hisoblaydilar. Biroq o'z yurtlarida qolgan voyaga yetmagan farzandlarining ayni rivojlanish bosqichida bir qancha ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarga duch kelishlari haqida ba'zida o'ylab ko'rmaydilar.

Biz “Mehnati migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotimiz doirasida Samarqand shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktabining 130 nafar yuqori sinf o'quvchisi bilan o'tkazgan so'rovnomamizda o'smirlarning oilaviy hayotda o'zlarini qanday his qilishlarini o'rgandik.

Javoblar tahlili asosida mehnat migratsiyasi daxl qilmagan oila farzandlari (MMDQOF) bo'lmish 23 nafar respondentning va mehnat migrantlarining farzandlari (MMOF) bo'lmish 23 nafar respondentning natijalari saralab olindi. O'smirlarning oilaviy hayotda o'zlarini qanday his qilishlarini aniqlash maqsadida foydalanilgan metodika umumiyashtirilib, 3 ta yo'nalish asosida natija olishga harakat qildik.


<sup>2</sup> Андреева Т.В. Психология современной семьи. // Монография. – Санкт-Петербург: Речь, 2018. – 434 с.



1-jadval

<b>Oilaviy hayotda aybdorlik hissi</b>
Oila a'zolarim mendan ko'pincha norozi bo'lishlarini bilaman
Oilamizda bo'ladigan hodisalarga odatda men aybdor bo'lib qolaman
Uyga kelganda o'zimni unchalik erkin his eta olmayman, noqulaylik sezaman
Ko'p holatlarda oilam a'zolari menga tanqidiy ko'z bilan qarashini sezaman
Ba'zi-ba'zida uyda o'zimni qandaydir ortiqcha his etaman
Ba'zida menga shunday tuyuladiki, birdan yo'q bo'lib qolsam, uydagilardan hech kim buni sezmaydi ham
Oilamning ayrim a'zolari meni deb o'z do'stlari va tanishlari oldida xijolat bo'lishadi, deb o'ylayman
<b>Oilaviy hayotda xavotir hissi</b>
Uyda nima qilsam, baribir yaxshi chiqmasligini sezib turaman
Ko'p hollarda oila ishlarida o'zimni ojiz his etaman
Oilam a'zolarining ayrimlari meni fahm-farosatsiz, deb hisoblaydi
Uyga qaytayotganda xavotir bilan "uyda, ishqilib, tinchlikmikan", deb o'ylab kelaman
Oiladagi o'rnim shundayki, ba'zida, ochig'i, ko'nglim qolib ketadi
Uyga kelayotib, qandaydir ishlarni reja qilaman, ammo keyin umuman boshqa ishlarni qilishga to'g'ri keladi
Uyda yaxshi reja bilan bir ishga qo'l uraman, ammo oqibatda hammasi teskari bo'lib ketishi hech gap emas
<b>Oilaviy hayotda asabiy tajanglik</b>
Afsuski, uyda ko'p ishlarni qilishga ulgurmayman
Uyda odamni asabiylashtirib turadigan voqealar tez-tez bo'lib turadi
Uyda qolganda doim biror narsa haqida o'ylab, bezovta bo'laman
Uyda bo'lganimda doimo o'zimni ko'p narsaga ulgurmayotgandek his etaman
Uyda doim ko'p narsadan o'zimni tiyib turishga majbur bo'laman
Oilaviy masalalarni o'ylasam, xavotir bosadi
Oilada menga ma'qul bo'lmagan ko'p narsa bor, ammo buni imkoni boricha ko'rsatmaslikka harakat qilaman


Natijalar shuni ko'rsatdiki, mehnat migrantlari oilalarining farzandlari, ya'ni o'smirlarda "oilaviy hayotda aybdorlik hissi" 20,9%, "oilaviy hayotda xavotir hissi" 17,3% ni, "oilaviy hayotda asabiy tajanglik" 18,7% ni tashkil etdi. Mehnat migratsiyasi daxl qilmagan oilalardagi ko'rsatkich sezilarli darajada past, biroq "Oilaviy hayotda asabiy tajanglik" ko'rsatkichi 2% ga farq qilishi bilan e'tiborimizni tortdi. Buni o'smirlik davrining krizislari bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. Chunki hali kattalar safiga qo'shilmagan, lekin bolalikdan chiqayotgan o'smirning atrofidagilardan, o'zidan qanoatlanmaslik holati tabiiydir.



Mehnat migratsiyasi daxl qilgan o'smirlarni kuzatish asnosida quyidagilarni aniqladik:

- o'zgaruvchan emotsional fon ustunlik qiladi;
- o'qituvchilar bilan munosabatda passiv-ijrochilikni namoyon etadilar;
- tengdoshlari bilan o'zaro harakatlanishda passiv-qabul qiluvchi pozitsiyani egallaydilar;
- o'qituvchi tomonidan yangi usullarni qo'llaganda tashabbuskor, uyushgan, muloqotchan, an'anaviy dars usullarida bu xislatlarni namoyon qilmaydilar;
- o'zlari kabi oilalardan bo'lgan tengdoshlari bilan yaqin munosabatda bo'ladilar.

Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlarida olib borilgan tadqiqotimiz doirasida ota-ona-farzand munosabatlarining quyidagi modelini yaratdik:



***Migrant oilalaridagi ota-ona–farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashganligi modeli***

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, mehnat migratsiyasiga chiqib ketganlarning farzandlari, garchi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o‘z ota-onalari, yaqinlari bilan muloqot qilishlariga qaramay, ularning mehriqga muhtoj bo‘ladilar, ba’zi hollarda hatto o‘zlarini yashab turgan manzillarida keraksizday his qiladilar. Shu o‘rinda tavsiyalarimiz:

– mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan bolalarning psixologik holatini tadqiq etish yuzasidan mahalliy darajadagi ilmiy tadqiqotlar olib borish va shu asosda uslubiy materiallar tayyorlash;

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarining psixologlarini shu toifadagi bolalar bilan ishlash malakalarini oshirib borish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Андреева Т.В. Психология современной семьи. Монография. – Санкт-Петербург: Речь, 2018. – 434 с.
2. Мокрецова О.Г. Социально-психологические особенности адаптации трудовых мигрантов из Узбекистана. // Автореф. дисс... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2015.
3. Социально-психологическая адаптация мигрантов в современном мире [Электронный ресурс]. // Материалы III Междунар. науч.-практ. конф. – Пенза: Изд-во «ПГУ», 2016. – 29 с.
4. Шапошникова Т.Д. К проблеме адаптации детей из семей мигрантов в современном социокультурном пространстве // Начальная школа плюс до и после. – Москва, 2012. – № 5. – С. 87–91.



**Mambetjanov Q.K.,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
loyiha bosh ilmiy xodimi,  
iqtisodiyot fanlari doktori



**Annakulov K.X.,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
loyiha katta ilmiy xodimi

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERTA NIKOH HOLATINI BARTARAF ETISHNING SAMARALI MEKANIZMLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada erta nikoh holati va uning asosiy sabablari aniqlangan, O‘zbekiston Respublikasida erta nikoh holati ilmiy tahlil qilingan hamda erta nikoh holatini bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.  
**Tayanch so‘zlar:** erta nikoh, majburiy nikoh, uydagi zo‘ravonlik, qizlar ta’limi, kambag‘allik, erta homiladorlik.

**Аннотация.** В данной статье определено состояние ранних браков и его основные причины, научно проанализировано состояние ранних браков в Республике Узбекистан и разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по устранению состояния ранних браков.

**Ключевые слова:** ранние браки, принудительный никах, насилие в семье, образование девочек, бедность, ранняя беременность.

**Annotation.** This article identifies the state of early marriage and its main reasons, scientifically analyzed the state of early marriage in the Republic of Uzbekistan and developed scientifically based proposals and recommendations for eliminating the state of early marriage.

**Keywords:** early marriage, forced nikoh, domestic violence, girls education, poverty, early pregnancy.

**Kirish.** Erta nikoh juda murakab muammo hisoblanib, uning asosiy sababi ta’limning ahamiyatini va qizlarning kelgusidagi ijtimoiy rolining muhimligini tushunmaslikdan iborat, ya’ni ularning roli faqat uy mehnati va bolalar tarbiyasi bilan cheklanmasligi kerak.

Erta nikoh ikkala jinsdagi bolalarga har tomonlama salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi gender hodisasidir. Odatda erta nikohga kirgan o‘g‘il bolalar soni bunday nikohga kirgan qizlar sonidan ancha kam bo‘ladi. Er-xotinlik hayoti davomida qizlar gender zo‘ravonlik va kamsitilishning boshqa shakllariga, homiladorlik va tug‘ish paytida qiyinchiliklarga duchor bo‘ladi, chunki ularning tanasi hali bola tug‘ishga tayyor bo‘lmaydi.

Qizlarning erta nikohdan himoyalaniş huquqi turli xalqaro shartnomalarda, jumladan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyalarda mustahkamlangan. Yuqorida qayd etilgan ikkala hujjat ham mamlakatlarni milliy qonunchilikda eng kichik nikoh yoshini 18 yosh darajasida belgilashga chaqiradi. Lekin ushbu huquqiy kafolatga qaramay, minglab qizlar 18 yoshga to‘lmasdan turib turmushga chiqmoqda.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda erta nikohlarni tuzishga majburlashning keng tarqalgan amaliyoti uy mehnatining og‘ir shakllari, gender zo‘ravonlik va ijtimoiy yakkalatib qo‘yishdan iborat.

Qizlarga kichik yoshidan boshlab turmushga chiqishi kerakligi, ovqat pishirishni, uyni tozalashni bilishi va yaxshi turmush o'rtoq bo'lishi ta'lim olishdan ko'ra muhimroqligi uqtiriladi.

Erta nikohlarga nafaqat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, balki jinslarning roli, jinsiy hayot va bola tug'ish yoshiga bo'lgan madaniy, ijtimoiy va diniy qarashlar ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu demografik muammoning har qanday tahlili doirasida sabablarni oqibatlardan ajratish va bunday amaliyotni rag'batlantiruvchi tendensiyalar bilan omillar o'rtasidagi farqni ajratish juda qiyin. Biroq ushbu muammoning markazida gender hodisasi, ya'ni jinsiy belgi bo'yicha kamsitish yotadi.

### Erta nikohning asosiy sabablari

Endi erda nikohlarning asosiy sabablariga batafsil to'xtalib o'tsak.

#### 1. An'anaviy gender rollarning barqarorligi.

Aksariyat hollarda jinslar o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni saqlab turish zarurati erda nikohlar uchun asos hisoblanadi. Erta nikohlar ta'lim roli va qizlar potensial kasbiy o'sishining muhimligiga yetarlicha baho bermaslikka, qizlar va ayollar hayotining jinsiy sohasini nazorat qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka, oila "sha'ni" haqidagi kengroq tasavvurga, ayolning roli nikohga kirish, ro'zg'or ishlarini bajarish va bolalarni tarbiyalash bilan cheklanishi kerak, degan fikrga, shuningdek, ko'pincha "yaxshi xotin" itoatkor va ko'ngilchan turmush o'rtoq bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurga asoslangan.

Ushbu tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovda respondentlar turmushga chiqish va farzandni dunyoga keltirish ayolning qismati hamda uning hayotidagi asosiy maqsad ekanligini aytishdi. Shuningdek, erda nikohlarning asosiy sababi sifatida qizlar bokiraligini nikohga kirgunga qadar saqlash zarurligi aytiladi (bokiralikning yo'qotilishi oila va butun hamjamiyatga isnod bo'lishiga olib kelishi mumkin). Mazkur asos ham ko'pincha qizlarning ular o'g'il bolalar bilan aloqaga kirishishi mumkin bo'lgan maktablarga borishiga qo'yilgan taqiqni oqlash uchun qo'llanadi.

**2. Majburiy nikohlar.** Erta nikoh ko'pincha yaqin oila a'zolari va uzoq qarindoshlar tomonidan ruhiy bosim, shuningdek, bo'ysunilmagan hollarda tahdid va hatto zo'rvonlik sharoitida tuziladi. Bunda erda nikohlar ota-onalar tomonidan tashkil

etiladi, voyaga yetmagan qizlar o'zlari qarorlar qabul qilish jarayonida, shu jumladan, bo'lajak turmush o'rtog'ini tanlash masalasida deyarli yoki umuman ishtirok etmaydi. Majburiy erda nikoh holatlarida qizlarni maktabdan chiqarib olib, tezda erga berishadi. Nikoh jismoniy zo'rvonlik bilan kuzatilishi shart bo'lmasa-da, qizga u buni muqarrar holat sifatida qabul qilishi va haqiqatan ham go'yo unda boshqa hech qanday tanlov yo'qdek tuyulishi uchun bosim o'tkaziladi.

#### 3. Eksploatatsiya va uydagi zo'rvonlik.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, erda nikohlar ko'p hollarda qizlarning turmush o'rtog'ining oilasiga ko'chib o'tishini nazarda tutadi. Ko'p hollarda bu oiladagi eng past mavqeni, katta hajmdagi haq to'lanmaydigan uy ishlarini (ba'zan esa qishloq xo'jaligi ishlarini ham) bajarishni va nafaqat eriga, balki oilaning boshqa a'zolariga ham g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi.

Voyaga yetmagan ayollar o'z erlari tomonidan jismoniy, ruhiy va maishiy zo'rvonlikka ham uchraydi. Bundan tashqari, ernaing oilasi voyaga yetmagan xotiniga ta'lim olish va ishga joylashishni taqiqlaganliklari tufayli ularning oldida, agar ular bunday o'zaro munosabatlarga chek qo'yishga harakat qilishsa, kichik tanlov imkoniyati turadi, chunki u o'zini eplash imkoniyatiga ega emas. Ko'pincha ancha katta yoshdagi er bilan uning yosh xotini o'rtasidagi mavjud yoshdagi katta farq va buning oqibatida kelib chiqadigan tengsizlik hamda o'zaro munosabatlardagi majburlash tufayli tuziladigan erda nikohlar maishiy zo'rvonlikning yuqori darajasi hisoblanadi. Erda nikohga qizlarga qarshi qaratilgan, ularni o'z tanasiga egalik qilish huquqi, erkin tanlash huquqi va harakatning erkinligi huquqidan mahrum etadigan gender zo'rvonlik shakllaridan biri sifatida qarash mumkin. Bundan tashqari, ko'pincha u turmush qurgan qizlarning jinsiy, jismoniy, ruhiy va hissiy zo'rvonlikning mustahkam doirasiga tushib qolishiga sabab bo'ladi.

**4. Ro'yxatdan o'tmagan nikohlar.** Erda nikohlarning aksariyati FHDY organlarida ro'yxatga olinmaydi yoki 18 yoshga to'lganidan keyin ro'yxatga olinadi. Erda nikohlarning kam sonigina tegishli davlat organlarida ro'yxatga olinishi ushbu hodisa tarqalishining darajasini baholashga urinishlar bilan bog'liq qiyinchiliklarni chuqurlashtiradi. Bu esa nikohda bo'lgan voyaga yetmagan bolalarning zaifligini nihoyatda oshiradi, chunki ular qonuniy huquqlardan mahrum etilgan.

Bugungi kunda diniy marosimlar tobora ommalashib bormoqda. Bu esa erta nikohlar sonining oshishiga olib keladi. Aytish joizki, din – erta nikohlarning sodir bo‘lishiga olib keladigan ko‘p sonli omillardan biri hisoblanadi (dinga yuzaki qarash, noto‘g‘ri tushinish). Kambag‘allik, migratsiyaning yuqori darajasi va ta‘lim rolining pasayishi eng dolzarb ijtimoiy muammolar hisoblanib, barcha ushbu omillar erta nikohlarning tarqalishiga hissa qo‘shadi. Erta nikohlarning tarqalish darajasi erkaklar migratsiyasining yuqori darajasi bilan bog‘liq (buning o‘zi kambag‘allik va iqtisodiy beqarorlikning oqibati hisoblanadi). Yigitlarning yetishmasligi ota-onalar o‘z qizini unga turmushga chiqishni taklif qilgan “dastlabki odam”ga erga berib yuborish uchun har qanday imkoniyatlarni qidirishlariga olib keladi, aks holda unda umr bo‘yi ersiz qolib ketish xavfi tug‘iladi. Kambag‘allik va ta‘lim ahamiyatining pasayishi (uning sifati kelgusida keng iqtisodiy imkoniyatlarni bermaydi) har yili maktabni tobora kam sonli qizlar va o‘g‘il bolalarning bitirishiga olib keladi. Qizlar uchun bu ularning tobora ko‘p soni balog‘at yoshiga yetmasdan turib turmushga chiqishga majbur bo‘layotganligini anglatadi. Balki ushbu jamiyatlarda dinning roli ortib borayotganligiga erta nikohlar uchun qulay muhit yaratuvchi shart-sharoit sifatida qarash lozim. Diniy marosimlarning o‘tkazilishi rasmiy tartibda ro‘yxatga olinishi mumkin bo‘lmagan erta nikohlarni qandaydir qonuniylashtirish imkonini beradi. Amalda bo‘lgan va nikohni FHDY organlarida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazmasdan turib diniy marosimlarning o‘tkazilishini taqiqlovchi qonunlar va qonunosti hujjatlari real vaziyatga deyarli ta‘sir ko‘rsatmaydi.

**5. Qizlar uchun ta‘limning ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik.** Qizlar uchun ta‘limning muhimligiga yetarlicha baho bermaslik va buning erta nikohlar amaliyotining saqlanib qolinishiga hissa qo‘shishi (shuningdek, nikohda voyaga yetmagan xotinlarning zaifligini oshirishi) ushbu tadqiqot bilan qamrab olingan, ayniqsa, qishloq joylarida dolzarb muammo hisoblanadi. Ota-onalar qizlariga maktabga borishni taqiqlab qo‘yadilar yoki ularni maktabdan chiqarib oladilar, bunda ko‘pincha ota-ona o‘z harakatlarini qizining qismati turmushga chiqish, boshqa oilada yashash va bolalarni tarbiyalash, shuning uchun ta‘limga pul sarflashdan hech qanday ma‘no va foyda yo‘q, deb

oqlaydilar. Biroq yaqinda bo‘ladigan nikoh tufayli bolalar har doim ham maktabga boravermaydi.

#### **6. Kambag‘allik va ijtimoiy yakkalik.**

Kambag‘allik erta nikohlar tuzilishiga hissa qo‘shadigan omillaridan biri hisoblanadi. Lekin erta nikohlar boy oilalarda ham, kambag‘al oilalarda ham tuzilishini alohida ta‘kidlash lozim va ushbu hollarda an‘analar hamda “mos er (xotin)”ni topishga intilish yanada muhimroq rol o‘ynaydi. Shuningdek, ba‘zi oilalarda qizlarni erta erga berish ularni boqish xarajatlarini kamaytirish va kelin uchun yaxshigina qalin puli olish imkonini beradi.

Ko‘pchilik oilalarda nikoh tuzilganidan keyin turmush o‘rtog‘i (eri) ayolining harakatlanish erkinligini cheklaydi. Ularga uydan tashqarida ishlash va o‘z oilalarini yoki do‘stlarini ziyorat qilish taqiqlanadi, bu ularning jiddiy yakkalanishiga olib keladi. Bu, ayniqsa, qizlar o‘z erlarining oilalari bilan birga yashagan hollarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu ularning ruhiy va hissiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda zo‘ravonlik va ekspluatatsiyadan himoyalanganlikning yuqori darajasiga olib keladi. Shuningdek, bu ko‘pchilik voyaga yetmagan xotinlarning kambag‘allikda yashashga mahkumligini ham anglatadi, chunki yashash uchun o‘zlarining pul ishlab topishi imkoniyatlari cheklangan.

**7. Erta homiladorlik.** So‘rovda ishtirok etgan nikohda bo‘lgan voyaga yetmagan qizlarning farzandlari soni va tug‘uruqlar o‘rtasidagi oraliq haqidagi qarorlar eri hamda uning qarindoshlari tomonidan qabul qilinganini aytishdi. Xususan, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, er-xotindan nikohdagi hayotning birinchi yilida bola tug‘ilishini kutishadi va ular o‘g‘il tug‘ilgunga qadar bola tug‘averishi kerak. Voyaga yetmagan xotinlarning reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati ham adekvat yoki ommabop xizmatlarning mavjud emasligi yoki er va uning qarindoshlari voyaga yetmagan xotinlariga bunday muassasalarga borishni man etganligi tufayli cheklanishi mumkin. Yetarlicha jismoniy yetilmaganlik shunga olib keladiki, homiladorlik bilan bog‘liq asoratlar 15–19 yoshdagi qizlar orasidagi o‘limning asosiy sababi hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, 15–19 yoshdagi onalar orasida tug‘uruq paytidagi o‘lim holati 20–24 yoshdagi onalarga qaraganda ikki marta ko‘p qayd etildi. Global tadqiqotlar



shuni ko'rsatdiki, erta yoshdagi homiladorlik va tug'ilishlar chaqaloqlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki o'smir yoshdagi onalar orasida muddatidan oldin tug'ish va bolalarni chala tug'ish holatlari ko'proq uchraydi. Biz o'tkazayotgan tadqiqot cheklangan xususiyatga ega bo'lib, tadqiq etilayotgan hududlarda ushbu qonuniyatning mavjudligini tasdiqlash imkonini beruvchi ishonchli ma'lumotlarni ta'minlamasa-da, so'rovda ishtirok etgan bir necha voyaga yetmagan o'smir qizlar ular homiladorlik vaqtida va undan keyin asoratlarni boshdan kechirganini, shuningdek, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning kasalligi yoki o'limi holatlari uchraganini aytishdi.

Kattaroq yoshda nikohga kirayotgan inson katta ehtimol bilan o'qishni davom ettiradi, ishlaydi va daromadlarni o'zining bo'lajak oilasi uchun to'playdi, kechroq erga tegayotgan qiz esa bola tug'ishni istash-istamaslik, agar buni istasa, nechta bola tug'ish borasida qaror qabul qilish uchun kengroq imkoniyatlarga ega. Biroq erta nikohlar O'zbekistonda ham, umuman, butun dunyoda ham o'ta murakkab hodisa hisoblanib, u bir vaqtning o'zida gender kamsitilishga olib keladi. Shuning uchun odamlarning erta nikohlarga hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga bo'lgan munosabatini

o'zgartirishga qaratilgan yanada faol ishlarni amalga oshirish zarur.

### Statistik tahlil

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda 18 yoshga to'lmadan nikohga kirganlar soni 93 nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 97,9 foizga kamaygan (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2017–2021-yillar mobaynida respublikaning barcha hududlarida erta nikohlar soni keskin kamaygan. Mazkur holat 2019-yil 1-sentabrdan erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi tenglashtirilgani, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish bo'limlari tomonidan faqat tuman, shahar hokimi tomonidan nikoh yoshini 1 yilga kamaytirishga ruxsat berilgan nikohlar qayd etilishi bilan izohlanadi.

Tahlillarga ko'ra, 2021-yil 18 yoshga to'lmadan nikoh qurganlar soni 2020-yilga nisbatan 5,7 foizga o'sgan. Hatto bu davrda erta nikohlar soni Navoiy viloyatida 6,0 martaga, Farg'ona viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 martaga, Buxoro viloyatida 4 martaga ko'paygan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rilyotgan davrda (2020–2021-yillar) erta tuzilgan nikohlar

*1-jadval*

### 18 yoshga to'lmadan nikoh qurganlar soni to'g'risida ma'lumot

Hududlar	Yillar					2021-yilda 2017-yilga nisbatan o'zgarishi, %	2021-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi, %
	2017	2018	2019	2020	2021		
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>4403</b>	<b>4786</b>	<b>3001</b>	<b>88</b>	<b>93</b>	<b>2,1</b>	<b>105,7</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	76	60	43	1	5	6,6	500,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	373	420	268	4	3	0,8	75,0
Buxoro	193	223	141	1	4	2,1	400,0
Jizzax	46	76	81	10	8	17,4	80,0
Qashqadaryo	810	642	296	2	3	0,4	150,0
Navoiy	32	35	16	1	6	18,8	600,0
Namangan	214	261	292	3	4	1,9	133,3
Samarqand	1564	1742	953	11	9	0,6	81,8
Surxondaryo	342	352	238	21	26	7,6	123,8
Sirdaryo	53	62	57	12	4	7,5	33,3
Toshkent	174	242	142	14	9	5,2	64,3
Farg'ona	265	355	235	1	5	1,9	500,0
Xorazm	79	108	47	3	4	5,1	133,3
Toshkent sh.	179	208	192	4	3	1,7	75,0

**Manba:** Jadval O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

## Erta nikoh holati eng ko'p qayd etilgan tuman va shaharlar ro'yxati

T/r	Tuman va shaharlar nomi	2017-yil	T/r	Tuman va shaharlar nomi	2021- yil
1.	Urgut tumani	448	1.	Sariosiyo tumani	11
2.	Samarqand shahri	221	2.	Navbahor tumani	3
3.	Samarqand tumani	151	3.	Baxmal tumani	3
4.	Chiroqchi tumani	148	4.	Angren shahri	3
5.	Kattaqo'rg'on tumani	123	5.	Sho'rchi tumani	3
6.	Shahrixon tumani	100	6.	Samarqand shahri	2
7.	Kitob tumani	98	7.	Bulung'ur tumani	2
8.	Andijon tumani	92	8.	Urgut tumani	2
9.	Pastdarg'om tumani	83	9.	Termiz shahri	2
10.	Namangan shahri	69	10.	Denov tumani	2
11.	Denov tumani	63	11.	Uzun tumani	2
12.	Qo'qon shahri	62	12.	Chirchiq shahri	2
13.	G'ijduvon tumani	61	13.	Bekobod tumani	2
14.	Koson tumani	54	14.	Yunusobod tumani	2
15.	Narpay tumani	48	15.	Jalaquduq tumani	2
16.	Buxoro shahri	45	16.	Nukus shahri	1
17.	Olmazor tumani	44	17.	Beruniy tumani	1
18.	Jomboy tumani	42	18.	Qo'ng'iro't tumani	1
19.	Kattaqo'rg'on shahri	41	19.	Taxiatosh tumani	1
20.	Toyloq tumani	38	20.	Xo'jayli tumani	1
21.	Shayxontohur tumani	38	21.	Xo'jaobod tumani	1
22.	Ishtixon tumani	37	22.	Buxoro shahri	1
23.	Oqdaryo tumani	37	23.	Olot tumani	1
24.	Xazorasp tumani	36	24.	G'ijduvon tumani	1
25.	Sariosiyo tumani	35	25.	Shofirkon tumani	1

**Manba:** jadval O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

soni respublikaning ayrim hududlar kamaygan. Xususan, 2021-yilda 18 yoshga to'lmagan nikoh qurganlar soni 2020-yilga nisbatan Sirdaryo viloyatida 66,7 foizga, Toshkent viloyatida 35,7 foizga, Andijon viloyatida 25,0 foizga, Toshkent shahrida 25,0 foizga, Jizzax viloyatida 20 foizga, Samarqand viloyatida 18,2 foizga kamaygan.

Quyida Davlat statistika qo'mitasidan olingan ma'lumotlar asosida 2017–2021-yillar bo'yicha erta nikoh holati eng ko'p qayd etilgan tuman va shaharlar ro'yxati tuzildi (2-jadval).

2-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda erta nikohlar soni bo'yicha tuman va shaharlar reytingida Urgut tumani, Samarqand shahri, Samarqand, Chiroqchi va Kattaqo'rg'on tumanlari yetakchilik qilgan. Tahlillarga eng ko'p qayd etilgan beshta hududning to'rttasi Samarqand viloyatida joylashgan. Bu hududlarda erta nikohlarning asosiy sabablari o'rganilganda,

qizlarni erta turmushga berish an'alarining saqlanib qolganligi, mahalliy (streetip) va diniy normalar huquq normasidan ustunligi kuzatildi.

Misol tariqasida birgina Urgut tumanining o'zida FHDY bo'limi xodimlari tomonidan xonadon ma-xonadon o'rganilganda tug'ilishi rasmiylashtirilmagan 300 dan ortiq bolalar aniqlangan<sup>1</sup>. Bundan tug'ilganligi rasmiylashtirilmagan bolalarning ota-onalari orasida nikoh yoshiga yetmagan, qonuniy oila qurmaganlarning ulushi ham ko'pligini ko'rish mumkin.

2021-yil eng ko'p erta nikoh holati Sariosiyo tumanida (11 nafar) qayd etilgan. Reytingda yuqori o'rinda turgan tuman va shaharlarda ham 2-3 nafari erta nikoh holati kuzatilgan.

Tahlillarga ko'ra, 2017-yilda birinchi beshtalikni egallagan tuman (shahar)larning har birida 100 nafari erta nikoh holatlari qayd

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/k/2018/06/24>

etilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich atigi 3 nafarni tashkil qilgan.

Rasmiy ma'lumotlar bo'yicha erta nikoh holatlari kamaygan bo'lsa-da, amaliyot aksariyat holatlarda erta nikoh yashirin tusga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa erta nikoh holatlari va uning sabablarini sotsiologik tadqiqotlar orqali o'rganishni taqozo etadi.

**Xulosa.** Erta nikoh tarixiy, diniy, etnik, ijtimoiy va axloqiy ildizlarga ega bo'lgan yaxshi o'rganilmagan ijtimoiy hodisadir. Olib borilgan tadqiqotlar voyaga yetmagan onalar hamda ularning farzandlari o'rtasida erta onalikning oila, farzandlar va jamiyat uchun real ijtimoiy oqibatlarini aniqlash maqsadida maxsus tadqiqot o'tkazilmaganligini ko'rsatdi. Erta nikoh va erta tug'uruq haqida ma'lumotlar ko'pincha boshqa tadqiqotlarni o'tkazishda ikkinchi darajali mahsulot hisoblanganligini ko'rsatdi.

1. Inson huquqlari, jumladan, xotin-qizlar huquqlari, gender tengligi hamda erta nikoh holatlari

bilan bog'liq xalqaro talablar va me'yoriy-hujjatlar O'zbekiston Respublikasida milliy qonunchilikka joriy qilingan. Bu borada BMTning talablari doirasida hisobotlar berib kelinmoqda.

2. Erta nikoh holatlarida ixtiyoriylik va majburlash xatti-harakatlar o'rtasidagi farqni aks ettiruvchi normalar va mazkur holatlar uchun belgilangan javobgarlik choralarini tubdan takomillashtirish zaruriyati mavjud.

3. Erta nikoh holatlarida nikohni qayd etmaslik shar'iy nikoh holatida turmush qurishni aniqlashning konkret mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

4. Zararli urf-odat va mahalliy (streetip) hamda diniy normalarning huquq normasidan ustunligi kuzatildi.

5. Qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va javobgarlikka oid normalar ijrosi qoniqarsiz holatda bo'lib, buning asosiy sababi ishlab chiqilgan normalarning tatbiq etilishi va qo'llanishida amaliyot nuqtayi nazaridan "ishlamaydigan" normalar mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни // <https://www.lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси // <https://www.lex.uz>
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2020 йил 13 июлдаги “Эрта турмуш ва эрта туғруқ ҳолатлари ҳамда оилавий ажримлар билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги КҚ-105-IV-сонли қарори.
4. Abduramanov X., Alimjanova D., Dehqonov Sh. Erta turmush: yetti o'lchab, bir kesing. // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 48 b.
5. Абдураманов Х.Х., Содикова Ш.М., Абдусаматов Х.У. Эрта турмуш – барчага ташвиш. // Ёшлар учун қўлланма: услубий қўлланма. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”, 2022. – 32 б.
6. Норкулов Х. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масалалари. Монография. – Тошкент, 2021. – 240 б.
7. Ранние браки в странах Восточной Европы и Центральной Азии: региональный обзор // <https://eeca.unfpa.org>.



**Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
loyiha bosh ilmiy xodimi, geografiya fanlari doktori



**Raxmonov A.X.,**  
“Mauhalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
loyiha katta ilmiy xodimi

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERTA TUG‘URUQ HOLATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada erta tug‘uruq holatlari va uning asosiy sabablari keltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida erta tug‘uruq holatlari tahlil qilingan. Sotsiologik tadqiqotlar asosida erta tug‘uruq bilan bog‘liq muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so‘zlar:** ijtimoiy himoya, reproduktiv salomatlik, erta tug‘uruq, erta homiladorlik, jinsiy tarbiya.

**Аннотация.** В данной статье представлены информации случаев преждевременных родов и их основные причины, проанализированы случаи преждевременных родов в Республике Узбекистан. Выявлены проблемы, связанные с преждевременными родами на основе социологических исследований, разработаны предложения и рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** социальная защита, репродуктивное здоровье, ранние роды, ранняя беременность, половое воспитание

**Annotation.** This article presents information on cases of premature birth and its main causes, analyzes cases of premature birth in the Republic of Uzbekistan. Problems associated with premature birth on the basis of sociological studies are identified, proposals and recommendations for their elimination are also developed.

**Keywords:** social protection, reproductive health, early childbirth, early pregnancy, sex education

**Kirish.** Erta yoshdagi onalik bu qiz bolaning keyingi ijtimoiylashuviga katta ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy hodisa hisoblanib, u erta diniy nikohlar, o‘smirlarda akseleratsiya (o‘shish, rivojlanish jarayonining tezlashishi) va jinsiy faollikning erta boshlanishi, shuningdek, bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar bilan bog‘liq. Bularning barchasi voyaga yetmaganlarning reproduktiv salomatlik, homiladorlikni rejalashtirish usullari haqida kam xabardorligi, shoshilinch kontratsepsiya va abortni qo‘llash mumkinligi, rejasiz jinsiy aloqalarning oldini olish fonida sodir bo‘lmoqda.

O‘smir onaning sog‘lig‘iga xavf-xatar, ayniqsa, qishloq joylarida yuqori, chunki u yerda sog‘liqni saqlash tizimi kamroq rivojlangan. Ko‘pincha voyaga yetmaganlarning homiladorligi keyinchalik ginekologik kasalliklarga sabab bo‘lishi, tug‘uruqdagi qiyinchiliklar, shuningdek, bepushtlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli abort bilan tugaydi.

Tadqiqot ma’lumotlari o‘smir qizlar jinsiy hayotining erta boshlanishi natijasida homiladorlik va/yoki onalik yuzaga keladigan bir nechta asosiy ssenariylarini aniqlash imkonini beradi. Xususan,

ba'zi qizlar yigitini yo'qotib qo'ymaslik uchun uning jinsiy aloqa qilish talabini bajaradi. Qiz jinsiy aloqa qilish vaqti keldi, deb o'ylagan, jinsiy hayotning boshlanishi uni tengdoshlaridan "yuqoriroq" qiladigandek tuyulgan holatlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda jinsiy hayotni boshlash to'g'risidagi qarorni u mustaqil ravishda qabul qiladi, sherikni tanlaydi va tashabbus ko'rsatadi.

Qiz bola sevib qolib, yigit bilan uchrasha boshlaydigan, unda bo'lajak nikoh illyuziyasi yuzaga keladigan holatlar ham uchraydi. U homilador bo'lishdan qo'rqmaydi, chunki sherigi unga uylanishiga ishonchi komil. Qizlar moddiy foyda olish yoki sherigini "shantaj" qilish maqsadida jinsiy aloqaga kirishgan holatlar haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Erta tug'uruqqa o'smirlarning ota-ona bilan bog'liq muammolari ham bevosita ta'sir qiladi. Masalan, erda onalik ona yoki ota-onaning ikkalasi ham, ba'zan esa qarindoshlarining bir necha avlodi spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan, tez-tez sheriklarni o'zgartirib turadigan yoki tasodifiy jinsiy aloqalar qilib turadigan ijtimoiy nomaqbul, to'liqsiz oilalarda ham kuzatiladi.

Umuman olganda, erda homiladorlikning sabablari har qancha turlicha bo'lmasin, ularning

o'xshash jihati shundaki, deyarli barcha qizlar oshkor bo'lish, ota-onasi, yaqinlari va qarindoshlari tomonidan salbiy munosabat bildirilishidan qo'rqib, homiladorlikni yashirishadi. Ularning ko'pchiligi homiladorlik masalasini mustaqil ravishda hal qilishga urinmaydilar, tibbiyot muassasalariga murojaat qilmaydilar, natijada ular homiladorlikni to'xtatishga kechikadilar.

### Statistik tahlil

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda 18 yoshga to'lmagan qizlar orasida **1 496 ta** tug'uruq holati qayd etilib, 2018-yilga nisbatan 1,9 foizga kamaygan (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2018–2021-yillar mobaynida erda tug'uruqlar sonining kamayishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, respublikaning qolgan hududlarida o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, erda tug'uruqlar soni Namangan viloyatida – 67,5, Buxoro viloyatida – 35,9, Toshkent viloyatida – 32,8, Sirdaryo viloyatida – 24,0, Jizzax viloyatida – 12,3, Qashqadaryoda – 8,5, Toshkent shahrida – 7,7, Xorazm viloyatida esa 5,0 foizga ortgan.

*1-jadval*

### 17 yosh va undan kichik yoshda ona bo'lganlar soni, birlik

Hududlar	Yillar				2021-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %	2021-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi, %
	2018	2019	2020	2021		
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>1525</b>	<b>1195</b>	<b>959</b>	<b>1496</b>	<b>98,1</b>	<b>156,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	107	77	35	56	52,3	160,0
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	92	58	56	73	79,3	130,4
Buxoro	92	77	77	125	135,9	162,3
Jizzax	65	61	53	73	112,3	137,7
Qashqadaryo	223	202	182	242	108,5	133,0
Navoiy	21	18	19	20	95,2	105,3
Namangan	40	29	27	67	167,5	248,1
Samarqand	430	295	189	340	79,1	179,9
Surxondaryo	146	125	82	141	96,6	172,0
Sirdaryo	25	25	21	31	124,0	147,6
Toshkent	125	110	99	166	132,8	167,7
Farg'ona	67	47	48	64	95,5	133,3
Xorazm	40	25	28	42	105,0	150,0
Toshkent sh.	52	46	43	56	107,7	130,2

**Manba:** jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Respublikada erta tugʻuruqlar soni dinamikasini yillar kesimida tahlil qilish uning bir meʼyorda kechmaganligini koʻrsatadi. Xususan, 2018–2020-yillarda erta tugʻuruqlar soni muntazam kamayib borgan boʻlsa, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan ortganligini kuzatish mumkin. Agar 2020-yilda respublika boʻyicha erta tugʻuruqlar soni 959 nafarni tashkil etgan boʻlsa, 2021-yilda bu koʻrsatkich 1496 nafarga teng boʻlgan va oʻtgan yilga nisbatan 56,0 foizga koʻpaygan. Bunday oʻsish tendensiyasi respublikaning barcha hududlarida ham kuzatilgan. Ayniqsa, bu davrda erta tugʻuruqlar soni Namangan (2,48 marta), Samarqand (79,9%) va Surxondaryo (72,0%) juda yuqori surʼatda oʻsgan.

Oʻzbekistonda qayd etilgan erta tugʻuruq holatlarining uchdan ikki qismi (67,8%) 5 ta hudud: Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida qayd etilgan.

Respublikada eng koʻp erta tugʻuruq holati Samarqand (340 nafar) va Qashqadaryo (242 nafar), eng kam esa Navoiy viloyatida (20 nafar) kuzatilgan.

Erta tugʻuruq holatlari eng koʻp qayd etilgan hududlarda uning sabablarini aniqlashdan oldin aynan qaysi tuman va shaharlarda kuzatilganini tahlil qilsak.

Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida erta tugʻuruq holati eng koʻp qayd etilgan 25 ta tuman va shaharlar roʻyxati tuzildi (2-jadval).

2-jadvaldan koʻrinadiki, tahlil qilinayotgan davrda respublika boʻyicha eng koʻp tugʻuruq holati Samarqand shahrida qayd etilgan.

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Samarqand shahrida erta tugʻuruq holatining koʻpligini oʻrganish maqsadida tadqiqot oʻtkazilganida, bu holat, asosan, loʻli millatiga munsub oilalarda qayd etilgani, ularda aksariyat qizlar maktabda ham oʻqimasligi, uy sharoiti talabga javob bermasligi (kattalar, bolalar hammasi bir xonada yashaydi), qizlar erta jinsiy hayotga qiziqish bildirishi, kontratseptiv vositalardan mutlaqo foydalanmasligi, ijtimoiy himoya yondashuvini notoʻgʻri talqin qilish hollari (masalan, davlat tomonidan ijtimoiy nafaqa 14 yoshgacha tayinlanadi,

2-jadval

### Erta tugʻuruq holati eng koʻp qayd etilgan tuman va shaharlar roʻyxati

T/r	Tuman va shaharlar nomi	2018-yil	T/r	Tuman/shahar	2021-yil
1.	Samarqand shahri	106	1.	Samarqand shahri	117
2.	Urgut tumani	81	2.	Denov tumani	58
3.	Pastdargʻom tumani	51	3.	Qarshi shahri	54
4.	Qarshi shahri	41	4.	Kattaqoʻrgʻon tumani	35
5.	Samarqand tumani	31	5.	Pastdargʻom tumani	34
6.	Chiroqchi tumani	30	6.	Namangan shahri	34
7.	Qarshi tumani	27	7.	Kogon shahri	34
8.	Kitob tumani	23	8.	Qarshi tumani	32
9.	Beruniy tumani	22	9.	Koson tumani	29
10.	Jizzax tumani	22	10.	Andijon shahri	27
11.	Koson tumani	19	11.	Buxoro shahri	27
12.	Ishtixon tumani	19	12.	Urgut tumani	27
13.	Narpay tumani	19	13.	Jarqoʻrgʻon tumani	27
14.	Qoʻqon tumani	18	14.	Chiroqchi tumani	26
15.	Qamashi tumani	17	15.	Jomboy tumani	25
16.	Gʻuzor tumani	17	16.	Paxtakor tumani	24
17.	Chirchiq tumani	16	17.	Gʻuzor tumani	23
18.	Jomboy tumani	16	18.	Samarqand tumani	22
19.	Yuqorichirchiq tumani	15	19.	Yuqorichirchiq tumani	22
20.	Paxtakor tumani	14	20.	Sharof Rashidov tumani	19
21.	Shahrixon tumani	14	21.	Chipchiq shahri	19
22.	Paxtachi tumani	14	22.	Shahrisabz shahri	15
23.	Kattaqoʻrgʻon tumani	14	23.	Kitob tumani	14
24.	Gʻijduvon tumani	12	24.	Sherobod tumani	14
25.	Amudaryo tumani	12	25.	Chinoz tumani	14

Manba: jadval Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

undan keyin ota-onalarda qiz farzandidan “tezroq qutulish” motivatsiyasi yuqori) aniqlandi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, erta tug’uruq holati eng ko’p qayd etilgan 5 tuman va shaharning 3 tasi (Samarqand shahar, Kattaqo’rg’on va Pastdarg’om tumanlari) Samarqand viloyatida joylashgan.

Respublika bo’yicha erta tug’uruq holati eng ko’p qayd etilgan ikkinchi hudud – bu Denov tumani. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yilda tumanda 12 401 nafar, har 1000 kishiga nisbatan esa 31,3 nafar tug’ilish kuzatilgan. Xalqaro mezonlar bo’yicha Denov tumani tug’ilish darajasi “yuqori” hududlar qatoriga kiradi.

2018-yilda eng tug’uruqlar soni bo’yicha tuman va shaharlar reytingida Qarshi shahri 7-o’rinda turgan bo’lsa, 2021-yilda to’rt pog’ona ilgari lab 3-o’rinni egallagan. Ya’ni shaharda erta tug’uruqlar soni 2018-yildagi 27 nafardan 2021-yilda 54 nafarga yoki 2,0 martaga ortgan.

Erta tug’uruq holatlari, ayniqsa, 13-14 yoshli qizlar orasida ko’payib borayotgani tashvishli holdir (3-jadval).

3-jadvaldan ko’rinadiki, 2018-yilda 11 yoshli qiz (Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida) erta tug’uruq jarayonini boshidan kechirgan.

Tahlil qilinayotgan davrda 13 yoshdagi tug’uruqlar 50 foizga, 14 yoshdagilarda 30 foizga, 15 yoshdagilarda 2,7 martaga, 16 yoshdagilarda 90,6 foizga ortgan.

Erta va istalmagan tug’uruq holatlari yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oiladagi ijtimoiy-ma’naviy beqarorlik, aholining huquqiy savodxonligi va tibbiy madaniyatining yetarli emasligi sabab bo’lgan.

### Sotsiologik tadqiqot natijalari

Erta yoshda homilador bo’lish tug’ish jarayonida ona va bolaning sog’ligiga xavf solishi mumkin. Ma’lumki, 16-17 yoshgacha qizlar to’lishib, bo’ylari o’sib qoladi, ammo bu hali ularni ona bo’lish uchun yetilganliklarini bildirmaydi. Qizlar 16-17 yoshga to’lgani bilan ularda homilaning rivojlanishi va bola tug’ish uchun normal sharoit vujudga kelmagan bo’ladi. Tos suyaklari rivojlanmagani sababli tug’ish jarayonida jarrohlik usulidan foydalanishga to’g’ri kelishi mumkin.

Erta tug’uruq o’smir qizning reproduktiv salomatligiga bevosita ta’sir qiladi. Bu holat, albatta, yosh qizlarning turmush tarziga, bilim olishiga hamda farzand tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Salomatligini tiklash yo’lida o’smir qizlar alohida e’tiborga, qarovga va tibbiy muolajalarga ehtiyoj sezadi. Ushbu holatlar yosh oilaning iqtisodiy ahvoriga ham ta’sir qilishi mumkin.

2022-yilning mart oyida yigit-qizlarning erta turmush qurishi bo’yicha yoshlar, ota-onalar va ekspertlarning munosabatini o’rganish maqsadida Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida sotsiologik tadqiqot o’tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, erta turmushga chiqqan qizlarning 58,3 foizida homiladorlik, tug’uruq, tug’uruqdan keyingi davr og’ir kechgan, 25,0 foizida chaqaloq tug’ilganidan keyin 40 kun ichida vafot etgan. Faqat 16,7 foizining salomatligida jiddiy muammo bo’lmagan.

Homiladorlik davrida har bir ayol bir qancha mutaxassislarning nazoratida turli tibbiy ko’riklardan o’tishi shart. Bundan ko’zlangan maqsad ona va tug’ilajak bolaning salomatligiga

3-jadval

### Onasining yoshi bo’yicha erta tug’uruqlar soni (birlik)

Yosh	Yillar					2021-yilda 2017-yilga nisbatan o’zgarishi, %
	2017	2018	2019	2020	2021	
11	-	1	-	-	-	
12	1	2	1	-	1	100,0
13	2	3	5	2	3	150,0
14	10	8	14	7	13	130,0
15	34	69	66	43	92	270,6
16	180	287	216	167	343	190,6
17	1097	1155	893	740	1044	95,2
<b>Jami</b>	<b>1324</b>	<b>1524</b>	<b>1195</b>	<b>959</b>	<b>1496</b>	<b>113,0</b>

Manba: jadval O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

ziyon yetkazishi mumkin bo'ladigan potentsial xavf-xatarni aniqlab, bu jarayon rivojlanishining oldini olishdan iborat. Homiladorlik paytida shifokorlar tomonidan belgilangan barcha grafikli ko'riklardan 48,0 foiz yosh kelinlar o'z vaqtida o'tib borgan, 43,1 foizi tibbiy ko'riklarning bir qismidan o'tgan. Achinarlisi, 8,9 foizi homiladorlik paytida tibbiy ko'rikdan umuman o'tmagan. Bu ko'rsatkich Qashqadaryoda 16,3 foizni, Namanganda 14,9 foizni tashkil etdi.

Tibbiy ko'rikdan o'tmaganlik sabablari o'rganilganida, 49,5 foiz respondentlar "oila a'zolarim ruxsat berishmadi", 38,6 foizi – "vaqt ajrata olmadim", 7,9 foizi – "u yerda xizmatlarga sarflash uchun mablag'im yo'q", deb javob bergan.

Homiladorlikning oxirgi uch oyida uy yumushlaridan ozod qilinishi ona va bola salomatligi uchun nihoyatda muhim. Tadqiqot natijalariga ko'ra, faqat 14,2 foiz kelinlar homiladorlikning oxirgi uch oyida uy yumushlaridan ozod qilingan, 42,6 foizi ozod qilinmagan, 43,1 foizi esa kuch va energiya talab qilmaydigan ishlarni bajargan.

Homiladorlik paytida homiladorlik va farzand ko'rishga o'smir qizlarning 19,9 foizi ruhan, 32,7 foizi fiziologik jihatdan, 35,8 foizi homiladorlikni to'g'ri yuritishga tayyor bo'lmagan.

#### Xulosa:

1. Erta tug'uruq psixologik, jismoniy, jinsiy zo'ravonlik va moliyaviy nazorat bilan kuzatilgan ko'plab holat hisoblanadi. Voyaga yetmagan onalar o'zlarining jismoniy va ma'naviy daxlsizlik, shaxsiy erkinlik uchun konstitutsiyaviy huquqlari, nikohga kiruvchi erkaklar va xotin-qizlarning o'zaro ixtiyoriy roziligi hamda ularning nikoh yoshiga yetishi lozimligi, voyaga yetmaganlar o'rtasida zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy usullari haqida xabardorlik darajasi ham yetarli emasligini ko'rsatdi.

2. Voyaga yetmagan onalar homiladorlik va tug'ish vaqtida nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham huquqiy, psixologik va ijtimoiy ko'magiga nihoyatda muhtojligini ko'rsatdi. Ularga o'qishni davom ettirishi, mutaxassislikka ega bo'lishi, ijtimoiy stigmani yengishi va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishida ham yordam berish zarur.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibiga oid hamkor tashkilotlarning funksiyalarini va monitoringini, javobgarligini aniqlash

belgilovchi normativ hujjat qabul qilish zaruriyati mavjud.

4. Chekka qishloq hududlarida qizlarni ta'lim bilan uzviy qamrab olish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali stimulyatsiya holatini yuzaga keltiruvchi mexanizm va davlat bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi yo'lga qo'yilmaganini inobatga olib, bu borada hukumat va mahalliy hokimiyatlar doirasida vaqtinchalik nizom va qarorlarni ishlab chiqish zarurati bor.

#### Taklif va tavsiyalar:

– erta tug'uruq holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi yagona portal tizimini yaratish va erta turmush, erta tug'uruq aniqlangan elektron tarzda hududlardagi o'zgarishlarning kuzatuv xaritasini yaratish. Bunda *Girls Not Brides: The Global Partnership to End Child Marriage* kabi strategik dasturlarda hamkorlik qilish;

– tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va ijtimoiy sohaning boshqa xodimlarini erta nikoh tahdidi ostida bo'lgan qizlarni aniqlash bo'yicha o'qitish, bunday turmush qurgan voyaga yetmagan qizlarga tegishli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha yordam berish;

– maktab dasturiga o'quvchilarning madaniy va yoshidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda jinsiy tarbiya hamda jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha o'quv kursini joriy etish;

– joylarda profilaktika inspektorlari va o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan voyaga yetmaganlar orasida erta tug'uruq holatlari va tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni himoya qilishiga qaratilgan faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan nizoli oilalar o'rtasida profilaktik tadbirlarini amalga oshirish;

– erta tug'uruq va homiladorlik holatlari kuzatilgan hududlarda voyaga yetmagan yoshlarning oilaviy poliklinika, qishloq vrachlik punktlarida onlayn ro'yxatini shakllantirish, ularning nazoratini kuchaytirish, bu orqali chaqaloqlar savdosining oldini olish;

– o'quv dasturlariga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini targ'ib etuvchi o'quv seminarlarini kiritish, voyaga yetmagan yoshlarning pornografik mazmundagi kanallarga kirish, materiallarni tarqatishni salbiy oqibatlarini profilaktika inspektorlarini jalb qilgan holda o'quv kurslarini tashkil etish (profilaktika kunini haftada kamida bir-ikki marta tashkil etish).

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг репродуктив саломатлигини сақлаш тўғрисида”ги Қонуни // <https://www.lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2020 йил 13 июлдаги “Эрта турмуш ва эрта туғуруқ ҳолатлари ҳамда оилавий ажримлар билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги КҚ-105-IV-сонли қарори.
3. Abduramanov X., Xonto‘rayev B., Zokirov Sh. Erta turmush va erta tug‘uruq holatlari: muammo va yechimlar. / Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Bookmany print” nashriyoti, 2022. – 84 b.
4. Ранние браки и ранние и нежелательные беременности // ЮНЕСКО. Исполнительный совет, 207-й, 2019.



**Alimov Sardor Komil o'g'li,**

*“Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

[sardoralimov2507@mail.ru](mailto:sardoralimov2507@mail.ru)

## MIGRANT AYOLLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH MASALALARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha asosiy yo'nalishlar, ijtimoiy himoya shakllari va xalqaro huquq nuqtayi nazaridan ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq muammolarga global nuqtayi nazardan yondashilgan. Xususan, muallif tashqi mehnat migratsiyasida bo'lgan ayollarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha o'z fikrlarini ilgari surgan, tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqqan.

**Tayanch so'zlar:** migratsiya, migrant ayol, ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya yo'nalishlari, oila, ikki barobar noqulaylik, bandlik, ijtimoiy nafaqa, XMT, ijtimoiy muammolar.

**Аннотация.** В данной статье основные направления социальной защиты женщин-мигрантов, формы социальной защиты и проблемы, связанные с социальным обеспечением с точки зрения международного права, рассматриваются с глобальной точки зрения. В частности, автор выдвинул свои взгляды на социальную защиту женщин в внешней трудовой миграции, разработал соответствующие предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** миграция, женщина-мигрант, социальная защита, направления социальной защиты, семья, двойное неблагоприятие, занятость, социальные льготы, МОТ, социальные проблемы.

**Abstract.** In this article, the main directions of social protection of migrant women, forms of social protection and problems related to social security from the point of view of international law are approached from a global point of view. In particular, the author put forward his views on social protection of women in external labor migration, developed relevant suggestions and recommendations.

**Keywords:** migration, migrant woman, social protection, areas of social protection, family, double disadvantage, employment, social benefits, ILO, social problems.

**Kirish.** Bugungi kunda migrant ayollarni huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan himoya qilish, qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish haqida gapirishdan oldin ijtimoiy himoyaning o'zi nima ekanligi va uning tarkibiy qismlari, asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat ekanligiga e'tibor qaratish lozim.

Ijtimoiy himoya olish insonning eng asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya

yoki ijtimoiy ta'minot – insonning butun hayoti davomida qashshoqlik, ijtimoiy zaiflik yoki ijtimoiy izolyatsiya xavfini kamaytirish hamda oldini olishga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlar yoki dasturlar to'plami<sup>1</sup>. Ijtimoiy himoya bu keng ma'noda,

<sup>1</sup> Доклад о социальной защите в мире в 2017–2019 годах. Обеспечение всеобщей социальной защиты для достижения Целей в области устойчивого развития / Группа технической поддержки по вопросам достойного труда и Бюро МОТ для стран Восточной Европы и Центральной Азии. – Москва: МОТ, 2018. – С. 210.



mamlakat aholisining ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan hamda jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuyi, tor ma'noda esa davlat va jamiyatning aholining yoshi, salomatlik holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliqi hisoblanadi<sup>2</sup>. Ya'ni ijtimoiy himoya davlatning himoyaga muhtoj, qiyin ahvoldagi, og'ir ijtimoiy sharoitga tushib qolgan toifalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus chora-tadbirlar tizimini anglatadi.

Xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida O'zbekistonda ham migrantlar, xususan, migrant ayollarning manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizning migratsiyaga oid siyosatida o'ziga xos strategiya ishlab chiqilgan bo'lib, "bu borada taqdim etilayotgan strategiya asosida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ular qayerda ekanliklaridan qat'i nazar, ishonchli himoyasini ta'minlash masalasi turibdi"<sup>3</sup>. O'z navbatida, migrant ayollarning ijtimoiy himoyasi mazkur yo'nalishdagi davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Ijtimoiy himoya faqatgina davlatning vazifasi hisoblanmaydi, balki og'ir ijtimoiy sharoitga tushib qolgan insonlarga ko'mak berish fuqarolik jamiyatining turli institutlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, boshqa insonlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy siyosatida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanib, u aholining nochor tabaqalarini moddiy ta'minlash bilan bir qatorda, vaqtincha ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlash, boshpanasizlarga uy-joy berish, tadbirkorlik va boshqa sohalarida qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish, yangi ish o'rinlarini barpo etish, korxonalarda xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy sherikchilikni yo'lga qo'yish<sup>4</sup> kabi chora-tadbirlarni qamrab oladi.

2 Хошимов П.З., Абдуллаева Ш.Е. Аҳолини ижтимоий химоя қилишнинг назарий асослари // Экономика и финансы (Ўзбекистан). – 2012. – №. 9. – С. 21-26.

3 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 446.

4 Эгамбердиева Н., Сайдивалиева Х. ва бошқалар. Ижтимоий шартномани қўллашнинг ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий асослари // услубий қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. – Б. 39.

Umuman olib qaraganda, ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy siyosatining bir qismi sifatida o'z tarkibida quyidagi elementlarni jamlaydi:

- aholi bandligini ta'minlash;
- ta'lim, xususan, kasbga o'qitish;
- daromadlarning kafolatlanishi;
- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish;
- aholiga tibbiy [izmat ko'rsatish;
- ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismiga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Aslida, xotin-qizlar bevosita ijtimoiy zaif qatlam hisoblanmaydi. Lekin migrant ayollarni ijtimoiy himoyaga muhtoj deb hisoblash mumkin. Chunki migrant ayollar, xususan, mehnat migrantlari bo'lgan ayollarning ishlash maqsadida o'z yashash joylarini o'zgartirishlari emigrant jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liq. Migrant ayollarning boshqa hududga ketishlarida asosiy omil sifatida ularning ish bilan ta'minlanmaganligi yoki mavjud ish o'rinlarining yetarlicha daromad bilan kafolatlanmaganligini ko'rsatish mumkin. Yoki ayollar, ayniqsa, 16–25 yoshdagi xotin-qizlarning chet elga ketishlarida o'zlari yashaydigan mamlakatda ta'lim olish imkoniyatining cheklanganligini kuzatishimiz mumkin. Yoxud boshqa ko'rinishdagi turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, geografik, oilaviy-maishiy muammolar ham ayollarning ko'chishlariga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan olib qaraganda, odatda migrant ayollar o'zlari yashab ishlayotgan retsipiyent (qabul qiluvchi) davlat yoki o'z mamlakatlari ichidagi boshqa hududda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni tashkil etishadi. Ularning aksariyati ijtimoiy himoya kafolatlanmagan ish joyiga ega bo'lishadi, ijarada yashashadi, ijara shartnomasi yoki ijtimoiy sug'urta tuzishmaydi, Fertil yoshida bo'lganliklari sababli aksariyat qismida voyaga yetmagan farzandlar mavjud bo'ladi. Ushbu omillar migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilishda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish migratsiyaning ichki yoki tashqi migratsiya ekanligiga ko'ra farqlanadi.

Tashqi mehnat migratsiyasida bo'lgan ayollar va ularning farzandlarini ijtimoiy himoyaga muhtoj toifaga kiritish mumkin. Bunday toifadagi migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilishda bir necha yo'nalishlarni hisobga olish lozim:




1-rasm. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari

– migrant ayollar va ularning voyaga yetmagan farzandlari immigrant davlatning ijtimoiy soha obyektlari uchun qo‘shimcha bosim ekanligi bois retsiptiyent davlat ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlashi lozim bo‘ladi;

– boshqa tomondan, migrant ayol donor (jo‘natuvchi) mamlakatdagi ijtimoiy muammolar,

qiyinchiliklar sababli ko‘chishga majbur. Ko‘pincha voyaga yetmagan farzandlari o‘z vatanida qolishi mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy himoyasi bilan ularning fuqaroligi tegishli bo‘lgan donor mamlakatlarning shug‘ullanishini talab qiladi.

Globallashuv davrida aholi migratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri feminizatsiya, ya’ni



2 rasm. Xalqaro migrantlarning migratsiya yo'nalishlari (jins kesimida)

migrant ayollarning ulushi ortib borishi hisoblanadi. 1960-yildayoq migrant ayollarning migratsiyadagi ulushi deyarli 47 foizga yetgan<sup>5</sup>. Bugungi kunda esa migrantlarning 52 foizi erkaklar, 48 foizi esa ayollar bo'lib, migrantlarning deyarli yarmini ayollar tashkil etmoqda<sup>6</sup>, ular oilalari bilan yoki o'zlari mustaqil yashash joylarini o'zgartirishmoqda. Ayollar migratsiya jarayonida an'anaviy tarzda ikkinchi to'lqin sifatida, erkak migrantlarning ortidan ergashuvchi oqim sifatida talqin etilib kelinadi. Bugungi kunda xalqaro migratsiyaning asosiy yo'nalishlari Yevropa, Shimoliy Amerika, G'arbiy Osiyo mintaqasiga yo'nalganligini kuzatishimiz mumkin. Ayollarning migratsiyadagi ulushi deyarli tenglikni hosil qilsa-da (48 foiz), Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalaridan ketuvchi (39 foiz) hamda Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyoga keluvchi (36 foiz) ayollarning ulushi umumiy ko'rsatkichdan past ekanligi ma'lum bo'ladi.

Migrant ayollar, ularning farzandlari hamda oilalari turli omillar, motivlar sababli o'z yashash joylarini o'zgartirishga harakat qilishadi:

- farzandlarining xavfsizligini ta'minlash, ular uchun yaxshi sharoit yaratib berishga intilish;
- tazyiq, zo'ravonlik va turli ta'qiblardan qochish;
- oilalarning birgalikda yashashiga intilish, oilani birlashtirish;
- qashshoqlikdan qochish, farovonlik, ish va yashash uchun qulay joy izlash va boshqalar<sup>7</sup>.

Mazkur muammolarning aksariyati ijtimoiy xarakter kasb etadi. Ya'ni ayollarning migratsiyasi odatda davlatda mavjud ijtimoiy himoya tizimidagi qiyinchiliklarning natijasida sodir bo'ladi. Qolaversa, ayollarning migratsiya qilish jarayonida yoki retsipiyent mamlakatda jinsiy zo'ravonlik, odam savdosi qurboni bo'lish xavfi yuqori ekanligi, kam haq to'lanuvchi, xavfli va ijtimoiy himoya

qilinmaydigan ish joyi, diskriminatsiya kabi omillar ham migrant ayollarning ijtimoiy himoya qilinishi global zaruriyat ekanligini ko'rsatadi.

Har qanday migrant ayol, u qaysi mamlakatdan kelganidan qat'i nazar, ijtimoiy himoya qilinishga, ta'lim va tibbiy xizmatlar, huquqiy yordamga muhtoj bo'ladi. Odatda migrant ayollar tashqi migratsiyada ikki marotaba ko'proq bosimga duch kelishadi, bir tomondan, ayol ekanligi tufayli salbiy gender stereotiplar, stigma va diskriminatsiyaga uchrasa, ikkinchi tomondan esa xorijlik ishchi kuchi sifatida retsipiyent jamiyat bosimini his qiladi. "Gender tafovut" va "migratsiya tafovuti" tufayli sodir bo'ladigan ikki barobar ko'p ijtimoiy bosim fenomeni yevropalik tadqiqotchilar tomonidan "double disadvantage", ya'ni "ikki barobar noqulaylik" sifatida talqin etiladi<sup>8</sup>. Bu ikki omilning o'zaro qo'shilib ketishi migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish tizimida ham ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Migrant ayollarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvda qiyinchiliklar, ular orasida ishsizlik darajasi yuqori ekanligi, migrant ayollarning ijtimoiy faollik darajasi mahalliy aholi ayollariga nisbatan pastroq bo'lishi, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini muvozanatlashtirishda qiyinchiliklar, ta'lim darajasi va malakalarning tan olinmasligi kabi muammolar bilan duch kelishi shunday muammolar sirasiga kiradi. Bunday muammolarni nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatish mumkin.

Masalan, 2020-yilda Irlandiyada 89 000 nafarga yaqin Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan donor mamlakatlardan kelgan migrant xotin-qizlar istiqomat qilgan, bu esa mamlakatda yashagan doimiy ayollarning 3,5 foizini tashkil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlatlardan kelgan migrant ayollar irlandiyalik ayollarga qaraganda og'irroq ijtimoiy sharoitda yashaydi va ular orasida perinatal o'limlar boshqa guruhlariga qaraganda yuqori. Bunga gender va oiladagi zo'ravonlik, kamsitish, boshpanasizlik va to'g'ridan to'g'ri turarjoy bilan ta'minlash tizimida yashovchi ayollarning ijtimoiy zaifligi kabi ijtimoiy inklyuziya (ijtimoiy integratsiya) tizimidagi muammolar ham sabab bo'lmoqda. Migrant ayollar Irlandiyada boshqa guruhlariga qaraganda odam savdosi xavfiga ko'proq duch kelishadi. Bu holat

<sup>5</sup> Zlotnik H. 2003. "The Global Dimension of Female Migration." Accessed 5 February 2019. <https://www.migrationpolicy.org/article/global-dimensions-female-migration>.

<sup>6</sup> World Migration Report 2020. ([https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr\\_2020-ru.pdf](https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf)). International Organization for Migration. - P. 22.

<sup>7</sup> Прогресс женщин мира в 2019–2020 годах. Семьи в меняющемся мире. ООН-женщины. США, Нью-Йорк, 2019, ст. 204. <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/Library/Publications/2019/Progress-of-the-worlds-women-2019-2020-ru.pdf>

<sup>8</sup> Grubanov-Boskovic S., Tintori G., Biagi F. Gaps in the EU Labour Market Participation Rates. 2020.

faqatgina Irlandiyaga xos emas. Yevropa Ittifoqi bo‘ylab o‘tkazilgan “Yevropa migratsiya tizimi” (“European Migration Network” – EMN) ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, migrant ayollar Yevropa Ittifoqining deyarli barcha davlatlarida xuddi shunday muammolarga duch kelishadi<sup>9</sup>. Yoki Markaziy Osiyolik migrantlar, xususan, o‘zbekistonlik migrant ayollar uchun asosiy retsiyent mamlakat hisoblanuvchi Rossiya Federatsiyasida mehnat muhojirlarining ishlashlari uchun patent olishlari talab qilinadi. Lekin olingan patent mehnat shartnomasini tuzish yoki tibbiy xizmatdan foydalanish bilan bog‘liq muammolarni hal qilmaydi<sup>10</sup>. Bu kabi holatlar barcha migrantlar, ayniqsa, ayol migrantlarni ijtimoiy himoya qilishda katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ayol migrantlarni ijtimoiy himoya qilish bugungi kunda global muammolardan biri hisoblanadi.

Migrant ayollarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash murakkab jarayon. Tashqi migratsiyadagi yordamga muhtoj ayollarni ijtimoiy himoya qilishning quyidagi **asosiy yo‘nalishlari** mavjud:

**Migrant ayollarning farzandlarini hamda oilalar va onalikni ijtimoiy himoya qilish.** Migrant ayollar ba‘zi holatlarda o‘z oilasi, farzandlari bilan birgalikda boshqa mamlakatga ko‘chishadi. Oila va uning yaxlitligi yuksak ijtimoiy axloqiy qadriyat hisoblanadi. Qolaversa, bolalar ijtimoiy jihatdan doimiy e‘tibor va himoyaga muhtoj bo‘lishadi. Ular ta‘lim olishlari, kamida o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lishlari, sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanishlari (masalan, tibbiy ko‘rik, kasalliklardan emlanish kabi), ijtimoiy madaniy obyektlarga borishlari, jamiyatga adaptatsiya qilishlari lozim.

Oilalar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash migrant ayollarning ijtimoiy himoyasida asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Oilaviy migratsiyani qo‘llab-quvvatlashdan immigrant mamlakat ham, emigrant mamlakat ham ma‘lum ma‘noda manfaatdor. Immigrant mamlakat uchun oilasi yonida bo‘lgan migrant – maxsus bilimga ega bo‘lgan mutaxassis mamlakatda qolishi ehtimoli oshadi, jamiyat uning potensialidan foydalanadi.

<sup>9</sup> Stapleton A., Polakowski M., Quinn E. The integration of non-EU migrant women in Ireland. – 2022. ([https://www.esri.ie/system/files/publications/RS148\\_5.pdf](https://www.esri.ie/system/files/publications/RS148_5.pdf))

<sup>10</sup> Рязанцев С. В. Патенты вывели из тени» больше миллиона мигрантов //Миграция XXI век. – 2012. – №. 2. – С. 45-47.

Emigrant mamlakat uchun esa migrantning ortida qolgan oilani ijtimoiy himoya qilishda bosim kamayadi, noto‘liq oilalarning yuzaga kelish xavfi kamayadi. Shu tufayli ham ko‘plab rivojlangan mamlakatlar malakali migrantlar uchun oilalarni birlashtirishga oid turli dasturlarni ilgari surishadi, mazkur oilalarning ijtimoiy himoyasi ham ta‘minlanadi. Bunday oilalarni birlashtirish dasturlari Kanada<sup>11</sup>, AQSh<sup>12</sup>, Germaniya<sup>13</sup>, Shvetsiya<sup>14</sup> kabi rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Lekin aksariyat migrantlarning individual tarzda ko‘chishlarini inobatga olsak, ularning oilalari va farzandlarining ijtimoiy muhofazasi uchun mamlakatlar orasida ikki yoki ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish, samarali ijtimoiy shartnoma yoki sug‘urta tizimini yaratish talab qilinadi.

**Mehnat migranti bo‘lgan ayollarni ish bilan ta‘minlash.** Migrant ayollar, odatda, erkaklarga nisbatan kam haq to‘lanuvchi, jismoniy jihatdan katta kuch talab qilmaydigan ishlar, masalan, xizmat ko‘rsatish sohasida, umumiy ovqatlanish tizimi, uy ishlari, jamoatchilik ishlarida faoliyat olib borishadi. Ko‘p holatlarda bunday ishlar uchun mehnat shartnomasi tuzilmaydi yoki kuchli ijtimoiy himoya bilan ta‘minlanmaydi, ijtimoiy sug‘urtalanmaydi. Butun dunyo bo‘yicha 2019-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklarning (128 mln – 52,1%) va ayollar (117,6 mln – 47,9%) ulushi deyarli teng bo‘lsa ham, mehnat migranti sifatida faoliyat yuritayotgan erkaklarning soni ayollar sonidan 28,8 millionga ko‘proq. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida ayol migrantlar orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, ba‘zida esa ularning ro‘yxatdan o‘tmasdan mehnat faoliyati olib borishini ko‘rsatish mumkin. Xususan, ayol migrantlar orasida yuqori ishsizlik holatini Janubiy Yevropa mamlakatlari (Italiya, Gretsiya, Portugaliya)da kuzatishimiz mumkin<sup>15</sup>. Bu esa

<sup>11</sup> <https://www.canada.ca/en/immigration-refugees-citizenship/corporate/transparency/committees/cimm-may-12-2022/family-reunification.html>

<sup>12</sup> <https://www.business-visa-usa.com/family-reunification-in-usa>

<sup>13</sup> <https://www.bamf.de/EN/Themen/MigrationAufenthalt/ZuwandererDrittstaaten/Familie/familie-node.html#:~:text=Spouses%20and%20registered%20partners%2C%20parents,of%20marriage%20and%20the%20family.>

<sup>14</sup> <https://www.informationsverige.se/en/jag-har-kommit-utan-mina-foraldrar/familjeaterforening/>

<sup>15</sup> How to strengthen the integration of migrant women? Migration Policy Debates No. 25, November. 2020. Available at [www.oecd.org/migration/mig/migration-policy-debates-25.pdf](http://www.oecd.org/migration/mig/migration-policy-debates-25.pdf).



ayollar migrantlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda muammolar keltirib chiqaradi. Ba'zi holatlarda esa mehnatga layoqatli yoshdagi migrant ayollarning mehnat faoliyati olib bormasligi ham kuzatiladi.

1-jadval

**Xalqaro mehnat migrantlari, boradigan mamlakatlarining iqtisodiy holati va migrantlarning jinsi bo'yicha<sup>16</sup>**

Iqtisodiy rivojlanish holati bo'yicha mintaqalar	Mehnat migrantlari (million nafar)			Jami mehnat migrantlaridagi ulushi (%)		
	Erka-klar	Ayol-lar	Jami	Erka-klar	Ayol-lar	Jami
Rivojlanmagan	3,7	2,4	6,1	2,2	1,4	3,6
Kam rivojlangan	10,5	5,6	16,0	6,2	3,3	9,5
Rivojlangan	19,5	13,5	33,0	11,5	8,0	19,5
Yuqori darajada rivojlangan	65,3	48,5	113,9	38,6	28,7	67,4
Dunyo bo'yicha jami	<b>98,9</b>	<b>70,1</b>	<b>169</b>	<b>58,5</b>	<b>41,5</b>	<b>100</b>

Migrant ayollarni teng haq to'lanuvchi, ijtimoiy himoyalangan ish bilan ta'minlash ularning eng asosiy ijtimoiy muammolarini hal qilishga olib keladi. Bu muammo ham donor, ham retsipiyent davlatlarga taalluqli. Agarda donor mamlakat o'z fuqarolari bo'lgan ayollarga munosib ish joyi, huquqlari himoyalangan mehnat sharoitini yaratib bera olsa, katta ehtimol bilan ayollar migratsiyasining ulushi kamayadi. Aks holda, ayollar tashqi mehnat bozorini izlashga majbur bo'lishadi.

**Ish vaqtida jarohatlanganda va kasalliklarda ijtimoiy yordam ko'rsatish.** Yuqorida ta'kidlaganimizdek, migrant ayollar mahalliy xotin-qizlarga nisbatan kam malaka talab qiladigan, past haq to'lanuvchi ishlarda ishlashni ma'qul ko'rishadi. Bunday ishlarda migrant ayollar uchun nafaqat ijtimoiy va huquqiy himoya past, balki texnik yoki sanitar xavfsizlik holati ham talab darajasida bo'lmaydi. Bu esa migrant ayollarning turli ko'rinishdagi jarohatlar olishiga, turli yuqumli kasalliklar yuqtirishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Yevropa mamlakatlarida Covid-19 pandemiyasi davrida aynan migrant ayollar virus

<sup>16</sup> ILO Global Estimates on International Migrant Workers – Results and Methodology. Third edition. Geneva. Available at [www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms\\_808935.pdf](http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms_808935.pdf).

yuqtirib olishda himoyasiz qolib ketishgan<sup>17</sup>. Migrant ayollarning kasalliklar yoki jarohat tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda ijtimoiy himoya qilish ular uchun qonuniy, mehnat shartnomasi tuzgan holatda ishga kirishi, ish beruvchining jamoat shartnomasi mazkur holat uchun nafaqalar tayinlanishi belgilab qo'yilishi zarur. Migrant ayolning ijtimoiy himoyasini ijtimoiy sug'urta tizimi orqali ham ta'minlash mumkin.

**Migrant ayollarning sog'lig'ini saqlash, reproduktiv salomatligini ta'minlash.** Migratsiya jarayoni va boshqa davlatda yashash, ishlash migrant ayollarning salomatligini saqlash bilan bog'liq ba'zi muammolarni yuzaga chiqaradi. Aksariyat migrant ayollar farzand ko'rish yoshida bo'lgani sababli doimiy ravishda tibbiy xizmatlardan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Lekin aksariyat holatda donor va retsipiyent mamlakatlarda tibbiyot tizimi, xususan, ijtimoiy tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida farqlar katta bo'lgani tufayli migrant ayollarning tibbiy xizmatdan foydalanish bilan bog'liq huquqlari to'liq ta'minlanmaydi. Masalan, Rossiyadagi mavjud qonunchilik tizimida, mehnat migranti sifatida mamlakatga tashrif buyurgan ayollarning 60 foizdan ortig'i faol reproduktiv yoshda bo'lsa-da<sup>18</sup>, homilador migrant ayollarning tug'uruqqa qadar bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi belgilanmagan<sup>19</sup>. Bu esa migrant ayollarning homiladorlik davrida ijtimoiy himoyadan foydalana olmasligiga yoki mahalliy aholi ayollariga nisbatan qimmat narxda foydalanishiga olib keladi. Ba'zi holatlarda mazkur omil migrant ayollar uchun homiladorlik va tug'uruqning qiyinlashuviga, ona va bola salomatligi xavf ostida qolishiga, hatto onalar va bolalar o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

**Migrant ayollarni keksalik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqalar bilan ta'minlash.** Mazkur yo'nalishda ijtimoiy himoya

<sup>17</sup> Foley, L. and N. Piper. Covid-19 and the transformation of migration and mobility globally – COVID-19 and women migrant workers: Impacts and implications. IOM, Geneva. 2020. Available at <https://publications.iom.int/books/covid-19-and-transformation-migration-and-mobility-globally-covid-19-and-women-migrant>.

<sup>18</sup> Тюрюканова Е. В. и др. Женщины-мигранты из стран СНГ в России/под ред //Тюрюкановой ЕВМ: МАКС Пресс. – 2011.

<sup>19</sup> Илимбетова А. А. Социальные аспекты женской трудовой миграции в Россию //Известия высших учебных заведений. Социология. Экономика. Политика. – 2013. – №. 2. – С. 71-75.



olish nafaqat migrant ayollarning, balki migrant erkaklarning ham huquqi hisoblanadi. Lekin buni ta'minlash oson ish emas. Chunki aksariyat holatda mazkur nafaqalardan mamlakatning ijtimoiy himoyaga muhtoj o'z fuqarolari foydalanishadi. Migrantlar, xususan, migrant ayollarning esa keksalik nafaqasini olishlari uchun yoki donor mamlakat fuqaroligini olishi yoki uzoq muddat (ko'p mamlakatlarda 15 yil) mamlakat hududida qonuniy asoslarga ko'ra yashagan bo'lishi<sup>20</sup> talab etiladi. Mazkur yo'nalishda migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilishda mamlakatlar orasida ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar imzolash, tegishli xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish orqali huquqiy asoslar yaratilishi kerak bo'ladi.

Tashqi migratsiya kamida ikki mamlakat o'rtasida sodir bo'ladigan jarayon bo'lgani tufayli mazkur holatda migrant ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Xalqaro migratsiya tashkilotining tadqiqotlari natijasiga ko'ra, turli qit'alardagi 120 mamlakatdan 70 tasi yoki 58 foizi o'z fuqarolari va migrantlarning ijtimoiy sug'urta orqali tartibga solinadigan barcha sohalarida (sog'liqni saqlash sohalaridan tashqari) tengligini qonun bilan ta'minlaydi. 73 mamlakatda bunday tenglik sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishga oid qonunchilikda. Biroq 105 mamlakatda esa ish joyida olingan jarohat uchun nafaqalar belgilash bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. 120 mamlakatdan 26 tasida ikki tomonlama, 43 davlatda esa ko'p tomonlama shartnomalar mavjud emas. Ikki tomonlama kelishuvlarga ega mamlakatlarning atiga 8 tasida (yoki 30,8 foizi) 20 dan ortiq shunday mazmundagi shartnomalar mavjud<sup>21</sup>. Bu raqamlar faqatgina ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarning tuzilganligini bildiradi, lekin mazkur shartnomalarga mamlakatlarning amal qilganligi yoki qilmaganligi bu muammoning ikkinchi tomoni. Qolaversa, ikki tomonlama shartnomalar ko'pincha ijtimoiy himoyaning faqatgina ma'lum bir sohalarini qamrab oladi,

<sup>20</sup> Hirose K., Nikac M., Tamagno E. Social security for migrant workers: a rights-based approach. – Budapest: ILO, 2011. – P. 9.

<sup>21</sup> Van Panhuys C., Kazi-Aoul S., Binette G. Migrant access to social protection under Bilateral Labour Agreements a review of 120 countries and nine bilateral arrangements // ILO Working Papers. – 2017. – Paper Series No. 57 (Geneva, ILO).

xolos. Masalan, migrantlarni ijtimoiy himoya qilish, mahalliy aholi va migrantlar uchun bir xil ijtimoiy ta'minotni ta'minlash bilan bog'liq muhim xalqaro shartnomalardan biri Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan 1962-yil 25-aprelda qabul qilingan "Tenglik (ijtimoiy ta'minot) to'g'risidagi Konvensiya" (№118) hisoblanadi. Mazkur Konvensiya qabul qilinganiga 60 yil bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunga qadar atiga 37 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Lekin ushbu davlatlarning faqatgina ikkitasi (Italiya va Liviya) to'liq to'qqiz yo'nalishda migrantlar uchun ijtimoiy himoya qilishni belgilab olishgan (2 jadval<sup>22</sup>).

Mamlakatimizda ham ayol migrantlarning huquqlarini himoya qilish asosiy ijtimoiy siyosat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"gi PF-5785-son Farmoni imzolangan bo'lib, unga ko'ra, vatandoshlarimiz bo'lgan migrantlar, xususan, migrant ayollar, ularning oila a'zolari, farzandlarini ijtimoiy himoya qilish, ularni arzon uy-joy, ish joyi bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish kabi ijtimoiy siyosat yo'nalishlariga e'tibor qaratilmoqda.

Raqamlarga murojaat qilsak. 2022-yilning dastlabki 5 oyi davomida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, O'zbekistonning chet el davlatlaridagi konsullik muassasalari tomonidan 17,6 ming nafar ayolga, shu jumladan, 16,6 ming nafariga axborot va maslahatlar, 383 nafariga huquqiy yordam, 546 nafariga ijtimoiy yordam, 148 nafariga moddiy yordam ko'rsatilgan. 278 nafar xotin-qiz tadbirkorlikka o'qitilib, ularning 168 nafari tadbirkorlik faoliyatini boshlagan. Ushbu xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalariga o'z mablag'lari hisobidan 376 mln so'm, bank kreditlari hisobidan 1,4 mlrd so'm – jami 1,8 mlrd so'm mablag' jalb etilgan. Yangi tashkil etilgan korxonalarda 400 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgan<sup>23</sup>. Lekin mazkur chora-tadbirlar migrant xotin-qizlarning barcha ijtimoiy muammolarini hal eta olmaydi.

<sup>22</sup> [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11300:0::NO:11300:P11300\\_INSTRUMENT\\_ID:312263](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11300:0::NO:11300:P11300_INSTRUMENT_ID:312263)

<sup>23</sup> <https://senat.uz/uz/lists/view/4555>

**XMT №118 Konvensiyasini ijtimoiy himoya yo'nalishlari bo'yicha ratifikatsiya qilgan mamlakatlar**

№	Davlat nomi	XMT №118 Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan vaqti	Ijtimoiy himoya yo'nalishlari								
			Tibbiy yordam	Kasallik nafaqasi	Homiladorlik va tug'ish nafaqasi	Nogironlik nafaqasi	Qarilik nafaqasi	Boquvchisin yo'qotganlik nafaqasi	Mehnat jarohati uchun nafaqa	Ishsizlik nafaqasi	Ijtimoiy yordamga muhtoj oilaga nafaqa
	Bangladesh	22.06.1972			+				+		
	Barbados	14.10.1974		+	+			+	+	+	
	Boliviya	31.01.1977	+	+	+						+
	Braziliya	24.02.1969	+	+	+	+	+	+	+		
	Kapo Verde	08.07.1987	+	+	+	+	+	+	+		+
	Markaziy Afrika Respublikasi	08.10.1964			+		+		+		+
	Kongo Demokratik Respublikasi	01.11.1967				+	+		+		
	Daniya	17.06.1969	+	+					+	+	
	Ekvador	09.03.1970	+	+	+	+		+	+		
	Misr	12.01.1993	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Finlyandiya	15.08.1969	+	+					+		
	Fransiya	15.03.1974	+	+	+	+		+	+		+
	Germaniya	19.03.1971	+	+	+				+	+	
	Gvatemala	04.11.1963			+						
	Gvineya	11.08.1967	+	+	+		+	+	+		+
	Hindiston	19.08.1964	+	+	+						
	Iroq	28.04.1978	+	+	+	+	+	+	+		
	Irlandiya	26.11.1964	+	+					+	+	+
	Isroil	09.06.1965			+		+	+	+		+
	Italiya	05.05.1967	+	+	+	+	+	+	+	+	+
	Iordaniya	07.03.1963			+	+		+	+		
	Keniya	09.02.1971				+	+	+			
	Liviya	19.06.1975	+	+	+	+	+	+	+	+	+
	Madagaskar	22.06.1964		+	+	+			+		
	Mavritaniya	15.07.1968				+	+	+	+		+
	Meksika	06.01.1978	+	+	+	+	+	+	+		
	Norvegiya	28.08.1963						+			+
	Pokiston	27.03.1969			+				+		
	Filippin	26.04.1994	+	+	+	+	+	+	+		
	Ruanda	21.09.1989				+	+	+	+		
	Surinam	15.06.1976							+		
	Shvetsiya	25.04.1963	+	+	+				+	+	
	Suriya	18.11.1963				+	+	+	+		
	Tunis	20.09.1965	+	+	+	+	+	+	+		+
	Turkiya	25.06.1974	+	+	+	+	+	+	+		
	Urugvay	22.02.1983	+	+	+				+	+	+
	Venasuela	05.11.1982	+	+	+	+	+	+	+		
	Niderlandiya	03.07.1964 (20.12.2004 bekor qilingan)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)
	Jami amaldagi ratifikatsiya qilingan	37	22	24	27	20	20	22	32	8	13

**Xulosa.** Migrantlar, xususan, migrant ayollarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning haq-huquqlarini himoya qilish global miqyosda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur deb o‘ylaymiz:

– migrant ayollarni retsiyent davlatda ijtimoiy himoya qilishdagi asosiy muammolardan biri migrant ayollardagi til, madaniyat, axloq bilan bog‘liq farqlar hisoblanadi. Migrant ayollarni migratsiya jarayoni uchun hali mamlakatni tark etishidan oldinroq tayyorlash lozim. Ya‘ni immigrant davlat aholisining tili, madaniyati, qonunchiligini o‘rgatish, kasb-hunarga o‘qitish kabi tayyorlash bosqichlarini amalga oshirish migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilishning samarali usuli bo‘lib xizmat qiladi;

– O‘zbekiston migrant ayollarning huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning konvensiyalari va tavsiyalarini (xususan, XMTning 102, 118, 121, 128, 130, 157, 168 va 183 raqamli Konvensiyalari) ratifikatsiya qilishi hamda amaliyotda qo‘llashi talab etiladi. Mazkur hujjatlardagi tegishli normalarni qabul qilinish bosqichida bo‘lgan “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga qo‘shish lozim;

– uy xo‘jaligi ishlari, yolg‘iz keksalar va bolalar parvarishi, xizmat ko‘rsatish, umumiy ovqatlanish kabi kam malakali, kam mablag‘li sohalarda ishlayotgan migrant ayollarning mehnat shartnomasi asosida ishlarini tashkil etish lozim. Bu ularni qonuniy jihatdan himoyalab, ularga ijtimoiy ta‘minot ko‘rsatishga olib keladi.

– chet elga mehnat migranti sifatida ketayotgan xotin-qizlarning ish beruvchilar bilan tuzadigan mehnat shartnomalarida ijtimoiy ta‘minot bo‘yicha qoidalarni kirgizish lozim;

– xotin-qizlar uchun milliy ijtimoiy xavfsizlik tizimini mustahkamlash, xususan, “Ayollar daftari” orqali ayollarni, “Yoshlar daftari” orqali esa 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish kerak. Bu orqali migrant ayollarning sonini kamaytirish mumkin;

– mehnat migrantlari bo‘lgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ijtimoiy sug‘urta tizimini, jumladan, tibbiy sug‘urtalash tizimini yaratish lozim. Migrant ayollarning mazkur ijtimoiy sug‘urtadan foydalanishlari uchun ta‘sirchan targ‘ibot vositalaridan (bepul ijtimoiy va huquqiy konsalting xizmati ko‘rsatish, brifinglar o‘tkazish kabi) foydalanish ham ijobiy natijaga olib kelishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Доклад о социальной защите в мире в 2017–2019 годах. Обеспечение всеобщей социальной защиты для достижения Целей в области устойчивого развития / Группа технической поддержки по вопросам достойного труда и Бюро МОТ для стран Восточной Европы и Центральной Азии. – Москва: МОТ, 2018. Ст. 210.
2. Хошимов П.З., Абдуллаева Ш.Е. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг назарий асослари // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №. 9. – С. 21-26.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 446.
4. Эгамбердиева Н., Сайдивалиева Х. ва бошқалар. Ижтимоий шартномани қўллашнинг ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий асослари // услубий қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. – Б. 39.
5. Zlotnik H. 2003. “The Global Dimension of Female Migration.” Accessed 5 February 2019. <https://www.migrationpolicy.org/article/global-dimensions-female-migration>.
6. World Migration Report 2020. ([https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr\\_2020-ru.pdf](https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf)). International Organization for Migration. – P. 22.
7. Прогресс женщин мира в 2019–2020 годах. Семьи в меняющемся мире. ООН-женщины. США, Нью-Йорк, 2019, – С. 204. <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/Library/Publications/2019/Progress-of-the-worlds-women-2019-2020-ru.pdf>
8. Grubanov-Boskovic S., Tintori G., Biagi F. Gaps in the EU Labour Market Participation Rates. – 2020.
9. Stapleton A., Polakowski M., Quinn E. The integration of non-EU migrant women in Ireland. – 2022. ([https://www.esri.ie/system/files/publications/RS148\\_5.pdf](https://www.esri.ie/system/files/publications/RS148_5.pdf))

10. Рязанцев С. В. Патенты вывели» из тени» больше миллиона мигрантов //Миграция XXI век. – 2012. – №. 2. – С. 45-47.
11. How to strengthen the integration of migrant women? Migration Policy Debates No. 25, November. 2020. Available at [www.oecd.org/migration/mig/migration-policy-debates-25.pdf](http://www.oecd.org/migration/mig/migration-policy-debates-25.pdf).
12. ILO Global Estimates on International Migrant Workers – Results and Methodology. Third edition. Geneva. Available at [www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms\\_808935.pdf](http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms_808935.pdf).
13. Foley, L. and N. Piper. Covid-19 and the transformation of migration and mobility globally – COVID-19 and women migrant workers: Impacts and implications. IOM, Geneva. 2020. Available at <https://publications.iom.int/books/covid-19-and-transformation-migration-and-mobility-globally-covid-19-and-women-migrant>.
14. Тюрюканова Е. В. и др. Женщины-мигранты из стран СНГ в России/под ред //Тюрюкановой ЕВМ: МАКС Пресс. – 2011.
15. Илимбетова А. А. Социальные аспекты женской трудовой миграции в Россию //Известия высших учебных заведений. Социология. Экономика. Политика. – 2013. – №. 2. – С. 71-75.
16. Hirose K., Nikac M., Tamagno E. Social security for migrant workers: a rights-based approach. – Budapest: ILO, 2011. – P. 9.
17. Van Panhuys C., Kazi-Aoul S., Binette G. Migrant access to social protection under Bilateral Labour Agreements a review of 120 countries and nine bilateral arrangements //ILO Working Papers. – 2017. – Paper Series No. 57 (Geneva, ILO).
18. [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11300:0::NO:11300:P11300\\_INSTRUMENT\\_ID:312263](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11300:0::NO:11300:P11300_INSTRUMENT_ID:312263)
19. <https://senat.uz/uz/lists/view/4555>



**Muxammedova Nazokat Jurayevna,**  
g.f.f.d., PhD, dots.v.b.  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
Email: [nazoguli85@mail.ru](mailto:nazoguli85@mail.ru)



**Ibragimova Zulayho Sobirovna,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Email: [zulaykho\\_ibragimova@mail.ru](mailto:zulaykho_ibragimova@mail.ru)

## NIKOH DAN AJRALISH JARAYONINING IJTIMOIY-GEOGRAFIK MASALALARI

**Annotatsiya.** Maqolada Navoiy viloyatida ajralish jarayonining ijtimoiy-geografik masalalari aks ettirilgan. Unda respublika va viloyat ko'rsatkichlari tahlil qilinib, geografik omillar ta'siri o'rganilgan. Shu bilan birga, viloyatda nikoh ajralish ko'rsatkichlarining 2000–2021-yillar dinamikasi aniqlangan hamda uning indeksi ishlab chiqilgan. Viloyatda 16–69 yoshga nisbatan nikohdan ajralganlar ko'rsatkichi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** demografik jarayonlar, ajralish, taloq, oila kodeksi, nikohni bekor qilish, o'zgarishlar indeksi, mehnat migrantlari.

**Аннотация.** В статье отражены социально-географические проблемы процесса разделения Навоийской области. В нем анализировались показатели республики и области, изучалось влияние географических факторов. При этом определена динамика разводимости в регионе за 2000–2021 годы и разработан ее индекс. В области разработан индекс разведенных лиц в возрастной группе 16–69 лет.

**Ключевые слова:** демографические процессы, развод, семейный кодекс, расторжение брака, индекс изменений, трудовые мигранты.

**Annotation.** The article reflects the socio-geographical issues of the divorce process in Navoi region. It analyzes the indicators of the republic and the region, and studies the impact of geographical factors. At the same time, the dynamics of divorce rates in the region in 2000–2021 was determined and its index was developed. The divorce rate for 16–69 year olds has been developed in the region.

**Key words:** demographic processes, divorce, family code, divorce, index of changes, labor migrants.

**Kirish.** Demografik jarayonlar aholining kasosiy ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi kategoriya hisoblanib, nikoh va ajralish uning asosini tashkil etadi. Ajralish avlodagi nikoh juftliklarining nikohini bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayoti davomida nikohning bekor qilinishi hisoblanadi. Ajralish ham nikoh singari demografiyadan tashqari yana bir qator fanlar, ya'ni huquq, sotsiologiya, psixologiya bilan bevosita aloqador sanaladi. Nikohning huquqiy jihatdan

bekor qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar manbayi bo'lib fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarining ma'lumotlari xizmat qiladi.

Islom manbalarida qadimdan "taloq" degan tushuncha bor. "Taloq" arabcha so'z bo'lib, "ozod bo'lmoq, ajralmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Qadimda taloq erkak tomonidan aytilmaguncha, er-xotinning ajralishi qonuniy hisoblanmagan. Agar ayol tomonidan nikohning bekor etilishi talab qilinsa-yu, erkak bunga norozi bo'lsa, taloq kuchga kirmagan. Shariat qonunida erkak "taloq"



soʻzini hushyor va sogʻlom paytida aytib, oʻzi iqror boʻlgandagina taloq qonuniy boʻlgan<sup>1</sup>.

**Asosiy qism.** Ajralish jarayonini demografiya, sotsiologiya, huquq, tarix va psixologiya kabi fanlar oʻzining nuqtayi nazaridan oʻrgansa, geografiya esa uning hududiy xususiyatlariga alohida eʼtibor beradi. Bu esa ajralish jarayonining hududiy tafovutini baholashga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda demografik jarayonlarning geografik xususiyatlarini oʻrganish M.Qoraxonovning ilmiy maktabida shakllanib, O.B.Ata-Mirzayev, R.Ubaydullayeva, M.R.Boʻriyeva, Z.N.Tojiyevalar tadqiqotlarida kuzatilgan. Bular nikoh va ajralish jarayonlarini qisman oila tarkibida oʻrgangan.

Respublikada olib borilgan ijtimoiy tadqiqotlarga koʻra, ajrimlar oqibatida jamiyatga yetadigan zararlar oʻrganilib, ajrashganlarning ijtimoiy hayotidagi holatida koʻplab muammolar yuzaga kelgan. Shuningdek, ularda turarjoy muammosi, farzandlarning toʻliq oila muhitida boʻlmasligi, ajrashganlarning ruhiyati va yangi hayotga ikkilanishi holatlari muammo tarzida tadqiq etilgan. Ammo bu holatda erkak va ayollardagi oʻziga xos jihatlari turlichaligi, bir tomonlama, yaʼni ayollarning koʻproq aziyat chekishi kuzatilgan. Kuzatishlar natijasiga koʻra, ajrashgan ayollarda, asosan, sobiq turmush oʻrtogʻining roʻzgʻor boshqarishda masʼuliyatsizligi, mustaqil fikri yoʻqligi, oilaga boshqalarning aralashuvi (uchinchi shaxs), erkakning yomon illatlarga ruju qoʻygani, oilada ayolga xizmatkor sifatida qaralishi hamda xiyonat kabi sabablar keltirilgan.

Oʻzbekistonda nikohdan ajralish jarayoni Oila kodeksining 7-bobida koʻrsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu kodeksning 38-moddasiga binoan, nikohdan ajralish sud tartibida yoki 42-43-moddalarida nazarda tutilgan hollarda, yaʼni er-xotinning oʻzaro roziligi boʻlganda hamda er-xotindan birining arizasi boʻyicha fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 39-moddasida esa er xotin homiladorlik vaqtida va bola tugʻilgandan keyin bir yil mobaynida xotinning rozilgisiz nikohdan ajratish toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatishga haqli emas. Ushbu kodeksning 41- va 47-moddalari nikohning tamoman tugatilishi toʻgʻrisida yozilgan boʻlib, unda

<sup>1</sup> Boʻriyeva M.R. Oʻzbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997.

agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yoʻq deb topsa, ularni tamoman nikohdan ajratadi hamda nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratilganlik roʻyxatga olingan kundan boshlab tugatiladi.

Respublika statistik maʼlumotlariga koʻra, nikohdan ajralganlar soni 2001-yilda 15 646 nafarni tashkil etgan boʻlsa, 2021-yilda 39 349 nafarga ortgan. Ushbu holat yigirma yil davomida 2,51 barobarga oʻsgan. Ushbu jarayonni viloyatlar boʻyicha tahlil qiladigan boʻlsak, eng yuqori koʻrsatkichlar **Andijon viloyati** (795 – 3945; 4,96), **Samarqand viloyati** (873 – 4174; 4,78) hamda **Surxondaryo viloyatlarida** (615 – 2264; 3,68) kuzatilgan. Bu holatning kuzatilishiga, asosan, yuqoridagi hududlarda mehnat yoshidagi aholining koʻpligi, ish bilan bandlikning pastligi hamda migrant ishchilar ulushining yuqoriligi sabab boʻladi. Shu bilan birga, viloyatlar boʻyicha eng past koʻrsatkichlar esa **Navoiy viloyati** (860 – 1224; 1,42), **Toshkent shahri** (3764 – 5571; 1,48) hamda **Toshkent viloyatlarda** (2040 – 4086; 2,0) kuzatilgan. Buning asosiy sababini iqtisodiy rivojlangan hudud ekanligi, shuning hisobiga bu hududlarda mehnat yoshidagi aholi bandlik darajasining yuqoriligi hamda yashash sharoitining boshqa hududlarga nisbatan yaxshiligi bilan izohlash mumkin.

*1-jadval*

### Oʻzbekistonda ajralish jarayonining oʻzgarishlar indeksi

Hududlar	16–69 yosh 1000 kishi hisobida				Oʻzgarishlar indeksi
	2015	2017	2019	2021	
<b>Oʻzbekiston Respublikasi</b>	1,41	1,47	1,4	1,71	1,21
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	0,96	1,07	0,99	0,69	0,71
Andijon viloyati	1,44	1,58	1,77	3,06	2,12
Buxoro viloyati	1,44	1,43	1,32	1,56	1,08
Jizzax viloyati	0,97	1,3	1,21	1,39	1,43
Qashqadaryo viloyati	0,9	1,08	0,74	1,32	1,46
Navoiy viloyati	1,79	1,72	1,41	1,79	1,00
Namangan viloyati	1,22	1,4	1,29	1,66	1,36
Samarqand viloyati	1,31	1,66	1,39	1,62	1,23

Surxondaryo viloyati	0,94	1,12	1,12	1,31	1,39
Sirdaryo viloyati	1,52	2,01	1,96	2,43	1,59
Toshkent viloyati	1,88	1,86	1,8	2,02	1,07
Farg'ona viloyati	1,32	1,44	1,28	1,68	1,27
Xorazm viloyati	0,87	1,11	0,83	1,19	1,36
Toshkent shahri	3,04	2,1	2,6	3,03	0,99

O'zbekistonda 2021-yil hisobiga ko'ra 16–69 yoshdagi aholi o'rtasida har 1000 kishiga nisbatan hisoblaganda eng yuqori ko'rsatkichlarni Andijon viloyati (3,06), Toshkent shahri (3,03), Sirdaryo viloyat (2,43)larida ko'rishimiz mumkin. Bu holat tahlil qilinganda Andijonda mehnat migrantlari (ya'ni chet davlatga borib ishlovchilar) orasida xotin-qizlarning ko'plab uchrashi, aholi zich joylashganligi hisobiga turarjoy muammosining yuqoriligi, ish bilan bandlikning pastligi ajralish jarayonining yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon Andijon viloyati uchun hozirgi kunda siyosiy darajaga ko'tarilgan.

Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatlarida esa bu holatga milliy tarkibning xilma-xilligi, shu bilan birga, aholining atrof hududlardan ko'chib borib yashashi, urf-odat, an'analarning qadimdan saqlanib qolganligi, qaynona-kelin munosabatlarining keskinligi sabab bo'lmoqda.

Eng past ko'rsatkichlarni esa quyidagi hududlarda, ya'ni Qoraqalpog'iston respublikasi (0,69), Xorazm (1,19) hamda Surxondaryo viloyat (1,31)larida kuzatishimiz mumkin. Bu holat tahlil qilinganda Quyi Amudaryo hududiy – geografik jihatdan katta, aholi siyrak joylashgani hisobiga uy-joy muammosi deyarli yo'qligi, aholisiga xos xususiyatlardan biri kelin va kuyovning avlod-ajdodlari chuqur surishtirilib, nikohga kirilishi natijasida ajralish kam kuzatiladi. Surxondaryo viloyatida esa bu holatning pastligiga erkaklarida tog'liklarga xos xulq-atvor xususiyatlari saqlanib qolgani, ayollarning ishsizligi, yer-joy muammosi sabab bo'lmoqda.

Ushbu jarayonning 2001–2021-yillar o'zgarishlar indeksi o'rganilganda eng yuqori ko'rsatkichlarni Andijon (2,12), Sirdaryo (1,59) hamda Qashqadaryo (1,46) viloyatlarida kuzatish mumkin. Bunda ushbu hududlar ijtimoiy ahvoli va urf-odat, an'analari, milliy va etnik tarkibi bir-biridan ajralib turadi. Andijon viloyatida respublika ko'rsatkichidan eng yuqori ajralish jarayonining kuzatilishi, avvalo, ijtimoiy muhit bilan bog'liq

holatda ro'y bermoqda. Bunda nikohga kirish yoshining kichikligi, nikoh jarayoni va u bilan bog'liq marosimlar, qaynona-kelin munosabatlari hamda oilaviy kelishmovchiliklar ko'plab sabab bo'lmoqda. Hatto ajralish jarayoni siyosiy darajaga ko'tarilib, hokimlik tomonidan bunga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqarilmoqda. Sirdaryo viloyatida yuqorida aytib o'tilganidek, aholining atrof hududlardan ko'chirib keltirilgani va buning hisobiga etnik tarkibining xilma-xilligi, urf-odat va an'analarning ham har xilligi hamda poytaxtning yaqinligi xotin-qizlarning ish-joy va yurish-turishiga ta'siri natijasida ortib borayotgani kuzatilmoqda. Qarshadaryo viloyatida esa erkaklarning ish bilan bandlik darajasining pastligi, mehnat migrantlarining yuqoriligi hamda xotin-qizlarni hayotga tayyorlash jarayonining pastligi bilan izohlash o'rinni.

Navoiy viloyatida nikohdan ajralganlar soni 2021-yilda 1224 tani tashkil etgan bo'lib, respublika ko'rsatkichlari darajasida 3 foizni beradi. Bu holat oldingi yillarga qaraganda deyarli o'zgarmagan.

2-jadval

### Navoiy viloyatida ajralish jarayonining o'zgarishlar indeksi

Hududlar	16–69 yosh 1000 kishi hisobida				O'zgarishlar indeksi
	2015	2017	2019	2021	
Navoiy viloyati	1,79	1,72	1,41	1,79	1,00
Navoiy shahri	3,31	2,94	2,04	2,86	0,86
Zarafshon shahri	2,08	2,51	1,98	2,38	1,14
G'ozg'on shahri	0	0	0	0,49	0
Karmana tuman	2,27	2,09	1,54	2,04	0,89
Konimex tuman	1,98	1,43	1,84	1,38	0,69
Qiziltepa tuman	1,22	1,17	1,01	1,41	1,15
Navbahor tuman	1,72	1,33	1,2	1,62	0,94
Nurota tuman	0,73	0,79	0,79	1,02	1,39
Tomdi tuman	0,99	0,7	0,39	0,56	0,56
Uchquduq tuman	2,33	2,54	2,08	2,15	0,92
Xatirchi tuman	1,12	1,33	1,23	1,46	1,30

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda Nurota (1,39), Xatirchi (1,30) va Qiziltepa (1,15) tumanlarida nikohdan ajralganlar soni ortib borgan. Bunga, asosan, iqtisodiy faol aholi orasida mehnat migrantlarining ko'pligi, ishsizlar salmog'ining yuqoriligi sabab bo'lmoqda. Tomdi (0,56) va Konimex (0,69) tumanlari hamda Navoiy shahri (0,86) viloyatda eng past ko'rsatkichlarga ega.

Bunda Tomdi va Konimex tumanlarida aholi, asosan, bir millatli hamda urug'chilik, qabilachilik saqlanib qolgan. Navoiy shahrida esa aholi yashash sharoitining yaxshiligi, doimiy ish o'rinlarining mavjudligi sabab bo'ladi.

O'zbekistonda oilaviy ajralishlarning omillari va sabablarini aniqlash uchun doimiy ravishda ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib turiladi. Masalan, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovlar natijalari bo'yicha oilalarning barbod bo'lishiga asosiy sabablar yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlanmaganligi (so'rov o'tkazilgan oilalarning 34,5%), moddiy qiyinchiliklar (26,2%), er-xotin qiziqishlarining va dunyoqarashining turlichaligi (10,6%), yosh er-xotinning bir-biriga befarqligi (19,5%), ichkilikbozlik va giyohvandlik (3,3%)<sup>2</sup> belgilandi.

Mintaqalarda o'tkazilgan nuqtali so'rovlar mintaqaning xususiyatini hisobga olgan holda tafsilotlarni, aholi mentalitetini va tarixiy-madaniy an'analarni ochib turishi, shuningdek, oilaviy ajralishlarning salbiy ijtimoiy oqibatlarini aniqlash mumkin bo'lgan vaqtda mazkur so'rovlar respublika darajasidagi ajralishlar muammolariga o'rtacha tavsif beradi.

"Oila" markazining ijtimoiy so'rovlari<sup>3</sup> natijasiga ko'ra, quyidagilar aniqlangan: 43% – yoshlar xarakterining bir-biriga munosib emasligi; 23% – yoshlarning munosabatiga uchinchi shaxslar aralashuvi; 6% – alkogolizm; 5% – befarzandlik; 5% – moddiy qiyinchiliklar yoki ishsizlik; 3% – turmush o'rtoqlarning biri mehnat migratsiyasidali; 2% – xiyonat; 2% – maishiy muammolar va boshqalar.

Ko'rsatkichlar yomonlashib borayotgan hududlarda ajralishlar sababini aniqlashga qaratilgan so'rovlar orqali quyidagicha xulosalar olingan:

- ajralish sabablari mintaqalar bo'yicha farq qiladi, ammo barcha o'rganilgan hududlarda doimiy janjallar asosiy sabab sifatida eng ko'p tilga olindi;

- qarindoshlarning doimiy aralashuvi, hurmatsizlik, xiyonat eng keng tarqalgan sabablarga kiradi;

- er-xotin yoki bolalarning kasalliklari, ayollar huquqlarining buzilishi turmushning barqarorligiga Toshkent shahrida boshqa viloyatlarga qaraganda ancha kuchli ta'sir qiladi.

<sup>2</sup> Jamoat fikri so'rovi natijalari bo'yicha axborot-tahliliy ma'ruza. "Oila va jamiyat: ma'naviy va axloqiy dunyo". "Ijtimoiy fikr" markazi, 2018.

<sup>3</sup> Barcha mintaqalar bo'yicha ajralishga ariza bergan 24 782 juftlik so'rovda qatnashdi.

"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ajrimlarga olib keluvchi holatlar **5 ta asosiy guruhga** taqsimlangan holda tahlil qilindi. Unga ko'ra, **birinchi guruhga kiritilgan er va xotinning psixofiziologik jihatdan bir-biriga mos kelmasligi (55,5 foiz)** oqibatida doimiy urush va janjallar (**46,1%**) hamda o'zaro tushunmovchiliklar (**9,2%**) tufayli ajralish holatlari sodir bo'lgan.

**Er va xotin munosabatlariga uchinchi tomonning aralashuvi qariyb 40 foiz respondent tomonidan** ajrimlarga sabab bo'luvchi asosiy omil sifatida baholangan bo'lib, bunda oilaviy hayotga qaynona, qaynota, qaynisingil va boshqa qarindoshlarning doimiy aralashuvi (**16,6%**), er yoki xotinning xiyonati (**16,2%**) hamda o'zgaralar bilan ijtimoiy tarmoqlardagi ishqiy yozishuvlar (**3,7%**) sabab bo'lgan.

**Deviant xulq-atvor va oiladagi zo'ravonlik holatlari (26,6 foiz)**, jumladan, er yoki ayolning ichkilikka ruju qo'yishi (8,1%), ayolning turmush o'rtog'i tomonidan tazyiq va zo'ravonlikka uchrashi (6,6%), oilada bolalarga nisbatan muttasil zo'ravonlik qo'llanishi (0,4%), ayolning ishlashi va o'qishining taqiqlanishi (2,6%) sababli oilalar barbod bo'lgan.

Har beshinchi ajrashgan respondent **iqtisodiy omilni (17,4 foiz)** ajrimning asosiy sababi sifatida ko'rsatgan. Unga ko'ra, doimiy moddiy yetishmovchilik (7,4%), uy-joy sharoitlarining qoniqarli emasligi (3%), iqtisodiy nochorlik (0,4%) va turmush o'rtog'ining mehnat migratsiyasida bo'lishi (6,6%) oilaviy ajrimga olib kelgan.

Shu bilan birgalikda, **juftlikning salomatligi omili** oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga ta'sir ko'rsatishi tadqiqot davomida namoyon bo'ldi. Har o'ninchi respondent juftining salomatligidagi muammolari (**11,1 foiz**) tufayli ajrashishga qaror qilgani aniqlandi. Jumladan, er yoki xotinning og'ir xastaligi (2,2%) hamda farzandsizlik (8,9%) sababli mazkur oilalar ajrashishga qaror qilishgan.

Respublikada ajralishlarning obyektiv va subyektiv sabablari mahalla xodimlari, FHDYO xodimlari va fuqarolik sudlari, **diniy idoralar markazlari vakillaridan tuzilgan fokus-guruhlarining ekspert so'rovi vositasida** tahlil qilinganda, asosiy sabablardan biri yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi bo'lib chiqdi. Ota-onasidan iqtisodiy mustaqillikka erishmagan, ishsiz va daromadsiz, qarorlar qabul qilishga qodir bo'lmagan yigitlarning nikohga kirishi ajralishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ahamiyatlisi, “Oilangizni saqlab qolish mumkin edi, deb hisoblaysizmi?” degan savolga Toshkent shahrida so‘ralganlarning 58% i, Namangan viloyatidagilarning 36% i, Buxoro va Xorazm viloyatidagilarning 27% i moliyaviy imkoniyatlar kengaysa, oila a‘zolari ishga joylashsa, oilada psixologik muhit yaxshilansa, “oila saqlab qolinar edi”, deb ijobiy javob bergan.

**Xulosa.** O‘zbekistonda nikohni mustahkamlash, oila muqaddas qadriyat sifatida e‘zozlanishiga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ajralishlar darajasiga iqtisodiy va

ijtimoiy omillar ta‘sirini baholash hamda kelgusi o‘n yillik uchun prognozlashtirish asosiy vazifa qilib belgilanishi kerak. Ma‘lumki, ajralishlar darajasiga turli tashqi va ichki omillar ta‘sir qiladi. Jahon tajribasi va qator ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish asosida ajralishlar dinamikasiga hududning rivojlanganlik darajasi, yashash shart-sharoiti, urbanizatsiya darajasi, ish bilan bandlik, aholi daromadlari, mehnat migratsiyasi kabi iqtisodiy va farzandlar, salomatlik kabi ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar jiddiy ta‘sir qilishi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, 2019
2. Abdurahmonov Q., Abduramanov X. Demografiya. – Toshkent, 2011.
3. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Toshkent, 2011.
4. Демографическая энциклопедия. – Москва, 2013.
5. Елисеевой И.И. Демография и статистика населения. – Москва, 2006.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.
7. demoscopia.ru



**Anarkulov Farrux Avazxanovich,**  
O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni  
belgilash oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi

## MEHNAT BOZORIDA ISHCHI KUCHINING TASHKILLASHTIRILGAN EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mehnat bozorida ishchi kuchi bandligini ta'minlashda migratsiya jarayonining o'ri asoslangan, aholining ichki va tashqi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar tasniflangan, mehnat bozorida ishchi kuchining tashkillashtirilgan eksportini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** iqtisodiy xavfsizlik, mehnat bozori, mehnat migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, ish o'ri, ishchi kuchi eksporti.

**Аннотация.** В данной статье на основе роли миграционного процесса в обеспечении занятости рабочей силы на рынке труда классифицированы факторы, влияющие на внутреннюю и транспортную миграцию населения, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по развитию организованного экспорта рабочей силы на рынке труда.

**Ключевые слова:** экономическая безопасность, рынок труда, трудовая миграция, внутренняя миграция, внешняя миграция, рабочие места, экспорт рабочей силы.

**Annotation.** This article is based on the role of the migration process in ensuring the employment of labor in the labor market, classified the factors affecting the internal and transport migration of the population, developed scientifically based proposals and recommendations for the development of organized exports of labor in the labor market.

**Keywords:** economic security, labor market, labor migration, internal migration, external migration, jobs, labor exports.

**Kirish.** Mehnat bozoridagi yuqori bosimni kamaytirish, talab va taklif miqdorlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta'minlash va ularning mehnat daromadlariga ega bo'lishiga ko'maklashish maqsadida davlat ishchi kuchi eksporti siyosatini amalga oshiradi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha mehnat migrantlari pul o'tkazmalarining umumiy hajmi 689,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan [1]. Ishchi kuchini eksport qilishdan eng ko'p daromad oluvchi mamlakatlar o'rtasida Hindiston (79 mlrd AQSH dollar, Xitoy (67 mlrd AQSH

dollar), Meksika (36 mlrd AQSH dollar), Filippin (34 mlrd AQSH dollar) va Misr (29 mlrd AQSH dollar) yetakchilik qiladi [2].

O'zbekiston Respublikasida doimiy aholining 49,4 foizi qishloq aholisining ulushiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda mehnat resurslari soni 18666,3 000 kishini tashkil etib, uning 8716,8 000 nafari yoki 46,7 foizi qishloq joylarida yashaydi. Respublikadagi ishsizlarning asosiy qismi (73,4 foizi) qishloq joylariga to'g'ri keladi. Qishloq joylarida ish o'rinlarining yetarli emasligi, ishchi kuchi bahosining arzonligi, qoniqarli mehnat daromadlariga ega bo'lmasligi, yashash sharoitining



pastligi, mutaxassislar bo'yicha ish joylarining kamligi, kasbiy malakasining ish o'rinlariga to'la mos kelmasligi hamda boshqa sabablar **mehnat migratsiyasi va norasmiy ish bilan bandlikni** keltirib chiqarmoqda.

**Asosiy qism.** Mamlakat ichidagi mehnat migratsiyasi ishchi kuchining qishloqlardan shaharlarga, tuman markazi va shaharchalardan boshqa yirik shaharlarga, bir viloyatdan boshqa viloyatga kabi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Mehnat migratsiyasining yo'nalishlari ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, joylashishi, iqtisodiyot tarmoqlarining ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik hamda aholining turmush darajasidagi tafovutlar bilan belgilanadi.

Mamlakat mintaqalari bo'yicha ichki mehnat migratsiyasi 8,9 foizga tengdir. Ichki mehnat migratsiyasida yirik shaharlar retsipiyentlar (ko'chib kelayotgan aholini qabul qiluvchilar) vazifasini o'tamoqdalar. Xususan, ichki migratsiyaning 70,0-80,0 foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.


O'zbekistonda **qishloq ichki mehnat migratsiyasi uchun mavsumiylik va takroriylik** xususiyatlari xos. Bu turdagi ishchi kuchi harakatini, asosan, qishloq aholisi (80,5%) vujudga keltirmoqda. Buning asosiy sababi bo'lib **ishchi kuchi taklifining ortishi va ish o'rinlarining yetishmasligi** hisoblanadi. Shuningdek, qishloq ishchi kuchining katta qismi qishloq xo'jaligiga safarbar etilgani hamda mazkur tarmoqdagi

ishlarning mavsumiy xarakterga egaligi mamlakatda ichki mehnat migratsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Aholining ichki mehnat migratsiyasiga **iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va tashkiliy-huquqiy xarakterga ega asosiy omillar** bevosita ta'sir etadi (1-rasm).

Aholi ichki mehnat migratsiyasining **asosiy iqtisodiy omillari** tarkibiga boshqa hududlardan ishchi kuchi bilan kam ta'minlangan tumanlarda moddiy rag'batlantiruvchi ish o'rinlarini tashkil etish, urbanizatsiyani rivojlantirish asosida yuqori ishhaqi to'lovchi yangi ish o'rinlarini yaratish, tumanlarda bo'sh turgan uy-joylarni boshqa hududlardan ixtiyoriy ravishda ko'chib kelgan ichki mehnat migrantlariga imtiyozli narxlarda berish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi ichki mehnat migrantlari uchun tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar taqdim etish, ishchi kuchi bilan kam ta'minlangan hududlarda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida faoliyat yurituvchi yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli soliq va kredit stavkalarini belgilash salmoqli ta'sirga ega.

**Ijtimoiy-demografik omil** sifatida har bir mahallalarda ishchi kuchi kam ta'minlangan hududlardagi bo'sh ish o'rinlari, ish xarakteri, maosh, ishchilardan talab etiladigan malakalar haqida ma'lumotlarni to'plab borish va e'lon qilish, ko'chib keluvchi oilalarni imtiyozli uy-joylar bilan ta'minlash, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan



**1-rasm. Aholi ichki mehnat migratsiyasining asosiy omillari**

Manba: rasm muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

ichki mehnat migrantlarining yangi yashash va ish joylariga tezda moslashishlariga amaliy yordam ko'rsatish, ichki mehnat migrantlarining oila a'zolariga zarur tibbiy yordamlarni ko'rsatish, mehnat va texnika xavfsizliklarini ta'minlash, migrantlar farzandlarini maktabgacha ta'lim, o'rta va o'rta maxsus ta'lim xizmatlari bilan imtiyozli ta'minlash yetakchi o'rin egallaydi.

**Tashkiliy-huquqiy omillar** bu O'zbekiston Respublikasining "Ichki mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish, BKM tasarrufida ichki mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha maxsus bo'lim tashkil qilish, ishchi kuchi taqchil hududlarda keng tarmoqli ijtimoiy infratuzilmasini yaratish, mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida boshqa hududga ko'chayotgan fuqarolarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini belgilangan tartibda ta'minlash, ichki mehnat migratsiyasi bo'yicha yagona internet veb-saytini yaratish hisoblanadi.


Hozirgi davrda tashqi mehnat migratsiyasining o'zgarishiga **iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va tashkiliy-huquqiy xarakterga ega asosiy omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi** (2-rasm).

Tashqi mehnat migratsiyasining **asosiy iqtisodiy omillari** yuqori daromadli ish o'rinlarini taklif etish, tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va uning filiallari faoliyatlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, bandlik sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi rekrutning agentliklariga soliq imtiyozlarini berish, xorijda kichik biznes yuritishni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, xorijda sanoat innovatsiyasi asosida korxonalar tashkil qilishiga iqtisodiy ko'maklashish, mehnat migrantlarining birlamchi xarajatlari uchun tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar taqdim etish.

filiallari faoliyatlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, bandlik sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi rekrutning agentliklariga soliq imtiyozlarini berish, xorijda kichik biznes yuritishga va sanoat innovatsiyasi asosida korxonalar tashkil qilishga iqtisodiy yordam berish, mehnat migrantlarining birlamchi xarajatlari uchun tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar taqdim etish salmoqli ta'sirga ega.

**Ijtimoiy-demografik omil** sifatida tashqi mehnat migrantlarini xorijiy tillarga o'qitish va malakasini oshirish sifatini mazmunan yaxshilash, ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat xorijlik ish beruvchilardan bo'sh ish o'rinlari, ish xarakteri, maosh, ishchilardan talab etiladigan malaka (ko'nikma)lar haqida ma'lumotlarni to'plab borish, xorijiy ish beruvchilar tomonidan ish o'rinlarini mehnat va texnika xavfsizliklari bilan ta'minlash hamda sug'urtalangan tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, migrantlarni yotoq-joylar bilan ta'minlash va ularning sanitariya-gigiyena normalariga muvofiq bo'lishini ta'minlash yetakchi o'rin egallaydi.

**Tashkiliy-huquqiy omillar** bu O'zbekiston Respublikasining "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish, Xalqaro Mehnat Tashkilotining Mehnat migratsiyasi to'g'risidagi konvensiyalarini ratifikatsiya qilish, xorijiy ish beruvchilar bilan tashqi mehnat



2-rasm. Aholi tashqi mehnat migratsiyasining asosiy omillari

Manba: rasm muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

migrantlari o'rtasidagi mehnat shartnomalarini (kontraktlarini) xalqaro standartlarga mos holda tuzish, BKM tasarrufida tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha maxsus bo'lim va xususiy bandlik agentliklarining sifatli va qonuniy faoliyatlarini tashkil etish, mehnat migrantlarini xorijiy tillarga va zamonaviy kasblarga o'qitish maxsus kurslarni shakllantirish, ortiqcha qishloq ishchi kuchini tashkillashtirilgan eksportini sifatli amalga oshirish hamda tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha yagona internet veb-saytini yaratish hisoblanadi.

Xorijdan mehnat emigrantlari yuborayotgan pul mablag'lari rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi **turmush darajasi yaxshilanishida muhim ahamiyatga ega.**

Bugungi kunda ortiqcha qishloq ishchi kuchining tashkillashtirilgan eksporti hukumatlararo kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Mazkur memorandumlarda ishchi kuchini eksport qilish shartlari, ularga beriladigan imtiyoz va kafolatlar, mehnat va yashash sharoitlari hamda mehnatga haq to'lashlar shartlari kelishib olinadi.

Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarga qo'yiladigan **talablar** quyidagicha:

- aholining 2,0 foizdan ko'prog'i chet elda bo'lsa;

- iqtisodiy faol aholining kamida 1,0 foizi chet elda bo'lsa;

- chet elda ishlayotgan migrantlarning pul o'tkazmalari YMM (Yalpi milliy mahsulot)ning 1,0 foizidan ko'prog'ini tashkil qilsa [3].


3-rasmdan ko'rinib turibdiki, mehnatga layoqatli qishloq aholisining 7,3 foizi tashqi mehnat migrantlari hisoblanadi. Bu ko'rsatkich Andijon (9,7%), Xorazm (9,2%) va Sirdaryo (9,1%) viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan yuqori.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikada iqtisodiy faol qishloq aholisining 16,5% i, hududlar kesimida esa Andijonda 21,2%, Xorazmda 21,0%, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Samarqand viloyatida 20,1%, Namanganda 19,8% i tashqi mehnat migrantlari hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi ishchi kuchini **eksport qiluvchi mamlakatlarga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi.**

O'zbekiston Respublikasining xorij mamlakatlariga qishloq ishchi kuchini eksport qilishi tufayli quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

- ishchi kuchi eksporti tufayli respublika milliy daromadiga xorijdan mablag'lar kelib qo'shiladi (respublikamizga jami 6,4 mlrd AQSH dollari, shundan 4,7 mlrd AQSH dollari Rossiyadan kelgan [4]). Bu mablag'lar hisobiga aholi daromadlarini



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchining eksporti ko'rsatkichlari

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

o'shish, yangi ish o'rinlarini barpo etish, ishsizlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larga ega bo'lish mumkin;

- migrantlar o'zlari bilan birga eng zamonaviy bilimlarni, ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalarni, zamonaviy texnologiya va yangi texnikani boshqarishni o'rganib qaytadi;

- xorij korxonalarida mavjud bo'lgan mehnatni tashkil etish, mehnat intizomi, ishlab chiqarish jarayonini boshqarish, unumli mehnat qilish, zamonaviy bilimlarni egallaydi;

- chet tillarni, mehnat qilish va malaka oshirish usullarini o'rganadi.

Qishloq ishchi kuchi eksportini **tashkiliy-institutsional ta'minlashni** takomillashtirish, bizning nazarimizda, **quyidagi yo'nalishlarda zarur:**

- qishloq ishchi kuchi eksportini litsenziyalash asosida mazkur jarayonga birlamchi iqtisodiy birliklar – agrar korxonalarini keng jalb qilish hisobidan qishloq ishchi kuchi eksportini tartibga soluvchi organlar va qoidalar tizimini erkinlashtirish;

- litsenziyalarni yaqqol afzal ko'rishlar usuli bo'yicha taqsimlashdan ularning erkin kim oshdi savdosiga o'tish;

- mamlakatni dunyoda ishchi kuchi migratsiyasini tartibga soluvchi huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarga (XMT konvensiyalari, migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotda ishtirok etish va h.k.) imkon qadar jalb qilish;

- marketing tadqiqotlari o'tkazish va qishloq ishchi kuchini eksport qilish hisobidan ishsizlikni yumshatish imkoniyatlarini aniqlagan holda ishsizlik rejalari-prognozlarini tuzish;

- qishloq ishchi kuchi eksportini tartibga soluvchi organlarda konsalting xizmati ko'rsatishni rivojlantirish.

Qishloq joylaridan ortiqcha ishchi kuchi eksportini tartibga solish mexanizmini bozor usullarini kuchaytirish tomonga o'zgartirish lozim. Bizningcha, qishloq ishchi kuchi eksportini tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish uchun quyidagi **chora-tadbirlarni** amalga oshirish tavsiya etiladi:

- agrar korxonalariga qishloq ishchi kuchini eksport qilish huquqini (litsenziyalarni) olish va nomzodlarga chet elda ishlash uchun chiqish huquqini qo'lga kiritish uchun qo'yiladigan talablarni yumshatish;

- valyuta va bank siyosatida imtiyozlar tizimini joriy etish hisobidan qulay migratsiya muhitini shakllantirish (yuqoriroq depozit foizlari, valyuta depozitlarini mol-mulk solig'i va daromad solig'idan ozod qilish, valyuta turiga qarab depozit stavkalarini tabaqalashtirish va h.k.), retsipiyent mamlakatlarda O'zbekiston banklari tarmog'ini rivojlantirish, moliyaviy imtiyozlarga ega ichki qarzlardan foydalanish.

Qishloq ishchi kuchi eksportini kengaytirish uchun xalqaro mehnat bozorini izchil o'rganish talab etiladi. Mazkur bozor ishchi kuchi eksport qilinayotgan mintaqaning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan tavsiflanadi. Ishchi kuchi eksport qilinayotgan mintaqada quyidagi **iqtisodiy ko'rsatkichlar** bilan farqlanishi lozim:

- YMMning real o'sishi 4–7 foizni tashkil etadigan jadal iqtisodiy rivojlanish sur'ati va ishsizlik darajasining 1–2,5 foiz atrofidagi past ko'rsatkichi;

- yuqori mehnat sig'imli ishlab chiqarishga egaligi va milliy daromadlarda ishhaqi ulushi 30–50 foizni tashkil etishi;

- mintaqada iqtisodiyotining eksportga yo'nalganligi va joriy operatsiyalar hisobida ijobiy saldoning mavjudligi;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining nisbatan pastligi va ularning jahon bozorida talabchanligi;

- qurilish ishlarining yuqori sifat darajasi va YIMda qurilish tarmog'ining 7–12 foizdan iborat yillik jadal o'sish sur'atiga egaligi.

Shuningdek, O'zbekistonda qishloq ishchi kuchi eksportining sezilarli o'sishini ta'minlash uchun yuqoridagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mamlakatlar monitoringini muntazam olib borish va ular bilan ishchi kuchini eksport qilish yuzasidan hamkorlik aloqalarini o'rnatish talab etiladi.

Bizningcha, qishloq ishchi kuchini eksport qilishning an'anaviy yo'nalishlari (Rossiya, Qozog'iston, Koreya)ni diversifikatsiyalash maqsadga muvofiq.

Qishloq aholisi soni muntazam ortib borayotgan bir sharoitda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bilan birga ortiqcha ishchi kuchini eksport qilish uchun yangi yo'nalishni – xorijlik yirik agrar ish beruvchilar bilan shartnoma tuzish zarurati paydo bo'lmoqda.

Ortiqcha qishloq ishchi kuchini Rossiya, Qozog'iston va Koreyadan tashqari **agrar soha**



**rivojlangan quyidagi mamlakatlarga** eksport qilish tavsiya etiladi:

**1. Avstraliya** o'z hududiga eng ko'p ishchilarni sig'dira olish imkoniyatiga ega, shunga qaramay, Avstraliyada har kim ham malakali ishni topa olmaydi, chunki bu mamlakat muayyan lavozimlar uchun nomzodlarga katta talablar qo'yadi. Lekin malakasi past ishga joylashish qiyin emas. Bu mamlakat past haq evaziga (Avstraliya o'lchovi bo'yicha) qo'shimcha bilim yoki mahorat talab qilmaydigan ishni bajara oladigan odamlarni mamnuniyat bilan qabul qiladi. Qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, transport, qurilish, bolalarni parvarishlash kabi sohalarda har doim ishchilar yetishmaydi. Shuning uchun Avstraliya agrar ishchi kuchiga ehtiyoj sezadi.

**2. AQSH** qariyb 90 mln immigrantni qabul qilishi mumkin. Bu katta raqamligiga qaramay, Amerikaga turistik yoki hatto o'qish vizasi bo'yicha kelgan chet elliklarning ko'pchiligi o'ziga bo'sh ish joyini topa olmaydi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda migrantlarning 33,5 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat ko'rsatadi [5].

**3. Kanada** hududi, aholi sig'imi ko'rsatkichi ham boshqa tahlil qilinayotgan mamlakatlar orasida nisbatan yuqori hisoblanadi. Mamlakat qariyb 70 mln immigrantni qabul qilishi mumkin. Yuqori ishhaqi, ijtimoiy himoyalanganlik va yashash uchun ruxsat olishning nisbatan osonligi tufayli Kanada katta miqdordagi immigrantlarni o'ziga jalb qiladi. Kanada hukumati oxirgi chiqishlaridan birida iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat aynan xorijiy ishchi kuchiga umid bog'layotganini ma'lum qilgani bejiz emas.

Mamlakatda agrar mehnatga talab yuqori hisoblanadi. "Sowing the Seeds of Growth" ma'ruzasida ta'kidlanishicha, qishloq xo'jaligida 113,8 000 bo'sh ish o'rni mavjud bo'lib, agar bunday ishchi kuchining yetishmasligi tendensiyasi saqlanib qolsa, jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [6].

**4. Gollandiya** dunyoda qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan, taraqqiyot innovatsion tarzda davom etayotgan davlatlardan biridir. Bu mamlakatda hozirgi kunda agrar sohada faoliyat yuritayotgan bir ishbiarmon 112 nafar kishini boqadi.

Gollandiyaning YIM 700 milliard dollar bo'lib, aholi jonboshiga 40,7 000 yevroga to'g'ri keladi

va bu sohada ham dunyoning kuchli 10 ta davlati qatoriga kiradi. Mamlakat umumiy yer maydonining 65 foizini qishloq xo'jaligi egallagan. Mamlakatdagi 4,5 million qoramoldan 2,5 million bosh sigir sut ishlab chiqarishga ajratilgan. Yog' yetishtirish bo'yicha Yevropada 5-o'rin, pishloq ishlab chiqarish bo'yicha 4-o'rinda turadi. Mamlakatdagi 1,5 000 gektar issiqxonaning, taxminan, 60 foizi gulchilikka ajratilgan. Agrar soha eksporti bo'yicha mamlakatga meva-sabzavotlar 12 milliard yevro, sut mahsulotlari 5 milliard yevro foyda keltiradi. Hammasi bo'lib qishloq xo'jaligi mamlakatga 85 milliard yevro daromad olib keladi.

Mamlakatda sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash nihoyatda rivojlangan. Gollandiya qishloq xo'jaligining deyarli hamma sohalari bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida dunyo e'tirof qilgan mamlakat hisoblanadi. Ayniqsa, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, urug'chilik, yem-xashak ishlab chiqarish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash, gulchilik sohasida yetakchilik qiladi.

**5. Ko'p miqdorda emigrantlarni qabul qiladigan** yana bir mamlakat **Janubiy Koreya**dir. 1994-yildan boshlab Janubiy Koreya hukumati tomonidan xorijlik ishchilar amaliyotini o'tkazish dasturi taklif etildi, bunga ko'ra, ular mamlakatda texnik tayyorgarlik hamda qayta tayyorgarlikdan o'tishi mumkin. Biroq "ishlab chiqarish amaliyoti"ning bu tizimi, aslida, rivojlanayotgan mamlakatlardan malakasiz va arzon ishchi kuchi yollashning bir turi bo'lib chiqdi. Bu mamlakatda ishhaqi va aholi jonboshiga to'g'ri keladigan yalpi xalq iste'moli o'sishi, shuningdek, oliy ma'lumotli janubiy koreyaliklarning iflos, mashaqqatli va xavfli ishlarini bajarishni xohlamasligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, Janubiy Koreyada mehnat va hayot sharoitlari Markaziy Osiyodagi (O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston) ishchi kuchi uchun Rossiya yoki Qozog'istondagidan o'ziga ko'proq jalb qiladi. Eng avvalo, bu tajovuzkorona munosabat, fobiyalar, salbiy fikrlarning yo'qligi va xorijliklarga nisbatan bag'rikengroq munosabat bilan izohlanadi. Koreyaga ishlashga borish markaziy osiyolik "gastarbayerlar"ga o'z yurtida hayotini o'nglab olish, qarindoshlari va yaqinlariga yordam ko'rsatish uchun yetarlicha mablag' olish imkonini beradi.

Shunga qaramay, Janubiy Koreya O'zbekiston Respublikasidan Rossiyadek katta miqdorda



ishchi kuchi qabul qila olmaydi, bu esa bo‘sh ish o‘rinlarining kvotalari har yili kamayib borayotganligi, shuningdek, hududning populyatsiya sig‘imi pastligi bilan tasdiqlanadi. Shunga qaramay, O‘zbekiston Respublikasidan Janubiy Koreyaga ishchi kuchi yuborish imkoniyati tashqi hududiy mobillik mehnat resurslarining oqimlarini diversifikatsiyalash zarurligi nuqtayi nazaridan respublika uchun iqtibolli variant hisoblanadi.

Binobarin, o‘tkazilgan tahlil ortiqcha ishchi kuchini o‘z hududidan “siqib chiqaradigan” va yaqin istiqbolda ham bu maqomni saqlab qoladigan mamlakat sifatida O‘zbekiston Respublikasining jahon miqyosidagi holatini ilmiy asoslab beradi. Ayni vaqtda Fors bo‘g‘ozi mamlakatlariga o‘zbek ishchilarini ishlashga yuborish mumkin bo‘lgan mamlakatlar sifatida qaramaslik kerak. Rossiyaga kelsak, bu mamlakat (Qozog‘iston bilan birga) O‘zbekiston Respublikasidagi **ishchilar uchun yaqin va uzoq istiqbolda ham eng o‘ziga jalb etuvchan mamlakat** bo‘lib qoladi. Shu tufayli hozirgi vaqtda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari va vazifalari nuqtayi nazaridan respublika milliy manfaatlariga javob beradigan oqilona migratsiya siyosatini shakllantirishga jiddiyroq ilmiy yondashuvni yaratish talab etiladi. Buning ustiga, mamlakatimiz fuqarolarining ushbu mamlakatlarga haddan ortiq qiziqishi faqatgina vaqtinchalik ishga joylashish istiqboli bilan izohlanmaydi. Shu munosabat bilan boshqa mamlakatda qulayroq sharoitga o‘rganib qolganligi yoki yangi oila qurganligi, doimiy va yuqori haq to‘lanadigan ishda ishlayotganligi, ishlayotgan mamlakat fuqaroligini olganligi, uy / kvartira sotib olganligi, keyinchalik o‘z oila a‘zolarini doimiy yashash joyiga taklif qilganligi tufayli mehnat resurslarining bir qismi qaytib kelmasligi mumkinligini ham hisobga olish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati **ortiqcha ishchi kuchi eksportini arab mamlakatlariga** qayta yo‘naltirish variantini ishlab chiqishi zarur. Bu borada Quvayt, Qatar, BAA mehnat bozorlari imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilish hamda bu davlatlar bilan mazkur yo‘nalishda tegishli bitimlar imzolash lozim. Shu munosabat bilan quyidagi tavsiyalarni taklif qilish mumkin:

- 2030-yilgacha mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari mehnat migratsiyasi milliy strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish;

- demografik vaziyat va mehnat bozoridagi ehtiyojga (shu jumladan, chet mamlakatlarning mehnat bozoridagi ehtiyojga), ilg‘or xalqaro tajribaga muvofiq migratsiya siyosatining doim takomillashtirilishini ta‘minlash;

- ishchilar keluvchi mamlakatlarda qonuniy bo‘lish va ishga joylashishga ko‘maklashish infratuzilmasini kengaytirish zarur. Faqat ishonchli rasmiy servislar (huquqiy, axborot va h.k.) bozordan nomaqbul xizmatlarni surib chiqarishi mumkin. Xususiy bandlik agentliklari faoliyati uchun huquqiy maydon yaratish va ishchi kuchi lizingi kabi yangi kadrlar texnologiyalaridan foydalanishni (huquqiy doiralar yaratish asosida) tavsiya qilish zarur;

- ishchi kuchi eksportini hisobga olishning **elektron tizimini joriy etish** va rivojlantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi hududlarida reintegratsiya qilish markazlarini tashkil etish, qaytib kelgan, chiqarib yuborilgan hamda deportatsiya qilingan ishchilarni ichki va tashqi mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo‘lgan kasblarga, shuningdek, ishchi kuchini qabul qiluvchi boshqa mamlakatlar tiliga o‘qitish zarur. Keyinchalik xorijga jo‘nab ketuvchi mehnat resurslari safiga qo‘shilishni xohlovchi maktablarning bitiruvchilarini ham o‘qitish kerak;

- xorijda mehnat bozori ehtiyojini, shu jumladan, turli malakatdagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini monitoring qilish va baholashning doim amal qiladigan tizimini yaratish, shuningdek, ishga joylashadigan mamlakatga kerak bo‘lgan kasblar ro‘yxatini tayyorlash.

Bizning fikrimizcha, ortiqcha qishloq ishchi kuchini eksport qilishdan oldin shu mamlakat mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan **kasblarga va xorijiy tillarga** o‘qitish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq. Kasbga o‘qitishni quyidagi tuzilmalarda yo‘lga qo‘yish lozim:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda “Ishga marhamat” monomarkazlari;

- Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunarga o‘qitish markazlari;

- qisqa muddatli kasb-hunarga o‘qitish kurslari;

- nodavlat kasb-hunarga o‘qitish muassasalari.

Shuningdek, O‘zbekistonning barcha hududlarida tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatli organlarini tashkil etish lozim.

Vakolatli organlar quyidagi **funksiyalarni bajarishi kerak:**

- mehnat emigrantlarini tahlil qilish va prognoz qilish;
- huquqiy qo‘llab-quvvatlash va qonun hujjatlarini tahlil qilish;
- yangi mehnat bozorlarini izlash va qabul qiluvchi mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatish;
- mehnat emigrantlarini hisobga olish;
- migrantlarni axborot bilan qo‘llab-quvvatlash va h.k.

Ushbu vazifani mavjud agentliklar va xizmatlar funksiyalarini birlashtirgan holda ular yordamida ham hal etish mumkin.

Vakolatli organlarga iqtisodiy mustaqillik berish kerak. Vakolatli organlar faoliyati doirasida yangi mehnat bozorlarini izlash hamda mavjud bozorlarning yangi ehtiyojlarini o‘rganish yuzasidan aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat tashkil etiladi. Muqobil mehnat bozorlari aniqlanadi va yangi migratsion oqimlar shakllantiriladi.

Xalqaro amaliyotga muvofiq o‘zbekistonlik mehnat emigrantlari eng ko‘p bo‘lgan mamlakatlardagi O‘zbekiston elchixonalari huzurida Vakolatli organning **chet eldagi vakolatxonasini tashkil etilishi zarur**. Vakolatli organning chet eldagi vakolatxonasiga diplomatik maqomni berish hamda uning faoliyatini migrantlar huquqlarini samarali himoyalashga yo‘naltirish.

Bunda alohida hudud va migrantlar ishlayotgan davlatlardagi korxonalar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish ishini tashkil etish hamda mehnat emigratsiyasi sohasidagi xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilish mexanizmini barpo etish orqali mehnat migrantlarini tashkiliy to‘plash va jo‘natish tizimini shakllantirishga yordam ko‘rsatiladi.

Ishchi kuchi eksporti bo‘yicha vakolatli organ ko‘magida o‘zbekistonlik mehnat migrantlariga nisbatan yo‘l qo‘yilgan inson huquqlari buzilishi dalillarini aniqlash va buzilgan huquqlar keyinchalik tiklangan holda har bir aniqlangan fakt bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish uchun inson huquqlari bo‘yicha vakolatli organning migrantlar ishlayotgan davlatlardagi tegishli tuzilmalari bilan **hamkorlik qilish** masalalari bo‘yicha faoliyati faollashtiriladi.

Qishloq tashqi mehnat migrantlarining salohiyatini rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi va malakasini oshirishga, ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlashga, ularning milliy rivojlanish jarayonidagi ishtirokini faollashtirishga yo‘naltiriladi.

Ushbu ustuvor yo‘nalishni amalga oshirish doirasida qishloq ishchi kuchini eksport qilishgacha tayyorlash tizimi, shu jumladan, sifatli kasbiy o‘qitish tizimi tashkil etiladi. Uni shakllantirish uchun fuqarolik jamiyati, donorlar va xususiy sektorning salohiyatini jalb qilgan holda kasb-hunar ta‘lim muassasalari, kattalarni o‘qitish markazlarining salohiyatidan foydalaniladi. Mamlakat darajasida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan chet elga chiqishga tayyorlash **yagona interfaol dastur** ishlab chiqiladi. Mazkur dastur migrantlarga madaniy ta‘lim berish masalalari, til kurslari, sog‘liqni saqlash va mehnatni muhofaza qilish masalalari, mehnat bozoridan xabardorlik ko‘nikmalarini o‘z ichiga olishi darkor. Ushbu ko‘nikmalar ham ichki, ham tashqi mehnat bozorlarida ish qidirish uchun foydali. Bundan tashqari, o‘quv videokurslari DVD formatida tiraj qilinadi. Potensial migrantlarni chet elda mehnat qilish bilan bog‘liq tavakkalchiliklar haqida xabardor qilish tizimini tashkil etish ham muhim jihat hisoblanadi.

Shuningdek, migrantlarni ijtimoiy va tibbiy sug‘urtalash hamda ularning oila a‘zolariga yordam ko‘rsatish tizimini ishlab chiqish lozim. Sug‘urtalash tizimini shakllantirishning asosiy prinsipi uning migrantlar uchun iqtisodiy jihatdan jozibadorligini ta‘minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Ushbu masalalarni hal etish va optimal modelni tanlash uchun mazkur jarayon ishtirokchilarining keng doirasi bilan maslahatlar tashkil etiladi.

Yaqin kelajakda **mehnat (ishchi kuchi)ning tashkillashtirilgan eksporti samaradorligini oshirish** uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- qishloq joylaridan ortiqcha ishchi kuchini tashkillashtirilgan holda eksport qilish bo‘yicha xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlik o‘rnatish;
- xorijiy ish beruvchilarda mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlariga qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchini kasbi va malakasiga qarab joylashtirish;
- tashqi mehnat migratsiyasiga chiqib ketayotgan shaxslarga xorijda ishga joylashish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun mikroqarzarlar va subsidiyalar ajratish;
- mehnat migratsiyasiga chiqib ketayotgan shaxslarning hayoti va sog‘lig‘ini imtiyozli shartlarda sug‘urtalash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Международные денежные переводы мигрантов – важнейший источник финансирования развивающихся стран // Бюллетень о текущих тенденциях мировой экономики. сентябрь 2020. – С.7.
2. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2021/04/08/record-high-remittances-sent-globally-in-2018>
3. Иванюк И.В. Международная трудовая миграция. Учебное пособие. – М: ТБИС, 2005 – С.92.
4. Платёжный баланс, международная инвестиционная позиция и внешний долг Республики Узбекистан за 2021 год // <https://cbu.uz>.
5. Как мигранты влияют на экономику США // <https://vtoroipasport.com>.
6. <https://immigrant.today/canada/11590-kanadskie-fermy-nuzhdajutsja-v-inostrannykh-rabochikh.htm>



**Umarova Navbahor Shokirovna,**  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## IQTISODIY MUNOSABATLAR DOIRASIDA “ZUMER” AVLOD VAKILLARINING GENDER FARQLANISHLARI

**Annotatsiya.** Maqolada “Z” avlod vakillarining iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonida iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlik ustanovkalari, ularning kognitiv va emotsional olamiga daxldorligidagi gender farqlanishlar tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** “z” avlod, iqtisodiy ijtimoiylashuv, iqtisodiy yo'nalganlik, kognitiv olam, emotsional olam, faoliyat.

**Аннотация.** В статье анализируются гендерные различия установок направленности познавательного и эмоционального мира подростков на экономические отношения в процессе экономической социализации.

**Ключевые слова:** поколение Z, экономическая социализация, экономическая ориентация, познавательная сфера, эмоциональная сфера, деятельность.

**Annotation.** The article analyzes gender differences in the orientation of the cognitive and emotional world of adolescents to economic relations in the process of economic socialization.

**Keywords:** generation Z, economic socialization, economic orientation, cognitive sphere, emotional sphere, activity.

**Kirish.** Yurtimizda gender siyosati qurilishining tarixiy genezisiga qaraydigan bo'lsak, istiqloqlarning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston hukumati Pekin Harakatlar platformasida muhim o'rin tutib kelmoqda. Xususan, Xitoy davlatining Pekin shahrida 1995-yili o'tkazilgan “Xotin-qizlarning to'rtinchi Butunjahon konferensiyasi” dan buyon mamlakatimiz ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi ta'minlangan jamiyat barpo etish yo'lida dadil odimlayotganining guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Hatto so'nggi yillarda qabul qilingan qator normativ hujjatlarda O'zbekiston hukumatining gender tenglikka erishish maqsadi “Harakatlar strategiyasi” va “Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlar” mazmunidan ham keng

o'rin olgan. Ana shu asosda o'tgan qisqa davrda O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish maqsadida o'ndan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va bugungi kunda ularning ijrosi ta'minlanib kelmoqda. Bundan tashqari, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bog'liq mezonlarni aniqlashga qaratilgan 32 ta gender indikatori tasdiqlanib, ijroga yo'naltirilgani diqqatga sazovor holat sifatida baholanadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda bozor iqtisodiyoti subyektlarini qo'llab-quvvatlash, aholini hududiy iqtisodiy ijtimoiylashtirishni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash va

bunda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlariga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur asoslari yaratilmoqda: "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish (5-maqсад)"<sup>1</sup>, "xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash (69-maqсад)", "yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish (70-maqсад)"<sup>2</sup>, vazifalarga asoslanib, hududiy va gender xususiyatlarni hisobga olgan holda aholini iqtisodiy ijtimoiylashtirish ko'lamini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratilmoqda.

**Asosiy qism.** Statistika ma'lumotlarga qaraganda, jamiyatimizda 1400 nafarga yaqin ayol respublika va viloyatlar miqyosidagi, 43000 dan ziyodi tuman va shaharlar darajasidagi rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Xotin-qizlarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat sohaslarida 82 foizni, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohaslarida 72 foizni, qishloq xo'jaligida 45 foizni hamda sanoat sohasida 38 foizni tashkil qilmoqda<sup>3</sup>.

1991-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan "O'zbekiston ishbilarmon ayollar Assotsiatsiyasi" tomonidan mamlakatimizning 14 ta hududida ham tadbirkorlik faoliyatini boshlamochi bo'layotgan kollej bitiruvchi qizlarining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va (yoki) rag'batlantirish maqsadida 2017-yilning yanvar-noyabr oylarida "Ustoz-shogird" an'anasi asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga amaliy ko'maklashish" nomli loyiha amalga oshirilgan.

Shuningdek, Assotsiatsiya tomonidan "Oilalar daromadini oshiruvchi faoliyatni takomillashtirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy biznes yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining qonuniy poydevorini mustahkamlash" nomli yirik loyiha aholini iqtisodiy ijtimoiylashtirish va ularning yashash tarzini yanada yaxshilash maqsadida tashkillashtirilgan.

<sup>1</sup> 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегияси // <https://lex.uz/docs/5466673>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>

<sup>3</sup> <http://stat.uz>

Bugungi kun ayoli oilada uy bekasi va tarbiyachi vazifasini bajarishi bilan birga, u jamiyatdagi barcha sohalarda ijtimoiy faol inson sifatida ham tashabbus va g'ayrat bilan ishtirok etadi. Ayol o'zining ma'naviy qiyofasi, ichki dunyosi, muomala madaniyati, o'z kasbining fidoiysi, ezgu fazilatlar egasi bo'lishi bilan nafaqat farzandlari, balki kasbdoshlari va shogirdlariga ham ibrat bo'la oladi. O'zbekiston ayoli oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'zining ijobiy fazilatlarini bilan asrashga intiladi, jamiyat va oilaning har bir a'zosi uchun odobi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bilan namuna bo'ladi. Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'ziga xos ayollik mahorati bilan tartibga soladi. U doim atrofida qilargana ijobiy kayfiyat baxsh etuvchi mehribonlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi va o'zining keng dunyoqarashi, bilimi, tadbirkorligi, tashabbuskorligi va rejaliligi bilan jamiyat hayotida o'z o'rniga ega. Bularning barchasi mamlakatda xotin-qizlar gender tengligini ta'minlash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Globalizatsiya muhitida shakllanayotgan yosh avlodni an'anaviy ta'lim-tarbiya vositalari va aqidalari bilan tarbiyalash, uning ma'naviyatini yuksaltirishga o'ta mas'uliyat bilan yondashiladi<sup>4</sup>.

Bu esa, o'z navbatida, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonlarini yoshlar dunyoqarashiga moslashtirishni, ya'ni, birinchi galda, zamonaviy ta'lim-tarbiya texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan o'z o'rnida, samarali foydalanishni taqozo etadi<sup>5</sup>.

"Z" avlod vakillarining pul borasidagi umumiy ijtimoiy ustanovkalari, jumladan, ularning jamiyatda pul ehtiyojiga nisbatan sodir bo'ladigan voqe'larga, pul tufayli qondirilmagan istaklarga munosabati, ya'ni pulning omadsizlik sababi yoki muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida idrok etishga bog'liq bo'lgan ustanovkalarini aniqlash tadqiqot ishimizning oldiga qo'ygan kichik vazifalaridan biridir. Tadqiqotning metodologik g'oyasiga ko'ra, iqtisodiy ijtimoiylashtirish jarayonining maqsad-ustanovkalar blokini aniqlash usullari "Z"

<sup>4</sup> Умаров Б.З. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари / – Тошкент: "Маънавият", 2006. – 160 б.

<sup>5</sup> Эгамбердиева Н., Исмоилова Х. Технологик ёндашув асосида педагогика коллежи ўқувчиларининг иқтисодий маданиятини шакллантириш: Ўқув қўлланма. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2011. – 56 б.



avlodlarning “ijtimoiy ustanovkalar → hayotiy qoidalar → pulga bo‘lgan munosabat” tizimiga doir egosentrik, sotsiosentrik va an’anaviylik ustanovkalarini aniqlash hamda “Z” avlodlarning faoliyat va motivatsion sohaga yo‘nalganligini ifodalovchi “kognitiv va emotsional olamlari”ga tegishli ustanovkalarini tadqiq etish va ularning iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonidagi rolini baholash maqsadida qo‘llandi. Olingan ma’lumotlarni esa “Z” avlodlarning bevosita kichik guruhlarda ro‘y beradigan muloqoti, muomalasidan paydo bo‘lgan ijtimoiy tajribasi, pulga nisbatan ustanovkalari va ustuvor qadriyatlarini tizimining shakllanganligi bilan bog‘lab, iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonidagi shaxs dispozitsiyalarining ikkinchi darajasi mohiyatini izohlashda asos sifatida foydalandik. Buning uchun tadqiqotning ushbu bosqichida “Z” avlod vakillari ishtirokchilarining pulga bo‘lgan odob-axloq munosabatini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan o‘rganildi.

Tanlangan metodikaning “4<sub>+1</sub>” nomli birinchi qismidan o‘rin olgan “Moddiy jihatdan bekam-u ko‘st bo‘lgan insonlarga mening munosabatim ...” degan savolga beriladigan javoblar, respondentlarning emotsional olami bilan bog‘liq komponentlarni ochib beradi. Natijalar, asosan, “Z” avlodning pul tufayli qondirilmay kelayotgan ehtiyoj (istak)lariga bo‘lgan munosabatini, ya’ni pulning omadsizlik sababi yoki muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida idrok etishga bog‘liq ustanovkalarini tushuntirishda qo‘l keladi. Masalan, “Pul men uchun ...” tugallanmagan jumlasini yakuniga yetkazishda aksariyat respondentlar (74,0 foiz) “yaxshi yashashimni ta’minlovchi vosita”, “barcha qulflarning kaliti”, “tiriklik manbayi”, “hayotimning bekam-ko‘stligi”, “orzularim qanoti”, “peshonamning besh qarichligi”, “erkinligim garovi” kabi mag‘lubiyatdan qochish yoki muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini ifodalovchi javoblarni qayd etishgan. Yana bir toifa sinaluvchilarimiz esa (16,0 foiz) “hayotning zahri qotili”, “qo‘lning kiri” kabi umumiy javoblardan foydalangan holda bu borada indifferentligini namoyon etishgan hamda pulga bo‘lgan ustanovkalarini yashirishga harakat qilishgan.

Respondentlarning moddiy jihatdan bekam-ko‘st bo‘lgan insonlarga bo‘lgan munosabatini tahlil qilar ekanmiz, asosiy javoblar psixologik xususiyatlar toifasiga to‘g‘ri keladi va barcha

javoblarning 82,0 foizini tashkil etadi. Psixologik xususiyatlar sohasida eng ko‘p javob, shaxsning emotsional jihatlarini tashkil etadi. Jumladan, kichikroq shaharda istiqomat qiladiganlarga qaraganda ko‘proq “megapolis”da yashaydigan insonlar uchun moddiy jihatdan bekam-ko‘st bo‘lish ahamiyatli sanalib, ijobiy holat sifatida baholanar ekan.

1-jadval natijalarini tahlil qilar ekanmiz, “Z” avlod qizlarning iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonida iqtisodiy munosabatlarga yo‘nalganlik ustanovkalarini quyidagi formula yordamida asoslash mumkin. Jumladan, qizlarning kognitiv olamga tegishli ustanovkalari, ulardagi “motivatsiya → faoliyat” sohasi tuzilmasini ifodalovchi yo‘nalganlikda ko‘rinadi. O‘g‘il bolalarda esa bunday ustanovkalar odatda “faoliyat → motivatsiya” sohasi tuzilmasini tushuntiruvchi yo‘nalganlikdagi javoblarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, qizlardagi aksariyat javoblarning “Agarda ko‘p pul bo‘lganida edi, men o‘z biznesimni tashkil qilgan bo‘lar edim” mazmunidaligi, ya’ni “vosita @ pul @ maqsad” ko‘rinishidagi guruhiiy omillar ta’sirini ifodalaydigan xususiyatga egaligi, ularning kognitiv olamiga taalluqli ustanovkalarini tushuntirishga xizmat qiladi.

O‘g‘il bolalardagi aksariyat javoblar esa “Agarda ko‘p pul bo‘lganida edi, men otam va onam ishini yanada rivojlantirib, ularni xursand qilgan bo‘lar edim” mazmunida bo‘lib, “sabab @ pul @ oqibat” ko‘rinishidagi guruhiiy omillar ta’siri ustuvorligini ko‘rsatadi hamda kognitiv olamga taalluqli ustanovkalardagi farqlanishlarni kuzatishga imkon beradi.

*1-jadval*

**“Z” avlod vakillarining “Tugallanmagan jumlar” metodikasidagi javoblarni tabaqalashtirish natijalari (foizli tahlil)**

T/r	Respon-dentlar	K <sub>g</sub> Oga tegishli ustanovkalar		E <sub>m</sub> Oga tegishli ustanovkalar	
		moti-vatsiya sohasi-da	faoli-yat sohasida	moti-vatsiya sohasi-da	faoli-yat sohasida
1.	o‘g‘il bolalar (n=31)	10,0	8,0	20,0	24,0
2.	qiz bolalar (n=19)	4,0	8,0	10,0	16,0
Jami:		14,0	16,0	30,0	40,0

Shuningdek, pulga bo'lgan ustanovkalarining shaxsning emotsional olamiga taalluqli xususiyatlarini sharhlar ekanmiz, bu borada sinaluvchilarning har ikkala jins vakillarida ham aynan o'xshash ko'rsatkich qayd etilganining guvohi bo'lamiz. Xususan, buni biz, "Pul tufayli men, o'zim xohlagan ishni qila olmayman" yoki "Pulimning yo'qligi men uchun – bu imkoniyatlarning chegaralanganligi" kabi mazmundagi iboralarning har ikkala toifa sinaluvchilarda ko'plab qayd etilganida uchratishimiz mumkin. "Z" avlod vakillarining emotsional olamiga tegishli ustanovkalarini "motivatsiya → faoliyat" sohasi tuzilmasini ifodalovchi yo'nalganlikni o'zida mujassamlashtirgani bilan diqqatga sazovordir.

"Z" avlod qizlarning pulga bo'lgan yo'nalganligini tushuntiruvchi, ya'ni "motivatsiya sohasi" ( $r=0,251$ ,  $p<0,05$ ) va "faoliyat sohasi"ni ( $r=0,248$ ,  $p<0,05$ ) ifodalovchi kognitiv olamiga tegishli ustanovkalarini ularning emotsional olamiga daxldor ustanovkalarini bilan qisman ijobiy munosabatni ifodalagan ( $r=0,264$ ,  $p<0,05$ ) bo'lsa-da, qizlarning iqtisodiy munosabatlarga kirishishga nisbatan yo'nalganligida o'zlikni

anglashning muhim sharti tarzida qabul qilingan bunday qaror, istiqbolda iqtisodiy rollar egasi sifatida motivatsiyalarga asoslanuvchi faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishlarida bilish va emotsional jihatlarning ahamiyatligini ochib bera olmaydi.

Shuningdek, o'g'il bolalardagi pulga nisbatan kognitiv olamga doir "faoliyat → motivatsiya" va emotsional olamga tegishli "motivatsiya → faoliyat" tuzilmali ustanovkalarini o'zaro yuqori korrelyatsion munosabatni aks ettirganligi ( $r=0,645$ ,  $p<0,01$ ) ularning iqtisodiy munosabatlar subyekti sifatidagi o'zlikni anglashi atroflicha mulohazalash asosida kelajakda rejalar tuzish, hayotiy intilishlarini belgilash, qat'iy maqsadlarning mavjudligini ifodalovchi javoblarda o'z tasdig'ini topadi.

**Xulosa.** Demak, "Z" avlod qizlar psixologiyasidagi emotsional va kognitiv olamlar komponentlarini muvofiqlashtira olmaslik xususiyati, o'z navbatida, ularning istiqboldagi faoliyat sohasida iqtisodiy rollarni bajarishida zaruriy shaxsiy-kasbiy sifatning shakllanishida va o'zini professional sifatida anglashida to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkinligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегияси // <https://lex.uz/docs/5466673>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. <http://stat.uz>
4. Умаров Б.З. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари / Б.Умаров; Сўз боши муаллифи ва масъул муҳаррир В.Алимасов. – Тошкент: "Маънавият", 2006. – 160 б.
5. Эгамбердиева Н., Исмоилова Х. Технологик ёндашув асосида педагогика коллежи ўқувчиларининг иқтисодий маданиятини шакллантириш: Ўқув қўлланма. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2011. – 56 б.
6. Умарова Н.Ш. (2020). Иқтисодий ижтимоийлашув жараёнига таъсир килувчи омилларнинг мотивацион-кадриятли тuzилмаси (ўспиринлар мисолида). Academic Research in Educational Sciences, (2), pp. 259-277.



**Xodjajev Sobir Djumayevich,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i  
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## XOTIN-QIZLAR HAYOTIY MAQSAD VA QADRIYATLARINING PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya.** Maqolada xotin-qizlar hayoti bilan bog‘liq ehtiyojlar, maqsad va qadriyatlarining o‘zgarish tendensiyasi, ularga psixologik omillar ta’siri, qadriyatlar tuzilmasida jamoaviy hamda shaxsning individual qadriyatlari o‘rtasidagi dominantlik masalalari ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** xotin-qizlar, maqsad, hayotiy maqsad, qadriyat, ehtiyoj, ijtimoiy-psixologik omillar, terminal va instrumental qadriyatlar.

**Аннотация.** В статье раскрываются тенденции изменения потребностей, целей и ценностей жизни женщин, влияние на них психологических факторов, вопросы доминирования в структуре ценностей между коллективными и индивидуальными ценностями человека.

**Ключевые слова:** женщины, цель, жизненная цель, ценность, потребность, социально-психологические факторы, терминальные и инструментальные ценности.

**Annotation.** The article reveals the changing tendency of the needs, goals and values of women’s lives, the impact of psychological factors on them, the issues of dominance between collective and individual values of a person in the structure of values.

**Keywords:** women, purpose, life purpose, value, need, socio-psychological factors, terminal and instrumental values

**Kirish.** Ayollarning ijtimoiy-psixologik muammolarini tadqiq etish ularning ehtiyojlari va hayotiy yo‘nalishlarini tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq. Ehtiyoj va hayotiy yo‘nalishlar inson faoliyatining barcha muhim tomonlarini belgilab beradi. Shaxsning ehtiyojlarini faollikning ichki rag‘barlantiruvchisi sifatida chiqib, ular zaruriyat bilan chambarchas bog‘liqligini alohida ta’kidlash lozim. Lekin har qanday zarurat ham ehtiyoj bo‘lavermaydi. Ehtiyojlarni, bir tomondan, zarurat, ikkinchi tomondan, ixtiyoriy istaklar, injiqliklar deb farqlash muhimligini ko‘plab mutafakkirlar qayd etib o‘tishgan. Misol sifatida fransuz tadqiqotchisi J.O.Lamertning “og‘riqli

hayajonli tasavvurga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olinmasa, unda dunyoda ochko‘zlar, ichkilikbozlar kamroq bo‘ladi” degan fikrini keltirish mumkin<sup>1</sup>. Bundan tashqari, ehtiyoj tashqi (u yoki bu subyekt uchun) emas, balki ichki ehtiyojdir. Ehtiyoj haqida (so‘zning qat’iy ma’nosida) faqat ikkita ehtiyoj (obyektiv va subyektiv) mos kelgandagina gapirish mumkin<sup>2</sup>.

Maqsad – bu inson intilayotgan narsa, nimaga erishishni rejalashtirilgan chegara, amalga oshirilishi kerak bo‘lgan niyat, yo‘naltirilgan faoliyat.

<sup>1</sup> Ламерти Ж. О. Сочинения. – 2-е изд. – Москва, 1983. – С. 283.

<sup>2</sup> Социальные потребности. Проблемы формирования и развития. – Москва, 1982. – С. 10.

Hayotiy maqsad – kishining jamiyatda o‘z o‘rinini topishiga ko‘maklashuvchi va unga mazmun baxsh etuvchi vazifalardir. Shartli ravishda ularni global va mahalliy miqyosdagi maqsadlarga bo‘lish mumkin. Global maqsadlar shaxs dunyoqarashining mazmunini va mohiyatini belgilagan holda, unga xos bo‘lgan individual xususiyatlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Maqsadni belgilash insonning aniq va yashirin ehtiyojlari, qiziqishlari, istaklari va vazifalarni aniq shakllantirishni, shuningdek, harakatlarni ushbu maqsadlarga yo‘naltirish va ularni amalga oshirishni talab etadi.

**Asosiy qism.** Xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini o‘rganish ularning ehtiyoj va hayotiy yo‘nalishlarini tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq. Ehtiyoj va hayotiy yo‘nalishlar inson faoliyatining barcha muhim tomonlarini belgilab beradi. Shaxs hayotiy ehtiyojlarini amalga oshirish zarurati inson faolligining ichki rag‘bati sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin har qanday zarurat ham ehtiyoj bo‘lavermaydi. Ko‘plab mutafakkirlar ehtiyojlarni bir tomondan zarurat, ikkinchi tomondan esa ixtiyoriy istaklar sifatida farqlash muhimligini ko‘rsatib o‘tganlar. Shunday qilib, fransuz tadqiqotchisi J.O. Lamerti “agar og‘riqli hayajonli xohish-istaklar ehtiyojlar deb qabul qilinmasa, unda dunyoda ochko‘zlar, ichkilikbozlar va shahvoniy odamlar kamroq bo‘ladi” deb yozgan. Bundan tashqari, ehtiyoj tashqi (u yoki bu subyekt uchun) emas, balki ichki ehtiyojdir. Ehtiyoj haqida (so‘zning qat‘iy ma‘nosida) faqat ikkita ehtiyoj (obyektiv va subyektiv) mos kelganda gapirish mumkin<sup>3</sup>.

Inson ehtiyoji – bu uning xatti-harakatining muhim regulyatori. Tashqi zarurat ichki ehtiyojga aylanmay turib, birinchisi shaxs uchun mavhum zarurat bo‘lib qoladi, ya‘ni ehtiyojga aylanmaydi. G‘arb ijtimoiy fanidagi subyektivizm vakillari A.Fulye, L.Uord, Z.Freydlar ehtiyojlarning obyektiv shartlilikiga qarshi chiqishadi. Ular ehtiyojlarni o‘zboshimchalik, ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘lmagan subyektiv ravishda paydo bo‘lgan istak sifatida talqin qiladilar. Psixologiya va sotsiologiyaning bu yo‘nalishi ehtiyojlarni biologizasiyalash va psixologizasiyalash bilan tavsiflanadi.

<sup>3</sup> Социальные потребности. Проблемы формирования и развития. – Москва, 1982. – С. 10.

Bu tushunchalar tarafdorlari shu tariqa ehtiyojlarning ijtimoiy shartlanganligini tan olishmaydi, tan olgan taqdirda ham shaxs va jamiyat ehtiyojlarini aniqlashda ijtimoiy-psixologik omillarning haqiqiy rolini ochib bermasdan tor ma‘noda tan olishadi. Bu yo‘nalish vakillaridan biri amerikalik psixolog va sotsiolog L.Uordning fikricha, “hamma istaklarning eng kuchlisi hayotni saqlab qolishga olib keladigan istaklardir, ya‘ni ochlik va tashnalikni qondirishdir. Bu istaklarga tananing boshqa zaruriy ehtiyojlarini, masalan, kiyim-kechak va sovuq iqlim sharoitlariga uy-joyni qo‘shadigan bo‘lsak, u holda “ehtiyoj” atamasi bilan belgilanishi mumkin bo‘lgan agregatni olamiz<sup>4</sup>.

Ehtiyojlarning ijtimoiy-psixologik sharoitga bog‘liqligini inkor etish Z.Freyd qarashlarida aniqroq ifodalangan. Freyding fikriga ko‘ra, inson “tabiati”ning asosini libidinal ehtiyojlar tashkil etib, uning o‘zagi jinsiy va tajovuzkor harakatlardir. Ijtimoiy sharoitlarning ta‘siri va ularning konkret tarixiy mohiyatini butkul e‘tibordan chetda qoldirgan Z.Freyd ana shu ikki turdagi harakatga asoslangan holda inson xulq-atvorini hamda umumiy ijtimoiy taraqqiyotni tushuntirishga harakat qildi.

Z.Freyd shaxsning xulq-atvorida jinsiy maylning rolini bo‘rttirib ko‘rsatgan. U o‘z nazariyasida ijtimoiy muhitning ta‘sirini inobatga olmagan. Bu holat olim nazariyasining asosiy kamchiliklaridan hisoblanadi. Chunki inson xulq-atvori faqatgina jinsiy instinktlar, insonning ehtiyojlari va uning xatti-harakati o‘rtasidagi bog‘liqlik orqaligina o‘chanmaydi. Bunda jamiyat a‘zolarining xulq-atvoriga ijtimoiy muhit doimiy ravishda o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Marksizm vakillari esa gender munosabatlari muammosini butunlay boshqacha nuqtai nazarda tushunishgan. Ular “zamonaviy (jinsiy) sevgi” o‘z mohiyatiga ko‘ra, faqatgina jinsiy mayl yoki antik davrlardagi “eros”dan (erkak xohish istaklarining ustunligi) iborat emas. Mazkur nazariya tarafdorlari unda, **birinchi navbatda**, sevikli mavjudotlarning o‘zaro sevgisi, o‘zaro xohishi va roziligini e‘tirof etishgan. **Ikkinchidan**, jinsiy sevgining kuchi va davomiyligi juftiga egalik qilish va undan ajralishning mumkin emasligida, deb hisoblashgan, unga ko‘ra mazkur ikki shart ikkala tomon uchun eng

<sup>4</sup> Уорд Л. Психические факторы цивилизации. – Санкт-Петербург, 1997. – С. 43.



katta baxtsizlik sifatida namoyon bo'ladi..."<sup>5</sup> Ehtiyoj zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan eng murakkab tushunchalardan biridir. L.E. Darskiy o'z tadqiqotida<sup>6</sup> ta'kidlaganidek, "ehtiyoj" atamasining mazmuni psixologiya adabiyotlarida aniq va ravshan ochib berilgan tushunchadir<sup>7,8</sup>.

Eng umumiy shaklda ehtiyoj "inson-muhit" tizimining optimal bo'lmagan holati sifatida belgilanishi mumkin. Uni tanada mavjud bo'lgan avtomatik boshqaruv tizimlari tomonidan ongdan mustaqil ravishda optimallashtirish mumkin emas. Bu yerda muhit keng ma'noda, eng avvalo, ijtimoiy muhit sifatida tushuniladi.

"Ehtiyoj" tushunchasining ushbu mazmuni har bir inson faoliyati uning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan degan bayonotga qat'iy mos keladi<sup>9</sup>. Shu tarzda tushunilgan ehtiyojlar insonga tur sifatida xos bo'lib, asosan, ehtiyojlar majmuyi barcha insonlarning irqiy, milliy, ijtimoiy va boshqa jihatlaridan qat'i nazar bir xil bo'ladi.

Ehtiyojlarni qondirish usullari vaqt o'tishi bilan o'zgarib, ular ijtimoiy-psixologik jihatdan belgilanadi va ijtimoiy jihatdan me'yorlashadi. Ular jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Umumiy tasnifga ko'ra<sup>10</sup>, barcha ehtiyojlar uch guruhga kiradi:

- 1) moddiy va energiya (jismoniy) ehtiyojlari;
- 2) axborot va tadqiqot ehtiyojlari;
- 3) ijtimoiy o'zaro munosabatlar ehtiyojlari.

"Falsafa ensiklopedik lug'ati"<sup>11</sup>da<sup>11</sup> munosabatlar tizimiga qarab ehtiyojlarning turli tasnifi berilgan: faoliyat sohalari bo'yicha (mehnat, bilim, muloqot, dam olish ehtiyojlari); ehtiyojlar obyektiga ko'ra, moddiy va ma'naviy, axloqiy, estetik va boshqalar; funksional roliga ko'ra, dominant va ikkilamchi,

<sup>5</sup> Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. – Т. 21. – С. 79-80.

<sup>6</sup> Дарский Л.С. Рождаемость и репродуктивная функция семьи. В кн.: Демографическое развитие семьи // Сб. стат. под ред. А.Г. Волкова. – Москва: Статистика, 2012. – С. 85-125.

<sup>7</sup> Гальперин П.Я. Введение в психологию. – Москва, 2006.

<sup>8</sup> Симонов П.В. Высшая нервная деятельность человека. Мотивационно-эмоциональные аспекты. – Москва, 1975

<sup>9</sup> Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. – Т. 3. – С. 245.

<sup>10</sup> Социальные потребности. Проблемы формирования и развития. – Москва, 1982. – С. 10.

<sup>11</sup> Философский энциклопедический словарь/ – Москва: Сов. Энциклопедия, 1983. – 840 с.

markaziy va periferik, barqaror va vaziyatli; ehtiyojlar subyekti bo'yicha individual, guruhiy, jamoaviy va ijtimoiy ehtiyojlar bo'lishi mumkin.

Ba'zi ehtiyojlarning roliga keskin urg'u berish, shuningdek, boshqalarning rolini pasaytirish shaxsning o'z ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish jarayonidagi rolini, ichki baholash imkoniyatini pasaytirib yuboradi. Xususan, insonlarning ijtimoiy muloqot qilish ehtiyoji boshqa ehtiyojlar kabi muhim bo'lib, ularni qondirmaslik xatto insonning halokatiga olib kelishi mumkin.

Shaxslar ehtiyojlarini o'rganishning murakkab tomoni shundaki, ular nafaqat jamiyat yoki shaxslar mavjudligining obyektiv shartlarini ifodalaydi, shu bilan birga, atrofdagi voqelikni aks ettirish shakli ham hisoblanadi. Shaxs ehtiyojlari obyektiv bo'lishi bilan birga, ularda ehtiyojlar subyekti (shaxs) va bu ehtiyojlarning predmetiga, ularni qondirish shakllariga bo'lgan munosabat mavjud bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda ehtiyojlarda subyektning psixologik xususiyatlari mujassamlashadi.

Shaxsning ehtiyojlarini, ularning o'ziga xosligini obyektivlik va subyektivlik o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab jarayoni sifatida to'g'ri tushunish mumkin.

Ehtiyojlarni bu kabi tushunish ularning mazmunini to'liq ochib berishga, mohiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi va bu, qoida tariqasida, ehtiyojlarni psixologik, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, falsafiy va boshqa fanlar qaysi tomonlarini tadqiq etishini belgilab beradi.

Ehtiyojlarni qondirish usullari (bitta va bir xil) juda turli-tuman, ularning barchasi ham shaxs nuqtai nazaridan, ham jamiyat nuqtayi nazaridan bir xil emas. Jamiyat ba'zi usullarni rag'batlantirishi, boshqalarga ruxsat berishi va boshqalarni taqiqlashi mumkin. Shaxs ushbu chegaralar doirasida tanlov qabul qilishi kerak. Bunday tanlovlar (ayrim hollarda anglanmagan bo'lsa-da) amalga oshiriladi, lekin inson har qanday vaziyatda oqilona qaror qabul qilolmaydi. Buning uchun, odatda, unga qabul qilishning tayyor yechimlari kerak (ularsiz u qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga majbur bo'ladi). Va shuning uchun ham ehtiyojlarni qondirishning u yoki bu usuli oqilona tanlov natijasi emas, balki madaniyat tomonidan ishlab chiqilgan namunalarga rioya qilishdir.

Aynan madaniyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar tizimi yoki madaniy me'yorlar, an'analar



yoki urf-odatlar, moda yoki boshqa tayyor xulq-atvor stereotiplari shaklida harakat qilish orqali inson o'zidan "tanlashning dahshatli yukini" olib tashlaydi (F. Dostoyevskiy). Ammo ehtiyojlarni qondirish yo'llari ijtimoiy jihatdan ma'lum darajada belgilangan bo'lsada, ular jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib borishini inobatga olish lozim.

Bu ehtiyojlarning rivojlanish manbayi moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan iste'mol qilish o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, hayotiy ehtiyojlarni qondirish yangilarining paydo bo'lishiga olib keladi. "...Bu yangi ehtiyojlar dastlabki tarixiy xatti-harakatlar"dir<sup>12</sup>, ya'ni bunda inson o'zining tabiiy va ijtimoiy muhitni qayta tashkil etadigan tarixiy jarayonining subyekti sifatida namoyon qiladi.

Tadqiqot predmeti xotin-qizlarning ehtiyojlari bo'lganligi sababli ehtiyojlarni jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar madaniyati sifatida ko'rib chiqish o'rinlidir.

Ayolning erkak bilan bo'lgan munosabatlarida, ham biologik, ham psixologik, ham ijtimoiy jalb qilish omillarini uyg'unlashtirish asosida amalga oshiriladigan ehtiyojlar gender munosabatlari masalalariga bevosita bog'liq. Bu ehtiyojlarni qondirish madaniyati kishida o'zining xulq-atvori uchun chuqurroq mas'uliyatli bo'lish, qarama-qarishi jins vakillarining fiziologik va aqliy-psixologik xususiyatlarini bilish, inson hayotida muhabbatning o'rnini tushunishini ko'zda tutadi.

Ayollarning hayotiy yo'nalishlari, bir tomondan, ularning ijtimoiylashuvi, ya'ni ularga jamiyat a'zolari sifatida qo'yiladigan madaniy an'analarni, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik ideallarni va me'yoriy talablarni o'zlashtirish mahsulidir. Boshqa tomondan, qadriyat yo'nalishlari ayollarning manfaatlarini belgilaydigan ifoda bo'lib, ayollarning subyektiv ijtimoiy mavqeyini, dunyoqarashi va axloqiy tamoyillarini namoyon etadi, qadriyatlar tizimini shakllantirish esa ayol shaxsining ijtimoiy voqelikning faol subyekt sifatida shakllanishini anglatadi<sup>13</sup>.

Qadriyatlar tizimi o'z iyerarxiasiga (tipologiyasiga) ega. Uning cho'qqisini "hayot ideali" – orzu qilingan kelajakning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qiyofasi tashkil etadi. Inson u

yoki bu tarzda standart deb hisoblaydigan qadriyat yo'nalishlari idealga mos keladi, o'zlarining hayotiy maqsadlari iyerarxiasini shakllantiradi.

Psixologiya qadriyatlarni faoliyat normativlari va regulyatorlari sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, qadriyat yo'nalishlari insonning hayotiy tajribasi, ichki kechinmalari bilan belgilanadigan shaxsning ichki tuzilishining eng muhim elementlari sifatida talqin etiladi.

Qadriyatlar umumlashtirilgan maqsadlar va ularga erishish vositalari bo'lib, asosiy ko'rsatmalar rolini bajaradi. Shakllangan qadriyatlar yo'nalishlari yig'indisi ehtiyoj va manfaatlar yo'nalishida ifodalangan shaxsning barqarorligi, muayyan turdagi xatti-harakatlarning vorisiyligini ta'minlaydigan ongning o'ziga xos o'qini tashkil etadi.

Psixologik nuqtayi nazardan qadriyatlar qadriyat-me'yorlar, qadriyat-ideallar, qadriyat-maqsadlar, qadriyat-vositalar va boshqalarga bo'linadi. Bu kabi turlarga ajratish asosi qadriyatlarining o'ziga xos mazmuni bilan bog'liq. Chunki bular ayollar turmushining barcha sohalaridagi xulq-atvoriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu asosda ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa qadriyatlar farqlanadi. Bunday ko'plab qadriyatlarni qayd etish mumkin, ammo ular orasida asosiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi<sup>14</sup>.

Aynan shular xotin-qizlarning qadriyatdar to'g'risidagi ongining asosi bo'lib, ularning xatti-harakatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qadriyat yo'nalishlari ong darajasida ham, ong osti darajasida ham bo'lib, irodaviy harakatlar, diqqat va intellektning yo'nalishini belgilaydi. Rivojlangan qadriyat yo'nalishlari shaxs ijtimoiylashuvidagi yetuklik belgisi sanaladi. Garchi inson ijtimoiylashuvi umrining so'nggi kunigacha davom etsada, uning asosiy tamal toshi ulg'ayish yillariga to'g'ri keladi. Asosiy qadriyatlar ham insonning ulg'ayish davrida shakllanadi, barqaror hayot sharoitlarining barqarorligi ta'sirida aurim o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Ijtimoiy voqelikning o'zgarishi qadriyatlar va tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

Qadriyatlar terminal va instrumental turlarga bo'linadi<sup>15</sup>. Terminal yoki hayotiy maqsadlar xotin-qizlar hayotining eng muhim maqsadlari,

<sup>12</sup> Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. – Т. 3. – С. 27.

<sup>13</sup> Романова Н.П., Дробышевский В.С. Одиночество: введение в проблему. – Москва: МПУ, 2003. – 324 с.

<sup>14</sup> Рыбцова Л.Л. Российская женщина: пять лет спустя. – Екатеринбург: УГУ, 1998. – 163 с.

<sup>15</sup> Рыбцова Л.Л. Российская женщина: пять лет спустя. – Екатеринбург: УГУ, 1998. – С. 8.

ideallari, mazmunlari – hayot, sogʻliq, bolalar, oila, shaxslararo munosabatlar, mehnat va shu kabilarning ahamiyatini ifodalaydi. Instrumental yoki vositachi qadriyatlar ayollarga u yoki bu maqsadlarga erishishga imkon beradigan meʼyorlar, sifatlar, vositalarni aks ettiradi. Terminal qadriyatlar koʻproq barqaror va instrumental qadriyatlarga nisbatan yuqoriroq maqomga ega.

Bundan tashqari, qadriyatlar anʼanaviy, zamonaviy va umumbashariy qadriyatlarga ajratiladi. **Anʼanaviy qadriyatlar** – azaldan belgilanib kelgan maqsadlar va hayot meʼyorlarini oʻzida mujassamlashtirgan holda ularni saqlashga, mustahkamlashga yoʻnaltirilgan boʻkadi. **Zamonaviy qadriyatlar** oqilona maqsadlarga erishishda innovatsiyalar va taraqqiyotga yoʻnaltirilgan boʻladi. **Umumbashariylari esa** inson rivojlanishi uchun normal sharoitlarni taʼminlaydigan tamoyillarga asoslangan holda oʻtmishda va hozirgi kunda oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan qadriyatlarni qamrab oladi.

Ayollar qadriyatlarini turli darajadagi ehtiyojlarga muvofiq oddiydan murakkabiga qarab turlarga ajratish mumkin. Xususan, hayotni saqlash va davom ettirish uchun muhim boʻlgan **asosiy hayotiy ehtiyojlar** (uy-joy, moddiy farovonlik, xavfsizlik); ehtiyojlar, meʼyorlar, xulq-atvorlarni oʻzlashtirishdagi **interaksionistik (ijtimoiy) qadriyatlar**, hayot uchun muhim boʻlgan, oʻz faoliyatini mazmun bilan toʻldirishda qoʻllaniladigan murakab **mazmunli hayotiy qadriyatlarini** alohida koʻrsatish mumkin.

Qadriyatlarining funksional asosiga koʻra, birinchi navbatda, ayollar oʻrtasida tarqalganligiga boʻyicha farqlash mumkin. Agar mazkur qadriyat koʻpchilik tomonidan maʼqullanadigan boʻlsa, birlashtiruvchi (integratsiya qiluvchi) qadriyat, agar kamchilik tomonidan maʼqullanadigan boʻlsa, jamiyatni ajratuvchi (differensiya qiluvchi) qadriyat hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etishi bilan birga, muayyan qadriyatlarining funksional rollari oʻzgarib borishi mumkin, yaʼni differensiya qiluvchi integratsiyaga oʻtishi yoki aksincha boʻlishi mumkin.

Birinchidan, koʻpchilik ayollar tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi; keyingisi esa rad etiladi. Ikkinchidan, funksional asosda qadriyatlar qoʻllab-quvvatlanadigan va rad etiladigan qadriyatlarga boʻlinadi. Qadriyatlarni qoʻllab-quvvatlanadigan va

rad etilganlarga ajratish qadriyat ongini tushunish va oʻrganish uchun muhimdir. Chunki turli ayollar bir xil qadriyatlarga turlicha munosabatda boʻlishadi, ularning ongida qadriyatlar iyerarxiya shaklida tizimlashadi, bu esa oʻz navbatida ayollarning ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beradi.

Shu munosabat bilan qadriyatlar tipologiyasi ayollarning qadriyat ongining maqom-iyerarxiya tuzilishidagi oʻrni nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Shu asosda qadriyatlarining toʻrtta guruhi ajratiladi<sup>16</sup>:

– ayollarni bir butunga integratsiya qiluvchi, jamoat ongidagi ustun (hukmron) qadriyatlar guruhi, qadriyat yadrosi sifatida tavsiflanadigan eng yuqori maqomdagi qadriyatlar, (L.L.Ribsova tomonidan oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra, ular ayollarning 60% dan ortigʻi tomonidan maʼqullangan qadriyatlar oʻz ichiga oladi):

– oʻrtacha maqomga ega boʻlgan qadriyatlar, ular qadriyatlar yadrosiga kirishi, yoki chetda turishi mumkin. Shuning uchun ham ularni dominant va oppozitsion qadriyatlar oʻrtasidagi tarkibiy zaxira sifatida belgilash mumkin;

– oʻrta maqomdan past turuvchi yoki “chetda turuvchi” (pereferiy) qadriyatlar, yaʼni ayollarni qadriyatlar boʻyicha sezilarli darajada farqlantiruvchi qadriyatlar tarafdorlariga ajratadigan taʼsir kuchiga ega oppozitsion qadriyatlar;

– past maqomli qadriyatlar yoki qadriyatlar tuzilmasining “dumi”. Ularga yaqqol ozchilikka ega boʻlgan ayollar qadriyatlari kiradi.

L.L. Ribsova ikkita tadqiqot natijalarini tahlil qilgan holda mazkur qadriyatlar tipologiyasiga muvofiq ayollarning asosiy qadriyatlar majmuyini shakllantirdi. Bu qadriyatlar majmuyi quyidagi 14 ta asosiy qadriyat iyerarxiyasidan tashkil topgan:

1. Sogʻliq oliy qadriyat sifatida.
2. Bolalar tarbiyasi va kelajagini taʼminlash.
3. Farovonlik – daromad, uy-joy, tartibli hayot.
4. Oila.
5. Ish – daromad topish vositasi, hayotning mazmunini belgilash sifatida.
6. Muhabbat – bolalarga, oila, turmush oʻrtogʻiga.
7. Oila va ishni samarali uygʻunlashtirish.
8. Taʼlim.
9. Iqtisodiy mustaqillik, alohidalik.

<sup>16</sup> Рыбцова Л.Л. Российская женщина: пять лет спустя. – Екатеринбург: УГУ, 1998. – С. 47-54.

10. O‘z zarari hisobiga yaqinlarga yordam berishga tayyorlik.
11. Sayohat, yangi narsalarni ko‘rish va bilish istagi.
12. Kasbiy (Professional) karyera.
13. O‘z-o‘zini takomillashtirish.
14. Tashqi ko‘rinishlar: moda va bo‘yanish.

Qadriyatlar ayollarning psixologik xulq-atvoriga ta‘sir o‘tkazadi, ularni tadqiq etish uni tushunishga imkon beradi. Buning uchun, **birinchidan**, ayollarning ijtimoiy mavqeining isloh qilinayotgan jamiyat xususiyatlari bilan aloqador jarayonlar bilan bog‘liqligini tushunish, **ikkinchidan**, zamonaviy ayolning ichki dunyosi qanday mustaqil mantiq asosida yashayotganini ko‘rish, **uchinchidan**, ijtimoiy transformatsiya sharoitida ayol bilan nimalar sodir bo‘layotganligini tushuntirish uchun bu ikki deterministik va erkin xulq-atvorni yagona birlikka birlashtirish lozim bo‘ladi.

Ayol o‘z ongida mavjud bo‘lgan qadriyatlarning ma‘lum bir ierarxiyasidan kelib chiqqan holda o‘zining hayotiy konsepsiyasini shakllantirib,

Ayollar hayotiy qadriyatlarining mazkur tipologiyasiga muvofiq, dominant (terminal, L.L. Ribsovaning so‘zlariga ko‘ra) qadriyatlar erkak va ayolning sherikchiligi asosidagi munosabatlarini qamrab oladi. Ularga oila; bolalar, ularning tarbiyasi, kelajagini ta‘minlash; bolalar, oila va erga bo‘lgan muhabbat; oila va ishni muvofiqlashtirish kabi munosabatlar kiradi.

Aksariyat kishilar o‘z shaxsiy muvaffaqiyatlarini kasbiy yutuqlari va oila bilan bog‘lashadi. Lekin ko‘pchilik ayollar uchun muvaffaqiyatning bu ikki tarkibiy elementlari uzoq vaqtdan beri nizoli holat bo‘lib kelgan. “Ishchi ayol” timsoli mazkur holatning asosiy sababi sifatida namoyon bo‘lgan. Zamonaviy jamiyatda “kasbiy yo‘nalgan ayol” qiyofasi paydo bo‘lmoqda. U uy bekasi yoki “ishchi ayol”dan farqli ravishda bilim, ko‘nikmalar va keng dunyoqarashga ega.

Birinчисida ham, ikkinчисida ham haqiqatdan uzoq bo‘lgan fikrlar mavjud. Bu ikkala turdagi, kasbiy yo‘naltirilgan ayol va uy bekasi, ko‘z o‘ngimizda o‘zgarib borayotgan hayotni yengish uchun tobora ko‘proq kurashayotgan “ishlayotgan ayol va ona”ning murosasiz qiyofasidan shakllangan.

“Kasbiy yo‘nalgan ayol” turmushga chiqqan yoki chiqmaganligidan farqli ravishda muyyan mansab martabasiga erishish uchun jamiyatning qarshiligi va milliy stereotiplarni yengib o‘tishlari kerak bo‘ladi. Bu holatda yolg‘iz ayollar maqomi “og‘irlashtiruvchi holat” sifatida qabul qilinadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘pchilik yolg‘iz ayollar o‘z hayot tarzlarini “noto‘liq” deb baholashadi<sup>17</sup>. Aynan shu noto‘liqlikni his qilgan ayollar uni kasb yordamida to‘ldirishga harakat qiladi. Ular o‘zini va farzandlarini ta‘minlash uchun astoydli ishlashadi, o‘z ishlarini yaxshi ko‘rishadi, hech bo‘lmaganda o‘z kasblarini qiziqarli deb hisoblashadi. Ammo yolg‘iz ayollar orasida o‘z kasbiga e‘tibor qaratishga majbur bo‘lganlar ham ko‘p, chunki ular oila foydasiga boshqa maqbulroq va ma‘qulroq tanlov qilishga qodir emaslar.

Jamoatchilik fikri hali ham yolg‘iz ayollarga nisbatan salbiy. Bunday rad etish yoki jamiyat tomonidan to‘liq qabul qilinmaslik muhiti turmushga chiqmagan respondentlarning javoblarida seziladi. Shunday qilib, ularning kasbiy o‘shining salbiy oqibatlarini yolg‘iz ayollar turmush qurgan ayollarga qaraganda ko‘proq va bu “boshliqlar va hamkasblar muammolari” deb nomlanadi (turmushdagi ayollar uchun 37% ga nisbatan 18%), yolg‘iz ayollarning 35 foizi oila va ishning o‘rtasidagi muvozanatni saqlay olmaydilar (turmushga chiqqan ayollar uchun 27%).

Mansabga yo‘nalgan yolg‘iz ayollar, albatta, kasbiy sohada ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi, lekin ular mansab yo‘lini tanlash orqali onalik roli bajarmasligi yoki farzandlari oldida doimiy noqulaylik hissi bilan yashaydilar. Nikoh va oilaviy munosabatlardagi markaziy o‘rinlardan biri onalikdir. Ayollar farzand ko‘rishga, o‘zlarini onalikda anglashga moyildirlar. Bu haqda K.Xorni “Farzandli bo‘lish istagi birlamchi bo‘lib, chuqur biologik ildizlarga ega”<sup>18</sup> deb yozadi.

Bolalarga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘risidagi turli fikrlarni umumlashtirib, S.I. Golod uning bioijtimoiy asosini deyarli universal e‘tirof etishini ta‘kidlaydi va bu ehtiyoj bir vaqtning o‘zida ikki shaklda, ya‘ni ham jamoaviy, ham individual, ba‘zi hollarda terminal, ayrim hollarda esa instrumental sifatida ishlaydi. “Bolalarga bo‘lgan ehtiyoj”, deb

<sup>17</sup> Романова Н.П. Социальный статус одиноких женщин: научное издание. – Чита: ЧитГУ, 2005. – 369 с.

<sup>18</sup> Хорни К. Женская психология. – Санкт-Петербург, 1993. – С. 75.

yozi V.V. Boyko<sup>19</sup>, – barqaror ijtimoiy-psixologik holat, **birinchidan**, oilada ma'lum bir jamiyat uchun odatiy bolalar soniga ega bo'lish va ularga odatdagi tarbiyadan ko'ra yomonroq bo'lmagan tarbiya berish istagi. **Ikkinchidan**, bu muhabbat bilan bog'liq bo'lib, farzandsiz inson o'zini shaxs sifatida anglashda qiyinchiliklarga duch kelishida namoyon bo'ladi".

Zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xosligi nikoh va oilaviy munosabatlar sohasidagi me'yorlar va qadriyatlarining sezilarli o'zgarishiga olib keladi. Ijtimoiy institut sifatida oila qadriyatlarining kuzatilayotgan qayta baholanishi va oilada qondirilishi kerak bo'lgan ehtiyojlar erkaklar va eng tashvishlisi ayollar tomonidan nikoh motivatsiyasining pasayishiga olib keladi.

Zamonaviy sharoitda aholining yangi ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga majburan moslashishi (ya'ni obyektiv, muqarrar hayot sharoitlari bilan bog'liq) deb atash mumkin bo'lgan jarayon sodir bo'lmoqda. Bu o'ziga xos inqiroz mentalitetining paydo bo'lishiga olib keladi, uning eng muhim ko'rinishlaridan biri yaqin o'tmishda ijobiy hayot yo'nalishlari, kundalik motivatsiyalar (ishda, hayotda, oilada va boshqalarda) o'zagi bo'lgan qadriyat tuzilmasining parchalanishidir.

Yolg'iz ayollarning qadriyatli ongini nima tavsiflaydi va so'nggi yillarda ularda qanday o'zgarishlar yuz berganini bilish uchun qiyosiy tahlil keltirish mumkin. Taqqoslash uchun biz 90-yillarning o'rtalarida inqiroz isloh qilingan jamiyatda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqlangan asosiy qadriyatlar to'plami va aholi ongining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

- 1) inson hayoti eng oliy, o'ziga xos qadriyat sifatida;
- 2) axloq kishining umuminsoniy axloqiy-etik me'yorlarga muvofiq xulq-atvori sifatida;
- 3) erkinlik, zamonaviy, liberal ma'noda, "...shaxsning ijtimoiy ijobiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini amalga oshirish uchun";
- 4) oilada, do'stlar va boshqa odamlar bilan mulqot qilish, o'zaro yordam;
- 5) oila, shaxsiy baxt, avlodni davom ettirish;
- 6) ish hayotning eng qadrlil mazmuni – pul topish vositasi sifatida;

7) farovonlik – daromad, o'z hayotining qulayligi, sog'lig'i;

8) tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, o'zini namoyon qilish qobiliyati, ajralib turish;

9) an'anaviylik – an'analarni hurmat qilish, hamma kabi yashash, atrofdagi sharoitlarga bog'liqlik;

10) mustaqillik, individual bo'lish, o'z mezonlari bo'yicha yashash istagi;

11) fidoiylik hatto o'z zarari hisobiga bo'lsa-da, boshqalarga yordam berishga tayyorlik;

12) avtoritet – boshqalarga ta'sir qilish, ular ustidan hokimiyatga ega bo'lish, raqobatlashish, muvaffaqiyat va g'alabaga erishish qobiliyati;

13) qonuniylik shaxsning xavfsizligi, uning boshqalar bilan munosabatlarining tengligini ta'minlaydigan davlat tomonidan o'rnatilgan tartib;

14) erkinlik shaxsning irodasini cheklashdan ozodlik qilish, ruxsat berish.

Ushbu iyerarxiyaning keskin buzilishi ijtimoiy va shaxsiy muammolardan, umumiy inqirozning ajralmas qismi sifatida qadriyatlar inqirozidan dalolat beradi. Terminal (yuqoridagi 1dan 7gacha bo'lgan qadriyatlar) va instrumental (8dan 14gacha bo'lgan qadriyatlar) qadriyatlar bilan ifodalangan ro'yxat bizga qadriyatlar iyerarxiya tuzilishi, ya'ni maqomi va muhimlik darajasini ochib bergan holda rolli vazifalaridagi o'zgarishlarni tuzatishga imkon beradi.

**Xulosa.** Xotin-qizlarning hayotiy ehtiyojlari, maqsadlari va qadriyat yo'nalishlari jamiyat taraqqiy etishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, bozor iqtisodiyoti tamoyillarining ijtimoiy voqelikda o'z o'rnini sobit egallashi bilan o'zgarib boradi. Bu holatda shaxsning individual qadriyatlari jamiyatda uzoq yillar davomida shakllangan jamoaviylikka asoslangan qadriyatlardan ustunlik qila boshlaydi hamda qadriyatlar tizimida dominatlik maqomiga ega bo'la boshlaydi.


Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, ayollarning tadqiq qilinayotgan yosh guruhlarida qadriyatlar tarkibida ijtimoiy maqsadlardan ko'ra individual hayot maqsadlari ustunligi tomon harakatlanish tendensiyasi kuzatiladi. Umuman olganda, qadriyatlar yangilanadi, ularning asosi hayotiy ehtiyojlarni qondirishdir. Shaxsiy yo'naltirilgan hayotiy maqsadlar endi isloh qilinayotgan jamiyatidagi mafkura shakllarining individualistik yo'nalishi bilan mos keladi.

<sup>19</sup> Бойко В.В. Молодежная семья. Социально-психологическое исследование. – Москва, 1980. –С. 61.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бойко В.В. Молодежная семья. Социально-психологическое исследование. – Москва, 1980. –С. 61.
2. Гальперин П.Я. Введение в психологию. – Москва, 2006.
3. Дарский Л.С. Рождаемость и репродуктивная функция семьи. В кн.: Демографическое развитие семьи // Сб. стат. под ред. А.Г. Волкова. – Москва: Статистика, 2012. – С. 85-125.
4. Ламерти Ж. О. Сочинения. – 2-е изд. – Москва, 1983. – С. 283.
5. Хорни К. Женская психология. – Санкт-Петербург, 1993. – С. 75.
6. Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. – Т. 3. – С. 245.
7. Романова Н.П. Социальный статус одиноких женщин: научное издание. – Чита: ЧитГУ, 2005. – 369 с.
8. Романова Н.П., Дробышевский В.С. Одиночество: введение в проблему. – Москва: МПУ, 2003. – 324 с.
9. Рыбцова Л.Л. Российская женщина: пять лет спустя. – Екатеринбург: УГУ, 1998. С 47-54
10. Симонов П.В. Высшая нервная деятельность человека. Мотивационно-эмоциональные аспекты. – Москва, 2005.
11. Социальные потребности. Проблемы формирования и развития. – Москва, 1982. – С. 10.
12. Уорд Л. Психические факторы цивилизации. – Санкт-Петербург, 1997. – С. 43.
13. Философский энциклопедический словарь. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1983. – 840 с.





**Rahimova Indira Igorevna,**  
*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*



**Ikromova Sevara Xusanboy qizi,**  
*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

## FARZANDLARDA SHAXSIY XUSUSIYATLAR SHAKLLANISHIDA OTA MUNOSABATINING TA'SIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ota va farzand munosabatlari hamda mana shu munosabatlarning farzand shaxsiy xususiyatlariga ta'siri yoritilgan. Kichik maktab yoshidagi farzandning ota bilan munosabati uning o'z-o'zini baholashga ta'siri, otaning tarbiyadagi roli, qiz farzand shaxsining shakllanishiga ta'siri hamda biologik yoki o'gay otaning farzandlarga bo'lgan munosabati mavzusidagi maqolalarning natijalari hamda xulosalari keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** oila, shaxs, hissiy yaqinlik, xarakter, biologik ota, o'gay ota.

**Аннотация.** В данной статье описываются отношения между отцом и ребенком и влияние этих отношений на личностные особенности детей. Результаты и выводы статей об отношениях ребенка младшего школьного возраста с отцом, их влиянии на самооценку, роли отца в воспитании и формировании личности девочки, отношениях биологического отца или отчима с детьми.

**Ключевые слова:** семья, личность, эмоциональная близость, характер, биологический отец, отчим.

**Annotation.** This article describes the relationship between father and child and the influence of these relationships on the personality characteristics of having children. Results and conclusions of articles on the relationship of a child of junior school age with the father, its impact on self-esteem, the role of the father in education and the formation of the girl's personality, and the relationship of biological father and stepfather to children is given.

**Keywords:** family, personality, emotional closeness, character, biological father, stepfather.

**Kirish.** Oila inson hayotidagi eng muhim omildir. Farzand inson hayotining mazmuni, nasl-nasabining davomchisi, oilaning mustahkam zanjiridir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan, ham ma'nan ulg'ayadi, shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmat qiladi. Farzandlarimizni sog'lom, e'tiqodli

jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ota-ona zimmasiga yuklangan. Aynan oilada inson tug'iladi, birinchi marta atrofidagi dunyoni o'rganadi; turli xil taassurotlar va his-tuyg'ularni oladi hamda insonlar bilan munosabatga kirishadi. Bunda esa, avvalo, bolaga ota-ona eng katta tayanch hisoblanadi. Farzandning o'sib-ulg'ayishi va yetuk shaxs sifatida kamol topishiga ota-ona baravar hissa qo'shadi. Bola hayotida bu ikki shaxsning borligi uning yetuk shaxs sifatida emotsional hamda kognitiv sohasining rivojlanishiga ta'sir qilmay qolmaydi. Shu sababli

oilada ham otalik, ham onalik rollari va ularning farzandlar bilan bo'ladigan munosabatlariga ta'siri haqida ko'pgina ilmiy ishlar va ilmiy maqolalar yozilgan, shular asosida tadqiqotlar o'tkazilgan. Bundan tashqari, oilada farzandlarning jinsi ham ahamiyatga ega va bunda biz onaning ko'proq o'gli bilan, otaning ko'proq qizi bilan hissiy bog'langanini bilamiz. D.V.Berko ta'kidlaganidek, "bolaning jinsi individual rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy shartlardan biridir"<sup>1</sup>.

**Asosiy qism.** Otalik muammosi va ota rolining bola shaxsini rivojlantirishga ta'siri jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida juda dolzarb bo'lib, turli jihatlarida keng yoritilganini, jumladan, otalik ota-onalikning tarkibiy qismi sifatida<sup>2</sup>, otalikka psixologik tayyorlik va og'ish<sup>3</sup>, otalar bilan guruhda ishlash<sup>4</sup>, otaning yangi tug'ilgan chaqaloqqa munosabati<sup>5</sup>, otalikning o'ziga xos xususiyatlari<sup>6</sup> va boshqa ishlar misolida ko'rishimiz mumkin. V.N.Drujininning fikricha, buzilgan oila tuzilishi (to'liq bo'lmagan oila), shuningdek, ona tomonidan qo'llanadigan g'ayritabiiy tarbiya uslublari bolaning ijtimoiylashuvdagi qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin<sup>7</sup>.

Shu jumladan, Ryazan Milliy Universiteti M.V.Postuxova tomonidan 2010-yilda "Kichik

<sup>1</sup> Берко Д.В. Влияние стилей родительского воспитания на личностные особенности девушек: автореф. дис. ... пед.-психол. наук. докт. – Ставрополь, 2000. – 18 с.

<sup>2</sup> Пастухова Марина Владимировна ассистент кафедры общей психологии Рязанского государственного университета им. С.А. Есенина, Института психологии, педагогики и социальной работы / Влияние Отношений С Отцом На Развитие Самооценки Ребенка Младшего Школьного Возраста/ 2010

<sup>3</sup> Манеров Р.В. Психология отцовства. // Ежегодник Российского психологического общества: Материалы 3-его Всероссийского съезда психологов. 25–28 июня 2003 года: В 8 т. Т. 5. – Санкт-Петербург: Изд-во С-Петерб. ун-та, 2003. – С. 284–288.

<sup>4</sup> Евсенкова Ю.В., Дмитриева Н.В. Опыт исследования феномена отцовства в рамках групповой работы. // Семейная психология и семейная терапия. 2004. – № 4. – С. 55–68.

<sup>5</sup> Крюкова В.И. Отношение отца к новорожденному. // Материалы второй Всероссийской научной конференции «Психологические проблемы современной российской семьи» в 3 ч. – Ч.2 / под общ. ред. В.К. Шабельникова, А.Г. Лидерса. – Москва, 2005. – С. 241–243.

<sup>6</sup> Борисенко Ю.В. Модель взаимосвязи факторов, определяющих специфику отцовства. // Семейная психология и семейная терапия. 2006. – № 2. – С. 44–55.

<sup>7</sup> Дружинин В. Н. Психология семьи. – Москва, 1996. – 160 с.

maktab yoshida ota va bola munosabatlarida bolada o'z-o'zini baholashning rivojlanishga ta'siri" mavzusidagi maqola va unda o'tkazilgan tadqiqot natijalari orqali shunday ma'lumotlar olingan. Tadqiqotda boshlang'ich maktab yoshidagi (1–3-sinf) 115 nafar bola qamrab olingan. Ulardan 89 nafari to'liq oiladan, 26 nafari to'liq bo'lmagan oiladan tanlangan. Tadqiqot bazasi Ryazan shahridagi 63-sonli o'rta maktabda olib borilgan. Empirik ma'lumotlarni "Oilaviy rasm" va "Zina" metodikalaridan foydalangan holda tahlil qilishda bolalarning o'zini o'zi qadrlash xususiyatlari, masalan, adekvatlik – yetishmovchilik, ota va bola o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari bilan qandaydir bog'liqligiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, o'zini adekvat baholaydigan to'liq oilalardan bo'lgan 24 nafar (100%) o'g'il bolalardan 21 nafari (87,5%) otasi bilan hissiy yaqin munosabatlarga ega, 3 nafar bola (12,5%) otalari bilan hissiy yaqin munosabatlarga ega emaslar. 12 nafar qizdan (100%) to'liq oilalardan 11 nafari (91,7%) o'zini o'zi hurmat qilish va hissiy jihatdan yetarli darajada ko'rsatkichga ega bo'lgan. Otalar bilan yaqin munosabatlarda bir nafar qizning (8,3%) otasi bilan hissiy yaqin munosabatlarga ega emasligi aniqlangan. Tadqiqot davomida to'liq oila farzandlarining orasida ham o'zini o'zi hurmat qilmaydiganlari kuzatilgan. Bunda to'liq oila bo'lishiga qaramay, farzandlar bilan ota o'rtasidagi hissiy yaqinlik mavjud emasligi kuzatilgan. Ya'ni 21 nafar (100%) o'g'il boladan 18 nafari (85,7%) otasi bilan hissiy yaqin munosabatlarga ega emas, 3 nafari (14,3%) hissiy yaqin munosabatlar hissiy jihatdan kuchli ekani aniqlangan. O'zini o'zi hurmat qilmaydigan to'liq oilalardan bo'lgan qizlarning ham oilalarida xuddi shunday tendensiya qayd etilgan: 32 nafar qizdan (100%) 28 nafari (87,5%) otasi bilan hissiy yaqin munosabatlarning yo'qligi aniqlangan va 4 tasida (12,5%) otalari bilan hissiy yaqin munosabat mavjudligi kuzatilgan. To'liq bo'lmagan oilalardan bo'lgan 26 nafar (100%) bolalarda o'zini o'zi hurmat qilish darajasi ustunlik qiladi (12 boladan). 8 tasida (66,7%) o'g'il bolalar; 14 ta qizdan 12 (85,7%) tasi, shuningdek, ikkala qiz va o'g'il bolalar otalari bilan hissiy jihatdan yaqin munosabatlari yo'q (foizlar bir xil). Qizig'i shundaki, to'liq bo'lmagan oila farzandlari orasida faqat 4 nafar o'g'il (66,7%) va 2 nafar qiz bola (33,3%) hissiy jihatdan yetarli darajada o'zini o'zi hurmat qiladi.

Ota oʻrnini bosuvchi shaxs bobo bilan yaqin munosabatlar. Bu yana bir bor buni isbotlaydiki, otaga yoki uning oʻrnini bosuvchi shaxsga nisbatan muhabbat namoyon boʻlishining oʻziga xosligi bola bilan oʻzaro munosabatda namoyon boʻladi va u bilan hissiy yaqin munosabatlarda oʻzini oʻzi qadrlashning yetarli darajada shakllanishiga yordam beradi<sup>8</sup>.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotda ota va farzandlar oʻrtasidagi munosabatlar oʻrganilib, tahlil qilindi. Toʻliq va notoʻliq oilalarda farzandlarning otasi bilan boʻladigan munosabatlari bolada oʻz-oʻzini baholashga taʼsiri koʻrib chiqilgan. Bunda esa olingan natija notoʻliq oilalarda bolaning oʻz-oʻziga bahosi yuqori ekani va bu noadekvat baholash ekanligi xulosasi olindi. Bundan tashqari, toʻliq oilalarda ota bilan hissiy aloqalarning yoʻqligi ham bolada oʻz-oʻzini baholashning pastlashiga olib kelishi ushbu tadqiqot natijalarida yoritib berilgan.

Oilada ota va ona roli alohida oʻz ahamiyatiga ega. Ammo oiladagi hissiy bogʻliqliklar mavjudligini hisobga olgan holda quyidagi tadqiqot ishi natijalarini ham kuzatishimiz mumkin, bunda aynan ota va qiz munosabatlari yoritib berilgan.

T.V.Andreyeva, S.O.Muromseyeva tomonidan oʻtkazilgan tadqiqot va shu asosida yozilgan “Otaning tarbiyadagi roli va qiz shaxsining shakllanishi” nomli maqolada otalarning muloyimligi va xotirjamligi qizlarning xotirjamligi bilan bogʻliq ekani tadqiqotning natijalarida aks etgan. Qizlarda oʻz-oʻzini nazorat qilish, ota qiyofasining faollik xususiyatlari bilan oʻzaro bogʻliqligi ham aniqlangan. Hafsalasiz va befarq qizlarni asabiy otalar tarbiyalaydi, degan xulosaga kelishgan. Tadqiqotda ilgari surilgan fikrga koʻra, qizlarning masʼuliyati, maʼlumoti faqat otalar faoliyati bilan sezilarli darajada bogʻliq. Otaning qiziga boʻlgan munosabati oʻrtasida sezilarli aloqalar aniqlandi, yaʼni qizlarning turli yosh davrlarida uning ijobiy qiyofasining umumiy koʻrsatkichi shaklida – oʻziga nisbatan hamdardlik, oʻziga ishonch, oʻzini-oʻzi qabul qilish kabi oʻziga nisbatan munosabatning tarkibiy qismlari, shuningdek, otaning qiziga

<sup>8</sup> Овчарова Р.В. Родительство как психологический феномен. / Р.В. Овчарова, Ермихина М.О. // Ежегодник Российского психологического общества: Материалы 3-его Всероссийского съезда психологов. 25–28 июня 2003 года: В 8 т. Т. 6. – Санкт-Петербург: Изд.-во С-Петерб. ун-та, 2003. – С. 136–137.

boʻlgan munosabati va uning oʻzini oʻzi qadrlashi oʻrtasida<sup>9</sup>.

Oilada otaning roli toʻgʻrisida gap borar ekan, biologik ota va oʻgay ota bilan ulgʻayayotgan farzandlarda ham turli xil tafovutlar borligini koʻrishimiz mumkin. Yoki bu otalarning farzandlarini qabul qilishlariga ham bir muncha bogʻliq ekanligini koʻrishimiz mumkin. Shunda biz tadqiqotni psixologiya fanlari nomzodi, dotsent T.V.Pfau va uning talabasi N.N.Litvyakova tomonidan yozilgan “Ota va oʻgay ota munosabatlari maktabgacha yosh davridagi qizlarda” mavzusidagi maqolasda ham koʻrishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari orqali qiz va biologik ota oʻrtasidagi hamkorlik darajasi oʻgay ota orasidagi munosabatdan ancha yuqori ekanligini koʻrishimiz mumkin. Biologik ota qizi bilan munosabatlarda tenglik va sheriklikni saqlashga harakat qiladi. Oʻgay otalar koʻproq avtonomdir, bu nisbatan kamroq nazorat qiluvchi xatti-harakatlarda ifodalangan bolaga nisbatan befarq munosabatning natijasi ham boʻlishi mumkin. Ota va oʻgay otaning ota-ona munosabatlarini oʻrganish natijasida katta maktabgacha yoshdagi qizlarning otalari oʻgay otalarga qaraganda bola qanday boʻlsa, uni shundayligicha qabul qilishi aniqlandi. Bolaning individualligini hurmat qilishadi, unga hamdard boʻlishadi. Qizi bilan koʻp vaqt oʻtkazishga harakat qilish uning qiziqishlari va rejalarini maʼqullash kabi xususiyatlarda biologik ota oʻgay otaga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida biologik otalar oʻgay otalarga nisbatan talabchan va avtoritar munosabatni koʻproq koʻrsatishlari, oʻgay otaning esa farzandlarga nisbatan yumshoq munosabatda ekanligi va koʻpgina holatlarda befarq ekanligi ham ushbu tadqiqot natijalarida ayon boʻldi. Natijalar tahliliga tayanib, shuni aytish mumkinki, biologik otalar bola haqida koʻproq ijobiy fikrlarga ega (65,3%) oʻgay otalar esa nisbatan kamroq (34,7%), hamda biologik otalar qizlarini kamchiliklarsiz koʻrishga ega ekanligi ham ushbu tadqiqotda oʻz aksini topdi<sup>10</sup>.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, jamiyatning eng muhim boʻlagi bu oiladir. Mana shu oilada

<sup>9</sup> Андреева Т.В., Муромцева С.О. Воспитательная роль отца и становление личности дочери. // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия. 12. 2011. Вып. 1

<sup>10</sup> Пфай Т.В., Литвякова Н.Н. (Родительское отношение отца и отчима к дочери старшего дошкольного возраста). // Научный журнал «Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири» • ISSN 2303-9744 (Online)2016.

tarbiyalanayotgan farzandlar esa kelajak avlodidir. Oilada har bir oila a'zosining o'rni alohida ahamiyatga ega. Ko'plab tadqiqotlar natijasi oilada ayolning, ona rolining ko'p jihatlarini yoritib bergan. Bugun biz yoritayotgan mavzuda esa otaning roli va oiladagi o'rni ularning farzand tarbiyasidagi hamda ularning xarakter xususiyatlaridagi ta'siri haqida bayon etilgan. Buning yaqqol misolini yuqorida keltirilgan maqolalarda ham ko'rishimiz mumkin. Ota va farzandlar o'rtasidagi aloqada otaning bola bilan bo'lgan munosabatida hamda oilaning to'liq yoki noto'liq ekanligi ham farzandlarda o'z-o'ziga beradigan bahoga ta'siri va mas'uliyat hissining rivojlanishini ham kuzatish mumkin. Oilaviy munosabatlarda hissiy bog'liqlikning namoyon bo'lishida turfa xilligini ham, farzandlarning jinsi ham ahamiyatga ega ekanligini kuzatdik. Bundan tashqari, oilada biologik ota va o'gay

otaning ham farzandlar bilan munosabatiga alohida e'tibor qaratilgani ularning munosabatlari farzandlarning o'ziga beradigan bahosiga ta'siri ham keltirilgan tadqiqotlar natijasida ko'rib chiqdik. Tadqiqotlar natijasida ota va farzandlar o'rtasidagi munosabatda biologik va o'gay otaning farzandlarga munosabatlardagi farqlarini ko'rib chiqdik. Maqola natijalariga ko'ra, biologik ota farzandlarining har qanday holatini, ya'ni muvaffaqiyatini ham, muvaffaqiyatsizligini ham boricha qabul qilishini va ba'zi holatlarda esa farzandlar bilan jiddiy munosabatda bo'lishini, qattiqo'llik qilishi mumkinligi kabi natijalar olindi. O'gay otalarda esa buning aksi ekanligi ham ko'rindi. Bizningcha, oilada ona kabi otaning ham o'rni va roli beqiyos ahamiyatlidir. Bu nafaqat oilaviy munosabatlarga, balki oilada ulg'ayayotgan farzandlarning shaxsiy xususiyatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреева Т.В., Муромцева С. О. Воспитательная роль отца и становление личности дочери. // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия. 12. 2011. Вып. 1
2. Берко Д.В. Влияние стилей родительского воспитания на личностные особенности девушек: Дис. автореф. ... канд. психол. наук. – Ставрополь, 2000. – 18 с.
3. Борисенко Ю.В. Модель взаимосвязи факторов, определяющих специфику отцовства / Ю.В. Борисенко // Семейная психология и семейная терапия. 2006. – № 2. – С. 44-55.
4. Дружинин В.Н. Психология семьи. – Москва, 1996. – 160 с.
5. Евсеенкова Ю.В., Дмитриева Н.В. Опыт исследования феномена отцовства в рамках групповой работы. Семейная психология и семейная терапия. 2004. – № 4. – С. 55–68.
6. Крюкова В.И. Отношение отца к новорожденному. // Материалы второй Всероссийской научной конференции «Психологические проблемы современной российской семьи» в 3 ч. – Ч.2 / под общ. ред. В.К. Шабельникова, А.Г. Лидерса. – Москва, 2005 – С. 241-243.
7. Манеров Р.В. Психология отцовства. // Ежегодник Российского психологического общества: Материалы 3-го Всероссийского съезда психологов. 25–28 июня 2003 года: В 8 т. Т. 5. – Санкт-Петербург: Изд-во С-Петербур. ун-та, 2003. – С. 284–288.
8. Овчарова Р.В. Родительство как психологический феномен. / Р.В. Овчарова, Ермихина М.О. // Ежегодник Российского психологического общества: Материалы 3-его Всероссийского съезда психологов. 25–28 июня 2003 года: В 8 т. Т. 6. – Санкт-Петербург: Изд-во С-Петербур. ун-та, 2003. – С. 136–137.
9. Пастухова Марина Владимировна – ассистент кафедры общей психологии Рязанского государственного университета им. С.А. Есенина, Института психологии, педагогики и социальной работы / Влияние Отношений С Отцом На Развитие Самооценки Ребенка Младшего Школьного Возраста/ 2010
10. Пфау Т.В., Литвякова Н.Н. Родительское отношение отца и отчима к дочери старшего дошкольного возраста. // Научный журнал «Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири».





**Абдумаджидова Дилдора Рахматуллаевна,**  
*Республиканский научно-практический центр спортивной медицины при Национальном Олимпийском Комитете Узбекистана, Отдел «Спортивной психологии», психолог (PhD)*  
*e-mail: fayzullaeva73@mail.ru*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГОТОВНОСТИ СПОРТСМЕНОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ДОСТИЖЕНИЯМ

**Аннотация.** Психологическая подготовка включает в себя эффективное, сознательное управление собственным личным психологическим состоянием в условиях соревнований и самовоспитание воли. Это один из важнейших факторов, обеспечивающих максимальную эффективность спортивной деятельности в повышении спортивных достижений.

**Ключевые слова:** психологическая подготовка, спортивный психолог, психодиагностика, саморегуляция, ситуативное управление.

**Annotatsiya.** Psixologik tayyorgarlik shaxsiy ruhiy holatni ongli va samarali ravishda boshqarishni hamda sportchi irodasini tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, sport mashg'ulotlarida yutuqlarga erishishni ta'minlovchi eng muhim omillardan hisoblanadi.

**Tayanch so'zlar:** psixologik tayyorgarlik, sport psixologi, psixodiagnostika, o'z-o'zini boshqarish, vaziyatni boshqarish.

**Annotation.** Psychological preparation includes effective, conscious management of one's own personal psychological state in a competitive environment and self-education of the will. This is one of the most important factors that ensure the maximum efficiency of sport activities in increasing the effectiveness of sports achievements.

**Keywords:** psychological preparation, sports psychologist, psychodiagnostics, self-regulation, situational management.

**В**ведение. Изучая моделирование психологической устойчивости спортсменов было выявлено, что накопленная положительная и отрицательная эмоция может выражаться в разных формах агрессии. В таких ситуациях психологическая подготовка спортсмена имеет большое значение [5, с. 56]. Психологические возможности спортсменов в соревновательной период выступают на первый план. Нередко это является основным лимитирующим фактором в достижении наивысших спортивных результатов [8, 193 с.].

Современный спорт достиг высокой степени развития. Техническая, тактическая, физическая и психологическая подготовка находится примерно на одном уровне. Исходя из этих результатов соревнований определяется, в значительной степени, психологической подготовкой и психологическими факторами. Данная задача психологической подготовки спортсменов в повышении эффективности спортивных достижений, различной квалификации в современной спортивной деятельности, по мнению многих авторов,



является весьма важной, и с точки зрения науки и социально-психологической практики в спорте [4, 150 с.]. Дифференциальной особенностью современного спорта, является то, что спорт – это деятельность, всегда требующая преодоления трудностей, необходимость таких качеств как терпеливость, выдержка, выносливость [6, 45 с.].

**Цель и ее обоснование.** Цель психологической подготовки спортсмена в повышении эффективности спортивных достижений у всех участников одна – создание максимальных условий для достижения спортивных результатов и помощь в переходе в спорт высших достижений. Единение цели для всех участников является необходимой особенностью в организации психологического сопровождения, способствующей продвижению в едином направлении и создающей атмосферу общности [11, 67 с.]. Выполняя спортивную деятельность, спортсмену лучше будет справиться, имея минимальную психологическую подготовку. Это содействует проявлению всех умений и качеств спортсмена на разном этапе становления, продвижения и достижения новых целей. Существование этих навыков содействует произвольному, инстинктивному и бессознательному их проявлению в моменты, когда это значительно и весьма необходимо. Дефилирование насущного спортивного периода в последствии становится квалифицированным положением [15, 319 с.].

**Описание и решение научной проблемы.** Психологическая подготовка спортсменов в повышении эффективности для достижения максимального спортивного результата в избранном виде спортивной деятельности – это этап, нацеленный на создание у спортсменов состояния психологической готовности к состязанию, а также процесс широкого использования четко предназначенных способов и приемов, направленный на разработку умственной и моральной подготовки спортсмена. Главным фактором качественной психологической подготовки является максимально полная сосредоточенность всех потенциальных возможностей спортсмена, при прочих равных условиях и примерно одинакового уровня профессионального мастерства. На всех этапах соревнования и тренировочного процесса

психологическая готовность необходима. Она прививает тот нрав и форму, который должен быть у каждого спортсмена [2, 141 с.].

Квалификация спортивного психолога предоставляет весьма стремительную деятельность, войти в структуру спортивной готовности, быть безошибочно понятым и утвержденным в спортивной команде по сравнению с психологами, представляющими другую подготовку. Всесторонняя психологическая готовность охватывает в себя все грани и формы подготовки спортсмена: проектирование, подбор соискателей, психодиагностика спортсмена, комплектование продолжительной и длительной мотивации, установление продолжительных и временных стремлений, коррекция эмоционально волевой сферы, практика идеомоторной тренировки и психической саморегуляции спортсмена. Соответственно, комплектование и контроль подсознательных установок, психотерапия бессознательных страхов и блоков, психологическое состояние на всех этапах подготовки спортсмена, осознание результатов деятельности и ряд других специфических проблемных сторон. Суть его состоит в том, чтобы обеспечить развитие и совершенствование психологических механизмов, регулирующих движения, переживания и поведение. В психологической подготовке в повышении эффективности спортивных достижений, наиболее важное значение имеет методы спортивной психологии, то есть способы практического и теоретического изучения активности спортсмена. Применение перечисленных способов делает возможным рассмотреть и разъяснить большинство психологических проявлений, их значимость в деятельности спортсмена, что поможет показать вспомогательные ресурсы спортсмена на его плодотворность в следующих состязаниях. Самым важным для спортивного психолога и тренера, является то, что в период ответственных соревнований правильно подготовить спортсмена. В психологической подготовке спортсменов к участию повышается концепт психологических факторов. Как следствие, разработка методов и приемов такой подготовки, использование правильных

методов для подготовки спортсменов к соревнованиям, и их отбора. Эксплуатация психологических способов, одобренных в разделе спорта уже несколько лет стажуется для самореализации, самоопределение, самоорганизации, самопостроения спортсмена. Психологические расположения изучения и организации здорового образа жизни разного рода социальных команд, поддержка мотивации к функциям профессионального спорта и физической культурой, также объединенный со спортивной психологией [16, 34 с.].

Важнейшее значение в комплектовании безошибочного эмоционального настроения и поведения бесспорно имеет роль тренера. Основная цель и задача тренера – это не только победа в соревновании. Стоит понимать, что сюда включено также всестороннее развитие человека, как в культурном, так и в физическом плане [1, 34 с.].

Успешные тренеры должны правильно обучать навыкам конкретных спортивных тренировок и морально подготовить спортсменов к соревнованиям. Независимо от физического, умственного, социального и эмоционального благополучия, так как все спортсмены учатся по-разному. Тренеры должны быть осведомлены о процессе обучения, чтобы создать улучшенный опыт тренировок для спортсмена. Тренеры должны уважать стиль спортсменов. При оценке и отборе спортсменов на соревновательном уровне необходимо учитывать: склонность воспринимать визуально, аудиально или кинестетически. Тренеры должны обращать внимание на то, как спортсмен обрабатывает полученную информацию, чтобы помочь спортсменам ставить цели, которые будут позволять им максимизировать участие и потенциал. Одновременно развивать собственное целеполагание, навыки и умения [10, 6 с.].

Психологическая готовность и залог спортивной деятельности – это совокупность адресованных процедур, на квалификационное развитие, трансформирование понятий о восприимчивости и ресурсах, контроль, восприятие и проникновение своего положения повышение убежденности в собственных силах, улучшение и формирования спортивных результатов, также модернизацию и

оптимизацию структур, которые корректируют психическую целостность функции организма и поведение спортсмена, решая при этом задачи соревнований и тренировки. Программа психологической подготовки спортсменов, определяет и развивает представления креативности о возможностях и способностях, понимание и контроль положения, в результате повышается убежденность и твердость в своих преимуществах, из этого видно, как улучшаются и совершенствуются спортивные результаты. Соответственно, следует обратить внимание на три уровня психологической подготовки:

1) социально-психологический – связь в составе коллектива, влияние команды на формирование личности, ее организация, а также функции спортсмена в команде, становление личности и спортивного коллектива;

2) психофизиологический – отношение человека к возможностям своего организма как анатомо-физиологическая действительность;

3) психологический уровень – обеспечивающие его способность осуществлять деятельность, такие трудные события как саморазвитие, самооценка, мировоззрение [9, 213 с.].

Таким образом, психологическая готовность включает три степени: команды, спортсмена и личных принадлежностей. Этот подход позволяет более целеустремленно повышать структуру готовности, упорядоченную на исчерпывающее соответствующее становление личности спортсмена.

Следовательно, программа психологической подготовки включает в себя: психодиагностику, индивидуальную консультацию (по итогам диагностических исследований и запросу) и коррекционно-развивающую деятельность. При отработке и построения методов психологической готовности требуется охарактеризовать следующие первичные обстоятельства:

1. Не сводить к «аварийным мероприятиям» подготовки спортсменов. Психологическое обеспечение необходимо проводить.

2. Психологическая подготовка должна быть основана на результатах психодиагностики и возрастных закономерностях развития психики.

3. Психологическая подготовка должна опираться на всесторонний анализ требований.

Нынешние спортивные состязания требуют от спортсмена сложной квалификационной и функциональной готовности, в том числе и психомоторной. Высокие требования к психике спортсмена определяются динамикой закономерности предсоревновательных состояний, психологические особенности соревнований. За какие-то минуты перед спортивным соревнованием, стартом или в ходе спортивного поединка может быть растеряно все что было освоено, отработано и накоплено в процессе тренировок.

В ходе тренировочного процесса и во время соревнований в современном спорте важно отметить, что не только сложные физические нагрузки влияют на организм, но и высокая психическая напряженность имеет влияние на спортсмена. Адаптироваться к экстремальным ситуациям, научиться преодолевать их, являющимся необходимым фактором для спортсмена, в противном случае успех в соревнованиях будет для него недостижимым. Именно для победы и достижения высокого результата крайне важна программа психологической помощи спортсменам. При проведении программы психологической готовности психодиагностика обозначает целью исследование психики спортсмена и его возможностей. Также важно отметить базовую психодиагностику, которая проводится в начале соревновательного цикла, позволяющую изучить потенциальные возможности спортсмена [12, 373 с.].

Оцениваются индивидуальные особенности нервной системы, когнитивных процессов – восприятия, памяти, мышления, внимания, психомоторной сферы, степень развития свойств характера, в частности мотивации и волевой сферы. Оценка совместимости необходима и актуальна для эффективной групповой работы. В соответствии со структурой деятельности, предъявляемых конкретным видом спорта и к психике спортсменов, их можно разделить на три фактора:

а) состояний и соответствующих им структур действий;

б) целеполагания с учетом существующих средств;

в) факторы деятельности и мотивов.

В спортивной деятельности тренер и психолог должны стремиться к поддержанию у спортсмена мотивации самосовершенствования, установки на активный поиск резервов роста спортивного мастерства. Такие индивидуально-психологические качества, как высокий уровень поведенческой регуляции, гибкость мыслительных процессов, тревожность, нервно-психическая устойчивость и самоконтроль, которые обуславливают психологическую готовность спортсменов в экстремальных ситуациях соревнований [3, 182 с.].

Дополнительная сенсорная стимуляция, разнообразие эмоционально насыщенных заданий на обучение устойчивости, концентрации внимания и воспитание ответственности [14, 390 с.]. Результаты подчеркивают важность адекватного преодоления стресса в спорте высших достижений, как работоспособность спортсмена, а также связь саморегуляции с копинг-стратегиями. Учитывая тот факт, что саморегуляция может быть улучшена с самого раннего возраста с помощью замещающего опыта: вербального убеждения и успешной работы – это вывод может иметь практическое значение для тренеров в том смысле, что повышая саморегуляцию, они могут помочь спортсменам быть более подготовленными к стрессу [7, 427 с.].

Следующие принципы психологической подготовки спортсмена в повышении эффективности спортивных достижений являются ценностными базовыми основаниями данного процесса и соблюдаются всеми участниками:

1) принцип доверия – осознания общей цели, выработать единый план действий. Без уважения друг к другу и взаимопомощи участники не смогут достигнуть понимания;

2) принцип индивидуального подхода, опора на развитие индивидуальных особенностей, необходимых для личности как сильные стороны. Приемы воздействия должны быть подобраны с учетом личностных особенностей;

3) принцип непрерывности сопровождения – эффективность зависит от его планирования, непрерывности и последовательности;

4) принцип личной ответственности. Участники в организации психологической подготовки принимают ответственность за принятие решения;

5) принцип согласованности взаимодействия. Принимая совместные решения, одобряемые всеми участниками, можно прийти к положительному результату.

Существуют так же принципы работы спортсмена как главного участника психологической подготовки в повышении эффективности спортивных достижений. Спортсмен должен быть лично заинтересован в реализации своих возможностей, в повышении эффективности учебно-тренировочного процесса и в достижении высоких результатов. В случае высокой мотивации присоединения психологического компонента в систему подготовки будет эффективно. Спортсмену важно обладать такими качествами толерантности, как принятие способов проявлений человеческой индивидуальности и правильное понимание форм самовыражения. Каждый спортсмен вправе придерживаться своих убеждений, ценностей. Он признает это же право за другими. Обладают правом жить в мире и сохранять свою индивидуальность. Таким образом, психологическое обеспечение основная форма деятельности психолога в спорте. Это совокупность программ для повышения эффективности всех видов подготовки спортсмена, так же обеспечения психологической готовности к выступлению, создание предпосылок к продолжительной спортивной карьере и стабильной демонстрации высоких результатов [13, 73 с.].

**Заключительная часть.** Исследуя структуру механизмов, разработку методов психологической подготовки спортсменов в конкретном виде спорта, позволяет повышать познание формирования спортсменов в развитии успешности и эффективности спортивных побед. Психологическая готовность спортсмена – имеющее многоуровневую структуру и формирующееся в процессе спортивной деятельности, целостное психологическое

новообразование. Развитие психологической подготовки охватывает все этапы становления спортивного мастерства и завершается на этапе развитой формы спортивной деятельности. В структуру психологической подготовки входят компоненты характеризующие спортивную результативность, перспективное и этапное целеполагание, уверенность в успехе, показатели мобилизации исполнительных функций, субъективно-психологические характеристики личностных качеств, способностей к саморегуляции психических состояний в экстремальных условиях спортивной деятельности и психологические показатели технико-тактического мастерства.

Интегральной характеристикой высокой психологической готовности является спортивно-деловая коллективистическая мотивация, адекватная самооценка, эффективная и надежная результативность спортивной деятельности [11, 277 с.].

При организации психологической подготовки и психологического сопровождения необходимо обязательно учитывать этап спортивного мастерства и вид спорта, что важно для определения способов реализации психологического сопровождения.

Только глубокий анализ психологических особенностей подготовки в конкретном виде спорта и доступных механизмов воздействия на психику спортсмена, выбор наиболее эффективных форм, средств и методов тренировки, творческое взаимодействие всех участников подготовки позволит максимально реализовать потенциал спортсмена и сохранить высокий уровень его соревновательных достижений.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ахмадеев Д.Н. Психологическая подготовка учащихся к соревнованиям / Д.Н.Ахмадеев. Новая наука: стратегии и векторы развития. – Москва, 2019. – 273 с.
2. Ашихмина А.А. Техники саморегуляции субъекта спортивной деятельности как фактор его психологической безопасности. – Москва: Наука, образование и культура, 2016. – 189 с.
3. Бобрищев А.А. Психологические особенности личности спортсменов – представителей силовых единоборств с различным уровнем психической готовности. // Учёные записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2009. – № 1 (47). – С. 10-14.
4. Буриков А.В. Формирование психологической устойчивости к действиям в экстремальных условиях // Педагогика & Психология. Теория и практика. Международный научный журнал, № 3 (17), – Волгоград, 2018. – С. 56-57.
5. Буриков А.В. Формирование психологической устойчивости курсантов высшего военного учебного заведения // Colloquium-journal, Warszawa, Poland, № 6(17), 2018 г. – С. 44-46.
6. Воронов Н.А. Поведенческая адаптация спортсменов / Воронов Н.А., Козниенко И.В., Суворов Е.А. // Наука, образование, общество: тенденции и перспективы развития. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции. Редколлегия: О.Н. Широков [и др.]. 2017. – С. 150-151.
7. Gangyan, S., Cruz, J., Jaenes, J.C. (Ads). Sport Psychology - Linking Theory to Practice. Instituto Politécnico de Lisboa. – 2017. p. 427.
8. Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта / Г.Д. Горбунов. – Москва: Советский спорт, 2012. – 312 с.
9. Елисеев, С.А. Профессиография практикующего психолога в спортивной деятельности / С.А. Елисеев, Н.В. Журинов // Ученые записки университета им П.Ф.Лесгафта – 2016. - №10 (140) – С.242–246.
10. Jeff Martin. Special Olympics Sports Sciences: Sport Psychology for Coaches – February 2014. – 34 p.
11. Общая психологическая подготовка спортсмена к соревнованиям | Psylist.net [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://psylist.net/sport/fivo074.htm/>.
12. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: общая теория и ее практические приложения. – Москва, 2005. – С. 463.
13. Психологическая служба по работе со спортсменами высокой квалификации [Эл. ресурс]. – URL: <http://www.self-master-lab.ru/psiho.html>.
14. Психодиагностика [Эл. ресурс]. – URL:<http://www.self-master-lab.ru/testing/psiho.html>.
15. Тиунова О.В. Использование различных форм мотивации к ведению здорового образа жизни, занятиям физической культурой и спортом: методические рекомендации / О.В. Тиунова, Д.А. Фильченков, М.В. Томилова. – Москва: Советский спорт, 2019. – 38 с. – ISBN 978-5-9718-0640-0.
16. Юрина Ю.В. Спортивная психология. Психологические методики в системе подготовки спортсменов к соревнованиям. // Молодой ученый. – 2021, № 42, (384). – С. 168-171. - URL: <https://moluch.ru/archive/384/84668/>.





**Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna,**  
*O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti, Umumiy psixologiya  
kafedrası tayanch doktoranti  
dilnavozxodjayeva86@mail.com*

## IQTIDORLI TALABALARNING INDIVIDUAL- TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI MASALASINING O'ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILGANLIGI

**Annotatsiya.** Maqolada iqtidorli yoshlarning tipologik xususiyatlari psixologik amaliyot bilan bog'lab ifodalangan. Tadqiqot davomida iqtidorning turlariga va uni rivojlantiruvchi tavsiyalarga urg'u berildi.

**Tayanch so'zlar:** tipologik xususiyat, iqtidor, yoshlar, talant, oila, jamiyat.

**Аннотация.** В статье выражены типологические характеристики одаренной молодежи в связи с психологической практикой. В ходе исследования акцент был сделан на виды таланта и рекомендации по его развитию.

**Ключевые слова:** типологическая черта, дар, молодежь, талант, семья, общество.

**Annotation.** The article expresses the typological characteristics of gifted youth in connection with psychological practice. The study focused on the types of talent and recommendations for its development.

**Keywords:** typological trait, gift, youth, talent, family, society.

**Kirish.** Dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bo'lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari alohida dolzarblik va ahamiyat kasb etmoqda. Bunda innovatsion texnologiyalar qatoridan o'rin olgan loyihalash texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda talabalik davrida innovatsion tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni shakllantirish muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada oliy talim muassasalarida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi" mazkur tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonini loyihalashga o'rgatish, kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish, ularni istiqboldagi pedagogik faoliyatga tayyorlash, o'qituvchilarda innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish, ulardagi kasbiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari ko'pgina ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>.

**Asosiy qism.** Ekzistensializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889–1978) "Tushunish uchun o'z diqqatimizni qarata olsakgina biz fikrlashga o'rganamiz" deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini

<sup>1</sup> Дружинин В.Н. Психология общих способностей. — Санкт-Петербург: Питер, 2009. — 356 с.

tushunish, anglab yetish insonning fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi. Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta'limotga muvofiq, tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta'limotni logika, mantiq deb ataydi. K.R.Megrelidzening ta'kidlashicha, insondagi biron-bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to'g'ri tushuntirishi mumkin emas. Bu narsa, birinchi navbatda, tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurni ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas<sup>2</sup>.

Shu o'rinda o'zbekistonlik psixolog olimlarimiz ham tafakkur borasida o'z fikrlarini bildirishgan. Xususan, G'.Shoumarov, E.G'oziyev, Z.Nishonova, M.Davletshin, V.Karimova, N.Xalilova, B.Umarov kabi psixologiya fanlari bo'yicha professorlarimiz o'z ilmiy ishlarida tafakkur borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashadi.

Talabalarda innovatsion tafakkur shakllanishining psixologik shart-sharoitlarini ularning ta'lim jarayonini loyihalashga oid ko'nikmalarini shakllantirish, psixologik intellektni rivojlantirish, ularda o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni tarkib toptirishning ayrim jihatlari ochib berilgan.

Xorijlik tadqiqotchilarning maxsus tadqiqotlarida garchand kreativlik qobiliyati sohasida yaqqol gender tafovutlar kuzatilmaligi aniqlangan bo'lsa-da, ba'zi tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, o'z innovatsion salohiyatini talaba yigitlar quyi kurslarda, talaba qizlar esa yuqori kurslarda namoyon etadilar.

Biografik ma'lumotlar tahlili, maxsus so'rovlar natijalaridan ma'lum bo'lishicha, innovatsion tafakkuri yuqori darajada rivojlangan talabalar otanalari orasida musiqiy asboblar chala oladigan, muntazam ilmiy-ommabop nashrlarni o'qiydigan odamlar ko'pchilikni tashkil etadi. Umuman olganda, innovatsion tafakkurning rivojlanishida oilaning rolini tadqiq etgan tadqiqotchilar bu jarayonda oiladagi moddiy ta'minlanganlik darajasi

<sup>2</sup> Дясенко Е.А. Творческое мышление в структуре профессиональной подготовки студентов бакалавриата по направлению «психология»: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург: ЛГУ, 2010. – 22 с.

katta ahamiyatga ega emasligi, bunda ko'proq otanoning farzandiga nisbatan munosabatiga xos xususiyatlar muhim ekanini qayd etadilar.

Innovatsion tafakkur muammosini o'rganishda o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, asosan, texnikaviy ijod sohasida tafakkur kreativligi namoyon bo'lish xususiyatlarini tekshirishga (M.G.Davletshin), innovatsion fikrlash jarayonining ichki psixologik mexanizmlarini ochib berishga (E.G'.G'oziyev), innovatsion qobiliyatlarning psixofiziologik asoslarini tadqiq etishga (B.R.Qodirov), innovatsion fikrlashning individual-tipologik sifatlar bilan bog'liq jihatlari yoritishga (R.I.Sunnatova), kreativlikning turli yosh davrlarida ta'lim-tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga (Z.T.Nishonova), innovatsion tafakkur qobiliyatini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirishga (Sh.Shoimova), iqtidorli o'quvchi va talabalarni aniqlash ishida kreativ tafakkur psixodiagnostikasi masalalarini o'rganishga (M.Po'latova), innovatsion tafakkur muammosini konstruktiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga (N.Xasanxonova) qaratilgan.<sup>3</sup>

Tafakkur psixologiyasini tadqiq etish borasida uzoq yillar davomida samarali ilmiy izlanishlar olib borgan hamda bu yo'nalishda o'z ilmiy maktabini yarata olgan yetakchi o'zbekistonlik olimlardan biri E.G'.G'oziyev bo'lib, uning tadqiqotlarida innovatsion tafakkur fenomenologiyasi, tarkibiy tuzilishi, inson kognitiv sohasida tutgan o'rni, o'quvchi va talabalar o'quv faoliyatidagi ahamiyati va rivojlanish xususiyatlari chuqur yoritib beriladi. O'rganishga uquvchanlik, bizning fikrimizcha, ta'lim olishga uquvchanlikdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Tadqiqot ishimizda bevosita talabalar ta'lim jarayonidagi faoliyatining qanchalik muvaffaqiyatli ekani tekshirilmagani va turli nazariy-metodologik chalkashliklarga yo'l qo'yimaslik uchun o'rganishga uquvchanlik tushunchasidan asosiy kategoriya sifatida foydalanishga qaror qilindi. Tadqiqot natijalari bayoniga kirishar ekanimiz, avvalo,

<sup>3</sup> Эрмолаева-Томина Л.Б. Психология художественного творчества: Учебное пособие для вузов. — Москва: Академический Проект, 2003. — 304 с.

Jo'rayeva N. Talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirishda munozaralardan foydalanish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2010. – №4. – B.32-35.

tadqiqotimizda umumiy ravishda innovatsion tafakkur va o'rganishga uquvchanlik o'rtasida ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi haqidagi ko'pgina tadqiqotlarda tasdiqlangan dalillarga monand natija qayd etilganini ta'kidlash kerak.

Haqiqatan ham, talabaning yaxshi rivojlangan innovatsion qobiliyati, odatda, barqaror diqqat, muammoning yechimini topishga kuchli yo'nalganlik, perseptiv sohada o'zini o'zi samarali boshqarish, faoliyat davomida emotsional ko'tarinkilik bilan uyg'un bo'lishi, uning o'zi uchun yangi amallarni tez o'zlashtirib olishida qo'l keladi.

Qayd etilgan holatlar, nazarimizda, ikki tomondan tushuntirilishi mumkin:

– birinchidan, qator tadqiqotlarda isbotlanganidek, yuqori motivatsiya sust rivojlangan intellektual qobiliyatlarni qisman kompensatsiyalashga qodir, aynan ta'limga motivatsiyaning shakllanmagani sababli o'rganish uquvchanligi past talabalar qatoriga aqliy qobiliyatlari yuqori bo'lgan talabalar tushib qolishi mumkin;

– ikkinchidan, ba'zi mualliflar ma'lumotiga ko'ra, talabalarning 1/3 qismi innovatsion faoliyatga xalaqit beruvchi omil sifatida moddiy ehtiyojlarning yetarlicha qondirilmasligini ta'kidlaydi.

Birinchi holat bo'yicha, bizningcha, tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib, yuqori motivatsiya nafaqat intellektual qobiliyatlar rivojlanishidagi salbiy natijalarni, balki innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun noqulay sharoit ta'sirini ham yengib o'tishga moslashib, faollikni susaytirmaslikka xos bo'lishi haqida xulosaga kelish mumkin. Ikkinchi holat yuzasidan esa moddiy ta'minlanmaganlikni innovatsion faoliyatning asosiy to'sig'i deb biluvchi talabadan noqulay muhit mavjud bo'lguncha o'z innovatsion salohiyatini o'stirish, ijod zavqida o'z hayoti mazmunini topishga intilishni, shunga muvofiq yangilikni o'rganishga e'tiborli bo'lishni kutish qiyin.

Umuman, empirik izlanish natijalari quyidagilarni ko'rsatyapti:

Talabalarda innovatsion tafakkurning rivojlanishi ularning ta'lim yo'nalishi hamda bosqichidan qat'i nazar o'rganishga nisbatan uquv ortishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim psixologik omil bo'lib gavdalanadi.

Innovatsion tafakkur darajasining talaba shaxsidagi o'rganish uquvi sifati bilan aloqasi to'g'ridan to'g'ri chiziqli shaklda bo'lmay, uning

o'zaro ta'sir yo'nalishi ko'p jihatdan ustuvor ehtiyojlar mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Talabalar innovatsion tafakkurining yuqori darajasi ularda hurmat qozonish, shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish ehtiyojlari ustuvor bo'lganda o'rganish uquvi rivojlanishiga, ayniqsa, kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, kreativlik ko'rsatkichlari past bo'lgan vaziyatda esa bu motivatsion omil muayyan darajagacha muhit shaxsga taqdim etmayotgan shart-sharoitni kompensatsiyalash imkoniyatiga egadir<sup>4</sup>.

Tadqiqotimizning mazkur qismida aynan bo'lajak mutaxassisligi mohiyatiga ko'ra turli yo'nalishdagi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishi nazarda tutiladigan talabalarda o'z sohasidagi samarali ijodkorligi va ustun kognitiv uslublar o'rtasidagi munosabatni o'rganish yuzasidan o'tkazilgan empirik izlanish jarayoni va natijalari bayon qilingan. Bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotchilik faoliyatimiz quyidagi tartibda amalga oshirildi:

1) ta'lim yo'nalishi innovatsion faoliyatning ikki xil turiga – badiiy (tasviriy san'at) va adabiy ijodga e'tibor qaratilishi bilan ajralib turuvchi talabalar (jami "San'at" fakultetining 64 nafar hamda "O'zbek tili va adabiyoti" fakultetining 60 nafar talabasi) bilan kognitiv uslubning ustun turini aniqlash bo'yicha diagnostik tekshiruv o'tkazildi ("X.Gottshald shakllari" metodikasi vositasida);

2) ikki xil ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha samarali innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishi uchun ularning tafakkuri kreativligiga xos bo'lishi talab qilinuvchi xususiyatlar qanchalik shakllanganini tekshirish yuzasidan psixodiagnostik sinov uyushtirildi (E.P.Ilin tomonidan tavsiflab berilgan "Gaplar" hamda "Vartega doiralari" metodikalari yordamida);

3) mutaxassislik yo'nalishlarida innovatsion tafakkurning turlicha sifatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladigan talabalarda kreativ fikrlash sifati hamda ustun kognitiv uslub o'rtasidagi munosabat xususiyatlarini miqdoriy tahlil etish choralari ko'rildi (foizli tahlil, X<sup>2</sup> mezonini, K.Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodlari orqali). Mazkur empirik izlanish texnologiyasi yordamida to'plangan ma'lumotlar

<sup>4</sup> Иванов И.П. Развитие творческого мышления студентов в условиях проблемно-деятельностного обучения: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ставрополь: СГУ, 2002.

innovatsion tafakkur va kognitiv uslublar o'rtasida o'ziga xos munosabat mavjudligi, bunda kreativlik namoyon bo'lish yo'nalishi muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatdi<sup>5</sup>.

Jadval (2-jadval)da keltirilgan ko'rsatkichlardan ma'lum bo'lishicha, til va adabiyot ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalar orasida o'z kasbiy faoliyati talablariga mazmunan yaqin turdagi innovatsion topshiriqni nisbatan muvaffaqiyatli bajaranganlar MT kognitiv uslub ustun bo'lgan sinalluvchilar orasida nisbiy ko'pchilik (63,2%)ni tashkil etadi.

2-jadval

**Kognitiv uslubning yetakchi turiga ko'ra farqlanuvchi filologiya yo'nalishi talabalarining innovatsion tafakkur mahsuldorligi bo'yicha taqsimoti (% hisobida) va tafovuti ( $X^2$  mezon bo'yicha)**

№	Innovatsion tafakkur mahsuldorligi	Kognitiv uslubning yetakchi turlari		Statistik tafovut ko'rsatkichlari	
		MT	MM	$X^2$	r
1	Nisbatan yuqori (n=17)	63,2%	36,8%	6,9	$r \leq 0,01$
2	Nisbatan past (n=18)	40,1%	59,9%	3,9	$r \leq 0,05$

Ayni vaqtda statistik ahamiyatli darajadagi tafovut bilan tafakkurning kasbiy ahamiyatli yo'nalishdagi kreativligini namoyon etib, tegishli innovatsion topshiriqni namunali bajara olmagan talabalar orasida MM kognitiv uslubli talabalar nisbiy ko'pchilik (59,9%)dan iborat. Boshqacha aytganda, verbal intellektning yaxshi rivojlangan bo'lishini talab qiluvchi innovatsion topshiriqni bajarishda MT kognitiv uslubli talabalarining nisbatan ko'pchiligi yuqori ko'rsatkichlarga, MM kognitiv uslubli talabalarining nisbatan ko'pchiligi esa past natijalarga ega bo'lishi aniqlandi<sup>6</sup>.

Aniqlangan holatning psixologik mexanizmlari, shubhasiz, adabiy ijod va kognitiv uslublarning ichki xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Innovatsion faollikning individual-psixologik

<sup>5</sup> Иванов И.П. Развитие творческого мышления студентов в условиях проблемно- деятельностного обучения: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ставрополь: СГУ, 2002. – 23 с.

<sup>6</sup> Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 434 с.

xususiyatlarini tadqiq etgan mutaxassislar ham aqliy faoliyatning kreativ mazmun kasb etishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan idrok elementlari orasida idrok subyektivligi va obyektivligining o'zaro nisbati, ya'ni G.Vitkin tomonidan "maydonga tobeligi" va "maydondan mustaqilligi" deb atalgan xususiyati markaziy o'rinni egallashini ta'kidlaydilar. Adabiy asarni, hatto bir necha satrli she'rni yozish uchun mutaxassislar ta'kidlaganidek, ijodkor ijodning barcha bosqichlarida butun asar leksikasini e'tibordan qochirishga majbur<sup>7</sup>.

Haqiqatan ham badiiy asarda muayyan syujetni tasvirlash davomida muallif, albatta, avvalgi va keyingi voqealar rivoji, ya'ni kontekstni hisobga olishi lozim. Shunday ekan, badiiy adabiyot sohasida innovatsion faoliyat subyeksi asarda alohida olingan lavhani tasvirlaganda ham uni umumiy syujetdan to'liq ajratib olgan holda, ya'ni perseptiv maydondan mustaqil tarzda bayon etishi qiyin. Biroq tasviriy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarining ko'rsatkichlarida biz o'zgacha natijalarni qayd etishimizga to'g'ri keldi.

3-jadval

**Tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi talabalarining innovatsion tafakkur mahsuldorligi hamda kognitiv uslublar nisbati bo'yicha taqsimoti (% hisobida) va tafovuti ( $X^2$  mezon bo'yicha)**

№	Innovatsion tafakkur mahsuldorligi	Kognitiv uslubning yetakchi turlari		Statistik tafovut ko'rsatkichlari	
		MT	MM	$X^2$	r
1	Nisbatan yuqori (n=17)	39,1%	60,9%	4,7	$r \leq 0,05$
2	Nisbatan past (n=18)	65,3%	34,7%	9,3	$r \leq 0,01$

Haqiqatan, olingan natijalarga ko'ra, tasviriy san'at sohasidagi iqtidorning roli nisbatan katta bo'lgan innovatsion topshiriqlarni bajarishda muvaffaqiyatliroq harakat qilgan talabalarining nisbiy ko'pchiligi (65,3%) maydondan mustaqil kognitiv uslubga egaligi bilan ajralib turishi ma'lum bo'lmoqda. Noverbal kreativlik darjasiga o'z mazmuniga ko'ra ta'sirchan topshiriqni bajarishdagi nisbatan past ko'rsatkichlarning katta qismi esa MT kognitiv uslubli talabalarga

<sup>7</sup> Илин Е.П. Эмоции и чувства. – 2-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 783 с.



tegishli. Nazarimizda, bu yerda ham tegishli ijod sohasining ijodkor intellektual faolligiga qo'yadigan o'ziga xos talablari ta'siri aks etmoqda. Jumladan, mutaxassislar taxminicha, tasviriy san'at sohasidagi ijodda innovatsion asarning yaxlitligi ijodkor diqqat-e'tibori bir vaqtda ijod namunasining barcha unsurlarini qamrab olishi hisobiga ta'minlanadi<sup>8</sup>.

Albatta, ko'pchilik holatlarda muayyan narsa-buyum tasvirini chizayotgan rassom uning suratini qandaydir fonda tasvirlaydi, negaki maydondan to'liq uzib olib joylashtirishi, asardan o'ziga xos jozibaning yo'qolishiga olib keladi. Ammo tasviriy san'at asarida shakl markaziy o'rinni egallashi, biror narsa, buyum, hatto butun vaziyatni qandaydir yanada umumiyroq maydondan mutlaqo ajratib tasvirlash imkoniyati ko'pligi, rassom ko'p jihatdan shunday yo'l tutishga majburligi, bizningcha, bu ijod sohasida MM kognitiv uslubning ahamiyatini, uning vakillarida shunday sifat kuchliroq rivojlanishini taqozo etadi.

2- va 3-jadvallardagi ko'rsatkichlar umumlashtirilgan va qiyosiy holda keltirilgan 1-rasmdan ham yaqqol ko'rinib turganidek, turli shakl va mazmundagi innovatsion faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan ijodkor intellekti sohasiga shu yo'nalish uchun ahamiyatli bo'lgan kognitiv uslub qanchalik shakllanganiga bog'liqdir.

O'rganilgan psixologik o'zgaruvchilar o'rtasida aniqlangan munosabat statistik tahlilning nisbatan yuqoriroq darajasi bo'lgan korrelyatsion tahlil darajasida ham qayd etildi (24-jadval). Korrelyatsion aloqadorlik ko'rsatkichlaridan ma'lum bo'lyaptiki, filologik yo'nalishda innovatsion tafakkurning yuqori mahsuldorligiga MT kognitiv uslubning ustunligi ijobiy, MM uslubning ustunligi salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarda esa teskari aloqadorlik qayd etilmoqda.

Kognitiv uslublar muammosini chuqur tadqiq etgan tadqiqotchilar ham MM kognitiv uslub ustun bo'lgan odamlarga voqelikni bilishda mental jarayonlar bilish sohasini bir vaqtda (xuddi fotoapparat kabi) yaxlit qamrab olishi haqida xulosaga kelmoqdalar<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> Интенсификация творческой активности студентов: монография/ Под ред. Андреева В.И. – Казань: Изд-во Казанского ун-та, 2008. – 198 с.

<sup>9</sup> Ismagilova F.S., Nishanova Z.T. Innovatsion qobiliyat muammosi haqida // O'zbekistonning iste'dodli bolalari: Resp. ilmiy-amal. konf. ma'ruz. qisq. bayoni. – Termiz, 1992. – B.34-36.

**Innovatsion faoliyatning turli shakllari bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar tafakkur kreativligi darajasi hamda kognitiv uslub turlari o'rtasidagi aloqadorlik xususiyatlari (K.Pirsonning rp korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha)**

№	Ta'lim yo'nalishi	Korrelyatsion aloqa obyektlari		
		Innovatsion tafakkur darajasi	Kognitiv uslub tiplari	
			MT	MM
1	O'zbek tili va adabiyoti (n=25)	0,61**	-0,48*	
2	Tasviriy san'at (n=26)	-0,42*	0,56**	

**Izoh:** \*\* aloqadorlik darajasining statistik ahamiyati  $r \leq 0,01$  ga teng

\* aloqadorlik darajasining statistik ahamiyati  $r \leq 0,05$  ga teng

Ayni vaqtda maxsus tadqiqotlarning natijalaridan ma'lum bo'lishicha, MT kognitiv uslub odamlar axborotni ko'proq boshqalar bilan muloqot jarayonida olishi, bunday individual intellektual sifatga ega bo'lajak musiqachi-pedagog talaba qizlar tarix fanidan eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi, ushbu uslub ustun sinaluvchilar Y.P.Torrens metodikasini bajarishda o'ylab topiladigan nomlarning originalligi bo'yicha yuqori natijaga erishishi qayd etiladi. Nazarimizda, ushbu sifatlar, asosan, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning butun murakkabliklari, "odam-odam" munosabati tizimida shaxs ichki olamida ro'y beruvchi chuqur kechinmalarni badiiy vositalar bilan, ammo haqqoniy tasvirlashga mo'ljal oluvchi adabiy ijodda ahamiyatlidir. Maxsus tadqiqotlarda rassomlik oliy maktabi talabalarida, odatda, estetik qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlardan ustun bo'lishi, ularda xayolparastlik, introspektiv yo'nalganlik va past darajadagi muloqotchanlik, o'z xulq-atvorida keskin o'zgarishlarga moyillik xosligi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotlarning natijalari adabiy ijodga qobiliyat tarkibidagi tayanch odamlar va atrof-muhitning xususiyatlariga nisbatan kuchli sensor ta'sirchanlik, kuzatuvchanlik, insonlar ishtirokidagi hayotiy lavhalarni xayolda aniq va yorqin aks ettira olishdan iboratligini ko'rsatmoqda. Ushbu xususiyatlar MM kognitiv uslubli odamlarda innovatsion yo'nalganlik, sotsial kompetentlik



darajasi nisbatan pastligi, MT uslubli odamlarning, aksincha, yuqori darajadagi ijtimoiy yoʻnalishga ega boʻlishi haqidagi ilmiy maʼlumotlar bilan uygʻun ekanini alohida taʼkidlash kerak<sup>10</sup>.

**Xulosa.** Shunday qilib, talabalar innovatsion qobiliyati hamda kognitiv uslublarning oʻzaro munosabati xususiyatlarini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotimizning ushbu bosqichi yakunlari boʻyicha quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Talabalarning oliy taʼlim bosqichida egallaydigan mutaxassisligi mazmuniga bogʻliq ravishda ularning innovatsion tafakkuri rivojlanishi xilma-xil yoʻnalishlarda roʻy beradi. Innovatsion

qobiliyat talabalarning boʻlajak kasbiy faoliyati talablariga monand yoʻnalishda mahsuldor funkcionallashuvi ularning intellektual sohasida tegishli shakldagi ijod jarayoni uchun ahamiyatliroq boʻlgan kognitiv uslub xususiyatlari qanchalik shakllanganiga bogʻliqdir. Talabalar intellektual individualligi maydonga tobe kognitiv uslubning dominantligi bilan tavsiflanganda ulardan verbal kreativlik sohasida, maydondan mustaqil uslub ustunligida noverbal kreativlik yoʻnalishida yuqori koʻrsatkichlarni kutish oʻrinli. Talabalik davrida innovatsion qobiliyatning rivojlanishida tegishli shakldagi ijod yoʻnalishida tafakkur kreativligi namoyon boʻlishiga uning uchun ahamiyatli kognitiv uslubning ijobiy taʼsiri noqulay uslubning salbiy taʼsiridan kuchliroq darajada amalga oshadi.

<sup>10</sup> Ismoilov T.J. Talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi // Uzluksiz taʼlim. – Toshkent, 2009. – №1. – B.69-73.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. – Санкт-Петербург: Питер, 2009.– 356 с.
2. Дясенко Е.А. Творческое мышление в структуре профессиональной подготовки студентов бакалавриата по направлению «психология»: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург: ЛГУ, 2010. – 22 с.
3. Эрмолаева-Томина Л.Б. Психология художественного творчества: Учебное пособие для вузов. – Москва: Академический Проект, 2003. – 304 с.
4. Joʻrayeva N. Talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirishda munozaralardan foydalanish // Uzluksiz taʼlim. – Toshkent, 2010. – №4. – B. 32-35.
5. Иванов И.П. Развитие творческого мышления студентов в условиях проблемно-деятельностного обучения: Автореф. дис. ...канд. пед. наук. – Ставрополь: СГУ, 2002.
6. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 434 с.
7. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. – 2-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 783 с.
8. Интенсификация творческой активности студентов: монография / Под ред. Андреева В.И. – Казань: Изд-во Казанского ун-та, 2008. – 198 с.
9. Ismagilova F.S., Nishanova Z.T. Innovatsion qobiliyat muammosi haqida // Oʻzbekistonning isteʼdodli bolalari: Resp. ilmiy-amal. konf. maʼruz. qisq. bayoni. – Termiz, 1992. – B. 34-36.
10. Ismoilov T.J. Talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi // Uzluksiz taʼlim. – Toshkent, 2009. – №1. – B. 69-73.



**Yuldasheva Nilufar Sherqo'zi qizi,**  
O'zbekiston Milliy universiteti  
psixologiya kafedrasida tayanch doktoranti  
e-mail: [nilukhanyuldasheva@mail.ru](mailto:nilukhanyuldasheva@mail.ru)

## TALABALARDA IRODAVIY REGULYATSIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iroda va irodaviy regulyatsiya borasida olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra aniq fanlar yo'nalishi talabalarining irodaviy regulyatsiyaviy sohasining o'ziga xos jihatlari taqdim etilgan.

**Tayanch so'zlar:** iroda, irodaviy regulyatsiya, subyektiv nazorat, shaxs yetukligi, internallik.

**Аннотация.** В статье представлены сведения об исследованиях воли и волевой регуляции. Также по результатам проведенного исследования представлены особенности волевой регуляторной сферы студентов конкретных наук.

**Ключевые слова:** воля, волевая регуляция, субъективный контроль, личностная зрелость, интернальность.

**Abstract.** This article provides information on research conducted on volition and volitional regulation. Also, according to the results of the conducted research, specific aspects of the volitional regulatory sphere of students of specific sciences are presented.

**Key words:** will, volitional regulation, subjective control, personality maturity, internality.

**Kirish.** Iroda – bu insonning tashqi ta'sirlarga qaramasdan tanlov qilish va o'z xatti-harakatlarini aniqlash qobiliyati. Iroda insonning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati bo'lib, irodaning funksiyasi biror-bir harakatga yoki fikrga nisbatan moyilligi hisoblanadi<sup>1</sup>. Iroda tushunchasi moyillik, xarakter, fikrlar va harakatlar butunlay odamlarning mustaqil boshqarish ta'siriga ega bo'lmagan kuchlar tomonidan belgilanmasligini ko'rsatadi. Shaxsning irodaviy sohasini rivojlantirish uning faoliyatida samarali natijalarga erishishiga olib keladi. Shu boisdan talabalarda irodaviy regulyatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali uni rivojlantirishga oid ko'plab zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

<sup>1</sup> Atkinson, J. W., & Feather, N. T. (Eds.). (1966). A theory of achievement motivation. New York: John Wiley and Sons.

Iroda tug'ilishdan oldin potensial ravishda xos bo'lgan va shu bilan birga, hayot davomida rivojlanishi mumkin bo'lgan insoniy fazilatlardan biridir. Kuchli iroda doirasi zaif iroda doirasi kabi katta. O'z irodasini mustahkamlash, ixtiyoriy harakatni qo'llash doirasini kengaytirish istagi ko'pincha ichki nazoratni lokalizatsiya qiladigan odamlarda uchraydi. Nazoratni mahalliyashtirish – bu shaxsning harakatlar natijalari uchun javobgarlikni tashqi yoki ichki kuchlarga yuklash tendensiyasidir<sup>2</sup>. Ichki kuchlar ta'sirida odamlar ko'pincha o'z harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikni his qiladilar, ularni shaxsiy xususiyatlari bilan tushuntiradilar, shuning uchun

<sup>2</sup> Conroy, D. E., & Elliot, A. J. (2004). Fear of failure and achievement goals in sport: Addressing the issue of the chicken and the egg. *Anxiety, Stress, and Coping*, 17, pp. 271-285.

ular o'z ustida ishlashga, o'zlarini yaxshilashga, shu jumladan, irodasini rivojlantirishga intiladi. Boshqa tomondan, tashqi kuchlar hamma narsani tashqi sharoitlar bilan tushuntirishga harakat qiladilar, barcha mas'uliyatni o'zlaridan olib tashlaydilar. Buning natijasida irodaviy faoliyat va irodaviy tayyorgarlikning ahamiyatini kamaytiradi.

Irodaviy xulq-atvor shaxsda tashqi tomonlama sodir bo'lishdan ko'ra ichki shaklda shakllanadi. Shuning uchun ham "irodaviy harakatni tashqi jihatdan aniqlash birmuncha murakkab", – deya ta'kidlaydi psixolog Kris Friz. Insonda irodaviy harakat ixtiyoriy zo'r berish natijasida vujudga keladi. Tashqi kuzatuvchi uchun ixtiyoriy harakatning refleksdan farqli o'laroq asosiy xususiyati shundaki, ixtiyoriy harakatni oldindan to'liq bashorat qilib bo'lmaydi<sup>3</sup>. Bu shuni anglatadiki, agar xatti-harakatlar tashqi hodisalar bilan belgilanmasa, tanlov "ichkaridan", endogen tarzda amalga oshirilishi kerak. Harakat bilan bog'liq ixtiyoriylik darajasini manipulyatsiya qilishga urinishlar bo'lgan ko'plab tajribalarda bashorat qilish masalasi katta rol o'ynadi<sup>4</sup>.

**Asosiy qism.** Taxminan, XX asrning boshlarida odamlar kuchli qarshilikka duchor bo'lgan harakatlarni qanday bajarishlari haqida ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu jarayonlar uchun, asosan, "iroda" tushunchasi ishlatilgan, balki sinonim sifatida "ixtiyoriy" so'zi (o'rta asr lotincha volitiō dan) ishlatilgan. Nemis psixologi Narziss Ach tirik pashshani qanday yuta olishini bilish uchun introspeksiya usulidan foydalangan. Ach shaxsda maqsadni amalga oshirishda motivatsiya yetarli bo'lmagan deb hisobladi, lekin qo'shimcha ravishda iroda harakati talab qilinadi, u buni qilingan niyatning yangilangan tasdig'i sifatida tushundi (Ach, 1910)<sup>5</sup>. Levinning ta'sirli maqolasidan keyin (Lewin, 1922) irodani o'rganishni faqat bir necha kishi davom ettirdi. Biroq nemis iyezuit eksperimental psixologi Yoxannes Lindvorskiy 1929-yilda "Irodani o'rgatish" nomli kitobni

<sup>3</sup> Corno, L. (1993). The best-laid plans: Modern conceptions of volition and educational research. *Educational Researcher*, 22, pp. 14-22.

<sup>4</sup> Corno, L., & Kanfer, R. (1993). The role of volition in learning and performance. *Review of Research in Education*, 19, pp. 301-341.

<sup>5</sup> Baumann, N., Kaschel, R., & Kuhl, J. (2007). Affect sensitivity and affect regulation in dealing with positive and negative affect. *Journal of Research in Personality*, 41, 239-248. Birney, R. C., Burdick, H., & Teevan, R. C. (1969). *Fear of failure*. New York: Van Nostrand-Reinhold Company.

yozdi va unda irodani muskul kabi mashqlantirish kerak bo'lgan noyob manba ekanligini ta'kidladi. Ushbu konsepsiya metafora bilan birga bugungi kunda Baumeister va uning hamkasblarining "ego kamayishi" bo'yicha tadqiqot ishlarida mavjud. Konsepsiyaning qayta tiklanishi 1970-yillarning boshida, Atkinson va Birchning harakat dinamikasi motivatsion nazariyasi bo'yicha kompyuter simulyatsiyasi, raqobatdosh harakat tendensiyalari mavjud bo'lganda, maqsadga erishilgunga qadar harakatning bajarilishini ta'minlash uchun motivatsiya yetarli emasligini aniqlaganida paydo bo'ldi. Zamonaviy yondashuvlarda iroda shaxsning fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini yuqoridan pastga qarab tartibga soluvchi markaziy ijro etuvchi jarayonlar to'plami sifatida tushuniladi (masalan, Baumeister va boshqalar, 2000; Kuhl, 2001)<sup>6</sup>. Irodani o'z-o'zini tartibga solish va o'z-o'zini nazorat qilishni global tuzilma sifatida ko'rish mumkin. Kuhl (2001) konsepsiyasida o'z-o'zini tartibga solish shaxsiy quyi tizimlarni so'zlash orqali joriy niyatni qayta tiklashni anglatadi, masalan, motivatsiya yo'qolganda yangi rag'batlarni topish. Bundan farqli o'laroq, o'z-o'zini nazorat qilish shaxsiy quyi tizimlar orqali aralashuvni himoya qilish bilan bog'liq, masalan, hissiy imtiyozlarni bostirish. Faqat ikkinchisi ko'p vaqt talab qiladigan va energiya sarflaydigan hisoblanadi, bu esa iroda kuchini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Baumeister va boshqalar (2000) bu irodaning kamayishi ego holatlarining anglanmaganligini yuzaga keltiradi, deydi. Ixtiyoriy qobiliyatlar turli xil kontekstlarda (masalan, akademik, ish va shaxsiy hayot) maqsadlarga erishish uchun muhim ekanligi ko'rsatilgan<sup>7</sup>. Ixtiyoriy ko'nikmalar, ayniqsa, o'z rejasiga rioya qilish va uzoq muddatli maqsadlarga rioya qilish uchun muhimligini isbotladi. Bularning barchasi sport va jismoniy mashqlarda juda muhimdir. Sportdagi iroda bo'yicha bir qator empirik tadqiqotlar ushbu konsepsiyaning sport samaradorligini tushunish uchun muhimligini ta'kidlaydi (Bekmann va Kossak, matbuotda). Topilmalar amaliy sport psixologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega.

<sup>6</sup> Nuraliyeva D. M. The concept of psychological assistance to the family // Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 405-410.

<sup>7</sup> Nuraliyeva, D. M. "The concept of psychological assistance to the family". Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.

Shaxsning yetukligi, uning axloqiy rivojlanish darajasi va muvaffaqiyatining ko'rsatkichlaridan biri internallik va motivatsiyadir. Ular shaxsning o'z hayotidagi voqealar uchun javobgarlik darajasini belgilaydi. Internallik deganda, shaxsning o'z hayotida sodir bo'layotgan voqealarning sabablari: o'z qobiliyatlari, sa'y-harakatlari, xarakter xususiyatlari va boshqalar sifatida ko'rishga moyilligi tushuniladi. Internallik muammosining o'zi ko'plab falsafiy, psixologik va sotsiologik tushunchalarda turlicha ko'rsatilgan. Falsafada internallik muammosi taqdir va iroda erkinligi masalalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ixtiyoriylik nazariyalarida (A.Shopengauer, E.Xartman va boshqalar) inson irodasining mustaqilligini tasdiqlaydi.

Psixologiyada individual muvaffaqiyatli xulq-atvor va samarali kollektiv xulq-atvorning turli tomonlarini o'rganish bilan bog'liq holda lokus nazorati kategoriyasiga to'xtalib o'tadi; ijtimoiy ta'sirni o'rganishda; shaxs va ijtimoiy jamoalarning axloqiy xulq-atvori masalalari bilan bog'liq holda tushuntiriladi<sup>8</sup>.

Internallik – bu sodir bo'layotgan narsalar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, faol hayotiy pozitsiyani amalga oshirish va turli hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsning ajralmas sifati hisoblanadi. Internallik irodaviy regulyatsiyaning murakkab tuzilmasi asosida amalga oshiriladi va moslashuvchanlik qaror qabul qilish jarayonida optimal atributiv strategiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqot maqsadi – aniq fanlar yo'nalishida tahsil oluvchi oliy o'quv yurti talabalaridagi irodaviy regulyatsiyaning o'ziga xos qirralarini o'rganish bo'lib, mazkur xususiyatlarning namoyon bo'lishidagi farqlarni aniqlagan holda, tadqiqot davomida olingan natijalarni tahlil qilish orqali zarur tavsiya va takliflar ishlab chiqishdir.

**Tahlil va natijalar.** Quyida berilgan jadval orqali tadqiqot sinaluvchilarimizning soni va ularning foiz ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, unga ko'ra, respondentlarning umumiy soni 190 nafarni tashkil etadi. Shundan

<sup>8</sup> Nuraliyeva D. M. Characteristics of marriage relations in providing psychological aid to the family and its influence on the strength of marriage // Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020. – С. 411-414.

107 tasi yigit (56,3%), 83 tasi qizlardir (43,7%). Tadqiqot obyektining barchasi aniq fanlar bo'yicha tahsil oluvchi talabalar guruhidir.

*1-jadval*

#### Tadqiqot sinaluvchilarining kontingenti

Sinaluvchilar	Soni	Foizi %
Yigitlar	107 ta	56,3%
Qizlar	83 ta	43,7%
Jami:	190 ta	100,0%

Psixologiyada internallik mas'uliyat muammosi bilan bog'liq. Mas'uliyat muhim shaxsiy xususiyat sifatida harakat qiladi va insonning shaxsiy vazifalari doirasini aks ettiradi. Majburiyat deganda, shaxsning kimgadir yoki uning vijdoni oldidagi burchi, vijdoni ostida esa mas'uliyatni anglash va tajriba tushuniladi.

Shaxsning o'z mas'uliyatini anglashi kognitiv, motivatsion, xarakterli, vaziyatli va boshqalarni o'z ichiga olgan bir qator omillar bilan belgilanadi. Mas'uliyatning psixologik sharti – bu tanlov imkoniyati, ya'ni ma'lum bir xatti-harakatlar chizig'iga ongli ravishda ustunlik berishdir. Tanlov murakkab sharoitlarda, masalan, bir shaxs, odamlar guruhi yoki jamiyatning manfaatlari to'qnashadigan ziddiyatli vaziyatlarda amalga oshirilishi mumkin. Shu bois biz Dj.Rotterning internallikning barcha jihatlarini tadqiq etishga yordam beruvchi "Subyektiv nazorat darajasi" psixodiagnostik metodikasidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Dj.Rotterning "Subyektiv nazorat darajasi" metodikasining Kolmogorov-Smirnov mezon bo'yicha normal taqsimot qonuniga muvofiqligini tekshirish orqali olingan natijalar quyidagicha tus oldi: umumiy internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=1,792$ ;  $p \leq 0,01$ ), muvaffaqiyatda internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=3,200$ ;  $p \leq 0,001$ ), muvaffaqiyatsizlikda internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=1,823$ ;  $p \leq 0,01$ ), oilaviy munosabatlarda internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=1,566$ ;  $p \leq 0,05$ ), ishlab chiqarish munosabatlarida internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=1,107$ ;  $p \geq 0,05$ ), shaxslararo munosabatlarda internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=2,043$ ;  $p \leq 0,001$ ), salomatlikda internallik shkalasi bo'yicha ( $Z=1,446$ ;  $p \leq 0,05$ ). Mazkur olingan natijalarning 90 foizi normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

**Dj.Rotterning “Subyektiv nazorat darajasi” metodikasining normal taqsimlanish qonuniga muvofiqligini tekshirish (n=190)**

Ko'rsatkichlar	N	O'rtacha qiymat	Std. Og'ish	Z	P
Umumiy internallik	190	27,53	23,18	1,792	<b>0,003**</b>
Muvaffaqiyatda internallik	190	7,86	8,84	3,200	<b>0,000***</b>
Muvaffaqiyatsizlikda internallik	190	6,82	7,46	1,823	<b>0,003**</b>
Oilaviy munosabatlarda internallik	190	4,17	6,10	1,566	<b>0,015*</b>
Ishlab chiqarish munosabatlarida internallik	190	3,98	5,60	1,107	0,172
Shaxslararo munosabatlarda internallik	190	3,68	4,47	2,043	<b>0,000***</b>
Salomatlik bo'yicha internallik	190	3,33	4,44	1,446	<b>0,031*</b>

**Izoh:** \*  $p \leq 0,05$  (95%),

\*\*  $p \leq 0,01$  (99%),

\*\*\*  $p \leq 0,001$  (99,9%)

Mazkur tadqiqotda qo'llangan metodika amerikalik psixolog Dj.Rotter so'rovnomasining madaniy muhitga moslashtirilgan versiyasidir. Uning yordami bilan turli vaziyatlarni subyektiv nazorat qilish darajasini baholash mumkin, boshqacha aytganda, shaxsning o'z harakatlari va hayoti uchun javobgarlik darajasini aniqlash mumkin. Shaxslar o'zlari uchun muhim voqealarning sabablarini qanday tushuntirishlari va ular ustidan nazoratni mahalliyashtirishlari bilan farqlanadi. Bunday lokalizatsiyaning ikkita qutbli turi mavjud: tashqi (tashqi joylashuv) va ichki (ichki joylashuv). Birinchi tur, shaxs o'zi bilan sodir bo'layotgan narsa unga bog'liq emas, balki tashqi sabablar (masalan, tasodif yoki boshqa odamlarning aralashuvi) natijasi deb hisoblaganda o'zini namoyon qiladi. Ikkinchi holda, shaxs muhim voqealarni o'z harakatlarining natijasi sifatida izohlaydi. Lokalizatsiyaning ikkita

qutbli turini hisobga olgan holda, har bir kishi muhim vaziyatlarni o'z subyektiv nazorat qilish darajasiga ega ekanligini esga olish kerak. Muayyan shaxsning nazorat o'chog'i u muvaffaqiyatga erishgan taqdirda ham, muvaffaqiyatsizlikka uchragan turli xil hodisalarga nisbatan kamroq yoki universaldir.

**Xulosa.** Umuman olganda, tashqi nazorat o'chog'iga ega bo'lgan shaxslar ko'proq konformistik moslashishni afzal ko'radilar, guruhda ishlashni xohlashadi va ko'pincha passiv, qaram, tashvishli va o'zlariga ishonchsizdirlar. Ichki joylashuvi bo'lgan shaxslar faolroq, mustaqil, ishda mustaqil, ular ko'pincha ijobiy o'zini o'zi qadrlashadi, bu o'ziga ishonch va boshqa odamlarga nisbatan bag'rikenglik bilan bog'liq. Shunday qilib, har bir shaxsning internallik darajasi uning rivojlanishi va shaxsiy o'sishiga bo'lgan munosabati bilan bog'liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Atkinson, J. W., & Feather, N. T. (Eds.). (1966). A theory of achievement motivation. New York: John Wiley and Sons.
2. Conroy, D. E., & Elliot, A. J. (2004). Fear of failure and achievement goals in sport: Addressing the issue of the chicken and the egg. *Anxiety, Stress, and Coping*, 17, pp. 271-285.
3. Corno, L. (1993). The best-laid plans: Modern conceptions of volition and educational research. *Educational Researcher*, 22, pp. 14-22.
4. Corno, L., & Kanfer, R. (1993). The role of volition in learning and performance. *Review of Research in Education*, 19, pp. 301-341.
5. Baumann, N., Kaschel, R., & Kuhl, J. (2007). Affect sensitivity and affect regulation in dealing with positive and negative affect. *Journal of Research in Personality*, 41, 239-248. Birney, R. C., Burdick, H., & Teevan, R. C. (1969). Fear of failure. New York: Van Nostrand-Reinhold Company



6. Nuraliyeva D.M. The concept of psychological assistance to the family // Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 405-410.
7. Nuraliyeva D.M. “The concept of psychological assistance to the family. Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
8. Nuraliyeva D.M. Characteristics of marriage relations in providing psychological aid to the family and it influence on the strength of marriage // Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020. – С. 411-414.
9. Abduraxmonova Z.E., Nuraliyeva D. M. Formation of the concept of intelligence in foreign psychology // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2021. – №. 3. – С. 852-857.
10. Nuraliyeva D.M. The problems of developing social psychological mechanisms in the family // *Theoretical & Applied Science*. 2020. – №. 1. – С. 711-713.
11. Nuraliyeva, Durдона Mamurjonovna. “The problems of developing social psychological mechanisms in the family.” *Theoretical & Applied Science*. 2020. pp. 711-713.
12. Ma'murjonovna N.D. Emperical analysis of the family responsibilities for psychological services in Uzbekistan // *Journal of Critical Reviews*. 2020. – Т. 7. – №. 3. pp. 278-282.
13. Ma'murjonovna, N.D. “Emperical analysis of the family responsibilities for psychological services in Uzbekistan.” *Journal of Critical Reviews* 7.3 (2020): pp. 278-282.



**Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna,**  
*Farg'ona davlat universiteti psixologiya*  
*kafedrasi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD).*  
[bonu\\_dilya84@mail.ru](mailto:bonu_dilya84@mail.ru)

## YOSHLARNING NIKOHGA MA'NAVIY TAYYORGARLIK DARAJASINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaga psixologik xizmat ko'rsatish maqsadida tadqiqot natijalari izohlab berilgan. Hozirgi davrda oilaviy munosabatlarni musahkamlash va shaxslararo munosabatlarning yanada rivojlanishini ta'minlash uchun ham oilaga ko'rsatilishi zarur bo'lgan psixologik xizmat davr talabi bo'lib qolmoqda. Oilaga psixologik yordam va jamiyatdagi har qanday tizimga, uning psixologik muammolariga, o'zini kompetentligi darajasida saqlab qolish, ko'maklashish, quvvatlash hisoblanadi. Bundan asosiy maqsad oilaga tayyorgarlik darajasini aniqlash bilan bir qatorda, oilalarda ajrimlarga sabab bo'luvchi salbiy omillarni aniqlash va ularga psixologik yordam ko'rsatish maqolada asosiy va dolzarb mavzu ekanligi izohlagan.

**Tayanch so'zlar:** nikoh, oila, psixologik jarayonlar, shaxslararo munosabatlar, nizo, muammo, rivojlanish, saqlab qolish, psixologik xizmat.

**Аннотация.** В этой статье объясняются результаты исследования с целью психологического обслуживания семьи. В настоящее время психологические услуги, которые необходимо оказывать семье, остаются востребованными для дальнейшего развития семейных отношений, а также для обеспечения дальнейшего развития межличностных отношений. Психологическая помощь семье и ее психологические проблемы это сохранение, содействие, поддержка себя на уровне компетентности. Кроме того, актуальность данной проблемы является определение уровня подготовки семьи, а также выявление негативных факторов, вызывающих разводы в семьях, а также оказание психологической помощи семьям.

**Ключевые слова:** брак, семья, психологические процессы, межличностные отношения, конфликт, проблема, развитие, сохранение, психологическое обслуживание.

**Annotation.** This article explains the results of a study for the purpose of psychological service to the family. Currently, psychological services that need to be provided to the family remain in demand for the further development of family relations, as well as to ensure the further development of interpersonal relationships. Psychological assistance to the family and its psychological problems is the preservation, assistance, support of yourself at the level of competence. In addition, the relevance of this problem is to determine the level of training of the family, as well as to identify negative factors that cause divorce in families, and provide psychological assistance to families.

**Keywords:** marriage, family, psychological processes, interpersonal relations, conflict, problem, development, preservation, psychological service.

**Kirish.** Oila o'ziga xos murakkab institut va oilaviy munosabatlar jarayoni bo'lib, hozirda jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar asosida ko'plab oilaviy muammolar, oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatli holatlar yuz bermoqda.

Jamiyat o'zgarishlari oilaga ham o'z ta'sirini ko'rsatib oilani uning asosiy bo'limi sifatida o'zgarib borayotganini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Har bir inson hayotida eng muhimi, bu – oila. Oila men uchun

muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zinning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman", – deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Darhaqiqat, mazkur munosabat orqali oila ijtimoiy institut sifatida o'rganishga molik mavzu sifatida qaralishi bilan birga unga turli darajada ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarishlarni tadqiq va tahlil etish lozimligini ko'rsatmoqda. Bu esa oilada sodir bo'layotgan psixologik jarayonlar va ularni to'g'ri yo'lga solish uchun ularga ko'rsatilayotgan psixologik xizmatlar samarasi bilan bog'liq. Shu jihatdan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-maydagi "Respublikada psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 472-sonli qarorini uchinchi bandida: "Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish yetarlicha yo'lga qoyilmagani oqibatida jamiyatda ijtimoiy-psixologik, jumladan, oilaviy muammolar (ajrimlar, oiladagi nizolar, ota-ona va farzand munosabatlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq), "omaviy madaniyat" ning salbiy ta'sirlariga tobelik, o'z joniga qasd qilish holatlari davom etmoqda", deb ko'rsatilgan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoniga muvofiq: O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qarorni imzoladi. Bu ham hozirda Oila institutiga berilayotgan yuqori darajadagi e'tiborning bir asosidir, shu sababli ham oilaga psixologik xizmat ko'rsatish hozirgi kunda dolzarb mavzu ekanligini belgilaydi.

**Asosiy qism.** Oila – kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi. Bu oilalarni saqlab qolish, rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, oilaviy munosabatlarni yaxshi tomonga o'zgarishini ta'minlash uchun ham oilaga psixologik xizmat zarur bo'lib kelmoqda. Oilaviy munosabatlar

psixologiyasini, er-xotin munosabatlarini o'rganish borasida respublikamiz psixolog olimlari tomonidan ham bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, G'.Shoumarov, V.Karimova, N. Sog'inov, U. Qodirov, B. Umarov, G Niyozmetova, Z. Rasulova kabi olimlar tadqiq etishgan. Bundan tashqari, Sh.R.Baratov tomonidan "O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy psixologik va ilmiy-amaliy asoslari" mavzusi yuzasidan tadqiqot olib borilgan, bunday tadqiqotlar Respublikamizda oilani ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tadqiq etish bo'yicha muayyan, o'ziga xos ana'nalarning ya'ni psixologik xizmat ijtimoiy-muammo sifatida atroflicha yoritilgani, ta'lim va mehnat muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhofaza ko'rsatkichlari oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq yuqorida qayd etilgan Respublikamizda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlilida o'zbek oilasida turli sabablar asosida paydo bo'ladigan oilaviy muammolarga uchraganlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatish ilmiy tadqiq etilmagani mazkur mavzuni tanlash uchun sabab bo'ldi.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish bu oilaga uning muammolarini yechishda yordam berish, quvvatlash hisoblanadi. Avvalambor, shuni aytish kerakki, yordam bu jamiyatdagi har qanday tizimga, uning psixologik muammolariga, o'zini kompetitligi darajasida saqlab qolish, ko'maklashish, quvvatlash hisoblanadi. Bunga misol sifatida harbiy yordam, gumanitar yordam, birinchi yordam, psixologik yordam va shu kabilarni kiritish mumkin.

Oilaviy turmushda nizoli holatlarni idrok etish, turmush o'rtoqlarning har biridagi shaxsga xos xususiyatlardan kelib chiqadi. Bu nizo ko'p hollarda turmush o'rtoqlarni doimiy charchashi bilan ham bog'liq bo'ladi. Hozirda zamonaviy oilalarda bunday nizolarni ko'payib borishi o'ziga xos ayrim salbiy sabablar bilan ham bog'liqdir. Bunday holatlar ikkala tamonni javobgarlikni sezmagani darida, ma'suliyatni his etmaganlaridan kelib chiqadi. Yoshlar har doim o'zlarini yaxshi tamondan ko'rsatishga intiladilar. Faqat ijobiy va ko'r-ko'rona soxta munosabatlari orqali tanlangan yoshlar hayotning murakkab vaziyatlariga duch kela boshlaganlarida o'zlarini to'la-to'kis namoyon qiladilar. Natijada yaxshi sinalmagan oila yaqindan bir-birlarini yaxshi o'rgangandan so'ng hayot

davomida kelisholmay, turmush tarzidan norozi bo'la boshlaydilar va oilada kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi.


Ushbu tadqiqotimiz davomida "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" metodikalaridan foydalanildi. Tadqiqotimizda jami 300 respondent qatnashdi, bulardan 118 ta erkak, 182 nafari ayollardan iborat edi. Sinaluvchilarning asosiy qismi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markaziga murojaat etgan fuqarolardan tashkil topgan. Tadqiqot oilaviy ahvoli jihatdan 4 ta guruhga bo'lib o'rganildi.

Bular:

1. Turmush qurmaganlar.
2. Muvaffaqiyatli oilalar.
3. Ajrashish arafasidagi oilalar.
4. Ajrashgan oilalar.


Sinaluvchilar guruhlarga ajratilgan holatda 1-guruhdagilarni turmushga chiqmagan yigit va qizlar tashkil qilib, ulardan "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" testi o'rganildi.

1-jadval



Oilaviy ahvoli o'rganilganda, asosan, sinaluvchilarning 16,6%ini turmush qurmaganlar, 29,7%ini sog'lom oilalar, 33,3%ini ajrashish arafasidagi oilalar, 20,3%ini ajrashgan oilalar tashkil etdi. Bunga ko'ra, asosan, "Oila" ilmiy-tadqiqot markazi murojaatlarini ajrashish yoqasida turgan va ajrashgan oilalar, mahallalardan olingan tadqiqotlarning aksariyati sog'lom oilalarni, turmush qurmaganlarni yosh kelin-kuyovlar innovatsion markazi o'quvchilari tashkil etdi.

2-jadval



Yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, biz sinaluvchilarni 4 ta guruhga bo'ldik:

1. Ajrashgan oilalar.
2. Ajrashish arafasidagi oilalar.
3. Sog'lom oilalar.
4. Turmush qurmaganlar orqali o'rgandik.

Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlarni o'rganish maqsadida "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" K 50 dan kam bo'lsa, oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarlik past, 50 dan ko'p bo'lsa, ma'naviy tayyorgarlik o'rtacha bo'ladi. Tadqiqot natijasiga ko'ra esa

**Ajrashgan oilalarda** "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi 20% yuqorini, 30% da o'rta, 50% da esa past ko'rsatkichni berdi. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy oilada ajrimga "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasining pastligi sabab bo'lmoqda.

**Ajrashish arafasidagi** oilalar "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi 35% yuqorini, 35% da o'rta, 30% da esa past ko'rsatkichni berdi. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy oilada "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi pastligi sabab bo'lmoqda.

**Sog'lom oilalar** "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi 50% yuqorini, 40% da o'rta, 10% da esa past ko'rsatkichni berdi. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy oilada "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi **sog'lom oilalarda** yuqori 50% ni, past 10% ko'rsatkichni tashkil etdi. Demak, oila mustahkamligida ma'naviy tayyorgarlik darajasining yuqoriligi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

**Turmush qurmagan** yigit-qizlar bo'yicha tahlil qilinganda esa "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi 55% yuqorini, 35% da o'rta, 10% da esa past ko'rsatkichni berdi. Bundan ko'rinib turibdiki asosiy oilada "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi yoshlarda yuqori 55% ko'rsatkichni, past ko'rsatkich 10% ni tashkil etdi.

Maqolada tahlil jarayoni shuni anglatadiki, yoshlarning "Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" darajasi qancha yuqori bo'lsa, oila mustahkamligi shuncha yuqori bo'ladi. Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, oilaga psixologik xizmat dastlab yoshlarning ma'naviy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan bog'liq bo'ladi.

**Xulosa.** Psixologik xizmatning tashkil etilishi dastlab Sh.R.Borotov tomonidan "O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy psixologik va ilmiy-amaliy asoslari" oilaga psixologik xizmat ko'rsatish formalari orqali tadqiqot maqsadlari asosida maxsus ishlab chiqilgan tizimga muvofiq tarzda tatbiq etilayotgan psixologik

xizmat tizimining o'ziga xos ilmiy tashkiliy va ilmiy uslubiy yo'nalishlariga baho berildi. Ayni chog'da bu faoliyat yuritayotgan barcha muassasalar orqali oila muhitini yaxshilash, farzand tarbiyasiga e'tibor shakllanishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot maqsadiga muvofiq, psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari keng ochib berilib, ilmiy-tashkiliy asoslanishini o'zida mujassamlashtirilgan holda, "Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari"ning qo'llanishi lozim bo'lgan psixologik maslahat, psixologik maorif ishlari, psixodiagnostik, psixoprofilaktika,

psixokorreksion ishlar ko'lami bilan bog'liq yo'llanmalar, tadbirlar va tavsiyalar qayd etildi. Olingan ma'lumotlar ijtimoiy psixologik jihatdan "Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish"da, asosan, o'spirinlarga oilaviy hayot tasavvurlarini shakllantirish borasida. Nikoh oldi; bunda asosan, yosh oila quruvchilarning oilaviy munosabatlarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan individual psixologik xususiyatlari, sevgi ishq-muhabbatning biologik, sotsiologik va psixologik tomonlarini tushuntirish asosida tegishli tavsiyalar berildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyevning Facebook ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida davlat rahbari tavalludining 61 yilligiga bag'ishlangan "Janob Prezidenti" nomli hujjatli filmidan olingan. 25-iyul 2018-yil.
2. Abduraxmonov F.R., Abduraxmanova Z.E., Nuraliyeva D.M. Oilaga psixologik yordam va uning mexanizmlari. – Farg'ona, 2020 y. – B. 11.
3. Nuraliyeva D. M. The problems of developing social psychological mechanisms in the family //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №1. – C. 711–713.
4. Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna The concept of psychological service and its controversial issues in family. Stran/34-36 Proceedings of International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovative Technologies Organized by Novateur Publications, India /2020/6/25.
5. Abduraxmonova Z.E., Nuraliyeva D.M. Formation of the concept of intelligence in foreign psychology - Academia: An International Multidisciplinary ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 3,, 2021.
6. Nuraliyeva D. M. Examining the orientation of women in the field of psychosocial service for the family and the empirical analysis of psychological qualities. International scientific and practical conference Cutting Edge-science Primedia E-launch page 115-116 . USA Conference Proceedings 2020/6.
7. Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna Psychological assistance to families on the verge of divorce 2021/10 "Экономика и социум" №10(89).
8. Nuraliyeva Dildora, Abdusamatov Khasanboy Social and psychological characteristics of families on the verge of divorce 2021, Special Issue on Engineering Technologies and Management. – C. 3889-3897.
9. Shoumarov G'.B. Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot birlashmasi, 1994. –120 b.
10. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A. "Oila psixologiyasi". – Toshkent, 2007. – 130-b.
11. Borotov Sh.R. O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy psixologik va ilmiy-amaliy asoslari. Dissertatsiya. – Buxoro, 1997. –12 b.
12. Nuraliyeva D.M. The problems of developing social psychological mechanisms in the family //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №.1. – C. 711-713.
13. Nuraliyeva D.M. Studying susceptibility to the behavior of the pair in the relationship between man and woman and giving a social-psychological help //Теория и практика современной науки. – 2018. – №5. – C. 32-34.
14. Nuraliyeva D. M. Development of socio-psychological mechanisms of psychological services to families and children. – 2019.
15. Nuraliyeva D.M. The concept of psychological assistance to the family //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – C. 405-410.
16. Nuraliyeva, D.M. "The concept of psychological assistance to the family." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
17. Nuraliyeva D. M. Characteristics of marriage relations in providing psychological aid to the family and its influence on the strength of marriage //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – C. 411-414.
18. Abduraxmonova Z. E., Nuraliyeva D. M. Formation of the concept of intelligence in foreign psychology // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №3. – C. 852-857.





**Bilolova Zamira Baxtiyarovna,**  
Toshkent davlat pedagogika universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

## NOTO'LIQ OILALARDA TARBIYALANAYOTGAN YIGIT-QIZLARNING OTA-ONALIK ROLIGA NISBATAN TASAVVURLARI VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARI

**Annotatsiya.** Maqolada oila mustahkamligini ta'minlashda turmush qurish arafasida turgan yigit-qizlarni ota-onalik roliga nisbatan tasavvurlari va psixologik ustanovkalarining to'liq va noto'liq oila muhitida voyaga yetayotgan yigit-qizlarda o'tkazilgan so'rovnoma tadqiqoti natijalari asosida tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** oila, oila mustahkamligi, turmush qurmagani yigit-qizlar, to'liq oila, noto'liq oila, otalik roli, onalik roli, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabat, oilaga ta'sir etuvchi omillar.

**Аннотация.** В статье анализируются представления юношей и девушек, находящихся на пороге вступления в брак, относительно роли родителей в обеспечении стабильности семьи и их психологические убеждения на основе результатов опроса, проведенного среди молодежи, растущих в условиях полной и неполной семьи.

**Ключевые слова:** семья, семейная стабильность, неженатые юноши и девушки, полная семья, роль отца, роль матери, воспитание ребенка, семейные отношения и факторы, влияющие на семью.

**Annotation.** The article analyzes the views of young men and women who are on the verge of marriage regarding the role of parents in ensuring family stability and their psychological beliefs based on the results of a survey conducted among young people growing up in complete and incomplete families.

**Keywords:** family, family stability, single young people, complete family, single parent family, father's role, mother's role, child upbringing, family relations and factors influencing the family.


**Kirish.** Har bir jamiyatning dastlabki ilk ijtimoiy bo'g'ini hisoblangan oila shaxs shakllanishida eng asosiy maskandir. Shaxs kamoloti, o'z navbatida, oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. Oila munosabatlarining sog'lomligi va oilaviy muhitning qay darajada bo'lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oilani mustahkamlash, uni sog'lomlashtirish masalasi jamiyat e'tiboridagi muhim muammolardandir.

Oila munosabatlarida nikoholdi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va psixologik omillarni o'zida

mujassamlashtirib, oilaviy hayot darajasini belgilab beradi. Nikoholdi omillariga oilada tarbiyalanayotgan yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi; ularning oila qurish motivlari; bo'lg'usi oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin.

Oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta'sirga ega nikoh oldi omillaridan biri bo'lgan yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari qanchalik realikka yaqin bo'lishi shu oila mustahkamligining bosh garovi hisoblanadi. Afsuski, hamma vaqt ham yoshlarimizning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari realikka mos kelavermaydi, balki bu aksariyat hollarda reallikdan tubdan farq qiladi.

**Asosiy qism.** Olib borilgan tadqiqotlar va statistik tahlillar natijasida tadqiqotning boshqa muhim jihatlari – yigit-qizlarning qanday oilada voyaga yetayotganliklariga nisbatan ota-onalik rollarini tasavvur qilishlarida farq borligi aniqlandi.



**1-rasm. Respondentlar tarbiya topgan oila tiplari**

Tadqiqotga jalb etilgan yoshlarning 82,9 foizi to'liq oilada, 15,2 foizi to'liq bo'lmagan (faqat otasi yoki onasi bo'lgan), 3,7 foizi ota-onasining ikkisi ham bo'lmagan, lekin qarindoshlari oilasida voyaga yetgan, 1,8 foizini esa bolalar uyida tarbiyalangan yoshlar tashkil etdi. Unga ko'ra, noto'liq oilada tarbiyalanayotgan yigit-qizlar natijalari to'liq oilada tarbiyalanayotganlar bilan solishtirma jadvallar shakllantirildi.

**1-jadval**

Siz o'zingizni oila qurgandan so'ng onalik mas'uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi? (qizlar?, n-350) % da			
No	Javoblar	To'liq oila	Noto'liq oila
1.	Ha, tayyor deb hisoblayman	12,0	9,0
2.	Biroz tayyor deb hisoblayman	21,0	10,0
3.	Tayyor deb hisoblamayman	24,0	25,0
4.	Bilimlarim kam deb o'ylayman	43,0	56,0
Jami		100,0%	100,0%

Yigit-qizlarda "Siz o'zingizni oila qurgandan so'ng onalik (otalik) mas'uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?" savoli natijasiga ko'ra, noto'liq oilada tarbiyalanayotgan yigit-qizlar ota-onalik mas'uliyatiga nisbatan bilimlari kamlik qilishini 56,0% qizlar va 44,0% yigitlar belgilaganlar.

**2-jadval**

Siz o'zingizni oila qurgandan so'ng otalik mas'uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?(yigitlar, n-350) % da			
No	Javoblar	To'liq oila	Noto'liq oila
1.	Ha, tayyor deb hisoblayman	31,0	17,0
2.	Biroz tayyor deb hisoblayman	17,0	15,0
3.	Tayyor deb hisoblamayman	20	23,0
4.	Bilimlarim kam deb o'ylayman	32,0	45,0
Jami		100,0 %	100,0 %

Bu natijalar noto'liq oilada tarbiyalanayotgan yigit-qizlar tasavvurlarida ota-onalik rolga nisbatan xavotirlanish yuqoriroq ekanligini, kelajak avlodni barkamol tarbiyalay olishda bilimlari va o'zlariga ishonch kam ekanligini ko'rsatadi. Hali turmush qurmagan yosh yigit-qizlar, asosan, o'z oilalarida ota-onalarining hayotidan, bevosita o'zlari yashayotgan oila muhitidan namuna, ibrat oladilar. Lekin noto'liq oilada voyaga yetayotgan farzandlar uchun namuna-andoza yo'qoladi va rollarni tasavvur qilishda xavotirlanish va bilimsizlik vujudga keladi.

**3-jadval**

Voyaga yetayotgan farzandlar rivojlanishiga oila muhitidan ko'ra ta'lim maskani va tashqi muhitning ta'sirli bo'ladi, % da			
No	Javoblar	To'liq oila	Noto'liq oila
1.	Qo'shilmayman	22,0	19,0
2.	Haqiqatga yaqin deb o'ylayman	33,0	21,0
3.	Qo'shilaman	46,0	60,0
4.	Bilimlarim kam, deb o'ylayman	32,0	45,0
Jami		100,0 %	100,0 %

Shuningdek, tarbiyada oilaning rolini anglashda ham farqli jihatlarda namoyon bo'ldi. 60,0% noto'liq oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning fikriga ko'ra, tashqi muhitning ta'siri katta bo'lishi mumkinligi ayon bo'ldi.

Ko'pincha yoshlarning oila haqidagi tasavvurlari uncha mukammal bo'lmagan turli stereotiplarga asoslangan tarzda namoyon bo'ladi. Noto'liq oilalar farzandlarida ushbu stereotiplar ta'siri

yanada ko‘proq ekani namoyon bo‘ldi. Jumladan, “Oilaning tarbiyalash vazifasiga faqatgina ayollar mas‘uldirlar” deb berilgan ta‘kidga noto‘liq oilada o‘sgan yoshlarning 29,0 foizi “Qo‘shilmayman”, 23,0 foizi “Haqiqatga yaqin tomoni ham bor”, 48,0 foizi “Qo‘shilaman” javoblarini belgilaganlar (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Oilaning tarbiyalash vazifasiga faqatgina ayollar mas‘uldirlar! (yigitlar, n-350), % da			
№	Javoblar	To‘liq oila	Noto‘liq oila
1.	Qo‘shilmayman	56,0	29,0
2.	Haqiqatga yaqin deb o‘ylayman	21,0	23,0
3.	Qo‘shilaman	23,0	48,0
	Jami	100,0 %	100,0 %

Ma‘lumki, tarbiyada er-xotin birdek mas‘uldir. Bola ota-onaning butun faoliyatidagi harakatlarini ibrat bilib ongiga joylab, ulg‘aygach, ularni o‘z hayotiga joriy etadi. Shuning uchun oilaviy hayotga tayyorlashda turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarning 12 ta eng zarur komponentga nisbatan ijtimoiy tasavvurlarining tanlanishida ularga ustuvorlik berilgan o‘rinlarning darajasi o‘rganildi. Natijalar 5-jadvalda berilgan.

5-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan yoshlar mas‘uliyat, javobgarlik hissi, boshqarish qobiliyati, sabr-bardosh, hayotning og‘ir-yengil saboqlari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishni birinchi darajali deb biladilar. Bu borada tadqiqot davomida oila

regeneratsiyasi ta‘sirida otasiz yoki onasiz o‘sayotgan farzandlarning xulq-atvorida ota-onalik andozasining noadekvat ekanligi aniqlandi va bartaraf etishda ijtimoiy maskanlarning hamkorligi va ishtiroki ahamiyatli ekanligi dalillandi. Bunday tendensiyaning davom etishi esa oilaning tarbiyalash vazifasining zaiflashuviga va jamiyatda salbiy illatlarning yanada ko‘payishiga olib keladi.

Bu borada yigit-qizlar ayniqsa noto‘liq oilada voyaga yetayotgan farzandlar tarbiyasida ijtimoiy institutlar – bog‘cha, maktab, oliy ta‘lim muassasalari va mahallaning rolini oshirish, oilaga psixologik pedagogik va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlarini yanada mustahkamlash zarurati ko‘rinadi.

**Xulosa.** Shunga ko‘ra, oilalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy institutlar hamda davlat tashkilotlari faoliyatida foydalanishi uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- yosh qizlar va ayollarning norasmiy shar‘iy nikoh qurishlarining oldini olish;
- yoshlar o‘rtasida oila va farzand ma‘suliyati haqidagi bilimlar berishni kuchaytirish;
- farzandlarni tarbiyalash va o‘qitish, oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish yo‘nalishlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni olib borish;
- sog‘lom munosabatli oilani shakllantirishning milliy-an‘anaviy tarixi hamda oila haqidagi bilim darajasini yuksaltirishda zarur manbalarni targ‘ib etish;
- er-xotin, ota-ona va bolalarning axloqiy va huquqiy majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish;

5-jadval

№	Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishingiz kerak?(yigit-qizlar, n-350), o‘rinlarni belgilash darajasi	To‘liq oiladan	Noto‘liq oiladan
1	Mas‘uliyat, javobgarlik hissi, boshqarish qobiliyati	2	1
2	Psixologik tayyorgarlik, muomala sir-asrorlari	1	3
3	Ikki tomonning bir-birini tushunishi	5	2
4	Ma‘naviy va jismoniy yetuklik	4	5
5	Moddiy mustaqillik	3	2
6	Milliy qadriyatlarini bilish	7	7
7	Farzandni qanday tarbiyalashni bilish	5	2
8	Er-xotin bir-birini va oila a‘zolarini hurmat qilishi	3	3
9	Mehr-muhabbatni asrab-avaylash	5	6
10	Diniy-ma‘rifiy bilimga ega bo‘lish	6	5
11	Ro‘zg‘or yumushlarini yaxshi bilish	4	4
12	Sabr-bardoshli bo‘lish, hayotda kerakli tajribaga ega bo‘lish	1	1

– oilaning iqtisodiy vazifasini amalga oshirishga ko‘ra, yoshlarning, ayniqsa, bolali yosh onalar va yolg‘iz onalarning bandligini ta‘minlash, ularni boshqa odamga qaram bo‘lishni emas, aksincha, uy sharoitida bo‘lsa ham, faol hayot tarziga o‘rgatish;

– oilada otalar rolini oshirishga va otalik ma‘suliyatini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlari va ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: O‘zbekiston. – 126 b.
2. Akramova F.A., Bilolova Z.B. Yoshlarni mustahkam oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlari. Monografiya. – Toshkent, 2020. – 128 b.
3. Akramova F.A., Bilolova Z.B. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.
4. Akramova F.A., Bilolova Z.B., “Ota-onalar uchun qo‘llanma” mobil ilovasi. O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. Yoshlarni ota-onalikka tayyorlashga mo‘ljallangan dasturning rasmiy ro‘yhatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma № DGU 07918. 10.02.2020.
5. Hayot kitobi. Yosh oilalar uchun ensiklopedik qo‘llanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2010. – 270 bet.
6. Bilolova Z.B. “Oila saboqlari” mobil ilovasi O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. O‘smir yoshidan to‘ turmushga chiqish yoshiga yetgunga qadar yigit-qizlarni hayotga, oilaga va otalik-onalikka tayyorlash uchun mo‘ljallangan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma № DGU 08220. 10.02.2020.



**Qarshiyeva Dilafuz Suyunovna,**  
Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“Amaliy psixologiya” kafedrasida dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## PEDAGOGDA KASBIY FAOLIYAT VA ADAPTATSIYA JARAYONI

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda pedagogning ta'lim tizimidagi roli va ijtimoiy kompetentligining ahamiyati yoritilgan. Aynan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida adaptatsiyaning roli ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy psixologiya, kompetentlik, adaptatsiya, stress.

**Аннотация.** В статье раскрывается социальная значимость роли педагога в системе образования на сегодняшний день. Освещена роль адаптации в профессиональной подготовке педагогов.

**Ключевые слова:** социальная психология, компетентность, адаптация, стресс.

**Annotation.** The article reveals the social significance of the role of a teacher in the education system today. The role of adaptation in the professional training of teachers is highlighted.

**Keywords:** social psychology, competence, adaptation, stress.

**Kirish.** Jahon miqyosida ijtimoiy integratsiya, globallashuv va axborotlashtirish tendensiyalarining kuchayib borishi barcha ta'lim tizimida pedagoglarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalalariga bugungi zamonaviy talablar asosida yanada jiddiyroq e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Dunyoda globallashuv jarayonining kechishi, o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos shaxsni tarbiyalash va unga ijtimoiy-psixologik ta'sir etishni ta'minlovchi pedagoglarga bo'lgan ehtiyojning yanada ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Binobarin, ta'limda ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini o'rganish, ularning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor masalalar bo'yicha muhim tadqiqot

ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar talabiga to'la javob beruvchi, intellektual salohiyati yuqori, keskin o'zgarishlarga tez moslasha oladigan, raqobatbardosh, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, bu jarayonni amalga oshirishimizda, albatta, pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Bunda, ayniqsa, pedagoglarning kompetentligi alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda ijtimoiy psixologik kompetentlik psixologiya fanida keng qamrovli tarzda o'rganib kelinayotgani pedagogning kasbiy tayyorgarligida adaptatsiyaning rolini dolzarblashtirmoqda.

**Asosiy qism.** “Ijtimoiy kompetentlik” deb shaxslararo munosabatlar jarayonida faollik



ko'rsatish ko'nikma va malakalariga egalik, kasbiy faoliyat jarayonida shaxslararo muloqotga kirisha olishga aytiladi. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik mutaxassisning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada pedagogik faoliyat, pedagogik muomalaga urg'u beriladi. Binobarin, pedagogning ijtimoiy-psixologik kompetentligini uning malakalari va psixologik sifatlari mutanosibligi hamda uning kasbiy moslashuvi asosiy o'rinda turadi.

Kasbiy moslashuv bu ijtimoiy jarayon bo'lib, shaxsning yangi mehnat jarayonini o'zlashtirishidir. Ammo yangi ishga joylashgan inson aniq maqsad, qadriyatlar oriyentatsiyasiga ega bo'ladi. O'z talablarini korxonah rahbariyatiga, korxonah esa, o'z navbatida, ishchi, uning xulq-atvoriga talablarini ma'lum qiladi. O'z talablarini namoyon qilgan tashkilot hamda shaxs o'zaro ta'sirlashadilar, natijada moslashadilar. Shunday qilib, mehnat moslashuvi ikki tomonlama jarayon bo'lib, bevosita shaxs va yangi ijtimoiy muhit o'rtasida sodir bo'ladi.

Insonning ma'lum mehnat muhitiga moslashganligi:

- real xulq-atvor orqali;
- aniq mehnat faoliyat ko'rsatkichlari orqali;
- mehnat samaradorligi orqali;
- ijtimoiy axborotni qabul qilish va uni amalda qo'llash orqali;
- faollikning barcha ko'rinishlarining o'sishi orqali;
- mehnat faoliyatining turli jabhalaridan qoniqish hosil qilish orqali namoyon bo'ladi.

Insonning ishlab chiqarish jarayoniga kirishishiga qarab kasbiy moslashuv birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishi mumkin.

Kasbiy moslashuv murakkab jarayon bo'lib, unda kasbiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy, jamoaviy, madaniy-maishiy va psixofizik moslashuv birligini namoyon qiladi.

Kasbiy moslashuv ma'lum kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash orqali namoyon bo'ladi. Bu murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, pedagogik faoliyatga moslashish ko'p qirrali va integral jarayon hisoblanadi hamda pedagogik faoliyatining samaradorligiga, mehnat jamoasi sihat-salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Kasbiy moslashuvdagi asosiy inqiroz – bu real kasbiy hayot bilan shakllangan tasavvurlar va

kutishlarning bir-biriga mos kelmasligidir. Kasbiy faoliyat xodimning kutishlariga mos kelmasligi kasbiy ekspektatsiya inqirozini keltirib chiqaradi. Bu inqirozni yechishning ikki yo'li mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Konstruktiv: tezroq moslashishga harakat qilish va ish tajribasini orttirishga intilish.

2. Destruktiv: ishdan bo'shsh, sohani o'zgartirish, kasbiy vazifalarni noadekvat, sifatsiz, samarasiz amalga oshirish.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ishdan ketish holati birinchi uch oylikda ko'proq sodir bo'lar ekan. Asosiy sabab real haqiqat hamda tasavvur, kutishlarning mos kelmasligi, shuningdek, moslashuv davrida qiyinchiliklarni his qilishda. Shaxsning adekvat bahosi (ya'ni oylik va mukofot), o'sish va rivojlanish kafolati, kelishilgan ishning qoida va talablari, qulay sharoit, hamkasblarning ijodkor ta'siri bo'lishi lozim.

Kasbiy moslashuv kadrlarni tayyorlash tizimining muhim elementi bo'lib, u ta'lim sohasi jarayoni o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi qismidir. Finn tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, yosh xususiyatlarining kasbiy moslashuvini 4 guruhga ajratish mumkin:

- o'zi o'qigan sohaga tez kirishib ketuvchilar;
- faoliyat turi o'qigan sohasiga to'g'ri kelmaydiganlar, ya'ni boshqa ishlar bilan shug'ullanuvchilar;
- ta'lim olish davrida bir nechta sohadan bilim olib, mehnat faoliyatida aniq soha bo'yicha faoliyat yurituvchilar;
- olingan ta'lim bir nechta sohada bo'lib, mehnat faoliyatida turli soha va joylarda ish olib boruvchilar.

Moslashuvning quyidagi turlari mavjud:

**Rad etish.** Xodim tashkilot qadriyatlariga qat'iy norozilikni namoyon etadi. Uning kutishlari reallik bilan teskari, qarshilikda bo'ladi. Ko'pincha bunday vaziyatlarda ishchi xodim birinchi uch oylikda ishdan bo'shaydi.

**Konformizm.** Tashkilotning barcha me'yor hamda qadriyatlarini to'liq qabul qiladi, qonun-qoidalarga so'zsiz itoat qiladi. Bunday pedagoglar jamoaning asosiy qismini tashkil etadi.

**Mimikriya.** Ikkilamchi me'yorlarga rioya etuvchi, har qanday vaziyatlarda ishdan bo'shab keta oluvchi tur.

**Adaptiv individuallik.** Tashkilotning asosiy me'yorlariga bo'ysunuvchi, ammo ikkilamchi normalarga qarshilik ko'rsatuvchi tur. Bunday xodimlar atrofdegilar nazarida qandaydir individuallikni namoyon qiladi va mehnat jamoasida o'z individual o'rniga ega bo'ladi.

**Professional (kasbiy) moslashuv** – kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishdan iborat. Har bir yangi pedagog o'quvchilik bosqichini o'taydi.

**Psixofiziologik moslashish** – pedagogning mehnat va dam olish sharoitlariga moslashishi.

**Ijtimoiy-psixologik moslashish** – shaxslararo munosabatlar, guruh me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirish, rasmiy va norasmiy guruhlarda o'z o'rniga ega bo'lishini ko'zda tutadi. Yangi xodimning ijtimoiy-psixologik moslashuvi uzoq va murakkab tarzda davom etadi. Mehnat jamoasi yangi xodimning har bir qadamini "mikroskop" ostida kuzatadi. Shuning uchun sabrli bo'lish tavsiya etiladi. Bu jamoaga moslashayotgan inson ongli va ongsiz ravishda guruhni tahlil qilish uchun bir necha usullar qo'llaydi.

I usul – tashqi ko'rinishiga qarab baho beriladi. To'g'ri, tashqi ko'rinishning ahamiyati bor, ammo u shaxsning qobiliyatlari, iste'dodi haqida xabar bermaydi.

II usul – ijtimoiy stratifikatsiya. Uning yordamida moddiy mablag', ijtimoiy status, rasmiy yoki norasmiy liderlar, aqllilik, hazilkashlik, go'zallik va h.k. Xodimlar aynan shu stratifikatsiyadan kelib chiqqan holda bir-biri bilan munosabat o'rnatadi, stratifikatsiyalarda yo'l qo'yilgan xatolar nizolarga olib keladi.

III usul – guruhliy identifikatsiya. Bunda xodim o'zining qaysidir guruhga tegishliligini anglaydi. Guruhga kirayotganda xodim guruhning statusini, undagi me'yorlarni, guruh a'zolari huquqlarini e'tiborga oladi. Xodim ma'lum bir guruhning a'zosiga aylanar ekan, ko'pchilikka qarshi bo'lmay, o'zini himoyada his qiladi.

IV usul – guruhlararo diskriminatsiya. Uchinchi usul bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunda atrofdegilarga tanqidiy yoki ijobiy munosabatda bo'lish nazarda tutiladi. Doimiy tanqid, huquqlarning poymol qilinishi, oylikning kamligi guruhning mehnat motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq guruhlararo diskriminatsiya liderlikka, birinchilik uchun kurashga olib keladi,

natijada raqobat vujudga kelib, ishlab chiqarish ko'rsatkichi oshadi.

Shuningdek, moslashuvning quyidagi turlari ham mavjud:

1. Tashkiliy moslashuv – tashkilot tuzilmasi bilan tanishish, unda o'z rolini aniqlash.

2. Iqtisodiy moslashuv – oylik maosh va bajarilayotgan ish hajmi oylikka mos bo'lishi kerak.


3. Sanitar-gigiyenik moslashuv – ish joyining mehnat jarayoniga tayyorligi nazarda tutiladi.

Maqolamizda pedagog shaxsida kasbiy moslashish darajasini aniqlash maqsadida A.G.Maklakov tomonidan taklif etilgan moslashganlik darajasini o'rganish metodikasidan foydalanildi. Metodika natijalari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi hamda jadval va diagrammalarda aks ettirildi (1-jadval).

1-jadval.

### Kasbiy moslashganlik ko'rsatkichlari

Sinaluvchilar	Ishonchilik	Adaptivlik qobiliyati	Asab psixik barqarorlik	Kommunikativ xususiyatlar	Axloqiy me'yorlilik
30 nafar	30%	65%	45%	67%	78%



1-rasm. Kasbiy moslashish xususiyatining namoyon bo'lishi

Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, ishonchlilik 30% ni tashkil qilib, kasbiy moslashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mutaxassis kasbiy faoliyatni samarali boshlashi uchun, avvalo, o'zidagi imkoniyat, layoqatlariga ishonishi kerak. Shuning asnosida esa faoliyatga nisbatan o'ziga xos yondashuv yuzaga keladi. Adaptivlik qobiliyati 65% ni tashkil qilib, uning shakllanishi kasbiy moslashishni ta'minlovchi mezonlardan hisoblanadi. Sinaluvchilar orasida asab-psixik barqarorlik 45% ni tashkil qilib, faoliyatning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, kasbiy moslashish jarayonida shaxsda ro'y beradigan zo'riqlashlarning oldini olish lozim.

**Xulosa.** Pedagogdan talab qiladigan xususiyatlar sirasiga uning muloqotchanlik xususiyati kiradi. Chunki barcha kasblarning talablarini tahlil qiladigan bo'lsak, ayniqsa, pedagoglar uchun muloqot suv va havodek zarur ekanligini unutmaslik kerak. Shu nuqtayi nazardan kommunikativ xususiyatlar 67% ni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Axloqiy me'yor sinaluvchilar orasida ahamiyatli, ya'ni 78% ni tashkil qiladi. Ma'lumki, pedagog uchun kerakli

sifatlar sirasiga uning jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan axloq me'yor talablarini o'zlashtirganligi hamda unga rioya qilishi bilan belgilanadi.

Metodika natijalaridan xulosa qilish mumkinki, mutaxassisning kasbiy moslashishi uchun eng keraklisi bu ulardagi muloqotchanlik xususiyatining tarkib topganligi hamda adaptivlik qobiliyatining tarkib topganligi bilan belgilanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Селье Г. Очерки об адаптационном синдроме. – Москва: Речь, 1990. — С. 148-156.
2. Багнетова Е.А Образ жизни и профессиональные факторы риска здоровью педагога. – Москва: РИО СупГПУ, 2017. – 218 с.
3. Гринберг Дж. Управление стрессом. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – 496 с.



**Shamsiyeva Manzura Bababekovna,**  
*Alisher Navoiy nomidagi*  
*ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, PhD*

## BILINGVAL BOLALAR TIL QOBILIYATLARINING EKSPERIMENTAL TADQIQI

**Annotatsiya.** Nutq hosil qilish va idrok etish mexanizmlari to‘g‘risidagi tasavvur “til hissi” muammosi bilan bog‘liq. Til hodisalari to‘g‘riligi bahosi til hissi funksiyasi sifatida ushbu hodisani aloqalari va munosabatlarini, verbal aloqada nutqiy vaziyatda uning xususiyatlarini bilish natijasida amalga oshiriladi. Atrofdagilar bilan muloqotning asosiy usullari shakllanishida ushbu aloqalarning buzilishi namoyon bo‘ladi. Maqolada shu kabi masalalarning eksperimental tadqiqi natijalari bayon etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** nutqni tushunish, til kompetensiyasi, bilingval, monolingval, kodlash, dekodlash.

**Аннотация.** Понятие о механизмах формирования и восприятия речи связано с проблемой «чувства языка». Оценка правильности языковых явлений осуществляется как функция языкового восприятия, в результате познания связей и отношений этого явления, его особенностей в речевой ситуации при вербальном общении. Нарушение этих отношений проявляется в формировании основных способов общения с окружающими. В статье описаны результаты экспериментального исследования подобных вопросов.

**Ключевые слова:** понимание речи, языковая компетенция, билингвизм, монолингвизм, кодирование, декодирование.

**Annotation.** The perception of speech formation and perception sounds is associated with the problem of “language perception”. The evaluation of the correctness of language phenomena as a function of language perception is carried out as a result of knowledge of relationships of this phenomenon, its features in a verbal situation in verbal communication. In the formation of the main methods of communication with the surrounding world, a violation of these relations is manifested. The article describes the results of an experimental study of similar issues.

**Keywords:** speech comprehension, language competence, bilingual, monolingual, coding, decoding.

**Kirish.** Fikr ifodalovchi asosiy til shakli gap hisoblanadi, chunki aynan gaplar orqali tasavvur dunyosining obyektlari o‘rtasida aloqa va munosabatlar o‘rnatiladi. Bilingvizm mezonlarini boshqa tilda xuddi o‘z tilidagidek gapira olish qobiliyatidan emas, balki mazkur tilda fikrlay olishdan qidirish lozim; o‘sha tilda fikrlay olish qobiliyati mezonlari esa bevosita gaplarni shakllantira olish qobiliyati hisoblanadi.

Nutqni idrok etish va hosil qilish manbalari asosida bilingvlarning til qobiliyatlarini

eksperimental tadqiq etish davomida shaxslarning til qobiliyati va til kompetensiyasi o‘rtasida bevosita o‘zaro bog‘liqlik aniqlanmadi. Bu esa bilingvlarda aqliy mazmunni ifodalash uchun til qobiliyati mexanizmi yetarli darajada rivojlanmaganligi haqidagi holatni tasdiqlaydi. Tezroq va kamroq qiyinchilik bilan kechadigan idrok etish va tushunish (ifodaning mazmunini boshqarish) jarayoni ustuvor sanaladi.

**Asosiy qism.** Tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ishonchligi va aniqligi tadqiqotning

barcha metodologik darajalarining o‘zaro muvofiqligi bilan asoslanadi: muvofiq psixometrik talablar, metodikalarning tanlanishi; psixolingvistika nazariyasi va metodologiyasi bilan muvofiqlikda eksperimental ishni tashkillashtirish; retsepiyentlarni reprezentativ tanlashni shakllantirishning ishonchli strategiyalari; STATISTICA statistika tahlilining kompyuter dasturi paketini qo‘llash bilan olingan eksperimental ma’lumotlarni matematik qayta ishlash metodlarini qo‘llash.

Tadqiqot quyidagi uch bosqichda olib borildi:

**1-bosqichda** adabiyotlarning nazariy tahlili, tadqiqotimizning predmeti va obyektiga mos bo‘lgan metodikalar majmuyini tanlash amalga oshirildi.

**2-bosqichda** empirik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda 300 nafar retsepiyent qamrab olindi, ular qo‘yilgan maqsadga ko‘ra yosh mezonlari bo‘yicha (7–8 yoshli bolalar), monolingv va bilingv mezon bo‘yicha (guruhda 300 kishi) 4 guruhga ajratildi (1-jadval).

**3-bosqichda** ma’lumotlar statistik qayta ishlandi va olingan natijalar talqin qilindi.

Tadqiqotda L.V.Yassmanning “Bolalarda til kompetentligi shakllanishini tadqiq etishning psixolingvistik metodi”dan foydalanildi. Psixolingvistik metodlar majmuyi 6–9 yoshli bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, nutqni tushunish hamda nutqning grammatik tuzilishini faol egallash va umuman nutq ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishga yo‘naltirilgan testlardan tashkil topgan.

Nutq hosil bo‘lishi va tushunilishi mexanizmlari haqidagi tasavvur “til kompetentligi” masalasi bilan bog‘liq. Tildagi kompetentlik, tilni qo‘llash bir vaqtda yuzaga kelmaydi va ikki mustaqil hodisa sanalmaydi. Aksincha, tildagi kompetentlik uni qo‘llash natijasi hisoblanmaydi va tilni tushunish bolada voqelikni faol aks ettirish hamda faol muloqot jarayonida paydo bo‘ladi. Bolalar yetti yoshda yangi – o‘quv faoliyatiga o‘tadi va bu bolalardan tilning nutqiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda anglangan darajada ifodalarni tuzish qobiliyatini talab qiladi. Ushbu murakkab analitik-sintetik faoliyat barcha bolalarga ham tegishli bo‘lmasligi ham mumkin. Empirik tadqiqot komplekslik prinsipi, yosh va individual yondashuv, shaxsiy xususiyatlar, tilni egallaganlik darajalari xususiyatlariga rioya qilingan holda amalga oshirildi.

Nutqni tushunish – bu nutqiy ifodaning tashqi shaklidagi mazmunni chiqarish jarayonidir.

Anglanmagan shaklning idrok etish akti sifatida qabul qilinishi deyarli har doim semantikaga o‘tishdir. Nutqiy signallarni qayta ishlash izchillikda kechadi. Nutq shakllarini idrok etish uning tuzilishidagi lingvistik qonuniyatlarni bilishni talab etadi. Hatto so‘z xato bo‘lsa ham, retsepiyentga tanish bo‘lgan so‘zlarni eslatsa, ular tanishdek qabul qilinadi. Agar jumlar ko‘p ma’noli bo‘lsa, retsepiyent uni qabul qilishda qiyinchiliklarga uchraydi. Jumla qanday sintaktik shaklda taqdim etilayotgani retsepiyent uchun muhim emas.

Nutq qabul qilishda shaxs aytilganlarning voqelik bilan, u haqidagi o‘z bilimlari, tajribasi bilan o‘zaro bog‘lanishini aniqlaydi. Shaxs o‘z ongidagi ma’lumotlar orqali tushirib qoldirilgan qismlarni qayta tiklashi mumkin. Qabul qilish jarayonida shaxs faol bo‘ladi, kelgusi mazmunga doir farazlarni ilgari suradi va ma’no o‘zgarishlarini amalga oshiradi.

Keyingi bosqichda bola alohida so‘zlardan tashkil topgan gapning tuzilishini, ya’ni grammatik munosabatlar tizimining mantiqiy mazmunini tushunishi kerak. Ya’ni tushunish jarayoni quyidagicha kechadi: *gapning shakliy-sintaktik tuzilishini aniqlash – mazmuniy-sintaktik tuzilish – gapning umumiy semantik mazmuni.*

Ya’ni bola gapdagi har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘rnatadi, biroq sintaktik aloqalarni qabul qilmaydi, aks holda, noto‘liq va noto‘g‘ri qabul qilinadi.

1-jadval

### 1-testni bajarish natijalari

Ballar	Monolingvlar		Bilingvlar	
	7 yosh	9 yosh	7 yosh	9 yosh
	1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
0	0	0	5	3
1	3	0	20	14
2	12	7	36	29
3	60	68	14	29

Gapni mantiqiy-grammatik tushunish topshiriqlarini bajarishda bolalar semantik-sintaktik munosabatlarni o‘rnatish topshiriqlarini bajarishdagi qonuniyatlarni namoyish etishdi.

8 yoshli monolingv bolalar vazifani 90% to‘g‘ri bajarishdi (2-jadval).

Bilingv bolalarda vazifani noto‘g‘ri bajarish ko‘proq kuzatildi (8 yoshli bolalarda 57%). Ba’zi



bilinval bolalarda grammatik tuzilishni tushunishda kamchilik kuzatildi. Ular soʻzni boshlangʻich shaklda qabul qilishgan. Yordam koʻrsatilganda, bolalar oʻz xatolarini topishdi va ularni toʻgʻrilashga harakat qilishdi.

1-test. Gapning sintaktik tuzilishini tushunishni tadqiq etishga qaratilgan.

#### 1-test.

*Maydonda bino yonida harbiy qurol bilan turibdi – Maydonda bino yonida qurol bilan harbiy turibdi.*

*Parkda charxpalak yonida muzqaymoq ushlab turgan bola turibdi – Parkda charxpalak yonida bola muzqaymoq ushlab turibdi.*

Yoʻriqnoma.

Bu gaplar nimasi bilan farqlanadi?

Psixolingvistik yondashuvda dekodlash (gaplarni tushunish) – bu gapning oʻzidan uning shakli-sintaktik tuzilishiga oʻtish, soʻngra gapning mazmunini aniqlash imkonini beruvchi uning mantiqiy-sintaktik tuzilishga oʻtishdir.

Tadqiqotning koʻrsatishicha, yetti va toʻqqiz yoshli bilinval bolalarda hatto juda sodda gaplarni ham tushunish qiyin kechdi. Turlanish, tuslanish, koʻmakchilar, koʻmakchili qurilmalar qoʻllangan gaplar bolalarga koʻproq qiyinchilik tugʻdirdi.

2-jadval

#### 3-testni bajarish natijalari

Ballar	Monolingvlar		Bilingvlar	
	7 yosh	9 yosh	7 yosh	9 yosh
	1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
0	0	0	4	2
1	13	7	33	21
2	3	9	13	22
3	59	59	25	30

78% monolingv bolalar topshiriqni toʻgʻri bajarishdi. Yetti yoshli bilinval bolalarning 33% i, 8 yoshli bilinval bolalarning 40% i toʻgʻri bajarishdi.

Bilingval bolalarda testni notoʻgʻri bajarish koʻproq kuzatildi. 7 yoshli bolalar ushbu topshiriqni bajarishda koʻplab qiyinchiliklarga uchrashdi. Gaplar oʻrtasidagi farqni umuman topa olishmadi. Masalan, *Parkda charxpalak yonida muzqaymoq ushlab turgan bola turibdi – Parkda charxpalak yonida bola muzqaymoq ushlab turibdi* – gaplarini taqqoslash yetti yoshli bilinval bolalar uchun juda qiyin boʻldi. Bu yerda har bir gapda “charxpalak

*yonida muzqaymoq ushlagan bola*” va “*charxpalak yonida bola*” qoʻshni elementlar oʻrtasidagi mumkin boʻlgan aloqani tanlash kerak edi. Quyidagi javob koʻproq kuzatildi: “Bir xil gaplar. Hech narsa oʻzgarmadi”.

Toʻqqiz yoshli bilinval bolalarda boshqacha manzara kuzatildi. Yoshi kattalashgani sari bilinval bolalarda topshiriqni toʻgʻri bajarish foizi ortgani, oʻzbek tilini oʻrganish vaqtining ortishi bilan lugʻat zaxirasi ham oshib borgani kuzatildi (40%). Yordam koʻrsatilganda bolalar oʻz xatolarini topishdi va ularni toʻgʻrilashga harakat qilishdi.

**4-test gapning sintaktik tuzilishini tushunishga qaratilgan.**

*Yoʻriqnoma:* Tingla va javob ber

*Sanjar Davrondan oʻzdi. Kim chaqqon?*

*Kamron Sanjardan balandroq. Kim past?*

*Salima Dilnozadan kattaroq, biroq Xurshidadan kichikroq. Kim eng katta?*

*Sanjar Kamrondan balandroq, biroq Nodirdan pastroq. Kim eng baland?*

Baholash mezonlari yuqoridagi testlarniki bilan bir xil.

3-jadval

#### 4-testni bajarish natijalari

Ballar	Monolingvlar		Bilingvlar	
	7 yosh	9 yosh	7 yosh	9 yosh
	1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
0	0	0	4	2
1	11	10	27	21
2	16	14	33	32
3	48	51	11	20

Tadqiqotning koʻrsatishicha, ushbu vazifani bajarish bolalar uchun ancha murakkablik tugʻdirdi. Bilingval bolalarda gapning sintaktik tuzilishini tushunish qiyin kechdi. Taʼkidlash joizki, quyidagi gaplar koʻproq murakkablik tugʻdirdi: “Salima Dilnozadan kattaroq, biroq Xurshidadan kichikroq. Kim eng katta?” va “Sanjar Kamrondan balandroq, biroq Nodirdan pastroq. Kim eng baland?”

Monolingv bolalar biroz yaxshiroq natijalarga ega boʻldi. Bolalar uchun eng qiyini, bitta soddalashtirilgan aloqadan ikkinchisiga oʻtish va uni butun jumlaning maʼnosini tushunish uchun ishlatish boʻldi. Masalan, “Sanjar Kamrondan balandroq” birinchi aloqani ifodalaydi. Undan soʻng “Sanjar

Nodirdan pastroq” aloqasini tushunishi kerak. Biroq bolalar ifodaning faqat birinchi qismini tushungan va shunga ko‘ra javoblar xato bo‘ldi. Shuningdek, aksar hollarda gapning ikki yarmi ham bir xil sifatida tushunilgan. Bolalarning javoblari, asosan, “Sanjar Kamrondan baland va Nodirdan baland. Demak u eng baland” tarzida bo‘ladi.

Ushbu topshiriqni bajarish nafaqat bilingval bolalar uchun, balki monolingv bolalar uchun ham qiyin kechdi. 36% yetti yoshli va 32% to‘qqiz yoshli 1-2-guruh retsipyentlari vazifani xato bajarishdi. Atigi 14% yetti yoshli va 26% to‘qqiz yoshli bilingval retsipyentlar vazifani to‘g‘ri bajarishdi.

Bilingval bolalarda ko‘makchili qurilmalarni tushunish qiyin kechdi. Monolingval bolalar uchun bir soddalashgan aloqadan boshqasiga o‘tish va uni butun topshiriq mazmunini tushunish uchun qo‘llash qiyin kechdi. Masalan, bolalar topshiriqda berilgan ketma-ketlik asosida figuralarni qidirdi.

Shu tariqa bilingval bolalar ifodasida ichki nutq bosqichida dekodlash jarayonining buzilishi sababli so‘zlarni tushunishda bir qator qiyinchiliklar qayd etildi. O‘rganilayotgan bolalarda gapning tashqi yuza tuzilishidan ichki tuzilishiga o‘tish qiyin bo‘ldi, chunki tushunish so‘z tartibi voqealar ketma-ketligini ifodalaganda ichki nutq bosqichiga xos so‘z qurilishi qoidalariga amal qiladi.

Ifodani dekodlash jarayoni bolaga ma‘lum bo‘lgan ba‘zi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi, avvalgi tajribada mustahkamlangan yoki xabarning mazmuni faqat tuzilmaning rasmiy va grammatik xususiyatlarini tahlil qilish asosida tushunarli bo‘lishi bilan bog‘liq ravishda turlicha kechadi. Dastlabki holatda ifodani tushunish qiyinchilik tug‘dirmaydi, bunga kundalik muloqotni misol qilib olishimiz mumkin, chunki kundalik muloqotda ifoda mazmuni faqatgina gapning grammatik tuzilishidan emas, balki bolaga ma‘lum bo‘lgan vaziyat, muloqot predmetidan ayon bo‘ladi.

**Xulosa.** Agar bolalar ko‘chada uyida gaplashadigan tildan boshqa tilda muloqot qilsa, “uy” tili va “ko‘cha” tili ota-onalarning hech qanday e‘tiborisiz aralashib ketadi va ko‘pincha o‘z-o‘zicha shakllanadigan bilingvizm rivojlanadi. Tadqiqotimiz davomida quyidagilar aniqlandi: tuzilmalarning tarqalishi emas, balki ketma-ket tobelanish tuzilmalarining ustunligi, nutqda sifatlardan kam foydalanish kuzatildi. Makon munosabatlarini yetkazishda ham katta qiyinchiliklar mavjud.

Bilingval bolalar, asosan, joy va vaqt holatlaridan foydalanadilar.

Ifodalarni tushunishda bilingval bolalarda bir qator qiyinchiliklar uchradi, bu ichki nutq bosqichida dekodlash jarayoni buzilishi borligidan dalolat beradi. Tadqiq etilgan bolalarda gapning tashqi tuzilishidan ichki jihatiga – mazmunga o‘tish qiyin kechdi, chunki tushunish ichki nutq bosqichiga tegishli bo‘lgan ifoda tuzilishi qoidalariga bo‘ysunadi, so‘zlar tartibi voqea-hodisalar ketma-ketligini namoyon etadi.

Ifodani dekodlash jarayoni bolaga ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotning bor-yo‘qligi yoki xabar mazmuni tuzilmaning faqat formal-grammatik belgilari tahlili asosida tushunarli bo‘ladi. Dastlabki holatda ifodani tushunish murakkablik tug‘dirmaydi, chunki unda kundalik muloqot bo‘lib, gapning mazmuni uning grammatik tuzilishiga qarab emas, balki bolaga ma‘lum bo‘lgan vaziyat, muloqot predmetidan anglashiladi. Bunda bilingval bolalarda ta‘lim bilan bog‘liq ravishda nutqiy ifodani tushunish sezilarli darajada yaxshilanadi.

Agar ota-onalar bola bilingvizmiga ongli yondashsalar, ya‘ni qaysi prinsip asosida, qaysi tilda qachon muloqot qilishi, qancha vaqt muloqot qilishini oldindan rejalashtirsa, birinchi va ikkinchi til, nutq kompetensiyasi muvofiq ravishda o‘zaro uyg‘un va mutanosiblikda rivojlanadi.

Bilingval bola monolingv bolaga nisbatan lingvistik hodisalarga ko‘proq qiziqadi, chunki unda til tajribasi ko‘proq. So‘z semantikasiga bo‘lgan qiziqish erta paydo bo‘ladi, chunki bir tushunchani ham ona tilida, ham rus tilida ifodalashi mumkin. Bu nomlashga bo‘lgan motivatsiyaning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bilingval bolalar so‘zlarning etimologiyasini aniqlab, ikki til bilimlarini faol qo‘llay boshlaydilar.

Bilingvizmni shakllantirish uchun eng qulay variant bola tug‘ilganidan boshlab u bilan ikki tilda muloqot qilishdir. Ta‘lim jarayoniga ikkinchi tilni o‘zlashtirish boshlangan yoshi ta‘sir ko‘rsatadi. Bola uch yoshgacha ikki tilni o‘zlashtirganda ikki bosqichni bosib o‘tadi: dastlab bola ikki tilni aralashtiradi, keyin ularni bir-biridan ajrata boshlaydi. Uch yoshga kelib bola bir tilni boshqasidan aniq ajrata boshlaydi. Uch yoshning oxirlariga kelib, ba‘zilar to‘rt yoshida tillarni aralashtirishni to‘xtatadi. Bola to‘rt-besh yoshida aloqaga kirishga

intiladi. U biron-bir soʻzning nimani anglatishini bilishga qiziqadi va narsalarni nomlay boshlaydi. Olti yoshida tengdoshlari bilan oʻyinda tildan faol foydalanadi. Ikki tilni bir xilda baravar egallashning imkoni yoʻq. Mutlaq bilingvizm muloqotning barcha turlarida tillarni mutlaq bir xil darajada egallaganlikni nazarda tutadi. Bunga erishishning imkoni yoʻq. Buning sababi shundaki, bolaning bir til yordamida orttirgan tajribasi boshqa til yordamida orttirgan tajribasidan har doim farq qiladi. Koʻpincha bola tillardan turli vaziyatlarda foydalanishni afzal koʻradi. Masalan, taʼlim bilan bogʻliq vaziyatlarda, bilimning texnik jihatlarida bir tilga, oila bilan bogʻliq hissiy vaziyatlarda esa boshqasiga ustunlik beriladi. Bir til bilan bogʻliq hissiyotlar boshqasi bilan bogʻliq hissiyotlardan har doim farq qiladi. Agar bola ikkinchi tilni maktab yoshida oʻrgansa,

u tilni boshqacha tarzda oʻzlashtiradi. Bu holatda bola doim ikki tilni solishtiradi: tovushlar birinchi tildagi tovushlarga “qarama-qarshi” tarzda qabul qilinadi. Xuddi shu holat tilning grammatik jihatlarini munosabatida ham yuz beradi.

Ikki tilli bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari:

- ular nutqni kechroq oʻzlashtiradi;
- soʻz zaxirasi bir tilda soʻzlovchi tengdoshlarinikidan biroz kamroq;
- tizimli oʻrgatilmaganda, grammatika yetarli darajada oʻzlashtirilmaydi;
- ikkinchi tilning yozma nutqini oʻzlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin;
- amaliyot boʻlmaganda, ikkinchi darajali boʻlib qolgan ona tilining tobora zaiflashuvi kuzatiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Purisman, A. Russian in Israel: Immigrants' Attitudes towards mother tongue and its use / A. Purisman // «Studia Humaniora et Paedagogica Collegii Narovenssis». – Hapva, 2008. pp. 85-95.
2. Raguenaud, V. Bilingual by Choice: Raising Kids in Two (or More!) Languages / V. Raguenaud. – Boston: Nicholas Brealey Publishing, 2009. – 201 p.
3. Rehman, S. Make Your Child Multilingual! The 10 Step Success Plan to Raising Bilingual / Workbook edition / S. Rehman. – Seattle: CreateSpace, 2010. – 110 p.
4. Saunders, G. Bilingual children: Guidance for the family / G. Saunders. – Clevedon: Multilingual Matters, 1982. – 278 p.
5. Schwartz, M., Verschik, A. Achieving Success in Family Language Policy: Parents, Children and Educators in Interaction / M. Schwartz, A. Verschik // M. Schwartz, A. Verschik (eds). Successful family language policy: Parents, children and educators in interaction. - Heidelberg: Springer Verlag, 2013. pp. 1-20.
6. Sebastian-Galles, N. Native-language sensitivities: Evolution in the first year of life / N. Sebastian-Galles // Trends in Cognitive Sciences. 2006. – Vol. 10. pp. 239-241.
7. Шмелев, А.Г. Психодиагностика личностных черт. – Санкт-Петербург: Изд-во “Речь”, 2002. – С. 68-83.
8. Шчерба, Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – 2-е изд., стер. – Москва: УРСС, 2004. – 427 с.



**Мусурмонкулов Ойбек Уралович,**  
Заместитель декана факультета социальных наук  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
независимый исследователь

## ВОСПИТАНИЕ ИДЕАЛЬНОЙ МОЛОДЕЖИ – САМАЯ АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА НАШЕГО ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** В статье предпринята попытка обосновать государственную политику, посвященную проблеме молодежи и конкретным изменениям, происходящим в этой связи. Поддерживать социальную защиту молодежи, проводить мероприятия, связанные с формированием национальной гордости и верности Родине, оказывать всестороннюю поддержку молодежи в условиях рыночной экономики, организовывать для них новые рабочие места, выделять гранты для получения ими высшего образования, выявление талантливой молодежи в нашей республике в целях их поощрения.

**Ключевые слова:** Союз молодежи, глобализация, государственная политика, национальная гордость, верность Родине, предпринимательство, семья, школа и община, общество, долг.

**Аннотация.** Ушбу мақолада ёшлар муаммосига доир давлат сиёсати ва шу муносабат билан амалга ошириляётган ўзига хос ўзгаришлар асосида ижобий ишлар қилинаётгани очиб берилган. Ёшларни ижтимоий ҳимоя қилиши, қўллаб-қуватлаши, миллий гуруҳ ва Ватанга садоқат туйғуларини шакллантиришига қаратилган тадбирларни ўтказиши, бозор иқтисодиёти қонунлари асосида ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қуватлаши, улар учун янги иш ўринлари ташиқил этиши, олий маълумот олишлари учун грантлар ажратиши, республика миқёсидаги иқтисодорли ёшларни рағбатлантиришини тарғиб қилиши масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** Ёшлар иттифоқи, глобаллашув, давлат сиёсати, миллий гуруҳ, Ватанга садоқат, тадбиркорлик, оила, мактаб ва маҳалла, жамият.

**Annotation.** In the article an attempt is made to justify the state policy dedicated to the youth problem and the specific changes taking place in this regard. To support the social protection of young people, to hold events related to the formation of national pride and loyalty to the Motherland, to provide comprehensive support to young people in the conditions of the market economy, to organize new jobs for them, to allocate grants for their higher education, to find talented children in our republic and encourage them.

**Keywords:** Youth Union, globalization, public policy, national pride, loyalty to the Motherland, entrepreneurship, family, school and community, society, duty.

Как всем известно, сегодня в Узбекистане вопрос воспитания молодежи становится одним из главных приоритетов государственной политики. В условиях современной глобализации важное место в формировании качеств, свойственных профессионалу и перфекционисту, занимает воспитание молодежи. Сегодняшняя быстро

развивающаяся эпоха требует вооружить учащихся обоснованной информацией в короткие сроки, создать необходимые условия для их основательного усвоения основ различных предметов. В современных условиях требуется, чтобы образовательный процесс был направлен на развитие личности, социализацию

и воспитание способностей самостоятельного, критического и творческого мышления. Весь воспитательно-тренировочный процесс, который может показать эти возможности, должен быть ориентирован на личность.

В теоретической части статьи личностно ориентированное образование-воспитание, по своей сути, предусматривает всестороннее развитие всех участников общества. При проектировании образования речь должно идти не только о личности конкретного обучающегося, а прежде всего предполагать поиск его места в обществе, исходя из его целей обучения, связанных с будущей профессиональной деятельностью. Родители, семья, соседство, общество и личность будущего учителя находятся в центре образовательной системы во всех процессах, направленных на воспитание совершенного человека.

Работы, проделанные с момента обретения независимости нашей страны и руководством республики, а также забота, проявленная Ш.М.Мирзиёвым, является ярким доказательством нашего мнения. При поддержке Президента и нашего правительства, «Союз молодежи Узбекистана» стал эффективным институтом работы с молодежью, совершенно новым, свободным от старых идеологических убеждений, отвечающим требованиям времени, специальные гранты на обучение молодежи в высших учебных заведениях, в школах нового типа и спортивных сооружениях, отвечающих требованиям времени. Организация еще раз показывает, насколько большое внимание государство и общество уделяет подрастающему поколению. Ведь завтрашний день в руках сегодняшней молодежи.

Поэтому воспитание подрастающего поколения зрелым и совершенным, защита их политических, нравственных и социальных интересов, особенно повышение ответственности в этом отношении государственных и негосударственных организаций, является одним из актуальных вопросов. Содействие в социальной защите молодежи, проведение мероприятий, связанных с формированием национальной гордости и верности к Родине, оказание всемерной поддержки молодежи в условиях рыночной экономики, организация для них новых рабочих мест, предоставление грантов на получение высшего образования,

поиск талантливых детей в нашей республике в целях их поддержки и поощрения является требованием периода.

Кроме того, Министерством высшего и среднего специального образования будет проведен республиканский экзамен среди всех школьников, студентов средних специальных и высших учебных заведений, а также республиканские конференции молодых ученых, высшего и среднего специального образования в системе народного образования с целью определения понимания и усвоения молодежью законодательства о государственном строительстве.

Президент нашей страны, размышляя о малом и частном предпринимательстве, сказал: «...мы можем решить острую проблему обеспечения занятости населения, особенно в сельской местности и районах, где есть избыток рабочей силы, только за счет комплексного и экстенсивного развития малого и частного предпринимательства»<sup>1</sup>. С этой точки зрения основное внимание должно быть сосредоточено на работе с молодыми предпринимателями в селах и районах, их поддержке, создании новых рабочих мест. Известно, что в 1991 году Узбекистан первым среди стран СНГ принял Закон «Об основах государственной политики в отношении молодежи в Республике Узбекистан». В первые годы независимости многие политико-организационные программы были реализованы на основе этого важного документа, практически определившего стратегию государства в области молодежи.

Практический результат статьи. Как в нашей стране была создана комплексная и эффективная система работы с молодежью. Не секрет, что по мере того, как мы приобретаем опыт строительства государственности, наша законодательная сфера становится все более основательной и солидной. Президент в каждом своем выступлении подчеркивает, что воспитание подрастающего поколения является приоритетом.

В эпоху развития и перемен нашей республики всестороннее развитие человека является требованием и потребностью современности. Воспитание молодежи является

<sup>1</sup> Выступление Ш.М.Мирзиёва на встрече открытого диалога с бизнесменами нашей страны. Ташкент, 20 августа 2021 г.



наиболее актуальной проблемой современности. Дети – это не только будущее семьи и родителей, а будущее всей страны. Судьба будущего поколения требует большой ответственности от нашего общества, а значит, и от каждого из нас. Каждая семья и каждое общество хочет, чтобы его поколение стало духовно зрелым. Важное значение для повышения уровня воспитательной работы среди молодежи, развития ее различными методами и решения такой колоссально ответственной и почетной задачи имеет сотрудничество школы, семьи, района и общества.

Инновационные реформы в системе образования: глазами ученых и молодежи. В настоящее время растет преступность среди молодежи из-за ее неосознанных действий. Это результат того, что родители не уделяют учащимся достаточного внимания, чтобы не тратить впустую их свободное от занятий время или чтобы они наслаждались любимыми играми и занятиями. Управление учащимися, занятие их воспитанием было возложено на педагогические отряды в школах, воспитанием детей занималась только школа. Ведь в преддверии 1 сентября родители живут необходимостью отправить своих чад в объятия знаний. Но, с истечением времени, родители перестают обращать внимание на успехи и недостатки своих детей в учебе, даже на их воспитание. При организации воспитательной работы с детьми и подростками по микрорайону, уделение внимания физкультурным занятиям, организация специальных физкультурно-оздоровительных площадок помогут детям содержательно проводить свободное время, укрепить здоровье, тренировать и заинтересовать каким-либо видом спорта, который, в свою очередь, научит детей быть дисциплинированными в моральном и духовном плане. Нравственное воспитание также является влиятельным фактором.

Три столпа образования: семья, школа и общество. Намеченная цель будет достигнута только тогда, когда эти источники образования будут здоровы. Нужно относиться к ребенку гуманно: изучать его внутренний мир, разделять его горести и радости. «Почему он стал плохим мальчиком?», «Что нужно сделать, чтобы изменился?». Семья и школа должны найти ответы на эти вопросы. Необходимо расширять представления детей о поведении, давать

больше информации об эгоизме, заносчивости, стремлении к корысти, а также о вредных привычках.

Нужно регулярно изучать детские достижения и недостатки. Также уместно выявить их плохое поведение, показать на примере их образцовые качества и сделать им замечание. Такие качества как забота о людях, трудолюбие, довольство, смирение, преодоление препятствий на пути к достижению целей, самообладание, искренность, находчивость, подмечание новизны, требовательность, доброта, последовательность должны быть поощрены. А грубость, вредные привычки как злобность, лень, безответственность, расточительность, высокомерие должны быть осуждены. Как говорится, «Скромный, непритязательный и простой человек – прекрасный человек, которого все любят», «Скромный – совершенен, гордыня – бедна», «Дитя мило, но манеры его дороги». Такие примеры из произведения искусства, повествований оказывают быстрое воздействие на ребенка.

Прежде всего, родители ласкают своего ребенка, целуют и обнимают его, восхищаются каждым его действием, они заботятся о нем, помогут ему встать, доверяют ему и направляют его на профессию, но иногда сами нарушают перед ним обычные правила воспитания, потом удивляются, почему их ребенок беспечен, почему его ничего не интересует. Может быть, если бы мы поговорили с ребенком, вместе водили его в кино, театр и обсуждали вместе негативные и позитивные стороны просмотренных фильмов и спектаклей, то в нашей жизни совсем не было бы преступников. Когда судья просит родителей несовершеннолетних правонарушителей рассказать об их детях во время суда, они всегда говорят, что их ребенок ни в чем не виноват и никому не собирался причинить вред. Но они забывают, что они сами, прежде всего, виноваты за все его поступки.

В заключение следует отметить, что воспитание грамотного, патриотичного, здорового поколения – это не только обязанность родителей или образовательных учреждений, но и всех нас. Не следует забывать, что для правильного осуществления воспитания и обучения необходимо единство требований семьи, учебного заведения.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиёев Ш.М. «Стратегия действий» по пяти приоритетным направлениям развития Узбекистана. – Ташкент: Изд-во «Узбекистан», 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Обеспечение законности и интересов человека – залог развития страны и благосостояния народа. – Ташкент: Изд-во «Узбекистан», 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Вместе мы построим свободную и процветающую демократическую страну Узбекистан. – Ташкент: Изд-во «Узбекистан», 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Его выступление на встрече открытого диалога с бизнесменами нашей страны. Ташкент, 20 августа 2021 г.
5. Новое реформированный Закон Республики Узбекистан «Об образовании». – Ташкент: газета «Халк сўзи». 23 сентября 2020 г.
6. Каримов И. А. Высокая духовность — непреодолимая сила. – Ташкент: Духовность, 2008.
7. Абу Насир Фараби. Город добродетельных людей. – Ташкент: Изд-во им. А.Кадири, 1993.
8. Аль-Бухари. Литературные шедевры. – Ташкент: Изд-во “Узбекистан”, 1990.
9. Ахмедов А. Темура Тузуклари. – Ташкент: Изд-во им. Г.Гуляма, 1996.
10. Муслимов Н.А. и другие. Технология формирования коммуникативной компетентности будущих учителей. Методическое руководство. – Ташкент, 2014.
11. Саидахмедов Н. Новые педагогические технологии. теория и практика. – Ташкент: Изд-во “Финанс”, 2003.
12. Кайковус. Кобуснома. – Ташкент: «Учитель», 2011.
13. Худойкулов Х. Ж. Ответственность родителей, педагогов и руководителей в формировании поведения и этикета общения в обществе. – Ташкент: ТТЙМИ, 2009.
14. Худойкулов Х.Ж. Манеры – это шедевры морали и воспитания. – Ташкент: ТТЙМИ, 2008.
15. Худойкулов Х.Ж. Качества совершенства. – Ташкент: Инновации-Зиё, 2021.
16. Худойкулов Х.Ю. Педагогика. – Ташкент: Инновация-Зия, 2021. – С. 290.
17. Худойкулов Х.Ю. Основы педагогического мастерства. – Т.: Инновация-Зия, 2022. – С. 239.
18. Худайкулов Х.Дж. Модульное обучение и использование инновационных технологий в высшем образовании. – Ташкент: Мумтоз-Зия, 2019. – С. 131.
19. [www. педагог. еn](http://www.педагог.еn)
20. [www. наносить ущерб еn](http://www.наноситьущерб.еn)
21. [www. edu.uz](http://www.edu.uz)



To'rayev Odil,  
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR – IJTIMOY XAVFSIZLIK MASALALARINI O'RGANISHNING MUHIM INSTRUMENTI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sotsiologik tadqiqotlarning jamoatchilik fikrini o'rganish orqali ijtimoiy xavfsizlik holatini baholashdagi o'rni yoritib berilgan. Bunda sohadagi asosiy manfaatlar va xavfsizlikka tahdidlar tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, xavfsizlik tadqiqotlarida empirik metodlardan foydalanish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** sotsiologik tadqiqotlar, ijtimoiy xavfsizlik, axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy tuzilmalar, sotsial mobillik, empirik ma'lumot.

**Аннотация.** В данной статье освещается роль социологических исследований в оценке состояния социальной защищенности посредством изучения общественного мнения. При этом выработаны научные умозаключения по совершенствованию практики использования эмпирических методов в исследованиях безопасности, направленных на изучение основных интересов и угроз безопасности в указанной сфере.

**Ключевые слова:** социологические исследования, социальная безопасность, информационное общество, социальная структура, социальная мобильность, эмпирические данные.

**Annotation.** This article reveals the role of sociological research for measuring the state of social security by assessing public opinion. Some proposals for developing the practice of implementing empiric methods in surveys for examining basic interests and security threats in this sphere have been proposed.

*Key words:* sociological research, social security, information society, social structures, social mobility, empirical data.

**Kirish.** Mamlakatimizda so'nggi yillarda ilm-ma'rifat va fan sohalarining rivojiga katta e'tibor berilmoqda. Shu jumladan, sotsiologiya fanining rivoji bilan bog'liq jarayonlarga ham davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Jamoatchilik fikrini o'rganishning muhimligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Jamoatchilik fikrini o'rganish eng dolzarb muammolarga, voqelikning muayyan jihatlari va jarayonlariga e'tiborni qaratadi, turli ijtimoiy guruhlar, umuman, xalqning manfaatlarini ifodalaydi.

Jamoatchilik fikrining ustuvor jihati shundaki, u davlat va jamiyatdagi har qanday masala

yuzasidan xolisona va shaffof munosabatni shakllantiradi. Bunday yondashuv demokratik tamoyillarni real hayotga tatbiq etishga turtki bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini yengil qilish – aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 17 б.

doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarga yechim topishning yangi mexanizmi sifatida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirishga, davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashish maqsadida hamda jamoatchilik fikrini tizimli o'rganib borish, joylarda va sohalarida aholini, fuqarolik jamiyati institutlarini hamda jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, ularning yechimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalariga va Hukumatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritib borish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil etildi.

Amalga oshirilayotgan mazkur ishlarning barchasi ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlarning sifati va qamrovini kengaytirishga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida ham tadqiqotlar bo'yicha grantlar miqdorini 2 barobarga ko'paytirish va tadqiqot yo'nalishlari ko'lamini kengaytirish lozimligi yuzasidan konseptual fikrlar bildirgan<sup>2</sup>.

Shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarning ijtimoiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati nazariy-metodologik jihatdan ham soha olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Xususan, jamoatchilik fikrini o'rganishda miqdoriy va sifatiy tadqiqotlar orqali ijtimoiy muammoning umumiy tavsifi bilan chegaralanmasdan, uning vujudga kelishi va dinamik harakatiga ta'sir qiluvchi omillar, sabab-oqibat aloqalari, muammoning istiqbolda o'zgarishi darajasi va u orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar xususida prognoz qilishga ham zamin yaratib beradi. Bir so'z bilan aytganda, sotsiologik tadqiqot orqali ijtimoiy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarni erta aniqlash, ko'lamini baholash, tashxis qo'yish, uni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni aholining fikrini o'rgangan holda ishlab chiqish hamda ularni sifat metodlari orqali ekspertizadan o'tkazish mumkin.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi, 2020 йил.

**Asosiy qism.** Xavfsizlik tadqiqotlarida sotsiologik metodlarni samarali qo'llash so'nggi yillarda olimlarning diqqat markazidagi asosiy masalaga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ijtimoiy barqarorlik darajasi davlat va jamiyatning qobiliyati bilan baholanib, unda quyidagicha mazmun ustuvorlik kasb etadi:

1) ijtimoiy norozilik holatlari, ijtimoiy tuzilmalarning tanazzuliga yo'l qo'ymaslik;

2) ijtimoiy tuzilmalarning barqarorligini, vertikal va gorizonttal sotsial mobillik muvozanatini ta'minlash;

3) jamiyat uchun zarur bo'lgan qadriyatlar va madaniyat, ijtimoiy xulq-atvor tizimini qo'llab-quvvatlash<sup>3</sup>.

Nazariy-metodologik jihatdan asoslangan ushbu ustuvor yo'nalishlardagi mavjud holatining monitoringini olib borishning usullaridan biri sotsiologik tadqiqotlardir. Shu sababli keyingi yillarda jamoatchilik fikrining tizimli monitoringini ta'minlash hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida uning natijalaridan foydalanish, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlash yo'lida sotsiologik tadqiqotlar olib borish zarur ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o'z navbatida, sohaga oid davlat siyosatida ham aks etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22- fevraldagi "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoni e'lon qilindi<sup>4</sup>.

Ushbu Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda belgilangan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning ustuvor sohalarini ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etishga, xalqaro reytinglar indekslariga asoslangan tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu, o'z navbatida, jamiyat va davlat hayotiga oid masalalarni tizimli tahlil qilishda sotsiologik tadqiqotlarga tayanish zaruriyatini o'zida

<sup>3</sup> Кравченко С.А. Социология риска и безопасности. Учебник и практикум. – Москва: Изд-во «Юрайт», 2016. – 302 с.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 февральдаги "Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони .

ifodalagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham o‘z aksini topgan<sup>5</sup>.

Mazkur holat ijtimoiy muammolarni tadqiq etishda sotsiologiya fanini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilayotganidan dalolat berib, davlat va jamiyat boshqaruvida, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda, ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarni aniqlash hamda shu asosida davlat ijtimoiy xavfsizligiga oid masalalar yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda empirik tadqiqot natijalariga tayanish, xalq manfaatlari barcha narsadan ustun bo‘lgan hozirgi davrda yanada muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy xavfsizlik kesimida sotsiologik tadqiqotlarning o‘rnini yana quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Birinchi, ijtimoiy jarayonlar sotsiologik tadqiqotning obyekti bo‘lsa, ko‘p hollarda ijtimoiy xavfsizlik masalalari sotsiologik tadqiqotlarning predmeti bo‘lib keladi.

Ikkinchi, ijtimoiy sohada mavjud muammolarni aniqlash va tahlil qilish uchun zamonaviy sotsiologik tadqiqot usul va vositalarni qo‘llashga obyektiv ehtiyoj mavjud.

Uchinchi, ijtimoiy xavfsizlik sohalari bo‘yicha xalqaro reytinglarda sotsiologik tadqiqot natijalarining keng qo‘llangani sababli sohaning rivojlanishi davlatning ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida aholining turmush sifati, ijtimoiy kayfiyati, jamoatchilik fikrining sog‘lomlik holatini tadqiq etish islohotlarning samaradorligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida ko‘zlangan natijalarga erishishda ijtimoiy sohada aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, ularning bandligini ta‘minlash, real daromadlarini oshirish va xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, vijdon erkinligi, tolerant muhit, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, turizm, ilm-fan, aholini munosib uy-joy

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 25 февралдаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинглар ва индекслардаги ўрнини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4210 сонли қарори.

bilan ta‘minlash, kommunal xizmatlar sifati va qamrovini oshirish borasida ijtimoiy masalalarning natijador yechimiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borish bugunning dolzarb muammolari sifatida saqlanib qolmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatning ijtimoiy siyosatini rejalashtirish, olib borish va monitoring qilishda, shuningdek, uning samaradorligini baholashda, davlat boshqaruvida xalqning ishtirokini oshirishda sotsiologik tadqiqotlardan foydalanishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– sotsiologik tadqiqotlar ijtimoiy xavfsizlik holatini obyektiv ifoda etadi va o‘z navbatida, tadqiq etish obyektida xavfsizlikka ta‘sir etuvchi ijtimoiy muammoni xarakterlovchi voqelikni aks ettiradi;

– jamiyatdagi har qanday ijtimoiy qatlam va guruhlariga xos muammolarga ta‘sir qiluvchi omillar, ularning sabablari to‘g‘risidagi empirik ma‘lumotlarni bevosita sotsiologik tadqiqot obyekti va subyektni o‘rganish orqali olish mumkin;

– sotsiologik tadqiqot usullari turli xil bo‘lib, ular orqali olingan ma‘lumotlar nafaqat bir-birini to‘ldirib keladi, balki ijtimoiy haqiqatni ko‘rsatib bergani sababli ular orqali statistik ma‘lumotlarni tekshirish imkonini beradi;

– jamoatchilik fikrining tahlili ijtimoiy o‘zgarish tendensiyalarini kuzatish, baholash imkoniyatini beradi, shu sababli demokratik va fuqarolik jamiyatining belgisi sifatida sotsiologik tadqiqot asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar xalqaro ekspertlar va reyting agentliklari tomonidan ijobiy baholanadi.

Ijtimoiy xarakterdagi muammolarni sotsiologik tadqiqotlar orqali o‘rganish jarayoni tahlil qilinadigan bo‘lsa, uning kuchli tomonlari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

– ijtimoiy muammoning joriy holatini, uning ko‘zdan yashirin latent jihatlarini o‘rganish imkoniyati;

– amaliy-boshqaruv maqsadida o‘tkaziladigan tadqiqotlar xalqning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining bilvosita ko‘rinishi hisoblanadi;

– muammoning tashuvchisi bilan bevosita yoki bilvosita aloqa o‘rnatilishi muammoning yanada kuchayishining oldini olishga xizmat qiladi;

– sotsiologik tadqiqot muammoli vaziyatni monitoring qilish instrumenti vazifasini bajaradi;



– sotsiologik tadqiqot metodlari sotsiologik tashxis va prognoz qilish, shuningdek, samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish instrumenti hisoblanadi;

– ijtimoiy munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, empirik tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar ishlab chiqish muammoning barcha qirralaridagi ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi;

– statistik ma’lumotlarni qayta tekshirish imkoniyatini yaratadi.

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro tajribaga ko‘ra, ijtimoiy xavfsizlik muammolariga oid sotsiologik tadqiqotlar aholining turarjoy sharoiti, daromadi, mehnat (ish) faoliyati, ta’lim, ekologiya, salomatlik, madaniy hordiq va dam olish, fuqarolik holatiga oid masalalar, xavfsizlik, ijtimoiy aloqalar, shaxsning jamiyat va davlat faoliyatidan qoniqishi kabi yo‘nalishlarda olib boriladi (1-jadval).

*1-jadval*

**Xavfsizlik indikatorlarini baholashda foydalaniladigan sotsiologik tadqiqot metodlari**

№	Baholash indeks guruhi	Indeks ko‘rsatkichlari (Indikatorlar)	Aniqlash metodi
1.	Turarjoy sharoiti Turarjoyda asosiy kommunal qulayliklarning mavjudligi Uy-joyga ega bo‘lish imkoniyatining mavjudligi	Turarjoy sarf-xarajati	So‘rov
		So‘rov	
		So‘rov	
2.	Daromad Aholi daromadi Aholi xarajatlari	Oilaning moliyaviy farovonligi	So‘rov
		So‘rov + kontent tahlil	
		So‘rov	
3.	Mehnat (ish) faoliyati Shaxsiy oylik mehnat (ish) haqi Haq to‘lanmaydigan mehnat Bandlik darajasi (hudud bo‘yicha)	Mehnat (ish) faoliyati bilan ta‘minlanganlik	So‘rov + kontent tahlil
		So‘rov	
		So‘rov	
		So‘rov + kontent tahlil	
4.	Ta‘lim Davlat tomonidan ta‘lim uchun ajratiladigan xarajat Fuqarolar tomonidan ta‘lim uchun ajratiladigan xarajat Barcha uchun ta‘lim olish imkoniyatining mavjudligi Savodlilik darajasi	Ta‘lim darajasi (reyting asosida)	Bir qancha metodlar asosida
		Bir qancha metodlar asosida	
		So‘rov+kontent tahlil	
		Kontent tahlil	
		Kontent tahlil	
5.	Ekologiya Havoning ifloslanish darajasi Ekologik me‘yorlarga rioya qilish darajasi Ekologiyaning turmush sifatiga ta‘siri	Ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasi	Kontent tahlil
		Kontent tahlil	
		Kontent tahlil+So‘rov	
		So‘rov	

6.	Salomatlik Uzoq umr ko'rish darajasi Kasallanishlar: turlar bo'yicha Shaxsiy salomatlikning umumiy holatini baholash	Salomatlik holatiga baho berish	So'rov
		Kontent tahlil	
		Kontent tahlil	
		So'rov	
7.	Madaniy hordiq va dam olish Xodimlarning ishga bo'lgan munosabati Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish imkoniyati	O'z ustida ishlashga va dam olishga bag'ishlangan vaqt	So'rov
		So'rov	
		So'rov	
8.	Fuqarolik holatiga oid masalalar Fuqarolik jamiyatida aholining ishtiroki Ommaviy axborot vositalari	Saylovchilar faolligi	So'rov
		So'rov	
		So'rov + kontent tahlil	
9.	Xavfsizlik Shaxsiy xavfsizlikning mavjudligi Iqtisodiy xavfsizlikning darajasi	Mamlakatdagi jinoyatchilik darajasi	Kontent tahlil
		Bir qancha metodlar asosida	
		Bir qancha metodlar asosida	
10.	Ijtimoiy aloqalar Vijdon erkinligi va diniy e'tiqod Do'stlarning mavjudligi Ish faoliyatiga oid tanish-bilishlik Jamoatchilik ishonchi	Jamoatchilik ishlarida faolligi	So'rov
		So'rov	
		So'rov	
		So'rov	
		So'rov	
11.	Shaxsning jamiyat va davlat faoliyatidan qoniqishi Jamiyatda bo'layotgan jarayonlardan qoniqish darajasi Jamiyatda shaxsni qo'llab-quvvatlovchilar bilan munosabati	Shaxsning jamiyatda egallab turgan o'rniga baho berishi	So'rov
		So'rov	
		So'rov	

Yuqorida nomlari keltirilgan 11 ta indikator guruhidan xalqaro tadqiqotlarda, xalqaro reyting ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Sohada olib borilgan tahlil natijalari bugungi kunda respublikada ijtimoiy muammolarning samarali yechimi yuzasidan chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqishda keng qamrovli hamda sifatli sotsiologik tadqiqotlarning nisbatan kam o'tkazilayotgani sababli ishlab chiqilgan ba'zi chora-tadbirlarni amaliyotga joriy qilishda muammolar yuzaga kelmoqda.

Hozirda "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, O'zbekiston Yoshlar

ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasidagi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti, "Ma'naviyat markazi", Jamoatchilik palatasi hamda 20 dan ortiq konsalting firmalar tomonidan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib kelinmoqda.

Ushbu tashkilotlar o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq faoliyatida tahliliy sotsiologik tadqiqotlarni nisbatan kam olib boradi. Aksariyat tadqiqotlar tavsifiy xarakter kasb etgani sababli mamlakatdagi barcha ijtimoiy sohalardagi muammolar to'liq ilmiy jihatdan o'rganilmay qolib ketadi. Qolaversa, ular

faoliyatida sohadagi vaziyatni har tomonlama tahlil qilish hamda ilg'or milliy va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy-metodologik vositalardan foydalanishda yangi, zamonaviy tadqiqot amaliyoti asosida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish sifati va qamrovi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tadqiqotlar olib boruvchi tashkilotlar tomonidan jamiyat barqarorligiga va ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soluvchi masalalar yuzasidan keng qamrovli panel tadqiqotlar, tahliliy tadqiqotlar kam o'tkaziladi.

Respublika darajasidagi sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazishda xorijiy mamlakatlar tajribasida qo'llanayotgan "big data", "network research", "online so'rov" "semantik tahlil" kabi usullarni qo'llash yig'iladigan empirik ma'lumotlarning validligini, sifatini oshiradi. Bu, o'z navbatida, tadqiqot o'tkazuvchi kadrlarning malakasi, tajribasiga ham bog'liq bo'lib amaliyotda bunday xodimlar yetishmasligi kuzatilmoqda.

Shuningdek, yuqoridagi usullar yordamida pilotaj-sinov, dastlabki ma'lumotlarni to'plash hamda blits-tahlillar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilmaganligi o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, vaqt va xarajatlarni minimallashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Olib borilgan tahliliy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning tarkibiy shtat tuzilishida sotsiolog shtat birligining yo'qligi tadqiqotlar sifatiga salbiy ta'sir qilayotganini ko'rsatmoqda. Natijada tadqiqotlarni tashkil etish, asosan, ma'muriy imkoniyatlar va yollanma xodimlarni jalb qilish hisobiga amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, o'tkazilgan tadqiqotlar borasida soha mutaxassislarining ilmiy xulosalarini olish hamda sohaga oid oliy ta'lim muassasalarining kafedralari bilan hamkorlikning nisbatan kam rivojlanganligi ham tadqiqotlarning sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada respublikada o'tkazilgan barcha sotsiologik tadqiqotlar ham keng jamoatchilik tomonidan ijobiy qabul qilish darajasini, davlat va jamiyat boshqaruvida empirik tadqiqotlardan foydalanish darajasini kamaytirishi mumkin.

Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishda tajribali kadrlarning yetishmasligi hamda tadqiqot o'tkazish uslubiyatida farqlarning mavjudligi tufayli xalqaro reyting agentliklari tomonidan xususiy konsalting kompaniyalariga buyurtmalar berish yoki ular

ishtirokida **o'tkazilgan** tadqiqotdan va boshqa reyting ko'rsatkichlaridan foydalanish amaliyoti saqlanib qolmoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatda o'tkazilgan milliy sotsiologik tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oshmasligiga va xalqaro reyting agentliklari tomonidan indeksatsiya qilinmasligiga olib kelishi mumkin.

Xususan, nufuzli xalqaro reyting agentliklari tomonidan ishlab chiqiladigan xalqaro indekslar – Ijtimoiy rivojlanish indeksi, Inson kapitali indeksi, Keksalarning hayot sifati indeksi, Sotsial mobillik kabi indekslarda mamlakatimizning o'rni aks etmagan bo'lsa-da, Statistik imkoniyatlar indeksida 2018-yilda 125-o'rinni, Aholining fikrini inobatga olish va hisobdorlik indeksida 182-o'rinda qayd etilgan. Bundan tashqari, ekspertlar tomonidan ta'lim va daromadga oid indekslarda mavjud ko'rsatkichlar mamlakatimiz imkoniyatlaridan past holatda qayd etilishiga olib kelgani ta'kidlanmoqda.

**Xulosa.** Tahlillar ijtimoiy xavfsizlik borasidagi xalqaro reytinglarni shakllantiradigan ma'lumotlarning aksariyat manbalari sotsiologik tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida yuzaga kelgan tahliliy ko'rsatkichlar asosida olinayotganini ko'rsatmoqda. Jamiyat ijtimoiy barqarorligi kesimida **o'tkazilayotgan** tadqiqotlar mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsata olmayotganligiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

**birinchidan**, xorijda qabul qilingan tadqiqot metodologiyasi va milliy tadqiqotlarda aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasining kafolatlanishi borasida farqlarning mavjudligi, shuningdek, tadqiqot natijalari xorij tillarida taqdim etilmasligi;

**ikkinchidan**, tadqiqotlarga mustaqil ilmiy tadqiqot institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), jamoat birlashmalari va ilmiy darajali kadrlar jalb qilinish darajasining pastligi;

**uchinchidan**, ijtimoiy sohaga oid tadqiqotlarni moliyalashtirish aksariyat holatlarda davlat byudjeti va jamoat fondlari hisobidan amalga oshirilgani sababli ularning ish rejasi, smeta xarajatlari mos ravishda yil boshida tasdiqlanadi va yil davomida ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalar asosida yuzaga kelgan boshqa dolzarb masalalar bo'yicha nisbatan kam tadqiqotlar o'tkazilishi;

**to'rtinchidan**, tadqiqotlarda sotsial modellashtirish, sotsial loyihalashtirish, sotsial

ekspertiza, sotsial xaritalashtirish metodlaridan samarali foydalanilmasligi.

Yuqoridagi sabablar tufayli xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekistondagi ijtimoiy masalalar yuzasidan tadqiqot o'tkazish zaruriyati tug'alganda, marketing va sotsiologik tadqiqotlarini olib boruvchi konsalting firmalariga murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda. Mazkur holat, o'z navbatida, quyidagi holatlarni yuzaga keltirmoqda:

– o'tkazilishi lozim bo'lgan sotsiologik tadqiqot dasturi hamda so'rovnomalar savollari ma'lum manfaatli axborotlarni to'plashga qaratilishi (savollar va javob variantlarida ijobiy va salbiy variantlar o'rtasidagi muvozanat buzilishi);

– tadqiqotda ishtirok etuvchi respondentlarni saralashda representativlikni ta'minlash

mezonlariga to'liq rioya qilinmasligi (respondentlar va hudud xususiyatlarining balansi, tadqiqot representativligining ta'minlanmasligi);

– tadqiqotlarga NNT va tijoriy konsalting firmalarida sotsiologik soha vakillari, ilmiy mutaxassislarning nisbatan kam jalb qilinishi.

Umuman olganda, ijtimoiy xavfsizlik masalalarini sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganish mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni bartaraf qilish uchun chor-tadbirlar ishlab chiqishda, muammoli holat yuzasidan tendensiyalar va omillarni baholashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni belgilab beruvchi reytinglardagi mavqeyini oshirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 17 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси, 2020 йил.
3. Кравченко С.А. Социология риска и безопасности. Учебник и практикум. – Москва: Изд-во «Юрайт», 2016. – 302 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 февральдаги “Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 25 февральдаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинглар ва индекслардаги ўрнини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4210 сон қарори.
6. David Croteau, William Hoynes Experience sociology, Third edition. New York, McGraw-Hill Education, 2018. – 468 p.
7. John Macionis Sociology Sixteenth edition. USA, Pearson, Kenyon College, 2017. – 674 p.



**Farxodova Ziyoda,**  
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
 instituti tayanch doktoranti*

## GENDER MUNOSABATLARGA SOTSIOLOGIK YONDASHUV

**Annotatsiya.** Sotsiologiyada keng muhokamalarga sabab bo'layotgan tushunchalardan biri – gender xorijiy davlatlarda ancha chuqur o'rganilgan. Shu bilan birga, madaniy omillar ta'siri ostida gender munosabatlarning o'ziga xosligi gender tushunchasining turlicha talqin qilinishga sabab bo'lmoqda. Bunga ijtimoiy fanlarda ushbu tushunchani izohlashda maskulinlik va feminlik tushunchalariga yagona munosabatning shakllanmaganligi ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu xususiyatlarga ko'ra, o'zbek jamiyatida ham “gender” tushunchasi o'ziga xos ahamiyat kasb etib, maqolada ushbu xususiyatlar zamonaviy sotsiologiyadagi yondashuvlar yordamida tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** gender, jins, jinsiy, maskulinlik, feminlik, erkak, ayol, ijtimoiy munosabatlar, gender munosabatlar

**Аннотация.** Одно из понятий, вызывающее широкие дискуссии в социологии, - гендер, глубоко изученный зарубежными странами. В то же время специфика гендерных отношений под влиянием культурных факторов обуславливает различные трактовки понятия гендера. На это влияет и тот факт, что в трактовке этого понятия в социальных науках не сформировалось единого отношения к понятиям маскулинности и феминности. По этим признакам понятие «гендер» приобрело собственное значение в узбекском обществе, и эти особенности анализируются в статье с использованием подходов современной социологии.

**Ключевые слова:** гендер, пол, сексуальность, маскулинность, феминность, мужчина, женщина, социальные отношения, гендерные отношения.

**Annotation.** One of the concepts that causes wide discussions in sociology - gender, has been comprehensively studied in foreign countries. At the same time, the specificity of gender relations under the influence of cultural factors leads to different interpretations of the concept of gender. This is also influenced by the fact that in the interpretation of this concept in the social sciences, a unified attitude towards the concepts of masculinity and femininity has not been formed. On these grounds, the concept of «gender» has acquired its own meaning in Uzbek society, and these features are analyzed in the article using the approaches of modern sociology.

**Keywords:** gender, sex, sexuality, masculinity, femininity, male, female, social relations, gender relations.

**Kirish.** Sotsiologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri katta guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, ularning paydo bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Jamiyatda katta ijtimoiy guruhlar turlari juda ko'p bo'lib, shulardan biri jinsiy guruhlardir. Ya'ni tabiatan insonlar erkak va ayol bo'lib tug'iladilar, erkaklar va ayollar guruhlariga

bo'linadilar. Ular o'rtasidagi munosabatlar insoniyat avlodining davom etishini belgilovchi muhim munosabatlar tizimi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda jinslararo munosabatlarning turli o'ziga xosliklari ham aniqlanib bormoqdaki, bu xususiyatlar jinslararo munosabatlarning tom ma'nodagi tabiiy asoslanishdan ham kengroq



asoslanishlarni talab etmoqda. Ushbu o'ziga xosliklarni e'tiborga olgan holda, mutaxassislar ko'proq jinslararo munosabatlarni nazarda tutuvchi tabiiylikdan farqlanuvchi va ijtimoiylik bilan belgilanadigan "gender" tushunchasidan ko'proq foydalanishni tavsiya etmoqdalar [1].

**Asosiy qism.** "Erkak" va "ayol" atamaları jinslarning biologik nuqtayi nazardan farqlanishlarini anglatadi. Fanda yana ikki bir-biriga o'xshamagan jinsga mansublikni anglatuvchi masculinity va femininity (lot. masculinus – erkak va femininus – ayol so'zlaridan olingan) tushunchalari ham qo'llanadi. Shunday qilib, ikkita tabiiy jins – erkak va ayol hamda ikkita gender farqlanish – maskulinlik va femininlik qo'llanadi. Ikki jinsga biologik bo'linish natijasida yuzaga keladigan xulq-atvor barcha jamiyatlarda va barcha davrlarda bir xil tushuniladigan universal xususiyatdir. Bundan farq qilib, erkak yoki ayol turiga mansubligimiz bilan belgilanadigan maskulinlik va femininlik xatti-harakatlar juda turli jamiyatlarda turli o'ziga xosliklarga ega bo'ladi. Erkaklikka xoslik madaniy muhit tomonidan belgilanadi va munosabatlardagi tashabbuskorlik, tajovuzkorlik, hukmronlik, sarguzasht, avtoritarizm, yetakchilikka intilish, fikrlar va harakatlarda ratsionallik, xulq-atvorda yakkaboshchilik, muloqotda monologga intilish, o'zining "Men"iga urg'u berish, egotsentrizm va xudbinlik erkaklarga xos deb qaraladi. Ayollar tomonidan shunga o'xshash fazilatlarini namoyon qilish ko'proq tanqidiy bahoga va hatto tegishli madaniy stereotiplar ta'siri ostida bo'lgan boshqalarning salbiy reaksiyasiga sabab bo'ladi. Ayol xulq-atvoriga xos xususiyatlar sifatida esa ko'pincha muloyimlik, rahm-shafqat, g'amxo'rlik, mas'uliyat, zo'ravonlik qilmaslik, bag'rikenglik, ezgulikka intilish, hissiyotga beriluvchanlik, muloqotchanlik, kelishuvchanlik, murosaga kelish, tenglik, adolat va erkinlik qadriyatlarini qo'llab-quvvatlanadi [2].

Maskulinlik va femininlik o'rtasidagi farqlanishlar insoniyatni anchadan buyon jiddiy qiziqtirib keladi. Shu bilan birga, ko'plab madaniyatlarda "erkaklik" tarixan qat'iyatlilik, kuchlilik va oqillik bilan, "ayollik" esa yumshoqlik, tartibsizlik va hissiyotlilik bilan aynanlashtiriladi. Keyinchalik Karl Gustav Yung afsonalar va madaniyatdagi jamoaviy ongsizlikning namoyon bo'lishini o'rganib, dastlabki erkak va ayolning

arxetipik tasviri – Animus va Animani ajratib ko'rsatdi. Yung Animus obrazini qat'iyatlilik, keskinlik va tashqariga yo'nalgan faollik bilan, Animani esa kayfiyatning o'zgaruvchanligi, hissiyotlilik va o'ziga yo'nalgan faollik bilan bog'lab ifodalagan. Qizig'i shundaki, psixolog ikkala obraz ham har bir insonda, uning jinsi va jinsiy mo'ljalidan qat'iy nazar, har xil nisbatda mavjud deb hisoblagan [3].

1955-yilda seksolog Jon Mani tom ma'nodagi seksuallik va reproduktivlikni jinsning umumiy o'ziga xosliklaridan ajratib olish uchun ruhiyat, xulq-atvor va o'zini o'zi anglashning jins bilan bog'liq xususiyatlarini "gender rol" ("gender role") tushunchasi bilan ifodalagan edi [4]. Mani nafaqat yangi atama yaratdi, balki uni darhol maskulinlik va femininlik qarama-qarshiligidan tashqariga olib chiqdi. Mani talqinida "gender" tushunchasi jismoniy va xulq-atvor xususiyatlaridan tortib o'zini o'zi anglash va ijtimoiy rolgacha bo'lgan ko'plab xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Keyinroq AQSHlik psixoanalitik Robert Stoller gender tushunchasining o'ziga xosligidan kelib chiqib, tabiiy fanlardan ko'ra ko'proq psixologiya va sotsiologiyaga taalluqli ekanligi haqida aytib o'tadi [5].

O'sha davrlarda bu g'oya ko'pchilikning e'tiborini tortmagan, biroq 1970-yillarda feminizmning ikkinchi to'liqini boshlanganda, "gender" atamasini ayollar huquqlari himoyachilari ko'tarib chiqdilar. Ularning asarlarida bunga ko'proq stereotiplar va ijtimoiy rollar taqsimotida ayollarning o'rmini tahlil qilishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy munosabatlarning barcha jihatlari, hatto bunga erkak va ayol tadqiqotchilar yondashuvlaridagi uslubiy farqlanishlarga o'rganildi. Keyin navbat erkaklarga keldi va endi maskulinlikning o'ziga xos jihatlari yoritildi. Xususan, erkaklarning gender rollarining qat'iy chegaralari kengaytirilishiga erishildi.

Endilikda "gender" so'zi, birinchi navbatda, insonning jamiyatdagi xatti-harakati va bu xulq-atvor qanday idrok etilishini belgilovchi ijtimoiy-psixologik jinsga taalluqlidir. Bugungi kunda gender tadqiqotlari insonning o'zini erkak, ayol yoki ikkalasining aralashmasi sifatida his qilishi nimaga bog'liq – biologik asoslarga, madaniyat xususiyatlarigami yoki jamiyat talablarigami ekanligini aniqlashga qartilmoqda. Inson "erkak" yoki "ayol" xulq-atvori mezonlariga faqat jinsiy

a'zolarining xususiyatlariga qarab amal qilishi kerakmi? “Erkak” va “ayol” xulq-atvorining mazmuni nimadan iborat?

Bu savollarga yagona yondashuv bilan javob topilgani yo'q, lekin bir qator gender xususiyatlar faqat madaniyat bilan belgilanadi, masalan, bolalar kiyimlarining ranglari. XX asrning boshlarida pushti rang yorqin bo'lganligi sababli erkaklar rangi deb qaralgan va moviy rang nozik bo'lganligi uchun ayollar rangi hisoblangan. Yondashuv faqat o'ttizinchi yillarning oxirida o'zgardi. Ikkinchi tomondan esa tadqiqotlar erkak va ayol miyalari o'rtasida tabiiy farqlanishlar mavjudligini tasdiqlamoqda, garchi ayrimlar bu farqlar tug'ma emas, balki orttirilgan ekanligini isbotlashga harakat qilayotgan bo'lsalarda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, so'nggi ikki asrda gender tushunchasi juda o'zgardi: dastlabki jinslar dixotomiyasi va u bilan bog'liq patriarxal yondashuvlar keyinchalik Yevropa sivilizatsiyasi tomonidan mutlaq, jumladan, jinslarning ham tengligi haqidagi g'oyaga o'zgardi, keyin esa gender xususiyatlarini yanada nozikroq tushunish, ya'ni genderning, albatta, jinsga bog'liq bo'lishi shart emasligi haqidagi qarashlar paydo bo'ldi. So'nggi paytlarda rivojlangan davlatlarda gender rollarini idrok etishda yanada sezilarli o'zgarishlar yuz berdi: noan'anaviy jinsiy mo'ljallar qonuniylashtirilmogda,

erkaklar va ayollar o'zlarining ichki Animuslari va Animalari ustida hayiqmay tajribalar o'tkazmoqdalar. Ushbu jarayonning eng radikal ko'rinishi sifatida postgender harakati paydo bo'lmoqda, uning tarafdorlari biotexnologiya yordamida jinslar o'rtasidagi chegaralarni ixtiyoriy ravishda yo'q qilishni yoqlamoqdalar. Postgenderistlarning fikricha, psixologik va jismoniy tafovutlar hamda gender rollarining mavjudligi jamiyatdagi ziddiyatlarni kuchaytiradi va agar zamonaviy texnologiyalar sun'iy ko'payish muammosini hal qila olsa, u holda gender va gender farqlash zarurati o'z-o'zidan yo'qoladi [6].

Sotsiologiyada jamiyatdagi katta ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiyot, madaniyat, hokimiyat va boshqa ijtimoiy qiymatga ega resurslar borasidagi munosabatlari “gender munosabatlar” deb qaraladi. Gender munosabatlari madaniyat, jamiyat qurilmasi, davlat institutlari, qaror qabul qilish usullari va fikrlash uslublarini to'liq qamrab oladi. Ular tilda, urf-odatda, san'atda, ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrda gender munosabatlari siyosiy lashib, feminizm doirasida ko'rib chiqila boshlandi. Gender munosabatlarining zamonaviy konsepsiyasi ta'sir qilmagan biron-bir ijtimoiy fan sohasi qolmadi. Ushbu davrga kelib, feminizm post-feminizm bilan almashdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бурдые П. Мужское господство / Бурдые П. Социальное пространство. Поля и практики., – СПб, 2005 г.; Силласте Г.Г. Гендерная соц-я: состояние, противоречия, перспективы // Социол. иссл-я. 2004. № 9;
2. Чикалова И. Р., Янчук Е. И. Гендер // Социология: энцикл. / сост. А. А. Грицанов и др. Минск, 2003. – С. 209–210.
3. Юнг К.Г. Архетипы и коллективное бессознательное. – Москва: Изд-во АСТ, 2020. – С.224.
4. Goldie T. The Man Who Invented Gender: Engaging the Ideas of John Money. — Vancouver: University of British Columbia Press[en], 2014.
5. Роберт Дж. Столлер. Перверсия: эротическая форма ненависти. – Москва: ERGO, 2016. – С.220.
6. Dvorsky, George, James Hughes, and C. T. Hartford. Postgenderism: Beyond the Gender Binary. — Hartford, CT: Institute for Ethics and Emerging Technologies, 2008. — 18 p. — (IEET Monograph Series).



Nurmatova Nargiza Ulug'bekovna,  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
instituti tayanch doktoranti  
[n.nurmatova2005@gmail.com](mailto:n.nurmatova2005@gmail.com)

## IJTIMOIYLASHUV, FAOLLIK VA IJTIMOYIY FAOLLIK TUSHUNCHASI PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR KONTEKSTIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiylashuv, faollik, faoliyat, ijtimoiy faollik tushunchalari tahlil etilgan. O'zbek pedagog, psixolog va faylasuflarining ijtimoiy faollik borasidagi fikrlari o'rganilgan. O'quvchi-qizlarda ijtimoiy faollikning namoyon bo'lish shakllari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiylashuv, faollik, ijtimoiy faollik, o'quvchi, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy yondashuv, liderlik, maqsadlilik, harakatchanlik, muloqotga kirishuvchanlik.

**Аннотация.** В статье анализируются понятия социализации, деятельности, активности, социальной активности. Изучены идеи узбекских педагогов, психологов и философов относительно социальной деятельности. Проанализированы формы проявления социальной активности школьниц.

**Ключевые слова:** социализация, активность, социальная активность, воспитанник, социальное воспитание, социальный подход, лидерство, целеустремленность, мобильность, доступность к общению.

**Annotation.** Concepts of socialization, activity, activity, social activity are analyzed in this article. The opinions of Uzbek pedagogues, psychologists and philosophers regarding social activity were studied. Forms of manifestation of social activity in schoolgirls were analyzed.

**Keywords:** socialization, activity, social activity, pupil, social education, social approach, leadership, purposefulness, mobility, accessibility to communication.

**Kirish.** Rivojlanib borayotgan bugungi kunda ijtimoiy hayotning tobora axborotlashib borishi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashishi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi, ijtimoiy faollikni tarbiyalab borishni taqozo etmoqda. “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmonining 69-maqsvadi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat

hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash<sup>1</sup>”dan iborat bo'lib, ushbu maqsadda xotin-qizlarni har qanday kamsitilishlardan himoya qilish, gender tengligini amalga oshirishni davom ettirish, ijtimoiy faolligini rivojlantirish, xotin-qizlarning kasb-hunarli bo'lishiga yordam berish hamda ularga moddiy va ma'naviy ko'mak berish nazarda tutilgan.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони.

**Asosiy qism.** Ijtimoiylashuv – bu keng ko‘lamli ijtimoiy munosabatlarga moslashish jarayoni, mazkur jarayonda faol ishtirok etishga tayyorgarlik hisoblanadi.

Shu o‘rinda o‘quvchi, faollik va ijtimoiy faollik tushunchalariga ta‘rif beradigan bo‘lsak:

**O‘quvchi** – umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda ta‘lim oluvchi shaxs<sup>2</sup>.

**Ijtimoiylashuv** (lot. socialis – ommaviy) biror-bir voqea hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko‘pchilikka daxldor bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar majmuasiga aylanib borishidir.

Shaxsni ijtimoiylashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishning ontogenetik, filogenetik yondashuvlarni inobatga olish zarur: a) ijtimoiy-tarixiy jarayon subyektlarini shakllantiradi; b) madaniyat va sivilizatsiya traqqiyotida vorisiylik ta‘minlanadi; d) shaxsni ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali jamiyatning bir maromda taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Falsafa qomusiy lug‘atlarida ijtimoiylashtirish tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: ijtimoiylashish insonning madaniyat, kommunikatsiya ta‘siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashish tushunchasi esa jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir<sup>3</sup>. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘quvchi-qizlar jamiyatda barkamol yashashi, ijtimoiylashishiga yordam berish lozim. Ular qanchalik muvaffaqiyatli ijtimoiylashsa, u ijtimoiy muhit bilan shunchalik uyg‘un munosabatda bo‘ladi. O‘quvchi-qizlarning ijtimoiylashuv jarayoni qanchalik faol va mazmunli bo‘lsa, ular jamiyatda yashash hamda rivojlanishga qodir bo‘lgan hayotiy shaxsga aylanadi.

Sotsiologlar jamiyatda ijtimoiy faollikning eng asosiy mezonini sifatida mehnat faolligi olinganligini ta‘kidlab o‘tadilar<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Педагогика энциклопедияси III жилд. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 382 б.

<sup>3</sup> Фалсафа қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров) – Тошкент: Шарқ, 2004. –173-174 б.

<sup>4</sup> Норбоев Т. Ёшлик – фаоллик. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1977. – 5 б.

Ijtimoiylashuv ma‘lum bir kishining ijtimoiy rivojlanishi, shakllanishi, o‘zligini anglashi va namoyon qilishi sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda shaxsning istiqomat qilayotgan hududlari, tabiatiga o‘zaro munosabatini alohida xususiyatlarni inobatga olgan holda unga moslashishiga qarab, shaxsning ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishini anglatadi.

**Ijtimoiy tarbiya** – shaxs ong-u tafakkuri, ma‘naviy ma‘rifiy olamini jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg‘un hamda hamohang ravishda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga da‘vat qiladigan barcha ezgu ta‘sir hamda omillar majmuyi. Ijtimoiy tarbiya ta‘sirining aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan, oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tarbiyasi, mehnat jamosi tarbiyasi, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarbiya institutlarini qamrab olgan murakkab manaviy-ma‘rifiy jarayondir<sup>5</sup>.

**Faoliyat** inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish, takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir<sup>6</sup>. Psixologiya kitoblarida esa *faoliyat* tushunchasiga shunday ta‘rif beriladi: “Faollik negizida paydo bo‘luvchi yangicha sifatni, o‘ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko‘rinishi, insongagina taalluqliligi tufayli u psixologiya fanida faoliyat deb yuritiladi<sup>7</sup>”. Pedagogik lug‘atlarda esa faoliyat tushunchasi “muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ish, harakat, mashg‘ulot<sup>8</sup>” sifatida talqin qilinadi.

**Faollik** shaxsning integrativ xususiyati bo‘lib, motivatsiya asosida yuz beradigan faoliyatning maqsadlarini erkin belgilashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, shart-sharoit o‘rganilgan taqdirda, o‘z faoliyatiga tegishli o‘zgarishlar kiritish layoqatini nazarda tutadi. Mazkur sifat mavjud vaziyatda chetga chiqish mumkin bo‘lgan maqsadlarni

<sup>5</sup> Педагогика энциклопедияси III жилд. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 53-54-58 б.

<sup>6</sup> Xalimova M.V., Qodirova O.Dj., Nuriddinov R.N. Psixologik atamalar izohli lug‘ati. – Andijon, 2017. – B. 24.

<sup>7</sup> G‘oziyev E.G‘., Psixologiya. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 51.

<sup>8</sup> Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2008. – Б. 135.



belgilashga konstruktiv va tanqidiy yondashishni ham ifodalaydi<sup>9</sup>. Ushbu atamaga “Pedagogik atamalar lug‘ati”da esa “*ishchanlik*” deb ta’rif beriladi. Faollik atamasi har xil fanlarning turli yo‘nalishlarida turli ma’nalarda keng qo‘llanadi. Bugungi kunda ushbu tushunchaning shakllari juda ko‘p tarqalgan. Jumladan, faol fuqaro, faol hayot tarzi, faol o‘qish va o‘rganish, faol ishlatiladigan so‘zlar, faol yoshlar, faol rivojlanish. Ushbu atama shunchalar katta ma’no va mazmunga egaki, faol so‘zini qo‘llashda biz har bir yo‘nalishda, sohalarida bemalol ma’nosiga qarab qo‘llashimiz mumkin.

Ijtimoiy faollik tushunchasiga “Pedagogik ensiklopediya”da shunday ta’rif beriladi: 1) ijtimoiy subyektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha; 2) subyektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma’lum ijtimoiy-ma’naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakatdir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishning asosiy sharti hisoblanadi<sup>10</sup>.

Ijtimoiy faollikning asosi ijtimoiy faol insonni shakllantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta’limning g‘oyalari va qadriyatlarini aks ettirishi, yetakchilik fazilatlarini va qobiliyatlarini shakllantirish jarayonlarini, ularni hayot amaliyotida qo‘llash qobiliyatini, uning asosiy subyektlarining mo‘ljallangan faoliyatni amalga oshirish uchun o‘zaro ta’sirining xususiyatlarini hisobga olish bilan belgilanadi. Shuningdek, pedagogik lug‘atlarda *o‘quvchi-faollar* tushunchasi ham keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga shunday ta’rif beriladi: “bolalar uyi yoki maktab-internatlarida o‘z tartib intizomi va jamoat ishlaridagi faolligi bilan ajralib turuvchi o‘quvchilar guruhi<sup>11</sup>”.

M.Q.Raxmonova o‘zining “Oliy ta’lim muas-sasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish”

<sup>9</sup> Оила энциклопедияси. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyati, 2019. – B.157.

<sup>10</sup> Педагогик энциклопедия. 2-жилд/Тузувчилар жамоаси. – Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2015, –Б. 368.

<sup>11</sup> Педагогик атамалар луғати. –Тошкент: “Фан” нашриёти, 2008. – 61-б.

nomli dissertatsiyasida ijtimoiy faollik tushunchasiga shunday ta’rif beradi: “Ijtimoiy faollik shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushunchadir. Ijtimoiy faollik me’yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi, albatta, ta’lim va tarbiya jarayonida shakllanib boradi”.

Ijtimoiy faollik tushunchasini tahlil qilish jarayonida bir qancha yondashuvlar o‘rganildi. Jumladan, *ijtimoiy yondashuv* asosida ijtimoiy faollik ijtimoiy munosabatlar, funksiyalar, me’yorlar va rollar, shaxsning subyektligi, faoliyati, ijtimoiy moslashuv jarayoni, mustaqil ijtimoiy subyektlar bilan bo‘lgan ijtimoiy jamoalarning paydo bo‘lishi va ayni paytda shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish vositalari bilan bog‘liq.

*Psixologik yondashuv* ijtimoiy faollikning motivatsiyasi (munosabatlar, qadriyatlar, ehtiyojlar, hayotiy ma’no), shaxsning subyektiv xususiyatlari, faoliyati, ijtimoiy moslashuv va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari bilan bog‘liqligiga urg‘u beradi.

*Pedagogik yondashuv* doirasida ijtimoiy faollik ta’lim nuqtayi nazaridan yondashadi, jumladan, ijtimoiy, sotsializmning muvaffaqiyati, ijtimoiy muhitning roli, shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ichki va tashqi omillar o‘zaro bog‘liq.

*Ijtimoiy-pedagogik yondashuv* doirasida shaxsning ijtimoiy faolligi va shakllanish jarayoni sotsializm mexanizmlari, uning tuzilishi, dinamikasi, bu jarayonda faol shaxsning pozitsiyasini tahlil qilish, har bir yosh uchun yetakchi faoliyat va ijtimoiy ta’limning roli orqali ko‘rib chiqiladi.

H.X.Hamzayev o‘zining “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish” nomli ilmiy ishida ijtimoiy faollikning darajasini belgilovchi mezonlar qatoriga ma’naviy aqliy bilish, maqsad qo‘ya olish, tushunchalarni anglay olish, bilimlilik, kasbiy mahoratlilik, ma’naviyatlilik, o‘z qarashlariga egalik, munosabatlarga kirisha olish, baholovchilik,



ijtimoiy hayotda faoliyat olib borishga tayyorlik kabilarni kiritib o'tgan<sup>12</sup>.

X.M.Tojiboyeva o'z tadqiqotlarida o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimini tahlil etgan. Shuningdek, pedagog olima o'z tadqiqotlari davomida o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar, ularga ta'sir etadigan omillar borasida ma'lumotlar berib o'tgan. X.M.Tojiboyeva ijtimoiy faollikka shunday ta'rif berib o'tgan: "Ijtimoiy faollik shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha"<sup>13</sup>.

Ijtimoiy faollik me'yor va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. Bu jihatdan ijtimoiy faollikni uch tomondan baholash mumkin: faoliyatning subyekt tomonidan shaxsning turli ishlarda qatnashish va maqsadga erishish uchun yuksak darajada faollik ko'rsatishga tayyorligi. "Ijtimoiy faollik" shaxsning alohida tizimiy sifati bo'lib, u insonda birdaniga paydo bo'lib, shakllanmaydi, balki bir umr kamol topishining mahsuli hisoblanadi.

M.Maxmudova o'zining tadqiqotlari davomida "Kichik yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash" muammosini o'rgangan. U o'z tadqiqotlari davomida faollikning ilk ko'rinishlarini, bolalarning ijtimoiylashishi, kattalar bilan munosabatlarini o'rganib, shunday xulosaga keladi: "Bola faolliksiz hech narsani bila olmaydi. Shuning uchun uning faolligi maktabda dastlabki paytlardanoq ijtimoiy tus olishi juda muhimdir. Shunday qilib, ijtimoiy faollikning shakllanishi shaxsning tarbiyalanishida, uning jamiyat talablariga xos xususiyatlar va fazilatlarining shakllanishida muhim o'rin tutadi"<sup>14</sup>.

Ijtimoiy faollikni tarbiyalash bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo'nalganligini aniqlovchi

<sup>12</sup> Хамзаев Х.Х. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини ўқувчиларда ижтимоий фаоллик кўникмаларини шакллантиришга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Нукус, 2019. – Б. 27.

<sup>13</sup> Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик тизими. Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Тошкент, 2018. – Б. 16.

<sup>14</sup> Махмудова М. Кичик ёшдаги ўқувчиларда ижтимоий фаолликни тарбиялаш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзПФТИ, 1994. – Б. 14-15.

motivlarning shakllanishi hamdir. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqaroviylik va fuqaroviy ongni o'rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o'rganishdan iborat. Zero, fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero, ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi.

O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi darajasining pasayishi shaxsning degradatsiya (bu obyekt yoki hodisaning xususiyatlarini vaqt o'tishi bilan yomonlashuvi, tabiat va vaqt qonunlariga muvofiq tashqi ta'sir tufayli materiyaning asta-sekin yomonlashishi, pasayishi, yo'q qilinishi) sini keltirib chiqaradi va umuman jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ularning ijtimoiy faolligining pasayishi demokratiya uchun haqiqiy tahdid, chunki keyingi avlodlar tegishli ijtimoiy amaliyotlarda tobora kamroq ishtirok etadilar. Shu bilan birga, qizlarimizni bir tomondan, eng moslashuvchan, boshqa tomondan, jamiyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishni ta'minlashga qodir bo'lgan jamiyatning tashabbuskor va innovatsion qismi sifatida qarash mumkin (1-jadval).

*1-jadval*

**Yurtimiz pedagoglarining ijtimoiy faollik tavsifiga oid berilgan ilmiy xulosalarining qisqacha tahlili**

№	Mualliflar	Ijtimoiy faollikka berilgan ta'rif
1	Pedagogik ensiklopediya	Ijtimoiy faollik – ijtimoiy subyektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha.

2	I.Ergashev	Ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushunchadir. Ijtimoiy faollik meyoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir.
3	M.Maxmudova	Ijtimoiy faollikning shakllanishi shaxsning tarbiyalanishida, uning jamiyat talablariga xos xususiyatlar va fazilatlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.
4	U.Q.Maqsudov	O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi hamda faol fuqarolik kompetensiyasi o‘quvchilarda ham, o‘qituvchilarda ham ijtimoiy faollik ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi.
5	N.M.Latipova, B.R.Ismailov	“Ijtimoiy faollik”ni shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko‘rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faollikka intilib yashashning o‘zi g‘oya hisoblanadi*.
6	Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich	Ijtimoiy faollik insonning ajralmas bir bo‘lagi, undagi jamiki subyektiv ijtimoiy xususiyatlari, ijtimoiy oqibati va asosidir.

\* Latipova N.M., Ismailov B.R. *Ijtimoiy faollikning psixologik tavsifi. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 64-b.* <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-faollikning-psixologik-tavsifi>

Ijtimoiy faollikning asosiy xususiyatlari:  
1) ijtimoiy faollik subyektning ongli, mustaqil faoliyatida ifodalanadi; 2) subyektning ehtiyojlari uning ijtimoiy faoliyatining ichki manbayi; 3) ijtimoiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyati; 4) ijtimoiy faoliyat subyektini nafaqat alohida shaxslar, balki

ijtimoiy guruhlar va butun jamiyat bo‘lishi mumkin; 5) ijtimoiy faollik subyektning tizimli va yaxlit xususiyatidir.

F.Y.Abduraximova “Mahallada qizlarni sog‘lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan hamda o‘zining tadqiqotlarida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi faolligini ta‘minlash, qizlarni sog‘lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslarini hamda mahallalarda qizlarning reproduktiv salomatligini mustahkamlashning usul va yo‘llarini ko‘rsatib o‘tgan. Shuningdek, mahallalarda qizlarni sog‘lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlash tizimini ham yoritib bergan<sup>15</sup>.

Fikrimizcha, o‘quvchi qizlarning ijtimoiy faolligi jamoada, guruhda, norasmiy birlashmada muloqot qilish va harakat qilish, boshqalar bilan samarali munosabatda bo‘lish, tengdoshlari, oilaning katta va kichik a‘zolari, mahallalar oldidagi muayyan majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda faol bajarishlari, o‘zlarini rivojlantirish, faollashtirishga qaratilgan ongli va tizimli faoliyatidir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi, eng avvalo, boy va serqirra umumiy madaniyatga, yuqori darajada faollikka ega bo‘lishi, o‘z qobiliyatlarini ongli ravishda qo‘llay olishidir. Ijtimoiy faollikning ko‘rinishlari juda xilma-xildir. Bular ixtirolar va ratsionalizatsiya, tadbirlarda, hasharlarda, volontyorlik harakatlarida o‘zini ko‘rsatishi hamda amaliy maslahat va ma‘naviy yordam, eng yaqin jamiyatni o‘zgartirishga qaratilgan harakatlardir. Ijtimoiy faollikning namoyon bo‘lish shakllari boy bo‘lib, lekin o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda oila, mahalla va maktabning hamkorligi muammosi to‘liq o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan “ijtimoiy faollik” tushunchasini ta‘riflashga konseptual yondashuvni ishlab chiqish muammosi, shuningdek, o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammosini o‘rganish va tahlil qilish bugungi kun talabi hisoblanadi.

<sup>15</sup> Абдурахимова Ф.Ю., Махаллада қизларни соғлом турмуш тарзи асосида оилага тайёрлашнинг педагогик асослар: Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Тошкент, 2007. – Б. 2-9.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони.
2. G'oziyev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 51.
3. Latipova N.M., Ismailov B.R. Ijtimoiy faollikning psixologik tavsifi. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 64-b. <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-faollikning-psixologik-tavsifi>
4. Xalimova M.V, Qodirova O.Dj., Nuriddinov R.N. Psixologik atamalar izohli lug'ati. – Toshkent: Andijon, – 2017. – B. 24.
5. Абдурахимова Ф.Ю., Маҳаллада қизларни соғлом турмуш тарзи асосида оилага тайёрлашнинг педагогик асослар: Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Тошкент, 2007. – Б. 2-9.
6. Махмудова М. Кичик ёшдаги ўқувчиларда ижтимоий фаолликни тарбиялаш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзПФТИ, 1994. – Б. 14-15.
7. Норбоев Т. Ёшлик – фаоллик. –Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1977. – Б. 5.
8. Оила энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2019. – Б. 157.
9. Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2008. – Б. 135.
10. Педагогик энциклопедия. II-жилд/Тузувчилар жамоаси. –2015. – Б. 368. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.
11. Педагогика энциклопедияси III-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2017. – Б. 382.
12. Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик тизими. Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Тошкент, 2018. – Б. 16.
13. Назаров Қ. Фалсафа комусий луғат. Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 173–174.
14. Ҳамзаев Ҳ.Х. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини ўқувчиларда ижтимоий фаоллик кўникмаларини шакллантиришга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. (PhD). – Нукус, 2019. – Б. 27.



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

## MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*  
*Society, Gender and Family in Central Asia*

xalqaro ilmiy jurnali

*международный научный журнал*

*international academic journal*

**2022/4 (5)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*



**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,  
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 13.12.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.